



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



A.AVLONIY NOMIDAGI  
PEDAGOGIK MAHORAT  
MILLIY INSTITUTI

**“Fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning  
hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirish:  
muammo va yechimlar”**

**mavzusidagi Respublika  
ilmiy-amaliy konferensiya  
materiallari to‘plami**

TOSHKENT-2025

**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM VAZIRLIGI  
A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT  
MILLIY INSTITUTI**



**“FANLARNI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING  
HAYOTIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”  
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI**

**M A T E R I A L L A R I T O ‘ P L A M I**

**TOSHKENT-2025**

To'plamda 2025-yil 15-aprel kuni A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida bo'lib o'tgan "Fanlarni o'qitishda o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish: muammo va yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari o'rin olgan. Konferensiyada ta'lim muassasalarida o'qitish metodikasining dolzarb muammolari, fanlarni o'qitishda o'quvchilarning o'quv tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari, fanlarni o'qitish samaradorligini xalqaro baholash dasturilari (PIRLS, TIMSS, PISA) asosida oshirish, o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy o'quv jarayonini tashkil etish yo'llari, o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda loyihaga asoslangan ta'limni tashkil etish kabi sohalarda innovatsion yondashuvlar ilmiy va amaliy jihatdan muhokama etildi.

To'plam pedagogik mahorat milliy markazlari, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrlar hamda ushbu masalalarga qiziquvchi mutaxassislar va keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan.

Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi barcha ma'lumotlar, me'yoriy hujjatlar sanasining to'g'riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning shaxsan o'zlari mas'uldirlar.



## Abduvali Abdumalikovich Ismailov

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti rektori

### SO'Z BOSHI

Ma'lumki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim tizimining rivojiga bog'liq bo'lib, bu borada mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tadbirkor, tashabbuskor hamda ilmi shaxsni voyaga yetkazish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida zamonaviy bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj mavjudligi bois, ta'lim sifatini oshirishda o'quv jarayonini davr talablariga mos holda tashkil etish, davlat ta'lim standarti va talablari, o'quv dasturlarini takomillashtirish, yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish, zamonaviy innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, mavjud muammolarni bartaraf qilish ertangi istiqboldagi yutuqlarimiz kafolatidir.

Respublikamizda so'nggi yillarda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish maqsadida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyatning maktab ta'limiga bo'lgan talabini qamrab olish darajasini muntazam oshirib borish, maktab rahbarlarining boshqaruv salohiyatini rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son "Maktab-

gacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabr-dagi 681-son "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori va Davlat

dasturlarida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan hamda ta'lim to'g'risidagi bir qancha qonun va qonun osti hujjatlarining qabul qilinishi ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirdi. Umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarini boshqaruv faoliyatining asosiy vazifasi ta'lim jarayonini tashkil etishda ijobiy natijalarga erishish uchun jamoada zaruriy sharoitlarni yaratish, ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardosh bitiruvchilarni tayyorlash va yaxlit ta'lim tizimini rivojlantirishdan iborat hisoblanadi. Umumta'lim muassasasi

rahbarining boshqaruv kompetentligi – bu muammolarni hal qilish, ish jarayonlarini samarali tashkil etish, ta'lim muhiti va pedagogik jamoa bilan ishlashda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni qamrab olgan murakkab va ko'p qirrali salohiyatdir.

Maqsadimiz, umumta'lim muassasasi rahbarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini loyihalashtirishda aniq va samarali yondashuvlarni o'rganishdir.

Bundan tashqari, keyingi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan edi. Unda ta'lim sifatini oshirish, sohani ilg'or xorijiy tajriba asosida isloh qilish maqsadida joriy yilda qator muhim choralar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

"Umumiy o'rta ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish kerak. Har bir sinfda bolalarning nimalarni bilishi zarurligidan kelib chiqib, Davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalarini qayta ko'rib chiqish lozim. Darsliklarni eng zamonaviy metodikalar asosida yaratish va chop etish, maktablarda texnologiya, muxandislik fanlari, matematika, san'at, chet tillari yo'nalishlarini kuchaytirish, bu boradagi laboratoriyalarni qayta jihozlash talab etiladi. Maktabgacha ta'lim va oliy ta'lim tizimlari bilan uzviylikni ta'minlashga ham e'tibor berish kerak", deb ta'kidlaydi yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev.

*Eng asosiysi: Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yillar davomida amal qilib kelgan "davlat – jamiyat – inson" tamoyili "inson – jamiyat – davlat" tamoyiliga o'zgartirilmogda.*

Prezident Shavkat Mirziyoyev taqdim etgan Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasida belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar va eng muhim vazifalarning atroflicha tahlili shundan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

ko'magida o'tkazilayotgan mazkur anjumanni, hech shubhasiz, mamlakatimiz ta'lim sohasidagi muhim voqea.

**Konferensiyaning maqsadi:** Fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan usul va metodikalarni ishlab chiqish, o'qituvchilarda tadqiqotchilikka yo'naltirilgan loyiha ishlarini tashkil qilish ko'nikmalarini, o'quvchilarda loyiha ishlarini bajarish asosida tadqiqotchilik va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish, o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonlari samaradorligini oshirish, ta'lim va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va milliy metodikalarni ishlab chiqish, shuningdek, zamonaviy ta'limiy trendlar bilan integratsiyalash bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqot natijalarini

ommalashtirish, istiqbolli ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Konferensiyaga ta'lim muassasalarida o'qitish metodikasining dolzarb muammolari, fanlarni o'qitishda o'quvchilarning o'quv tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari, fanlarni o'qitish samaradorligini xalqaro baholash dasturlari (PIRLS, TIMMS, PISA) asosida oshirish, o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy o'quv jarayonini tashkil etish yo'llari, o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda loyihaga asoslangan ta'limni tashkil etish, ta'lim menejmentida zamonaviy yondashuvlar kabi sho'balarga 80 dan ortiq maqolalar kelib tushgan.

Mazkur Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini o'tkazish umumiy o'rta ta'lim sohasini rivojlantirishda an'anaga aylanib, muhim qadam bo'lib, fan va amaliyot o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga, mamlakatimizning turli hududlaridan kelgan yosh va tajribali olimlar o'rtasida yangi fikr-mulohazalar hamda tajriba almashinishiga xizmat qiladi, deb umid qilamiz. Bunday anjumanni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim sohasida innovatsion texnologiyalar va ilg'or g'oyalarni almashishdan iborat. Umid qilamizki, olingan natijalar barcha ishtirokchilar va birinchi navbatda, zamonaviy O'zbekiston ilm-fani uchun foydali bo'ladi va taklif etilgan tavsiyalar haqiqatda amaliy faoliyatda o'z tatbiqini topishiga ishonamiz.

**Федосенко Екатерина  
Владимировна**

*кандидат психологических наук, доцент кафедры русского языка  
Военно-инженерного института (инженерно-технического)  
Военной академии материально-технического обеспечения имени  
генерала армии А.В.Хрулева; проректор ЧОУ ВО  
«Балтийский Гуманитарный Институт», г. Санкт-Петербург, Россия*

## ТРАНСВЕРСАЛЬНЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО: КЛЮЧ К ЭФФЕКТИВНОСТИ В XXI ВЕКЕ

### Аннотация.

В статье рассматривается роль трансверсальных компетенций в профессиональном развитии учителя-филолога, в частности, учителя русского языка как иностранного в XXI веке с учетом стремительного развития цифровых технологий и глобализации. Представлена структура трансверсальных компетенций преподавателя русского как иностранного, включающая в себя коммуникативные, межкультурные, цифровые компетенции, креативность и инновационность, критическое мышление, сотрудничество и командная работа, самоуправление и самоорганизация. Предложены направления развития трансверсальных компетенций.

### Annotation.

This article examines the role of transversal competencies in the professional development of philology teachers, specifically teachers of Russian as a Foreign Language in the 21st century, considering the rapid development of digital technologies and globalization. A structure of transversal competencies for teachers of Russian as a Foreign Language is presented, including communication, intercultural, digital competencies, creativity and innovation, critical thinking, collaboration and teamwork, and self-management and self-organization. Directions for the development of transversal competencies are proposed.

### Annotatsiya.

Maqolada filolog-o'qituvchining, xususan, XXI asrda rus tilini chet til sifatida o'qituvchining professional rivojlanishida transversal kompetentsiyalarning roli, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va globallashuv hisobga olingan holda ko'rib chiqiladi. Rus tilini chet til sifatida o'qituvchining transversal kompetentsiyalari tarkibi taqdim etilgan bo'lib, u kommunikativ, madaniyatlararo, raqamli kompetentsiyalar, kreativlik va innovatsionlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va jamoada ishlash, o'z-o'zini boshqarish va o'zini tashkil etishni o'z ichiga oladi. Transversal kompetentsiyalarni rivojlantirish yo'nalishlari taklif etilgan.

### Ключевые слова:

трансверсальные компетенции, русский язык, русский как иностранный, профессиональное развитие учителя.

### Key words:

Transversal competencies, Russian language, Russian as a Foreign Language, teacher professional development.

### Kalit so'zlar:

transversal kompetentsiyalar, rus tili, rus tili chet tili sifatida, o'qituvchining professional rivojlanishi.

## ВВЕДЕНИЕ

Актуальность темы трансверсальных компетенций обусловлена несколькими ключевыми факторами, особенно в контексте современного образования и быстро меняющегося мира: изменение характера труда и требований к специалистам, глобализация и межкультурное взаимодействие, цифровая трансформация образования, необходимость lifelong learning (обучения на протяжении всей жизни), развитие soft skills и их значимость для успеха, а также социальная значимость развития трансверсальных компетенций, так как трансверсальные компетенции важны не только для профессионального успеха, но и для активного участия в жизни общества.

Как отмечает Н.А.Глузман [1], современный научно-педагогический дискурс активно внедряется категория «трансверсальные компетентности» в разных проекциях. Так, эволюцию понятия «трансверсальность» исследовала В.А. Кононова [2]; О.Н.Мухидова [3] обосновала сложность развития трансверсальных компетентностей будущего учителя О.В.Крежевских, Н.В.Ипполито-ва, Н.А.Каратаева, А.И.Михайлова [4] охарактеризовали специфические признаки категории «трансдисциплинарная компетентность будущих педагогов» на основе системно-педагогического подхода; И.В.Осипова проанализировала условия транспрофессиональной подготовки специалиста [1].

Трансверсальные компетенции играют особую роль в профессиональной деятельности преподавателя русского языка, поскольку они позволяют эффективно решать разнообразные задачи, связанные не только с лингвистическими и методическими аспектами преподавания, но и с межличностным взаимодействием, управлением учебным процессом и адаптацией к изменяющимся требованиям. Все эти компетенции вдвойне необходимы преподавателю русского как иностранного (РКИ) национальной школы в условиях частичной языковой среды.

### **1. Коммуникативные компетенции:**

*Эффективное общение на иностранном языке.* Учитель должен демонстрировать высокий уровень владения русским языком не только в академическом, но и в разговорном стиле, уметь адаптировать свою речь к уровню владения языком обучающихся и создавать комфортную коммуникативную среду.

*Межличностная коммуникация.* Умение устанавливать контакт с обучающимися разного возраста, пола, социального происхождения и культурного бэкграунда, создавать атмосферу доверия и сотрудничества.

*Невербальная коммуникация.* Использование мимики, жестов, интонации и других невербальных средств для поддержания интереса обучающихся и усиления воздействия учебного материала.

*Разрешение конфликтов.* Умение эффективно разрешать конфликты, возникающие в учебном процессе, как между обучающимися, так и между учителем и обучающимися.

*Навыки презентации.* Умение четко и структурированно представлять учебный материал, используя различные визуальные средства и технические приемы.

*Цифровая коммуникация.* Умение эффективно использовать цифровые инструменты и платформы для общения с обучающимися, родителями и коллегами.

## **2. Критическое мышление и другие профессиональные компетенции:**

*Анализ учебных материалов.* Умение критически (профессионально) оценивать учебные материалы (учебники, пособия, онлайн-ресурсы) и адаптировать их к потребностям обучающихся.

*Разработка учебных заданий.* Умение разрабатывать учебные задания, направленные на развитие критического мышления, креативности и проблемно-ориентированного подхода.

*Оценивание результатов обучения.* Умение объективно оценивать результаты обучения, используя различные методы и критерии, и предоставлять конструктивную обратную связь обучающимся.

*Решение педагогических проблем.* Умение находить эффективные решения педагогических проблем, возникающих в учебном процессе (например, снижение мотивации, трудности в усвоении материала, нарушение дисциплины).

*Адаптация к новым ситуациям.* Умение быстро адаптироваться к изменяющимся условиям, новым требованиям и вызовам, возникающим в образовательной среде.

## **3. Креативность и инновационность:**

*Разработка инновационных уроков.* Умение разрабатывать нестандартные и увлекательные уроки, используя различные методы и технологии обучения.

*Использование творческих подходов.* Умение использовать творческие подходы в обучении (например, игровые технологии, проектная деятельность, создание мультимедийных материалов), чтобы повысить интерес обучающихся к изучению иностранного языка.

*Создание стимулирующей учебной среды.* Умение создавать в

классе атмосферу творчества, экспериментирования и свободного обмена идеями.

*Разработка авторских учебных материалов.* Умение разрабатывать оригинальные учебные материалы (упражнения, тесты, игры, проекты), учитывающие особенности обучающихся и специфику русского языка.

*Интеграция искусства и культуры.* Умение интегрировать элементы искусства и культуры стран изучаемого языка в учебный процесс, чтобы сделать его более интересным и познавательным.

#### **4. Сотрудничество и командная работа:**

*Работа в команде с коллегами.* Умение эффективно сотрудничать с коллегами (учителями, методистами, администрацией) для достижения общих целей.

*Организация групповой работы.* Умение организовывать групповую работу на уроках, чтобы развивать навыки сотрудничества и коммуникации у обучающихся.

*Вовлечение родителей в учебный процесс.* Умение эффективно общаться с родителями обучающихся, информировать их о прогрессе и консультировать по вопросам обучения.

*Участие в профессиональных сообществах.* Активное участие в профессиональных сообществах учителей русского языка, обмен опытом с коллегами и совместное решение профессиональных проблем.

*Создание партнерских отношений с носителями языка.* Организация встреч и мероприятий с носителями языка для повышения мотивации обучающихся и улучшения их языковых навыков.

#### **5. Самоуправление и самоорганизация:**

*Планирование и организация времени.* Умение эффективно планировать свое время, расставлять приоритеты и выполнять поставленные задачи в срок.

*Самоанализ и рефлексия.* Умение анализировать свою педагогическую деятельность, выявлять сильные и слабые стороны и разрабатывать планы самосовершенствования.

*Управление стрессом.* Умение эффективно справляться со стрессом, вызванным высокой рабочей нагрузкой, сложными ситуациями в классе и другими факторами.

*Самотивация и самодисциплина.* Умение поддерживать высокий уровень мотивации и самодисциплины, несмотря на трудности и препятствия.

*Постоянное самообразование.* Стремление к постоянному

обновлению знаний и навыков, изучение новых методов и технологий обучения, участие в программах повышения квалификации.

#### **6. Информационная и цифровая грамотность:**

*Поиск и оценка информации.* Умение эффективно искать и оценивать информацию из различных источников (онлайн-ресурсы, научные статьи, методические пособия).

*Использование цифровых инструментов.* Умение эффективно использовать различные цифровые инструменты и платформы для создания учебных материалов, организации онлайн-уроков и общения с обучающимися.

*Создание цифрового контента.* Умение создавать мультимедийные презентации, интерактивные упражнения, онлайн-тесты и другие цифровые учебные материалы.

*Обеспечение безопасности в интернете.* Умение защищать себя и своих учеников от опасностей, связанных с использованием интернета (кибербуллинг, нежелательный контент).

*Соблюдение авторских прав.* Умение соблюдать авторские права при использовании чужих материалов в учебном процессе.

#### **7. Межкультурная компетентность:**

*Понимание культурных различий.* Умение понимать и уважать культурные различия, избегать стереотипов и предрассудков.

*Развитие межкультурной коммуникации.* Умение развивать у обучающихся навыки межкультурной коммуникации, чтобы они могли эффективно взаимодействовать с людьми из других культур.

*Интеграция культурных аспектов.* Умение интегрировать культурные аспекты стран изучаемого языка в учебный процесс, чтобы сделать его более интересным и познавательным.

*Организация культурных обменов.* Умение организовывать культурные обмены и проекты с участием обучающихся из разных стран.

*Формирование толерантности.* Умение формировать у обучающихся толерантное отношение к другим культурам и взглядам.

#### **Развитие трансверсальных компетенций**

Развитие трансверсальных компетенций учителя русского языка как иностранного языка – это непрерывный процесс, требующий самоанализа, само-образования и активного участия в профессиональной деятельности. Существуют различные способы развития этих компетенций:

- Участие в тренингах и семинарах. Посещение тренингов и семинаров, посвященных развитию коммуникативных навыков, критического мышления, креативности и других трансверсальных

компетенций.

- Чтение профессиональной литературы. Изучение книг и статей, посвященных методике преподавания иностранных языков, психологии обучения и развитию профессиональных навыков.

- Обмен опытом с кол-легами. Общение с коллегами, участие в профессиональных сообществах и совместное решение педагогических проблем.

- Самоанализ и реф-лексия. Регулярный самоанализ своей педагогической деятельности, выявление сильных и слабых сторон и разработка планов самосовершенствования.

- Использование цифровых инструментов. Активное использование цифровых инструментов и платформ для обучения, общения и саморазвития.

- Участие в международных проектах. Участие в международных проектах и программах обмена, позволяющих познакомиться с опытом преподавания иностранных языков в других странах.

**В заключение** необходимо отметить, что трансверсальные компетенции являются неотъемлемой частью профессиональной компетентности современного учителя русского языка и учителя любого иностранного языка. Развитие этих компетенций позволяет учителю эффективно решать разнообразные задачи, создавать стимулирующую учебную среду, устанавливать контакт с обучающимися и коллегами, а также адаптироваться к изменяющимся требованиям образовательной среды. Инвестиции в развитие трансверсальных компетенций учителей-лингвистов являются важным фактором повышения качества языкового образования и подготовки будущих поколений к жизни и работе в глобальном мире.

### **Библиографический список:**

---

1. Глузман Н.А. Экспериментальная программа формирования трансверсальных компетентностей будущих учителей // МНКО. 2024. №6 (109). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/eksperimentalnaya-programma-formirovaniya-transversalnyh-kompetentnostey-buduschih-uchiteley> (дата обращения: 02.02.2025).

2. Кононова В.А. Трансверсальность: эволюция термина через призму корпусов и других контекстов. Вестник Пермского университета. Российская и зарубежная филология. 2020; № 2: 34–42.

3. Мухидова О.Н. Значение трансверсальных компетенций в подготовке будущих учителей. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования: материалы Международной научно-практической конференции. 2023: 242–248.

4. Крежевских О.В., Ипполитова Н.В., Каратаева Н.А., Михайлова А.И. Формирование трансдисциплинарной компетентности будущих педагогов: системно-педагогический подход. Профессиональное образование и рынок труда. 2021; № 2: 126–13.

## MILLIY O'QUV DASTURINI AMALIYOTGA JORIY ETISH – TA'LIMDA SIFAT VA SAMARADORLIK GAROVI

### Annotatsiya.

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematikadan milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning ilmiy-metodik asoslari haqida mulohazalar shuningdek, Respublika ta'lim inspeksiyasi tomonidan milliy o'quv dasturi loyihasi muhokamasi haqida so'z yurutamiz.

### Аннотация.

В статье мы обсуждаем научно-методические основы реализации национальной учебной программы по математике в начальной школе, а также обсуждение проекта национальной учебной программы Республиканской инспекцией образования.

### Annotation.

In this article, we discuss the scientific and methodological foundations for the implementation of the national curriculum in mathematics in primary school, as well as the discussion of the draft national curriculum by the Republican Inspectorate of Education.

### Kalit so'zlar:

mulohaza, texnologiya, maqsad vazifa, o'quv dasturi, ta'lim standarti, boshlang'ich ta'lim, matematika, bilim va ko'nikma.

### Ключевые слова:

обратная связь, технология, цели, учебная программа, образовательные стандарты, начальное образование, математика, знания и навыки.

### Key words:

feedback, technology, goals, curriculum, educational standards, primary education, mathematics, knowledge and skills.

## KIRISH

Matematika olamni, dunyoni bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofimizdagi voqea va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda juda katta ahamiyatga egaki, matematik bilimlarsiz ishlab chiqarish va fanning rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham *matematik madaniyat* – umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Matematika fanini o'qitishdan ko'zlangan zamonaviy maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

- jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

Matematika fani o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish quyidagi

yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

Matematika fani o'qituvchilarining fan bo'yicha bilim, ko'nikma va mahoratini uzluksiz yangilab borish, zamonaviy talablarga muvofiq ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni an'anaviy va masofaviy shakllardan foydalanib oshirishga sharoit yaratish;

o'qituvchilarda mustaqil fikrlash, ilmiy tadqiqot va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning pedagogik nufuzini oshirish va kompetentligini rivojlantirib borish;

o'qituvchining shaxsiy va kasbiy axborot maydonini yaratish ko'nikmalarini shakllantirish, ularning o'z pedagogik faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, onlayn va oflayn, video va televizion darslarni tayyorlash va o'tkazish ko'nikmalarini zamon talabidan kelib chiqib takomillashtirib borish;

dars jarayonida ilg'or ta'lim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasidan foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlash. Matematika fanini o'qitishdan ko'zlangan zamonaviy maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

- jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

- milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa ta'lim tizimiga, jumladan, matematikani o'rgatish bo'yicha ham xalqaro tajriba va andozalarni joriy etish orqali ta'minlanadi.

Bundan ta'lim bo'yicha qator xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari ham dalolat bermoqda. Shu o'rinda, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning 15 yoshli o'quvchilarning ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini baholashga qaratilgan PISA – o'quvchilar yutuqlarini baholash xalqaro dasturi tadqiqotlari natijalari e'tiborga molik. Bundan tashqari, ta'limiy yutuqlarni baholash xalqaro uyushmasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan TIMSS – matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining xalqaro monitoringi dasturini ham keltirish mumkin. Ushbu tadqiqot o'quvchilarning turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasi va sifatini solishtirishga hamda milliy ta'lim tizimidagi

farqlarni aniqlashga ko'maklashadi.

Tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda matematika fanini o'qitishga xalqaro baholash dasturlarining mazmuni, baholash me'zonlari va mexanizmlari mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda joriy etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

STEAM (S – science - tabiiy fanlar T – technology - texnologiya, E – engineering - muhandislik, A – art - san'at, M – mathematics - matematika) ta'lim texnologiyasi aniq fanlar blok-modulida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan. **Matematik mazmun standartlari (bilim va ko'nikmalar)**. Qisqacha tavsifi: asosiy matematik tushunchalar va munosabatlar mohiyatini tushunish va ulardan tipik o'quv topshiriqlarini bajarishda foydalanish.

Ushbu standartlar o'quvchilar matematikani o'rganish orqali nimani tushunishi va nimalarni bajarishga qodir bo'lish kerakligini belgilab beradi. Matematikada tushunishning o'ziga xos belgilaridan biri – bu o'quvchining matematik o'zlashtirish darajasidan kelib chiqqan holda muayyan matematik ifodaning to'g'ri, noto'g'ri ekani yoki muayyan matematik qoidaning qayerdan kelib chiqishini asoslab berish qobiliyatidir. Matematik tushuncha mohiyatini tushunish va tipik amallarni bajarish ko'nikmasi bir xilda muhim bo'lib, ular muayyan murakkablik darajasidagi standart topshiriqlar yordamida baholanadi.

Matematik amaliyot standartlari kompetensiyalarning qisqacha tavsifi: o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalarni yechishda va notanish vaziyatlarda qo'llay olish (kompetensiyalar).

Mazkur standartlar ham umumlashgan mazmundagi amaliy tatbiq standartlaridan iborat bo'lib, ular o'quvchilarning quyidagi aqliy faoliyati sohalarini qamrab oladi (kelgusida ishlatish qulay bo'lsin uchun aqliy faoliyat sohalari, mos ravishda M1, M2, M3, M4 va M5 bilan kodlanadi):

- **Mulohaza yuritish (M1)**; matematikaga oid fikrni asoslash, isbotlash yoki o'zgalar fikriga munosabat bildirish uchun mantiqan asosli va tushunarli dalillarni keltirish;

- **Modellashtirish (M2)**: o'quv va hayotiy muammolarni matematika tilida ifodalash, ularning matematik modelini qurish;

- **Muammoni yechish (M3)**: matematikani qo'llab muammoni hal qilish;

- **Muloqot qilish (M4)**: matematik tushuncha, belgi va timsollar asosida matematika tilida o'zaro muloqot qilish;

- **Ma'lumotlar bilan ishlash (M5)**: ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va turli shakllarda tasvirlash. Matematik amaliyot standartlari har bir sinf

kesimida mazmun standartlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, tegishli mazmun standartlarida o'z aksini topgan. Amaliyot standartlari mazmun standartlarining mazmuniga mos bo'lgan, tegishli yosh fiziologik imkoniyatlari va aqliy faoliyat sohalaridan kelib chiqib singdirilgan. a) bir necha turdagi ma'lumotlarni taqdim etish uchun masshtabi berilgan chiziqli va ustunli diagrammalarni yasash. Diagrammada keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, "qancha ko'p?" va "qancha kam?" ko'rinishidagi bir va ikki qadamli masalalarni yechish. Masalan, diagramma chizsak, undagi har bir kvadrat 5 ta uy hayvonini ifodalashi mumkin. b) bir o'lchov birligining yarmi va to'rttdan biri belgilangan chizg'ich yordamida uzunliklarni o'lchab ma'lumotlar qatorini hosil qilish. Gorizontallikda tegishli birliklarda – nomanfiy butun sonlar, yarimlar yoki choraklarda belgilab chiqilgan bo'lsa, diagramma yasash orqali ma'lumotlarni tasvirlash. d) sodda kombinatorika (to'plam elementlarini muayyan qoida asosida saralash imkoniyatlar sonini aniqlash)ga doir masalalarni yechish. Matematika fani bo'yicha milliy ta'lim standartlarini yaratishga yondashuv tizimli, yani muayyan tizimga solingan bo'lib, u "Al-jabr" deb nomlanadi. Bu nomda o'ziga xos "tiklanish" ma'nosi mujassamlangan.

Standartlar ta'limning boshlang'ich davridanoq barcha o'quvchilarni imkon qadar keng qamrab olib, ularning o'qish jarayonida to'liq ishtirok etishi uchun imkoniyat va ta'lim sohasida maxsus ehtiyojlarga ega bo'lgan o'quvchilarning maksimal darajadagi ishtirokini ta'minlash uchun tegishli sharoitlarni yaratib berishi lozim.

Matematika o'qitish metodikasi – eksperimental fan. Mavzularning kerak-kerakmasligi, ularni o'qitish metodikalarining samaradorligi yoki samarasizligi va boshqa jihatlari (jumladan, o'quvchining yosh-psixologik xususiyatlari, o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi, moddiy-texnika baza) haqida xulosalar pedagogik tajriba asosida chiqarilishi lozim. Bunda umume'tirof etilgan xorijiy tajribalar alohida o'rin tutadi.

Hozirgi kunda mansabdor shaxslar, o'qituvchilar, ota-onalar, turli lavozimlarda faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar tomonidan matematikaga yangi mavzular kiritilganligini tanqid qilinmoqda va uni "osonlashtirish talablari" qo'yilmoqda.

Biz bu savolga qisman oydinlik kiritishga harakat qilamiz.

Avvalambor, yaqin tarixga bir nazar tashlaylik.

**2016 yil....** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 9-fevraldagi PQ-2487-son Qarori bilan «Sog'lom ona va bola yili» Davlat Dasturi tasdiqlandi.

Dasturning 62-tadbirida yangi ta'lim standartlarini, o'quv dasturlarini va rejalarini, eng avvalo, darsliklar va multimediyali ilovalarni ishlab chiqishda ko'maklashish uchun Germaniya, Singapur, Koreya Respublikasi va Yaponiyadan yetakchi o'quv markazlarini, o'qitishning tegishli

sohalaridagi xalqaro ekspertlar va mutaxassislarni jalb etish tadbirlari belgilangan edi.

**2017 yil....** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori chiqdi.

2017-yili matematika fanidan standart hamda o'quv dasturini ishlab chiqishda yuqorida qayd etilgan Germaniya, Singapur, Koreya Respublikasi va Yaponiya kabi davlatlar standartlaridan tashqari umume'tirof etilgan halqaro baholash dasturlari ramkalari va metodologiyasi ozmi-ko'pmi, hisobga olindi:

1) Yevropa Kengashining "Uzluksiz ta'lim uchun tayanch kompetensiyalar – umumyevropa standartlari strukturasi" to'g'risidagi hujjati («Key competences for lifelong learning – a European Reference Framework») [1]

2) Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD)) Xalqaro o'quvchilarni baholash Dasturi (Programme for International Student Assessment (PISA)) ramkalari [2].

3) Ta'lim natijalarini baholash bo'yicha Xalqaro Assotsiatsiyasining (International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA)) Xalqaro matematika va aniq va tabiiy fanlarning tendensiyalarini o'rganish markazi (Trends in international mathematics and science study Center (TIMSS)) ramkalari ham inobatga olindi.

2017-yildagi kompetensiyalarga asoslangan ta'lim standarti ishlab chiqishda nafaqat yuqorida qayd etilgan halqaro tajribalari, balkim undan oldin Xalq ta'limi vazirligining buyrug'i o'tkazilgan milliy tajriba natijalari asos qilib olingan.

Aytish joizki, 2017-yilgacha umumiy o'rta ta'lim tizimi Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlaridagi mavzulari uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash tizimi faqat ta'lim tizimini muvofiqlashtirish fragmentar tarzda takrorlamasdan amalga oshirilgan. Yangi dastur tuzilganda, butun dunyoda qo'llaniladigan o'qitishning spiralsimon modeliga ozmi-ko'pmi rioya qilingan va qilinadi. Shuning uchun "mavzular uzviyligi ta'minlanmagan, mavzular takrorlanmoqda" kabi e'tirozlar shu zamonaviy model bilan mutanosib emasligini qayd etamiz.

**2018-yil....** Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori chiqdi.

Unga muvofiq Xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda matematikadan davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlari mazmuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Bunda davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini ilg'or

xorijiy davlatlar bilan qiyoslash orqali o'rganib chiqildi. Qarorda ilg'or xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlari mazmuniga bosqichma-bosqich o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, umumiy o'rta ta'lim tizimida matematikani o'rganish bo'yicha qo'llaniladigan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni yaratish va modernizatsiya qilish bo'yicha xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda mualliflar guruhlarini shakllantirib, xalqaro baholash dasturlari asosida matematikani o'rganish bo'yicha qo'llaniladigan darsliklar va o'quv-metodik majmualar yaratilishi belgilangan.

**2020-yil...** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 2-mart kuni "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni imzolangan. Bu Farmonda umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish vazifasi belgilanib, **maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish** mexanizmini yaratish vazifasi qayd etilgan.

#### **TIMSS TADQIQOTI (boshlang'ich sinflar)**

Oddiy va o'nli kasrlar.

1. Kasrni butunning qismi, ulushi sifatida bilish yoki son o'qidagi (koordinata son o'qidagi ) nuqta sifatida tanib olish, kasrni so'zlar, sonlar yoki modellar yordamida ifodalash.

2. O'zaro teng (ekvivalent) bo'lgan oddiy kasrlarni aniqlash; oddiy kasrlarni taqqoslash va tartiblash; sodda xolatlarda oddiy kasrlarni qo'shish va ayirish, jumladan, turli mahrajli

3. O'nli kasr yozuvini bilish, jumladan so'zlar, sonlar yoki modellar yordamida o'nli kasrlarni ifodalash; o'nli kasrlarni taqqoslash, tartiblash va chamalash.

Matematik ta'limga kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi malakalarni o'quvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta'limning asosini amaliy, tatbiqiy yo'nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi.

O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, kichik o'quv tadqiqotlarni bajarish orqali umumta'lim fanlarini o'rganishga qiziqishni kuchaytirish maqsadida fan o'quv dasturlariga amaliy mashq va tatbiq hamda loyiha ishi kiritildi. Bu holat nafaqat muayyan o'quv fani bo'yicha o'zlashtirish sifatini yaxshilaydi, balki fanlararo va fanning kundalik turmush bilan bog'lanish imkoniyatlarini ochadi va ta'lim samaradorligini

oshiradi.

Matematika darslarini tashkil qilishda nazariyadan ko'ra ko'proq amaliyotga e'tibor berish hamda o'quvchilarga tayyor o'quv materiallarini berishga asoslangan yondashuvdan ma'lum darajada voz kechish talab qilinadi. Matematika darslarida ko'proq keys, tadqiqot, loyiha, kichik o'quv kashfiyotlari kabi interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchilarda kichik tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tajriba, o'lchashlar, analiz (tahlil) va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiya kabi ilmiy izlanish metodlaridan o'rnida foydalanish talab etiladi. O'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shunchaki shakllantirib qolmasdan, ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyalarini ham tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to'g'risida. Uzbekiston Respublikasi prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori.
2. Djumayev M.I. The development of mathematical abilities in younger students. Science And Innovation International Scientific Journal Volume 2 Issue 1 January 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz/ 424-434.
3. Djumayev M.I. The transformation of the english language's variants in contemporary great Britain. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 Issue 4 April 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz 19-27 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7818607>.
4. Djumayev M.I. Some Considerations of Teaching Mathematics Inuzbek Primary School. Journal of Mathematical & Computer Applications. SRC/JMCA-123. *J Mathe & Comp Appli, 2023 Volume 2(2): 1-5* ISSN: 2754-6705
5. Джумаев М.И. Перспективы совершенствования преподавания математики в школе, колледже и вузе Республики Узбекистан. Ямало.Нанецк Россия «ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ АРКТИЧЕСКИХ РЕГИОНОВ» № 1, МАРТ, 2023. № 6(147) 3-6 ст <https://arctic-journal.ru/index.php/prof>.
6. Djumayev M.I. Some Considerations of Teaching Mathematics Inuzbek Primary School. Journal of Mathematical & Computer Applications. Received: March 28, 2023; Accepted: April 03, 2023, Published: April 22, 2023 ISSN: 2754-6705 1-5
7. Джумаев М.И. Формирование элементарных математических представлений у детей в дошкольном возрасте с использованием и без наглядных материалов. Глобальный научный потенциал», ИД ТМБпринт, СПб. № 6 (147) 2023 г. <http://globaljournals.ru/>
8. Djumayev M.I. METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF THE STUDENT'S INDEPENDENT WORK FORM UNDER THE SUPERVISING OF THE TEACHER IN PROCESS OF MODERN EDUCATION Musaeva Nargiza Khashimjanovna Master's student of Tashkent state pedagogical university's student of Tashkent state pedagogical university <https://doi.org/10.5281/zenodo.7772930>
9. Djumayev M.I. Matematika o'qitishda kombinatorika masalalarini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari. Fizika, matematika, informatika jurnali. 2023-yil 2/1 son. 19-27 [scientists.uz/co\\_view.php?id=637](https://scientists.uz/co_view.php?id=637)
10. Djumayev M.I. Matematika o'qitishda milliy o'quv dasurining uzviyligi va uzluksizligining o'ziga xos xususiyatlari. МУҒАЛЛИМ ҲЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ. Илимий-методикалық журнал. Нөки ISSN 2181-7138 2023 1-сан 314-324 бет [researchgate.net publication/ 352814726...](https://www.researchgate.net/publication/352814726...) oem...ilimimber 2006 "On key competences for lifelong learning" (2006/962/EC)
11. PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science), OECD, 2012
12. Timss 2015 Assessment Frameworks, IEA, 2015.
13. PISA 2021 Mathematics Framework (draft), OECD, 2018

## PEDAGOGLARNING MAHORATINI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA SUN'YI INTELEKTNING IJOBIIY VA SALBIY JIHLTLARI

### Annotatsiya.

Mazkur maqolada pedagogik faoliyatda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilinadi. XXI asrda ta'lim tizimi tubdan o'zgarib, raqamlashtirish, sun'iy intellekt va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi pedagogik yondashuvlarga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqola zamonaviy texnologiyalar ta'sirida pedagogik muloqot, interaktivlik va kommunikatsiya sifatining qanday o'zgarishini tahlil qiladi.

### Аннотация.

В статье анализируются положительные и отрицательные стороны технологий искусственного интеллекта в формировании коммуникативных навыков в педагогической деятельности. В XXI веке система образования кардинально изменилась, а стремительное развитие цифровизации, искусственного интеллекта и информационных технологий влияет и на педагогические подходы. В статье анализируется, как под влиянием современных технологий меняются педагогический диалог, интерактивность и качество общения.

### Annotation.

The article analyzes the positive and negative aspects of artificial intelligence technologies in the formation of communication skills in pedagogical activity. In the 21st century, the education system has changed dramatically, and the rapid development of digitalization, artificial intelligence and information technology affects pedagogical approaches. The article analyzes how pedagogical dialogue, interactivity and quality of communication are changing under the influence of modern technologies.

### Kalit so'zlar:

sun'iy intellekt, kommunikativ ko'nikmalar, pedagog, ta'lim texnologiyalari, raqamli kompetensiya.

### Ключевые слова:

искусственный интеллект, коммуникативные навыки, учитель, образовательные технологии, цифровая компетентность.

### Key words:

artificial intelligence, communication skills, teacher, educational technologies, digital competence.

## KIRISH

Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari hayotimizning deyarli barcha jabhalariga kirib kelmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimida bu jarayon sezilarli darajada tezlashdi. O'quv jarayonini raqamlashtirish, sun'iy intellekt asosida ishlovchi platformalar yordamida ta'lim sifati oshirilmoqda. Pedagoglar uchun esa bu yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, ayniqsa, kommunikativ ko'nikmalarni yangi sharoitda takomillashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

BMT va UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "AI in Education" dasturlarida ko'rsatilishicha, sun'iy intellekt o'qitish usullarini zamonaviylashtirish, ta'lim muhitini moslashtirish va o'quvchilarning ehtiyojlariga qarab individual dasturlar tuzish imkonini beradi [1].

**Nazariy asoslar.** Kommunikativ ko'nikmalar ta'limda pedagogik mahoratning ajralmas qismi hisoblanadi. Vygotskiy, Leontyev, Bruner

singari psixolog va pedagoglar tomonidan shakllangan nazariyalarda kommunikatsiya o'quv jarayonining markaziy komponenti sifatida e'tirof etilgan. Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasiga ko'ra, inson tafakkuri ijtimoiy muloqot orqali rivojlanadi [2]. Demak, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqa ta'limning asosidir. Sun'iy intellekt esa ushbu aloqa jarayonini yangicha shakllantirish imkonini beradi, biroq nazariy jihatdan bu muloqot "inson-inson" shaklidan "inson-texnologiya" modeliga o'tmoqda. Kognitiv psixologiya nazariyalarida esa sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarni individual tarzda kuzatish, ularning tafakkur jarayonini baholash va turli turdagi bilimlarni samarali uzatish haqida so'z yuritiladi. Shunday ekan, nazariy asoslar AI texnologiyalarini insoniy omil bilan uyg'unlashtirish tarafdori bo'lib chiqadi.

**Amaliy asoslar.** Amaliy jihatdan sun'iy intellekt texnologiyalari ta'limda keng ko'lamda qo'llanilmoqda:

- **Virtual yordamchilar:** AI asosidagi platformalar orqali o'quvchilar kunning istalgan vaqtida savol berib, javob oladilar. Masalan, "Khan Academy" va "Duolingo" kabi ilovalarda bu imkoniyatlar keng.

- **Onlayn baholash tizimlari:** Sun'iy intellekt test natijalarini avtomatik tarzda tahlil qilib, individual taqrizlar tayyorlaydi. Bu esa o'qituvchiga vaqt tejash imkonini beradi.

- **Simulyatsiya va AR/VR texnologiyalari:** Sun'iy intellektga asoslangan bu texnologiyalar yordamida pedagoglar amaliy mashg'ulotlarni real hayotga yaqin tarzda o'rgata olishadi. Bu esa, ayniqsa, tibbiyot, muhandislik va pedagogika sohalarida juda samarali.

- **Pedagoglar uchun treninglar:** Ko'plab xalqaro tashkilotlar (masalan, UNESCO, British Council) tomonidan AI texnologiyalarini o'rgatish bo'yicha onlayn kurslar ishlab chiqilgan. Bu orqali pedagoglar doimiy ravishda malakasini oshirishi mumkin.

Sun'iy intellekt yordamida tashkil etilgan interaktiv darslar, "flipped classroom" (teskari sinf), "blended learning" (aralash ta'lim) kabi metodlar pedagogik faoliyatga innovatsion yondashuvlar kiritmoqda. Bu esa o'qituvchilardan kommunikativ ko'nikmalarning yangicha formatini talab qiladi.

**Sun'iy intellekt va ta'limdagi yangi imkoniyatlar.** Sun'iy intellekt o'qitish va o'rganish jarayonini avtomatlashtirish, individual yondashuvni ta'minlash, o'quvchilarning yutuqlari va muammolarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi [3]. Masalan, AI yordamida ishlovchi platformalar orqali o'quvchilarning qiziqishiga mos topshiriqlar avtomatik ravishda tanlanadi. Bu esa ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga olib keladi. AI vositalari yordamida o'qituvchi darsni yanada interaktiv formatda tashkil eta oladi. Vizual va audio materiallardan foydalanish orqali o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish, ularni faollashtirish imkoniyati ortadi.

**Pedagoglar uchun kommunikativ ko'nikmalarning o'zgarishi.** AI texnologiyalarining joriy etilishi natijasida pedagogik muloqot shakli va uslubi ham o'zgarishga yuz tutdi. Endilikda o'qituvchilar nafaqat dars beruvchi, balki raqamli kommunikator, texnologik vositalardan foydalanuvchi mutaxassis sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa ularning og'zaki, yozma va vizual muloqot ko'nikmalarini kengaytirishni talab qiladi.

Masalan, AI chatbotlar yordamida o'quvchilar bilan 24/7 aloqa o'rnatish, elektron portallar orqali teskari aloqa berish, video darslarni tayyorlash va ularni ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish pedagogik kommunikatsiyaning yangi yo'nalishlariga kiradi.

**Sun'iy intellektning ijobiy jihatlari:**

- O'qituvchilarning vaqtini tejaydi va yuklamasini kamaytiradi.
- O'quvchilarga individual yondashuvni kuchaytiradi.
- O'quvchilarning mustaqil o'rganish salohiyatini oshiradi.
- Feedback (aloqa) tizimi tez va samarali ishlaydi (Karimov, 2020).
- Moslashuvchan o'quv rejaları va platformalarning mavjudligi.
- Ta'lim muhitining doimiy monitoringi va tahlili.

**Salbiy jihatlari:**

- Jonli muloqotning kamayishi.
- Pedagog va o'quvchi o'rtasidagi hissiy aloqa zaiflashadi.
- Texnik nosozliklar tufayli ta'lim jarayoni buzilishi mumkin.
- Har doim ham axborotning ishonchligi kafolatlanmaydi (Norqulova, 2023).
- O'quvchilarni sun'iy algoritmlarga bog'lab qo'yish xavfi.
- Pedagogik intuitsiya va empatiya yo'qolishi mumkin.

**Sun'iy intellektning ijobiy va salbiy jihatlari (jadval shaklida)**

Ijobiy jihatlari	Salbiy jihatlari
O'qituvchi yuklamasini kamaytiradi, vaqtni tejaydi	Jonli muloqotning kamayishi
O'quvchilar bilan individual ishlash imkonini yaratadi	Pedagog va o'quvchi o'rtasidagi hissiy aloqa zaiflashadi
Talabalar o'z tempida mustaqil o'rganishlari mumkin	Texnik nosozliklar ta'lim jarayonini to'xtatib qo'yishi mumkin
Feedback tizimi samarali ishlaydi, tezkor axborot almashish imkoniyati mavjud	Sun'iy algoritmlarga haddan tashqari bog'lanish xavfi
Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi	O'qituvchining intuitiv qarorlari va empatiya elementlari kamayishi mumkin

This article discusses the main approaches and principles for teaching the oral communication culture of the Uzbek language to learners of other languages. The history of speech culture and its role in the current education system are analyzed in the article. The article emphasizes the importance of applying modern pedagogical technologies in teaching Uzbek as a second language, as well as the significance of teaching the spiritual heritage of our ancestors.

### Kalit so'zlar:

o'zbek tili, nutq madaniyati, muloqot madaniyati, ta'lim, pedagogik texnologiyalar, yondashuvlar, tamoyillar, ikkinchi til, kommunikativ yondashuv, kompetensiya, faoliyatga asoslanganlik, metodlar.

### Ключевые слова:

узбекский язык, культура речи, культура общения, образование, педагогические технологии, подходы, принципы, второй язык, коммуникативный подход, компетенция, основанный на деятельности, методы.

### Key words:

uzbek language, speech culture, communication culture, education, pedagogical technologies, approaches, principles, second language, communicative approach, competence, activity-based, methods.

## KIRISH

Nutq madaniyati muammosi insoniyat sivilizatsiyasining barcha bosqichlarida katta ahamiyat kasb etgan bo'lib, u ta'limot sifatida qadimgi Rim va Afinada shakllangan. Gap shundaki, u paytlarda davlat arboblarning obro'-e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notiqlik mahoratiga bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati bilan shug'ullanish o'ziga xos mavqega ega bo'lgan. Xususan, Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" "(Ardam bashi til)" "Odob va fazilatlarining boshi tildir"), Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy asarlarida nutq madaniyati haqida ma'lumotlar mavjud. U paytlar "nutq madaniyati" termini ishlatilmagan bo'lsa-da, sodda va o'rinli gapirish, qisqa mazmunli so'zlash, ezmalik va laqmalikni qoralash, keksalar va ustozlar oldida gapirganda odob saqlash, to'g'ri, rost, dadil gapirish, yolg'onchilikni qoralash haqida ko'rsatmalar

mavjud.

Bugungi kunga kelib ham o'quvchilarga nutqiy muloqot madaniyatini o'rgatish ta'lim-tarbiya sohasining dolzarb muammolaridan biridir. Ta'lim o'zga tillarda olib boriladigan maktablarning o'zbek tili darslarida o'quvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida ajdodlarimizning ma'naviy merosini, sharqona nutqiy muloqot madaniyatini o'rgatish, ta'lim mazmunini takomillashtirish, o'ziga xos metod va usullarini, mashqlar tizimini ishlab chiqish zarur. Buning uchun birinchi navbatda muayyan yondashuv va tamoyillarni aniq qilib belgilab olish lozim. Ikkinchi tilni o'qitish metodikasiga, shuningdek, o'zbek tilini davlat tili sifatida o'qitish metodikasiga doir tadqiqot ishlarida, monografiyalar va metodik qo'llanmalarda har bir muallif o'zi izlanayotgan mavzu doirasida ishni umumpedagogik va xususiy metodik yondashuv va tamoyillarni keltirgan. Masalan, I.L.Bim, M.Ya.Demyanenko va boshqa xorijlik metodist olimlarning asarlari, o'zbek metodist olimlaridan R.Yo'ldoshev, X.Muxiddinova, F.Umarovalarning tadqiqot ishlari, monografiyalari, metodik qo'llanmalari va ilmiy maqolalarini ko'rsatish mumkin [1].

Nutqiy muloqot madaniyati deganda, odamlarning o'zbek xalqining uzoq tarixiy taraqqiyot davri davomida shakllangan muomala odobi qoidalariga rioya qilib, ijtimoiy shart-sharoit, ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqib, shuningdek, shaxsning o'zligini va o'zgalarning (suhbatdoshlarning) shaxsini, ruhiyatini, jamiyatda tutgan mavqeini anglash asosida, nutqning kommunikativligiga e'tibor bergan holda muloqotda ishtirok etishi tushuniladi [2].

Nutqiy muloqot madaniyati tushunchasi muloqot, nutqiy muloqot, og'zaki nutqiy muloqot madaniyati, muloqot madaniyati, muomala odobi (nutqiy etiket) tushunchalarining jamlanmasi sanaladi. Ushbu tushunchalar real holatda muloqotning amalga oshishini belgilab beruvchi omillar bo'la oladi, ularga ishora qila oladi.

Til ta'limida o'qitishning maxsus yo'nalishi **tamoyil yoki yondashuv** deb ataladi. Muayyan yondashuv va tamoyillarni tanlash uchun ta'lim mazmunini ifoda etadigan qoidalarni, til hodisalarining tabiatini nazarda tutish kerak. Jahon metodist olimlari quyidagilarni umumiy yondashuv sifatida e'tirof etishadi: kommunikativ yondashuv, faoliyatga asoslanganlik yondashuvi, o'qish orqali yondashuv, axborot texnologiyalari asosidagi yondashuv, jamoaga asoslangan yondashuv, induktiv-ongli yondashuv, funksional yondashuv, amaliy yondashuv, modulli yondashuv, deduktiv-ongli yondashuv va boshqalar.

Bugungi kunda til o'rganishda asosan nutq, muloqot qilish, kommunikatsiya masalalari yetakchi o'rinda turgani uchun til ta'limi tamoyillarini belgilashda ko'proq shu jihatga ustuvor ahamiyat beriladi.

Jumladan, til ta'limida muloqot yuritishga o'rgatishda qo'llanib kelayotgan eng faol tamoyillar sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

**1. Transformatsiyalash tamoyili.** Amerika tilshunos olimlari Z.Xarris, F.French, N.Xomskiylar ushbu tamoyil orqali har bir tilda mavjud bo'ladigan bazis qoliplarni tanlab olish va ularni transformatsiyalash asosida fikr ifodalashga o'rganishni ilgari suradilar. Xususan, ular ingliz tilini o'rganish bo'yicha F.French tomonidan tavsiya etilgan 7 ta bazis modelini kengaytirish, ixchamlashtirish, bir-biriga qo'shish, ya'ni transformatsiyalash asosida o'quvchilarni nutqiy muloqot yuritishga olib chiqish tavsiya etiladi.

**2. Funktsional tuzilish tamoyili.** Ushbu tamoyil asosida mazmundan uning ifoda shakllariga o'tish g'oyasi yotgan bo'lib, muayyan vaziyatdagi fikrni ifodalashning turli shakllarini ko'rsatish uchun nutqiy modellarni o'rganish zarurligi ilgari suriladi. Ushbu tamoyilning asoschilaridan bo'lgan I.L.Bim nutqiy modellarni nutqiy-kommunikativ maqsadlardan kelib chiqib umumlashtirishni va tilning amaliy qo'llanishini namunaviy tarzda ko'rsatib borishni taklif etadi.

**3. Ideografik grammatika yo'nalishi.** Rus tilshunosligida 80-yillarda yuzaga kelgan ushbu yo'nalishda rus tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda ham nazariya, ham amaliyot uchun zarur bo'lgan leksika bilan grammatika o'rtasidagi aloqani kuchaytirish uchun grammatikani semantizatsiyalashtirish g'oyasi beriladi. Bunda til o'rganuvchining kommunikativ maqsadlardan kelib chiqqan holda o'z fikrini ifodalash uchun zaruriy ifoda vositalari (belgilar)ni o'zi topishi, ya'ni mazmundan shaklga tomon borish, ona tili metodikasida ham qo'llash ilgari suriladi.

**4. Kommunikativ tamoyil.** Ushbu tamoyil tarafdorlari (Y.I.Passov, N.I.Jinkin va boshqalar) ikkinchi tilga o'rgatishda nutqni asos qilib olish, tilning grammatik tuzilishi bilan bog'liq bilimlarni muayyan nutqiy vaziyatga bog'lab borish, grammatik ko'nikmalarni shakllantirishda ham shartli nutqiy mashqlardan foydalanishni tavsiya etadilar [3].

O'quvchilarga o'zbekcha nutqiy muloqot odobini raqamli texnologiyalar yordamida o'rgatishda amal qilinishi lozim bo'lgan asosiy yondashuv va tamoyillar sirasida *kommunikativ, kompetensiyaviy, faoliyatga asoslanganlik ta'lim va tarbiya birligi, rivojlantiruvchi ta'lim* kabi tamoyillar muhim o'rin tutadi.

Kompetensiyaviy tamoyil – ta'lim jarayonida o'quvchilarning nafaqat bilim va malakalarini, balki ularning amaliy ko'nikmalarini, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvni anglatadi. Bu tamoyilning asosiy maqsadi o'quvchilarda to'g'ri va samarali nutqiy faoliyatni amalga oshirishga, real hayotda o'zbek tilida muvaffaqiyatli muloqot qilishga qodir bo'lishlarini ta'minlashdir. Faoliyatga asoslanganlik tamoyili – o'quvchilarga tilni o'rganish jarayonida nafaqat

nazariy bilimlarni, balki amaliy tajribalarni ham taqdim etishga qaratilgan. O'quvchilar amaliy mashg'ulotlar, rolli o'yinlar, guruhli muhokamalar kabi faoliyatlar orqali tilni samarali o'rganadilar.

O'zbek tilida nutqiy muloqot madaniyatini egallashda muomala madaniyatiga doir bilimlar muhim rol o'ynaydi. Bunday bilimlar o'zbek tili darsliklarining ayrim matnlarida *"Sharqona odob"*, *"Mehmondo'stlik"*, *"Sovg'a berish odobi"*, *"Bobom xotiralari"*, *"Yaxshi so'z – yaxshi husn"*, *"Siz ham, sen ham bir og'izdan chiqadi"* kabi matnlarida berilgan [4]. Bu matnlarda sharqona odob-axloq, mehmondo'stlik, mehmonga qanday muomalada bo'lish, yoshi ulug' insonlarga bo'lgan hurmat, muomala odobi, shirin so'z bo'lish haqida maslahatlar beriladi. Bunday bilimlar yordamida o'quvchilar ma'lum darajada malaka va ko'nikmalar hosil qiladilar.

Dars jarayonida turli pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalanish ta'lim samardorligini oshiradi [5]. Dars jarayonida nutqiy muloqot madaniyatini oshirishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

1. ***"Charxpalak"*** metodi. Bu metodda o'quvchilar guruhlariga bo'linadi va tinglash uchun sharq mutafakkirlarining nutq odobiga, muloqot madaniyatiga oid fikrlari, hikmatli so'zlari eshittiriladi. So'ngra guruhdagi o'quvchilar ketma-ketlikda fikrlarni aytib berishlari va yozishlari kerak bo'ladi. Metoddan dars boshida foydalanish yaxshi samara beradi.

2. ***"Kimning nutqi chiroyli?"*** metodi. Bu metodda o'quvchilarga dars mavzusiga mos biror maqol yoki hikmatli so'zni ta'riflash topshiriq sifatida beriladi. Chiroyli nutq egasi rag'batlantiriladi.

3. ***"Mazmunini top"*** metodi. Bu metodning maqsadi o'quvchilarga dars jarayonida mantiqiy fikrlash, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olish, o'z fikrlarini mustaqil tarzda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashni o'rgatishdir.

***"Mazmunini top"*** metodidan foydalangan holda mashg'ulot o'tkazish uchun quyidagicha vazifa berish mumkin.

**Mavzu:** O'zbek xalq maqol va matallari.

**Topshiriq.** O'zbek xalq maqol va matallarining mazmunini aniqlang va belgilang.

Maqol va matallar	Mehnat haqida	Vatan haqida	Tarbiya haqida	Do'stlik haqida	Til haqida
Iliq so'z – shakar, sovuq so'z zahar.					+
Qush uyasida ko'rganini qiladi.			+		
Do'stsiz boshim - tuzsiz oshim.				+	

Mehnat - baxt keltirar.	+				
Oltin olma - duo ol.			+		
Har gulga o'z butasi aziz.		+			
O'z yurtning o'lan to'shaging.		+			
Yomon til boshga balo keltirar, Yaxshi til davlat dunyo keltirar.					+

**"Kim topqir?"** metodi. Bu metod o'quvchilarning erkin, mantiqiy fikrlashlarini rivojlantiradi. Bu usuldan darsning boshi va oxirida foydalanish mumkin. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi. Guruhdagi o'quvchilar maqollarning davomini to'g'ri moslashtirishlari kerak bo'ladi.

Ochiq til osh yedirar,	←	otilgan o'q.
Aytilgan so'z -	→	achchiq til - tosh.
Ariqni suv bezar,		jon og'ritib ovutma.
Aytar so'zni ayt	←	shirin suhbat qil.
Do'st orttiramam desang,	→	aytmas so'zdan qayt.
Yomon so'zlab sovutma		odamni - so'z

Bugungi kunda o'zga tildagi o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatishda nutqiy muloqot madaniyati masalasi o'ta dolzarb va muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilining ikkinchi til sifatida o'qitilishi jarayonida, nafaqat grammatik va leksik jihatlar, balki nutq madaniyati ham o'rganilishi zarur. O'zbek tilini o'rgatishning samarali bo'lishi uchun, o'quvchilarga tilning nafaqat grammatikasini, balki uning muloqotda qanday ishlatilishini, jamiyatda va turli vaziyatlarda qanday to'g'ri va madaniyatli gapirishni o'rgatish katta ahamiyatga ega. Maqolada keltirilgan yondashuvlar va tamoyillar orqali o'zga tildagi o'quvchilar o'zbek tilida to'g'ri va madaniy jihatdan ifodalangan nutqni shakllantirishlari mumkin. Bu esa o'quvchilarning muloqotdagi kompetensiyalarini oshiradi.

Sharqona nutqiy odob-axloq qoidalarini o'rgatish. O'zbek tilini o'rgatishda sharqona odob-axloq, mehmondo'stlik va muomala madaniyati haqida ta'lim berishga katta e'tibor qaratilgan. Bu, o'zga tildagi o'quvchilarni nafaqat til, balki madaniy jihatdan ham rivojlantirishga yordam beradi.

**Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash.** O'zbek tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalanish o'quvchilarni samarali tarzda ta'lim olishga undaydi. Bu o'quvchilarga nutqiy muloqot madaniyatini yanada samarali tarzda o'rgatish imkonini

beradi.

*Pedagogik metodlarni rivojlantirish.* Dars jarayonida o'zbek tili nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun qo'llaniladigan metodlar, usullar o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

*Kompetensiyaviy tamoyilning qo'llanilishi.* Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy tamoyil asosida o'quvchilarda ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Bu yondashuv o'quvchilarga o'zbek tilida muvaffaqiyatli muloqot qilish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Xulosa sifatida shuni aytib o'tish kerakki, o'zga tilli o'quvchilarga o'zbekcha nutqiy muloqot madaniyatini sharqona nutqiy odob-axloq qoidalarini o'rgatish orqali erishish mumkin. Buning uchun ma'lum darajada **kommunikativ, kompetensiyaviy, faoliyatga asoslanganlik, ta'lim va tarbiya birligi, rivojlantiruvchi ta'lim** kabi tamoyillar muhim o'rin tutadi. O'zga tilli o'quvchilarga o'zbek tilida nutqiy muloqot madaniyatini o'rgatish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodlarni qo'llash orqali, o'quvchilarning til va madaniyatga oid bilimlari, ko'nikmalari hamda kompetensiyalarini oshirishga erishish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. Аҳмедова Г.М. Русийзабон ўқувчилар нутқий мулоқот маданиятини ўстиришнинг илмий-методик асослари. Монография. – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2019.
2. Ahmedova G.M. O'zbek tili darslarida rusiyzaabon o'quvchilar nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish. – T.: 2023.
3. Muxitdinova X.S. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi. – Toshkent: “G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2023.
4. Muxitdinova X.S., Avlakulov Y.I., Nuriddinova D.A. O'zbek tili: ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 7-sinfi uchun darslik. 2-nashri. – Toshkent: “O'qituvchi” nashtiyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
5. Azizxo'jayeva N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – T.: 2011.

## INKLYUZIV SINFLARDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARGA GEOMETRIYA FANINI O'RGATISH JARAYONIDA ORIGAMIDAN FOYDALANISH

### Annotatsiya.

Ushbu maqolada ko'zi ojiz bolalarga geometriya fanini o'qitish jarayonida origamini qo'llash usullari, tavsiyalar, origamilar bo'yicha qo'llanmalarga bo'lgan talablar keltirilgan.

### А н н о т а ц и я .

В статье представлены методика, рекомендации и требования к пособиям по оригами при обучении геометрии детей с нарушениями зрения.

### Annotation.

The article presents the methodology, recommendations and requirements for origami aids in teaching geometry to children with visual impairments.

### Kalit so'zlar:

inklyuziv ta'lim, maktab geometriya kursi, origami, kognitiv universal ta'lim faoliyati, ko'rish qobiliyati zaif o'quvchilar, idrok etish kanallari, ko'rgazmali qurollar, origametriya.

### К л ю ч е в ы е с л о в а :

инклюзивное образование, школьный курс геометрии, оригами, познавательная универсальная учебная деятельность, слабовидящие учащиеся, каналы восприятия, наглядные пособия, оригами.

### Key words:

inclusive education, school geometry course, origami, cognitive universal educational activity, visually impaired students, perception channels, visual aids, origami.

## KIRISH

*Origaminging geometriyaga ahamiyati:* origami orqali bolalar yassi shakllarni uch o'lchovli jismlarga aylantirishni his qiladi. Turli shakllarni hosil qilish orqali ular haqida tasavvur paydo bo'ladi. Buklangan qog'ozning shakli ushlab ko'rib sezgi orqali bolalar shakllarni o'rganadilar.

Har bir inson borki yangi bilimlar olishga qiziqadi va uni egallash yo'lida astoydil harakat qiladi. Xususan, inklyuziv ta'lim muassalarining dolzarbligi o'quvchilarning turli toifalari, ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarning ham barcha fanlar qatori geometriya fanini ham mukammal o'rgatishda o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, tizimda bir nechta idrok kanallaridan foydalanish zarur. Tiflopsiixologlarning xulosasiga asosan vizuval va taktik kanallarni qamrab oladigan origamidan foydalanish muhim.

*Brail yozuvlari bilan integratsiya:* origami qog'ozlariga brail yozuvi yordamida shakllar nomi va matematik malumotlar joylashtirish mumkin. Ishlatiladigan texnikalar oddiy va xavfsiz bo'lishi lozim. Ovozli yo'riqnomalar asosida bolalar origami shakllarini hosil qilishni mustaqil o'rganishi mumkin.

Origami yordamida burchaklar, tomonlar va diagonallarni aniqlash kabi masalalar yechiladi. Kvadratni uchburchakka almashtirish yoki piramida hosil qilish orqali shakllarning xususiyatini tushunish mumkin. Origamida simmetriya, nisbat va proporsiyalarni tushuntirish imkoniyati mavjud.

*Kutilayotgan natijalar.* Bolalarda ijodkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyati rivojlanadi. Matematika va geometriya darslari qiziqarli va samarali o'tadi.

Ta'lim to'g'risidagi qonunga muvofiq, inklyuziv ta'lim bu alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha bolalar uchun teng ta'lim olishni ta'minlaydi.

Dars jarayonlarini samarali o'tishda qulay sharoit yaratish uchun quyidagi vositalardan foydalanish tavsiya etiladi.

1. Grafika qurilmasi;
2. Tarqatma materiallari;
3. Fazoviy figuralarning kesimlari;
4. Kordinata tekisligi, transportir, chizg'ich, kordinata chizig'i;
5. Matematika doir kartochkalar to'plami;
6. Relefl chizma va uning qurilmasi;
7. Ko'rgazmali qurollar:

hajmli ko'rgazmali qurollar (geometrik jismlar modellari ikki yoqli burchaklar);

ko'rgazmali qurollar (plakatlar, rasmlar, geometrik figuralar tasvirlari, rassomlarning geometrik mavzudagi rasmlari).

Origami vositalaridan yangi materialni taqdim etishda ham figura elementlarini qurish, isbotlash va topish masalalarini hal qilish jarayonida ham foydalanish mumkin. Origami yordamida yangi materialni o'rganishda odatda kvadrat, to'rtburchak yoki uchburchak shakldagi qog'oz varoqning tekisligiga asoslanadi. Ushbu modelda to'g'ri chiziqlar varoqning qatlama chiziqlari va nuqtalar, to'g'ri chiziqlar va taraflarning kesishish nuqtalari, y'ani Evklid geometriyasida mavhum bo'lgan obyektlar sezilarli bo'ladi. Origami yordamida teoremlarni isbotlash mumkin bo'ladi.

Origaming matematik nazariyasi R.Alperin, E.Andersen, K.Kasahara, J.Meekava, F.Ova, T.Takahama, T.Xall, K.Xatori va boshqalarning asarlarida o'rganilgan. Ba'zi muntazam ko'pburchaklar va konus kesimlarning xossalarni o'rganish uchun qog'oz qatlamidan foydalanish S.Rou ishida ko'rib chiqilgan.

Origami yordamida teoremlarni isbotlash uchun asos origametriya aksiomalaridir. Quyida aksiomalar keltiriladi.

1. Berilgan ikkita nuqtadan o'tuvchi bitta egilish mavjud.
2. Berilgan ikkita nuqtani birlashtirgan bitta egilish mavjud.
3. Berilgan ikkita to'g'ri chiziqni birlashtirgan bitta egilish mavjud.

4. Berilgan nuqtadan o'tuvchi va berilgan chiziqqa perpendikulyar yagona egilish mavjud.

5. Berilgan nuqtadan o'tuvchi va boshqa berilgan nuqtani berilgan to'g'ri chiziqqa joylashtiruvchi egilish mavjud.

6. Berilgan ikkita nuqtaning har birini berilgan ikkita kesishuvchi to'g'ri chiziqlardan biriga joylashtiradigan egilish mavjud.

Bu aksiomalarni aniq misol yordamida tushuntiramiz.

**Masala.** Ikkita parallel to'g'ri chiziq kesuvchi bilan kesilgan. Hosil bo'lgan almashinuvchi burchaklar bissektrisalari parallel ekanligini isbotlang.


To'liq tasavvur hosil qilish uchun avval kvadrat shakldagi qog'oz varog'ida ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

1. Kvadrat shakldagi qog'o'zni to'rtta teng to'g'ri to'rtburchakka bo'lamiz. Buning uchun kvadratni o'rta chizig'i bo'yicha buklaymiz. Keyin hosil bo'lgan to'g'ri to'rtburchaklarni ham xuddi shunga o'xshash bo'laklarga bo'lamiz. Natijada, kvadrat shakldagi qog'o'zning tekisligida uchta o'zaro parallel to'g'ri chiziqlar hosil qilamiz. Bu to'g'ri chiziqlarning yuqoridagisi va pastdagisidan biz keying yasashlarimizda foydalanamiz.



2. Kesuvchi yasaymiz, bu kesuvchi sifatida esa kvadratning diagonalini tanlaymiz.

3. Almashinuvchi burchaklarning bissektrisalarini topamiz. Natijada  $ABDC$  parallelogramm hosil bo'ladi.

4.  $AB$  va  $CB$  tomonlarning mos ravishda o'rtalari bo'lgan  $M$  va  $N$  nuqtalarini topamiz.



5.  $M$  va  $N$  nuqtalar orqali o'tuvchi to'g'ri chiziq bo'yicha buklaymiz. Bitta almashinuvchi burchakning bissektrisasi bo'lgan  $AC$  to'g'ri chiziq ikkinchi almashinuvchi burchakning bissektrisasi bo'lgan  $BD$  to'g'ri chiziqning davomi bo'ladi. Shunday qilib, ikkita parallel to'g'ri chiziq kesuvchi bilan kesilganda hosil bo'lgan almashinuvchi burchaklar bissektrisalari parallel ekanligini isbotlandi.



**Xulosa.** Ushbu maqolada origamilar bilan ishlash orqali ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilarga tekislikda geometrik shakllarni to'g'ri tasavvur qilish, shakllarning elementlari va ularning joylashuvi haqidagi tasavvurini oshirish nazarda tutilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Асмолов А.Г. Формирование УУД в основной школе. – М.: Просвещение. 2010. 159 с.
2. Афонькин С.Ю., Афонькина Е.Ю. Все об оригами: справочник. – М.: Оникс. 2005. С. 16.
3. Белим С.Н. Задачи по геометрии решаемые методами оригами. – М.: Аким. 1998. 63 с.
4. Григорьева Л.П. Сташевский С.В. Основные методы развития зрительного восприятия у детей с нарушениями зрения: учебно-методическое пособие. – М.: НИИ дефектологии. 1990. 98 с.
5. Денискина В.З. Обучение математике слепых и слабовидящих учащихся начальных классов: Методическое пособие. – М.: Логосвос, 2015. 316 с.
6. Денискина В.З. Средства обучения математике в начальных классах школ слепых. - М.: Просвещение, 1986. 92 с.
7. Ермаков В.П. Графические средства наглядности для слабовидящих. – М.: ВОС, 1988. 158 с.
8. Лядова А. В., Аввакумова И.А. Оригами как средство формирования познавательных УУД в процессе обучения геометрии слабовидящих учащихся 7-9 классов // Актуальные вопросы преподавания математики, информатики и информационных технологий: межвузовский сборник научных работ. Екатеринбург: Изд-во Ур.гос.пед. ун-та, 2016. 294 с.
9. Подколзина Е.Н. Особенности использования наглядности в обучении детей с нарушением зрения // Журнал Дефектологии. 2005. № 6. С. 33-40.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING FANGA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH YO'LLARI

### Annotatsiya.

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, interaktiv metodlar va integratsiyalashgan yondashuvlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy asoslar bilan yoritiladi. Shuningdek, o'qitish jarayonini loyihalashda AKT va STEM ta'limining ahamiyati ko'rsatilib, ilg'or xorijiy tajribalar, jumladan, Singapur, Finlyandiya va Janubiy Koreya misolida tahlil etiladi.

### А н н о т а ц и я .

В данной статье анализируется процесс формирования научно-образовательных компетенций у учащихся начальных классов. Использование современных образовательных технологий, интерактивных методов и комплексных подходов служит развитию самостоятельного мышления и практических навыков учащихся. Также показана важность ИКТ и STEM-образования в построении образовательного процесса и проанализированы примеры передового зарубежного опыта, в том числе Сингапура, Финляндии и Южной Кореи.

### Annotation.

This article analyzes the process of formation of scientific and educational competencies in primary school students. The use of modern educational technologies, interactive methods and integrated approaches serves to develop independent thinking and practical skills of students.

The importance of ICT and STEM education in building the educational process is also shown and examples of advanced foreign experience are analyzed, including Singapore, Finland and South Korea.

### Kalits o'zlar:

kompetensiya, zamonaviy ta'lim, boshlang'ich sinf, interaktiv metodlar, AKT, STEM.

### Ключевые слова:

компетентность, современное образование, начальный класс, интерактивные методы, ИКТ, STEM.

### Key words:

competence, modern education, primary school, interactive methods, ICT, STEM.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning nafaqat bilim egallashi, balki hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishi ham muhim omil sifatida qaraladi. Boshlang'ich sinf bosqichida o'quvchilar muayyan fanlar bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish bilan birga, ularni kundalik hayotga tatbiq etish, mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, texnologik savodxonlik kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilishi zarur.

**Kompetensiya tushunchasi** zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda keng yoritilgan bo'lib, Evropa Kengashi ta'rifiga ko'ra, kompetensiya insonning bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarini amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. UNESCO esa kompetensiyalarni **kognitiv, ijtimoiy-emotsional va texnologik** jihatlarga ajratadi. Boshlang'ich sinflarda zamonaviy o'quv jarayonini tashkil etish orqali o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning qiziqishini

uyg'otish va o'rganish jarayonini yanada samarali qilish mumkin.

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishning zamonaviy yo'llari, ilg'or pedagogik texnologiyalar va xalqaro tajribalar misolida tahlil qilinadi. Bundan tashqari, o'qitish jarayonida foydalaniladigan innovatsion metodlar va ularning samaradorligi haqida fikr yuritiladi.

### **Kompetensiyalarni shakllantirishning ahamiyati**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish ularning kelajakdagi akademik yutuqlari va hayotiy ko'nikmalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kompetensiyalar quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

- Kognitiv kompetensiyalar: analitik fikrlash, axborotni qayta ishlash, mustaqil o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish.

- Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar: muloqot, hamkorlik, empatiya, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.

- Texnologik kompetensiyalar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, muammolarni hal qilish va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Kompetensiyalarni shakllantirish uchun dars jarayonini shunday tashkil etish kerakki, bunda o'quvchilar mustaqil tadqiqot olib borish, axborotlarni tahlil qilish, baholash va o'z fikrlarini asoslash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Bu esa ularning nafaqat maktab davrida, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatida ham muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi.

### **Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlar.**

Zamonaviy ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlarning o'рни juda muhim. Quyidagi asosiy metodlar o'quv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi:

- Interaktiv metodlar:
- "Jigso" – guruhlariga bo'lingan o'quvchilar mustaqil o'rganib, keyin bir-biriga tushuntiradi.
- "Katta-yordamchi" – bilimli o'quvchilar boshqalarga murabbiylik qiladi.
- "Rolli o'yinlar" – muammoli vaziyatlarni modellashtirish orqali o'quvchilar muayyan bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi.
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT):
- Elektron darsliklar, ta'limiy platformalar, virtual laboratoriyalar va mobil ilovalar orqali o'qitish.
- STEM-ta'lim:
- Fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani integratsiyalash orqali o'quvchilarning qiziquvchanligi va muammolarni hal qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Xalqaro tajribada AKT va STEM yondashuvlarini qo'llash keng

tarqalgan. Singapur ta'lim tizimi "Inquiry-Based Learning" (Tadqiqotga asoslangan ta'lim) tamoyiliga asoslanadi. O'quvchilarning mustaqil fikrlashi va tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlar va loyihalar orqali o'qitish yo'lga qo'yilgan.

Finlyandiyada "Phenomenon-Based Learning" usuli qo'llanilib, fanlarni alohida emas, balki real muammolar doirasida integratsiyalashgan holda o'qitish tizimi joriy etilgan. Ta'lim jarayoni o'quvchilarni hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish va yechim topishga yo'naltiradi.

Janubiy Koreyada STEM va AKT asosidagi o'qitish keng tarqalgan. Maktablarda dasturlash va robototexnika darslari joriy qilingan bo'lib, o'quvchilar dasturlash asoslarini boshlang'ich sinflardan o'rganadilar. Bundan tashqari, virtual laboratoriyalar va interaktiv darslar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Kanada ta'lim tizimi "Experiential Learning" (Tajriba asosida o'qitish) tamoyiliga asoslangan bo'lib, o'quvchilar amaliy mashg'ulotlar va loyiha asosida o'qitiladi. Ta'lim jarayonida gamifikatsiya keng qo'llanilib, darslar o'yin elementlari bilan boyitiladi.

Estoniya Yevropada raqamli ta'lim bo'yicha yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Maktablarda dasturlash va AKT ko'nikmalarini o'rgatish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, o'qituvchilar maxsus platformalar orqali o'quvchilarga dasturlash va muhandislik asoslarini o'rgatishadi.

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy o'quv jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Ushbu maqolada interaktiv metodlar, AKT va STEM yondashuvlarining ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilindi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, kompetensiyalarni shakllantirish uchun an'anaviy usullardan ko'ra innovatsion texnologiyalarga asoslangan yondashuvlar samaraliroqdir.

**Kelgusida boshlang'ich sinflarda AKT va STEM integratsiyasini kuchaytirish bo'yicha maxsus tadqiqotlar o'tkazish lozim.** Shuningdek, pedagoglarning zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish talab etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jonassen D.H. (2011). *Learning to Solve Problems: A Handbook for Designing Problem-Solving Learning Environments*. Routledge.
2. Trilling B., & Fadel C. (2009). *21st Century Skills: Learning for Life in Our Times*. John Wiley & Sons.
3. Mishra P., & Koehler M.J. (2006). *Technological Pedagogical Content Knowledge: A New Framework for Teacher Knowledge*. Teachers College Record.
4. Darling-Hammond L. (2010). *The Flat World and Education: How America's Commitment to Equity Will Determine Our Future*. Teachers College Press.

## SHOIRA UVAYSIY IJODINI O'RGANISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

### Annotatsiya.

Maqolada adabiyot darslarida qo'llaniladigan samarali usullar haqida fikr yuritiladi. Ushbu usullar o'quvchilarning ham nazariy ham amaliy ko'nikmalarini shakllantirishi izohlanadi.

### А н н о т а ц и я .

В статье рассматриваются эффективные методы, используемые на уроках литературы. Эти методы обусловлены формированием как теоретических, так и практических навыков у студентов.

### Annotation.

The state examines effective methods used in literature lessons. This method determines the formation of both theoretical and practical skills of students.

### Kalits o'zlar:

usul, bilim, ko'nikma, adabiyot, badiiy tasvir, janr.

### Ключевые слова:

метод, знание, умение, литература, художественный образ, жанр.

### Key words:

method, knowledge, art, literature, divine image, genre.

## KIRISH


Bugun maktab ta'lim tizimiga yangi baholash tizimining joriy etilishi o'quvchilarni ijodiy, tanqidiy, kreativ fikrlashga, mavzu doirasida mulohaza yuritishga, yangiliklar, ixtirolar yaratishga, loyiha ishlari qilishga, matn va topshiriqlar bilan ishlash ko'nikmasini oshirishga, bir so'z bilan aytganda o'quvchi shaxsini har tamonlama rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bu baholash tizimi nafaqat o'quvchini faol bo'lishga, balki o'qituvchidan ham yangi-yangi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanib dars tashkil etish majburiyatini yuklamoqda. O'qituvchi bir xil dars tashkil etish jarayonida o'z maqsadlariga erisha olmayapti. O'quvchi esa bir qolipga tushib qolgan darslardan kerakli ma'lumotlarga ega bo'lmayapti. Kuzatishlarim asosida shu narsani ta'kidlab o'tmoqchiman, bugungi kun o'quvchisi ko'proq ma'lumot olishga intilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf adabiyot darsligida shoira Uvaysiy ijodini o'rganishga 3 soat vaqt ajratilgan. Bu dars soatlarida shoiraning hayoti va ijodi, "Uvaysiyman", "Sog'indim" radifli g'azallari va chistonlarini o'rganish so'ralgan. Shoira hayoti va ijodini yoritishda bir qancha zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishga, o'quvchilarni ijod olamiga yetaklashiga xizmat qiladi deb o'ylayman. Bu darsni tashkil qilishda quyidagi uch ta'lim metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq, deb o'ylayman.

O'quvchilar bu darsda loyiha ishi yoki taqdimot yoki ijodiy lavha

sifatida o'zlariga yoqqan topshiriq turidan foydalanib, vazifani bajarishadi. O'quvchilarning asosiy diqqat-e'tiborini ijodkorlarning ijodiga qaratishni xohlayman. Shoiraning "Uvaysiyman" rarifli g'azalini o'rganishda "Moychechak" metodidan unumli foydalanish mumkin.

"Moychechak" metodi Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan metod bo'lib, bu metod o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga, axborotlarni tahlil qilish va muammolarni hal qilishga yordam beradi. Tasvirlangan moychechak gulini har bir gulbargi fikrlash va tushunishning turli jihatlariga yo'naltirilgan savol turini ifodalaydi.

Xattaxtaga gulbarglariga shoiraning g'azalidan bir misradan yozib chiqilgan moychechak shakli joylashtiriladi. O'qituvchi stoliga raqamlardan iborat topshiriqlar va savollar jamlanmasi qo'yiladi. Moychechak gulbarglari ham raqamlangan bo'ladi. Masalan, moychechakning birinchi gulbargiga shunday misralar yozilgan bo'lishi mumkin.



***Mehat-u alamlarga mubtalao Uvaysiyman,  
Qayda dard eli bo'lsa, oshno Uvaysiyman.***

O'quvchi 1-raqamni tanlasa quyidagi savollarga javob beradi.

1. G'azalning birinchi baytini o'qing. G'azal radifi, qofiyasi va bandda ifodalangan g'oyani toping.

***Kechalar fig'onimdan tinmadi kavokiblar,  
Arz to samo uzra mojoro Uvaysiyman.***

Demak, o'quvchi 4-raqamni tanladi va quyidagi savollarga javob berishi mumkin.

2. Lirik qahramonning holatini tasvirlab bering. Qahramonning holatini yorqinroq aks ettirishda shoira qanday she'riy san'atdan foydalangan?

Mahg'ulot shu tarzda davom etadi. O'qituvchi savollar va topshiriqlardan kelib chiqib, moychechak gulbarglarini sonini ko'paytirishi yoki kamaytirishi mumkin. Xo'sh, bu ta'lim metodi o'quvchiga qanday yordam berishi mumkin? Ushbu yondashuv o'quvchilarga mavzu doirasidagi ma'lumotlarni har tomonlama o'rganishga, yuzaki tushunchalarni chuqurroq tushunishga, o'quvchilarda fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishga, eslashdan tahlil, sintez va ma'lumotlarni baholashgacha borishiga yordam beradi.

Shoira Uvaysiyning "Sog'indim" radifli g'azalini "T kub" metodi asosida

tahlil qilamiz:

1.T-toping

2.T-to'ldiring

3.T-ta'riflang ma'nolarini anglatadi.

N <sup>o</sup>	Toping	To'ldiring	Ta'riflang
1	G'azal mavzusi	Hasbi hol	Shoiraning o'g'li Muhammadxonning sarbozlikka yuborilishi munosabati bilan farzandidan judo bo'lgan onaning iztiroblari, sog'inchi aks ettiriladi
2	G'azal matla' yoki mabda'si	Bu kun, ey do'stlar, farzandi jononimni sog'indim, Gado bo'lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog'indim	Gazalning birinchi bayti matla' yoki mabda' deyiladi. Bu so'zlar arabcha so'z bo'lib, "boshlanma, chiqish" ma'nolarini bildiradi. Undagi misralar o'zaro qofiyalanadi
3	G'azal radifi	"Sog'indim so'zi"	Har misra yoki bayt oxirida takrorlanib keladigan bir xildagi, so'z, yoki so'zlar birikmasi radif deyiladi. Radif arabcha so'zdan olingan bo'lib, "ketma-ket keluvchi" degan ma'noni bildiradi
4	G'azal qofiyasi	jononimni, davronimni, darmonimni, sultonimni, mehmonimni, qizil qonimni, mohi tobonimni, xonimni	Misralarda takrorlanib keluvchi shakli va ma'nosi har xil, lekin ohangdosh so'zlar qofiya deyiladi. Qofiya arabcha so'zdan olingan bo'lib, "ergashish, izidan borish" kabi ma'nolarni bildiradi
5	Nido san'ati	G'azalning birinchi misrasida qo'llangan "ey do'stlar" so'zi	G'azal baytida lirik qahramon olamdagi shaxsga, har qanday narsa-hodisalarga, tabiatdagi istalgan narsaga, o'zining qalbiga, suhbatdoshiga murojaat etish san'ati
6	Tazod san'ati	Shoh-gado, kecha-kunduz	Tazod san'ati arabcha so'z bo'lib "qarshilantirish" ma'nosini bildiradi
7	Tadrij san'ati	Musofirman, g'aribman, bekas-u, benavodirman	Tadrij - arabcha so'z bo'lib, bosqichma-bosqich, yuksalish degan ma'nolarni bildiradi. Mumtoz she'riyatdagi badiiy usullardan biri. Asosan g'azallarda muayyan obrazni o'xshatishlar vositasi bilan darajama-daraja rivojlantirib borish.
8	Ta'did san'ati	Musofirman, g'aribman, bekas-u, benavodirman	She'rda yaqin so'zlarning ketma-ket keltirish, uyushiq bo'laklardan foydalanish san'ati

9	Tanosib san'ati	Musofirman, g'aribman, bekas-u, benavodirman	She'r baytlarida bir-biriga bog'liq va bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llash san'ati
10	G'azalda uchraydigan arabcha so'zlar	musofir g'arib	Boshqa yerdan kelgan yoki boshqa joyda yashovchi, safarga chiqqan yo'lovchi Yot, begona, notanish ma'nosida.
11	G'azalda uchraydigan forscha so'zlar	bekas benavo	Kimsasiz tanho, yolg'iz ma'nosida Bechora, faqir, miskin ma'nosida
12	Begona bayt	Qorong'u bo'ldi olam ko'zima ushbu judolikdin, Ko'z-u ko'nglim ziyosi mohi tobonimni so'g'indim	Maqtadan oldingi lirik chekinish qilingan bayt
13	G'azal maqta'si	Mani bekas Uvaysiy, yig'lagayman, ro'z-shab tinmay, Uyimning ziynati, ko'z ravshani, xonimni sog'indim	G'azalning oxirgi bayti. Arabcha so'z bo'lib, "tugallanma" ma'nosini bildiradi. Maqta'da shoirning taxallusi keltiriladi.

Bu ta'lim metodida ham o'quvchilar o'zlarining olgan bilimlaridan, egallagan ko'nikmalaridan kelib chiqib, g'azalda berilgan ma'lumotlarni topish, to'ldirish ta'riflash jadvallarini ko'paytirishi mumkin. Bu usul o'quvchilarni asar matni bilan ishlashga, ijodiy fikrlashga, mulohaza yuritishga yordam beradi. Boshqa fan o'qituvchilari ham bu usulni o'z fani mavzu doirasidan kelib chiqib qo'llashlari mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Haqqulov I. Uvaysiy shariyati. – Toshkent: 1982. 3-bet.
2. Sultonmurod Olim. Ishq, oshiq, ma'shuq. – Toshkent: 1996. 69-bet.
3. Uvaysiy. Devon. – Toshkent: 1959. 84-bet
4. Adabiyot darsligi 8-sinf. – Toshkent: 2023.

## TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ILG'OR ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA KREATIV YONDASHUV

### Annotatsiya.

Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali o'quvchilarning bilim olish faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy-uslubiy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Qo'llanmada chet tillarni, xususan, fransuz tilini o'qitishda interfaol metodlar, strategiyalar, grafik tashkilotchilar va kreativ yondashuvlarning afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda multimedia materiallari, texnologik xaritalar va innovatsion pedagogik g'oyalardan foydalanishning usullari batafsil bayon etilgan. Ushbu metodik qo'llanma ta'lim jarayonida ilg'or tajribalarni ommalashtirish va o'qituvchilar malakasini oshirishga ko'maklashadi.

### А н н о т а ц и я .

В статье изложены методические подходы к эффективной организации учебной деятельности студентов посредством внедрения в образовательный процесс современных педагогических технологий. В статье подчеркиваются преимущества интерактивных методов, стратегий, графических органайзеров и творческих подходов в преподавании иностранных языков, в частности французского. Подробно описаны методы использования мультимедийных материалов, технологических карт и инновационных педагогических идей для повышения качества образования. Данное методическое пособие будет способствовать популяризации передового опыта в образовательном процессе и повышению квалификации педагогов.

### Annotation.

This article contains scientific and methodological approaches to effectively organize students' learning activities through the introduction of modern pedagogical technologies into the educational process. The manual highlights the advantages of interactive methods, strategies, graphic organizers and creative approaches in teaching foreign languages, in particular, French. It also describes in detail the methods of using multimedia materials, technological maps and innovative pedagogical ideas to improve the quality of education. This methodological manual will help popularize best practices in the educational process and improve the skills of teachers.

### Kalit so'zlar:

pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, kreativ yondashuv, chet tili o'qitish, multimedia vositalari, texnologik xaritalar, ta'lim-tarbiya sifati, innovatsion pedagogika, grafik tashkilotchilar, strategiyalar, fransuz tili ta'limi.

### Ключевые слова:

педагогические технологии, интерактивные методы, творческий подход, обучение иностранным языкам, мультимедийные средства, технологические карты, качество образования, инновационная педагогика, графические органайзеры, стратегии, обучение французскому языку.

### Key words:

pedagogical technologies, interactive methods, creative approach, foreign language teaching, multimedia tools, technological maps, quality of education, innovative pedagogy, graphic organizers, strategies, French language education.

## KIRISH

Mashhur pedagoglar shunday deydi: "Pedagogikada o'quvchiga nimani emas, qanday o'rgatilayotgani muhimroqdir". Darhaqiqat, mohirona tarzda yetkazilgan bilim oson va to'la o'zlashtiriladi. Xotirada chuqur o'rnashadi. Ilm-fan, texnika va axborot texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi soha xodimlaridan ta'lim-tarbiya sifatini mazmunan yangi bosqichga ko'tarishda o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni

talab etmoqda. Shu o'ringda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish, uning sifatini oshirish uchun mamlakatimizda chiqarilayotgan qonun va farmonlarning mohiyati ham asoslidir. Bu qaror va farmonlar asosida mamlakatimizda "Ta'lim tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish muammo va yechimlari" mavzusida ko'plab respublikada anjumanlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar bo'lib o'tdi. Shu asosda mamlakatimizda "Mahorat maktablari"ning, xususan, 41 ta viloyat miqyosida, tuman (shahar) miqyosida 120 ta faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bu yerda maktab o'quvchilari bilan birga oliy ta'lim muassasalari hamda viloyat malaka oshirish instituti, professor-o'qituvchilari o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yilib, ilg'or o'qituvchilar mahorat darslarini olib bormoqdalar. Bundan asosiy maqsad ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'rne va rolini tatbiq etish, bu borada ilmiy-uslubiy tadqiqotlar, tajriba va yangicha yondashuvlarni to'plash, tahlil qilish, boyitishdan iborat. Buning natijasida ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish borasidagi bilim va ko'nikma, malakalarni yangilash hamda guruhlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Galdagi vazifa – chet tili o'qituvchilari malakasini oshirib borish bo'yicha orttirilgan tajribani boshqa fan o'qituvchilari o'z amaliyotlarida tatbiq etishidir. Bu vazifani yangilanib borayotgan metodistlar tarkibi va yuqori malakali o'qituvchilarning ishtirokida amalga oshirish, fan o'qituvchilarining belgilangan metodik qo'llanmalaridan hududlaridagi bir yoki bir necha tayanch maktablarda tashkil etilgan seminar-treninglarga jalb etish ham ta'lim sifati rivojlanishiga hissa qo'shadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni ta'limning poydevori hisoblangan boshlang'ich ta'limdan boshlash har tomonlama maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashning afzalliklari:

- O'quvchilarga multimedia vositalaridan unumli foydalanish, ayniqsa, chet tili fanlarida yaxshi samara beradi. Bunday mashg'ulotlar ularning yosh xususiyatlariga mos kelishi ayon.

- Ilg'or zamonaviy pedagogikani qo'llashda jahon ta'lim tizimiga nazar solish, ularning usullaridan ham samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

Pedagogik texnologiya G'arbda XVII asrda paydo bo'lgan. Bu haqida quyida mashhur shaxslarning fikrlarini keltirib o'tamiz.

Pedagogik texnologiya – bu o'quv loyihasini algoritmlash faoliyati (*Palgovskiy*). Pedagogik texnologiya – algoritm faoliyatini ketma-ket amalga oshirish (*Bezpalkov*). Pedagogik texnologiya- bu muhandislik san'ati (*Il'in*).

Pedagogik texnologiya – bu bilimlarni o‘zlashtirishning barcha jihatlari o‘z ichiga oluvchi majmualashgan jarayon.

Pedagogik texnologiya – bu texnologiya insoniy manbalar – o‘qitish, bilim jarayonini o‘zlashtirish jarayoni.

Yuqoridagi fikrlarni jamlagan holda o‘z fanim, ya’ni fransuz tili fani bo‘yicha ta’limning innovatsion faoliyatini amalga oshirish – o‘quvchilarning bilim olish saviyasini kengaytiradi. Buning uchun innovatsion g‘oyalarni:

- tahlil
- loyiha
- o‘zlashtirishlar
- yangiliklar kiritishlarni qo‘llash

a. **Interfaol metodlar** (Bliss so‘rov, Keys stadi, so‘rov, ijodiy ish, suhbat);

b. **Strategiya** (Aqliy hujum, Bumerang, Zinama-zina, Muz yorar, T-jadval);

c. **Grafik organiziyalar** (Baliq skeleti, Ven diagrammasi, Klaster, Insert, konsteltual jadval, “Nima uchun?”, “Qanday?”) qo‘llash afzal ekanligi tajribalarda bir necha bor yaxshi samara berishi ayon bo‘lgan.

Bundan tashqari ta’lim sifatini oshirishda kreativ yondashuv asosiy omildir. “Kreativ” so‘zi lotincha “yaratuvchi, ya’ni yangi pedagogik g‘oyalarni yaratish, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorligini tavsiflovchi qobilyat” degan tushunchani beradi. Pedagogik kreativlik 2 holatni bilish kerak:

1. O‘qituvchilar tomonidan o‘quv fanlarini past o‘zlashtirish va zerikarli deb hisoblagan o‘quvchilarning e’tiborlarini fan asoslarini o‘rganishga jalb qilish;

2. O‘quvchilarga kreativ fikrlash va ijtimoiy faollik, pedagoglarni rag‘batlantirishga xizmat qilgan strategiya vositalarini tavsiya etish orqali ularga foydalanish uchun imkoniyatlar yaratish.

Kreativlik shakllari:

1. Me’yoriy hujjatlarni bilish;
2. O‘quv manbalarini yaratish;
3. Sinovlar o‘tkazish;
4. Ta’lim jarayonini jonli tashkil etish;
5. Ilmiy maqolalar tayyorlash;
6. Ilmiy va metodik anjumanlarda faol ishtirok etish;
7. Attestatsiyadan o‘tkazish;
8. O‘quvchilarning ijodkorlik qobilyatini oshirish;

Fikrlarimni xulosa qilib aytganda, barcha fanlar uchun, ayniqsa, chet tili fanlari uchun ma’lumotnomalar, multimediya materiallari, texnologik xaritalar, ish faoliyatini tashkil etishga oid filmlar, elektron darsliklar,

tarqatmalar, ko'rgazmali qurollar, sxemalar, rasmlar, chizmalar, animatsiyalar, matnlarning barchasi o'quvchilarning xohish-istagi, talablariga mos kelishini inobatga olish lozim. Bu kelgusida ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishda muhim o'rin tutishi shubhasiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. Mirziyoyev Shavkat. "Ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish va sifatini oshirishga oid Farmonlar va Qarorlar to'plami". – Toshkent, 2022-2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimida multimedia vositalaridan foydalanish Xalq ta'limi vazirligi nashri, 2023.
3. Mahorot maktablari faoliyati O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, tavsiyalar to'plami. – Toshkent, 2024.
4. Palgovskiy A. Pedagogik texnologiya – o'quv loyihasini algoritmlash faoliyati. Pedagogik texnologiyalar bo'yicha tadqiqot ishlari, XVII asr.
5. Bezpalkov V. "Pedagogik texnologiya – algoritm faoliyatini ketma-ket amalga oshirish", pedagogika va ta'lim tizimi rivoji, XX asr.
6. Pedagogik innovatsiyalar va kreativ yondashuvlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallari. – Toshkent, 2023.
7. Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami. – Toshkent, 2024.
8. Jahon ta'lim tizimi tajribalari. Ilg'or pedagogik tajribalar va innovatsiyalar to'plami. – London, 2024.
9. "Kreativ yondashuv" tushunchasi va uning ta'limdagi o'rni. Ilmiy pedagogik jurnali. – Toshkent, 2023.

## FIZIKA FANINI O'QITISHDA 3C+1E MODELINI TATBIQ ETISH USULLARI (10-11-SINFLAR MISOLIDA)

### Annotatsiya.

Aynan bu model yuqori sinflar ya'ni 10-,11-sinflar uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilarning yaratuvchanlik va ilmiy izlanishni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuvdir. Ushbu model o'quvchilarning o'rganish jarayonida faol ishtirok etishini va o'z bilimlarini mustahkamlashni ta'minlashga yordam beradi.

### А н н о т а ц и я .

Данная модель предназначена именно для старших классов, то есть 10-11-х классов, и представляет собой инновационный педагогический подход, направленный на развитие творческого мышления и научного поиска учащихся. Эта модель способствует активному участию учащихся в процессе обучения и помогает им закрепить полученные знания.

### Annotation.

This model is specifically designed for upper secondary school students, namely grades 10-11, and represents an innovative pedagogical approach aimed at developing students' creativity and scientific inquiry. The model helps ensure active student participation in the learning process and supports the consolidation of their knowledge.

### Kalits o'zlar:

3C+1E modeli, Capture Interest, Construct Understanding, Consolidate Learning, Enrichment.

### К л ю ч е в ы е с л о в а :

модель 3C+1E, Capture Interest (пробуждение интереса), Construct Understanding (формирование понимания), Consolidate Learning (закрепление знаний), Enrichment (обогащение).

### Key words:

3C+1E model, Capture Interest, Construct Understanding, Consolidate Learning, Enrichment.

## KIRISH

**3C+1E modeli** o'quvchilarning o'rganish jarayonida yaratuvchanlik va ilmiy izlanishni ta'minlash uchun ishlatiladigan yana bir pedagogik yondashuvdir. Ushbu model bosqichma-bosqich o'qitish jarayonini tashkil etib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish va yechim topish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur model ayniqsa 10-,11-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularda mustaqil fikrlash, ilmiy-ijodiy yondashuv, muammoni hal qilish va tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratadi. Model quyidagi bosqichlardan iborat:

**Capture Interest (qiziqishni uyg'otish).** O'quvchilar mavzuga qiziqishlarini uyg'otib, faol ishtirok etadilar.

**Construct Understanding (tushunishni shakllantirish).** O'quvchilar yangi bilimlarni amaliy ravishda yaratadilar, asosiy tushunchalarni tushunadilar.

**Consolidate Learning (o'rganishni mustahkamlash).** O'quvchilar o'z bilimlarini boshqalar bilan almashadilar va o'rganganlarini mustahkamlaydilar. **Enrichment (boyitish).** O'zlashtirish darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar uchun tabaqalashtirilgan ta'lim.

**Capture Interest (qiziqishni uyg'otish).** Bu bosqichda o'quvchilarni jalb

qilish, uning e'tiborini tortish va keyingi ma'lumotlarga qiziqtirish jarayonidir. Bu, odatda, kommunikatsiya va ta'lim jarayonlarida muhim bosqich bo'lib, unda auditoriya ma'lumotni o'rganishga qiziqish uyg'otishga harakat qilinadi. Masalan, biror ilmiy mavzuni tushuntirishda, masalan, "Kosmosda hayot bormi?" degan savolni berish, tinglovchilarning qiziqishini oshirishi mumkin. Ushbu savolni berish orqali, o'quvchilarda uning javobi va mavzu haqida ko'proq bilishga qiziqish ortadi. Bu savolni berish sinfni o'ziga jalb qiladi va ular yanada ko'proq ma'lumot olishga tayyor bo'ladilar.

**Construct Understanding (tushunishni shakllantirish).** Bu jarayonda o'quvchi o'z bilimlarini chuqurlashtiradi, yangi ma'lumotlarni o'ziga moslashtiradi va ularni avvalgi bilimlar bilan bog'lab tushunadi. Bu, asosan, yangi mavzuni o'rganish va uni mantiqan tushunishdan iborat bo'ladi.

Fizika bo'yicha energiya saqlanishi qonuni yoki astronomiya bo'yicha teleskop yordamida olingan tasvirlar bilan tushuntirishlar qilish.

**Consolidate Learning (o'rganishni mustahkamlash).** Bu bosqichda guruh muhokamalari, taqdimotlar yoki yozma ishlar orqali bilimlar almashiladi. Unda o'rganilgan ma'lumotlar va ko'nikmalarni takrorlash, qayta ishlash va turli sharoitlarda qo'llash orqali ularni mustahkamlash va uzoq muddatli xotiraga joylashtirishga qaratilgan. Bu bosqichda o'quvchi yangi bilimlarni amaliyotga tatbiq etish orqali ularga yanada mustahkamroq va uzoq muddatli tushuncha hosil qiladi.

Agar o'quvchilar erkin tushish qonunlarini o'rganayotgan bo'lsa, o'rganishni mustahkamlash jarayonida ular turli balandliklardan obyektlarni tushirish tajribalarini o'tkazishlari mumkin. Bunda, ular tezlik va vaqt o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rib chiqadilar. Masalan, agar biror toshni 2 metr balandlikdan tashlasalar, uning qanday tezlikda yerga yetishini hisoblashlari kerak bo'ladi. Bu tajribalar yordamida ular o'rganilgan nazariyani amaliyotda qo'llash orqali erkin tushish qonunlarini mustahkamlashadi, bu esa bilimni yanada mustahkam va chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

**Enrichment (boyitish).** Bu bosqichda o'rganilgan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va yanada boyitish jarayonidir. Bu, odatda, o'rganilgan mavzuga qo'shimcha masalalar, amaliyotlar yoki yangi fikrlar kiritish orqali amalga oshiriladi. O'rganganlarni boyitish o'quvchilarga o'rgangan materialni yanada kengroq kontekstda ko'rishga yordam beradi, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va bilimlarni mustahkamlaydi.

Faraz qilaylik, fizika darsida o'quvchilar "yengil jismning tezlanishi" (ya'ni, erkin tushish) haqida o'rganishmoqda. O'rganishni boyitish jarayonida o'quvchilarga faqat o'rganilgan masalalar bilan cheklanmasdan, boshqa omillarni hisobga olishga yordam beradigan qo'shimcha materiallar taqdim etiladi. Masalan, ular havo qarshiligi va turli materiallarning erkin

tushish tezligini o'rganishlari mumkin. *Misol:* Agar o'quvchilar ikki turdagi obyektlarni (bitta qora tosh va bitta mo'rt paxta) erkin tushirishsin, ular havo qarshiligining obyektning tushish tezligiga qanday ta'sir qilayotganini aniqlashlari mumkin. Buning natijasida, ular erkin tushish jarayonini va havo qarshiligining roli haqida ko'proq tushuncha hosil qiladilar. Bu esa o'rganilgan materialni yanada boyitadi va bilimni chuqurlashtiradi.

Zamonaviy ta'lim talablari o'quvchilarning nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishi, balki ularni mustaqil izlanish, tahlil qilish, real hayotda qo'llash va yangilik yaratish darajasigacha olib chiqishni talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, 3C+1E modeli – ya'ni *Capture Interest, Construct Understanding, Consolidate Learning* va *Enrichment* bosqichlarini o'z ichiga olgan pedagogik yondashuv – ushbu talablarga to'liq javob beruvchi innovatsion metod hisoblanadi. Dars jarayonida avvalo o'quvchilarning mavzuga nisbatan qiziqishi uyg'otiladi, so'ngra ular bilimlarni o'zlari izlab topish, tajriba qilish, muhokama yuritish orqali tushunchalarni shakllantiradilar. Olingan bilimlar esa turli metodlar – bahs-munozara, amaliy topshiriqlar, taqdimotlar orqali mustahkamlanadi. Yuqori darajadagi o'quvchilar esa boyituvchi topshiriqlar orqali o'z salohiyatlarini yanada rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar. Bu modelda o'qituvchi – faqat bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, yordamchi va motivatsiya beruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchi esa markazda turadi va o'z bilimini faol harakat orqali egallaydi. 3C+1E modeli o'quvchilarning faolligi, tashabbuskorligi va javobgarligini oshirib, ularni kelajakdagi kasbiy hayotga va oliy ta'limga puxta tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, 3C+1E modeli o'quv jarayonini jonlantiradi, individual yondashuvni ta'minlaydi va zamonaviy ta'lim tamoyillariga mos ravishda o'quvchining har tomonlama rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Shuning uchun bu modelni umumiy o'rta ta'lim tizimida keng joriy qilish va undan samarali foydalanish dolzarb vazifalardan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ismailov A.A. va boshqalar. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash. Tabiiy fanlar o'qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma. Toshkent: "Sharq", 2019.
2. Deng Zongyi and S.Gopinathan. "PISA and High-Performing Education Systems: Explaining Singapore's Education Success" *Comparative Education*. vol. 52, no. 4, 2016.
3. Gopinathan S. "Globalisation, Education and Singapore" In *Globalisation and Education: Critical Perspectives*, edited by Nicholas C. Burbules and Carlos Alberto Torres, Routledge, 2000, 101-123.
4. Grant Wiggins Every teacher should ask these questions before implementing that lesson plan.
5. Hogan D., Chan M., Rahim R., Kwek D., & Loo S.C. Assessment and the Learning of 21st Century Competencies in Singapore. *Asia Pacific Journal of Education*, 33(3), 2013, 279-297.
6. Jasvinder K. Randhawa, Dr Natasha Mehta. Tabiiy fanlar 6-sinf darslik. – Toshkent: 2024.
7. Kris Hughes. How to create a product roadmap: examples&templates included. May 20, 2024.
8. mceducation.com – Marshall Cavendish Education | Education Solutions Provider | MCE – Marshall Cavendish Education Pte Ltd -Singapur ta'lim nashriyoti platformasi

## МЕТОД «ПЕРЕВЕРНУТЫЙ КЛАСС»

### Annotatsiya.

Ushbu maqolada teskari sinf metodologiyasi, uning ijobiy tomonlari nimada ekanligi va o'quvchilar ushbu metodologiya yordamida ushbu materiallarni qanday qilib tez va oson o'zlashtirishlari mumkinligi aniq keltirib o'tilgan. Ta'kidlanishicha, teskari sinf zamonaviy texnologiyalar yordamida zamonaviylikka moslashtirilishi mumkin.

### А н н о т а ц и я .

В данной статье открыто представлена методика перевернутого класса, каковы ее положительные стороны и как учащиеся могут быстро и легко усвоить данные материалы с помощью этой методики. Отмечается, что перевернутый класс можно адаптировать к современности с помощью современных технологий.

### Annotation.

This article openly presents the inverted classroom methodology, what are its positive aspects and how students can quickly and easily learn these materials using this technique. It is noted that the inverted classroom can be adapted to modernity with the help of modern technologies.

### Kalits o'zlar:

usul, metodologiya, o'qituvchi, talaba, video, ma'ruza, podkast, taqdimot, YouTube, teskari sinf, tadqiqot.

### К л ю ч е в ы е с л о в а :

метод, методика, учитель, ученик, видео, лекция, подкаст, презентация, YouTube, перевернутый класс, исследование.

### Key words:

method, methodology, teacher, student, video, lecture, podcast, presentation, YouTube, inverted classroom, research.

## ВВЕДЕНИЕ

Обычно преподаватель уроками читает лекции, объясняет материал, показывают что-то на доске или на презентации и при этом ученик записывает всё, таким образом на упражнение и на практику остается очень мало времени и конечно домашние задание при таком подходе вызывает довольно много трудности. Потому что разбираться ученику чаще всего приходится самостоятельно или всей семьёй вместе сидят и обсуждают новую тему

Технология перевернутого обучения, её основоположниками считаются Джонатан Бергман и Аарон Семс, Американские учителя, которые в 2007 году, решили каким-то образом разобраться с проблемой учеников спортсменов, которые довольно часто отсканировали на занятиях. Они решили записывать короткие видео, где они знакомили своих учеников с учебным материалом. Таким же образом, как отмечают Бергман и Семс, им удалось ещё одну проблему решить. Они не хотели очень долгое время проводить с отстающими учениками и оставаться с ними длительное время после урока. Поэтому они говорят о том что, изначально ими двигали абсолютно корыстные мотивы, не хотим долго оставаться после уроков с учениками, которые не успевают.

Важно отметить, что уже на сегодняшний момент есть научная обоснования эффективности такой технологии. Так преподаватель из Малазийского университета объединился с доктором философии из Гонконга, провели исследование и результаты этого исследования святили в одной из статей. Кратко, сами исследователи говорят о том что, во первых, значительно повышается учебная достижения, ученики овладевают такими навыками как коммуникация, коллаборация и совместное решение учебные задач, кроме этого значительно повышается самостоятельность учеников и мотивация к учению.

Однако вместе с тем стоит отметить, что не будет эффективным перевернутый класс, если вы будете просто раз от раза перебегать к нему. Важно использовать эту технологию именно как технология, тоисть взявшись однажды и продолжать её использовать на протяжении долгого времени, используя все её инструменты и приёмы.

Какие же основные элементы технологии перевернутого обучения:

1. Изучения нового материала в интерактивной форме. Здесь учитель предоставляет ученикам материал для самостоятельного изучения дома, то есть, своим ученикам отправляет этот материал, а уже на очном занятии проходит практическое закрепление материала. Это может быть подкасты, интерактивные презентации, может быть обычное видео с YouTube, который возможно вы сделаете интерактивными за счёт внедрение в такое видео специальных вопросов.

2. Кроме этого, ученики уже дома имеют возможность получить обратную связь по результатам ознакомлением нового материала. С другими словами, я посмотрел видео, а затем мне предлагается пройти тест, в котором мне можно будет увидеть, насколько хорошо я разобрался новой темой.

3. Далее ученик приходит в класс и конечно у него есть возможность задать своему учителю вопросы по новому материалу. Здесь же можно рассмотреть какие-то самые сложные ситуации, моменты из изученного материала. После этого 75% занятие, а то и больше мы можем посвятить конкретно формированию практических навыков и умений

4. Важно отмечать, что задания, которые мы даём в формате перевернутого класса носит совершенно необычный характер. Эти должны быть интерактивные заданий, которые носит в себе элементы формирующего оценивания. То есть чтобы эти задания были с обратной связью ученику и согласно этой обратной связью он

понимал, насколько он хорошо сейчас чувствует себя в этой теме, насколько он на самом деле хорошо разобрался с этой темой.

5. Важно еще отметить, что мы учителя становимся уже фасилитатором, а не говорящей головой, которая просто транслирует определенное знание. Согласитесь, что сейчас эпоха интернета, Google и доступности информации очень просто и вряд ли мы будем интересны своим ученикам, если просто будем читать лекции каждый урок. Поэтому добыть информацию просто вопрос как вы сможете ее использовать, насколько качественными будут эти знания, и насколько вы сможете их в жизни применять.

Хотелось бы отметить плюсы данной модели:

- Можно в любой момент поставить на паузу видеолекции, подкасты, либо можно перечитать материал нужное количество раз. Потому что мы знаем, что некоторым ребятам нужно вдуматься, вдумчиво изучить материал.

- Лекции доступно в любое время, то есть можно посмотреть материал утром или вечером, подстроить в свой режим дня, перемотать, поставить на паузу. Более гибкой становится сама система изучения нового материала.

Есть известие о том, что сейчас уже преподаватели в Гарварде некоторые, но все же начинают использовать технологии перевернутого обучения на своих лекциях. Также есть адепты этой технологии в Финляндии и в Эстонии. А Финляндия как мы знаем это одна из передовых стран сейчас по уровню своего образования.

В заключительный момент возникает вопрос как же внедрить эту систему пока что нового в нашей стране в наш учебный процесс? На первом этапе, нужно понять какие форматы подходит ученикам для знакомства с этой темой: видео лекция, аудио подкасты, презентации, какая-либо статья и т.д. Также учителю важно освоить онлайн тренажер, и чтобы ученики могли дома проверить уже изученный материал. На третьем этапе учитель должен продумать, как эффективно применить и проверить знания, которые учащиеся самостоятельно изучил дома как попрактиковаться в этой теме и т.д.

### **Использованные литературы:**

---

1. Blended learning & flipped classroom <https://youtu.be/paQCE58334M?feature=shared>
2. What a “flipped” classroom looks like [https://youtu.be/G\\_p63W\\_2F\\_4?feature=shared](https://youtu.be/G_p63W_2F_4?feature=shared)
3. Перевернутый класс <https://youtu.be/aDjhda2p3J0?feature=shared>
4. Теория Перевернутый класс <https://youtu.be/XFGJDSBgXek?feature=shared>

## СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДИКИ В ОБУЧЕНИИ ФУТБОЛИСТОК

### Annotatsiya.

Maqolada O'zbekiston ayollar futboli muammolari haqida so'z boradi. Shuningdek, futbolchilarni tanlash va tayyorlashning pedagogik va psixo-fiziologik jihatlarini xususida fikr bildiriladi.

### А н н о т а ц и я .

В статье рассматривается проблемы женского футбола в Узбекистане. А также, педагогические и психо-физиологические аспекты отбора и тренировки футболисток.

### Annotation.

The article deals with the problems of women's football in Uzbekistan. And also, pedagogical and psycho-physiological aspects of the selection and training of football players.

### Kalits o'zlar:

ayollar futboli, pedagogik jihatlar, tanlash, tayyorgarlik, psixo-fiziologik jihatlar.

### Ключевые слова:

женский футбол, педагогические аспекты, отбор, тренировка, физиологические аспекты.

### Key words:

women's football, pedagogical aspects, selection, training, physiological aspects.

## ВВЕДЕНИЕ

Проблема повышения уровня физической подготовленности футболисток с каждым годом становится острее – стремительно растёт объём новой информации, узбекский менталитет не позволяет играть в футбол. Такие проблемы в общении футболисток, даёт возможность сопереживания, эмоционального и эстетического восприятия, решения задач и проблем общеполитического, социального, психо-физиологического, педагогического и научного характера. Инновации в тренировочных методиках футбола играют ключевую роль в повышении эффективности подготовки игроков, улучшении их физической и психологической выносливости, а также в развитии тактического и технического мастерства. Современные тренировки включают в себя множество новшеств, как с точки зрения использования новых технологий (например, видеозаписи, анализа данных) для улучшения эффективности тренировок, так и в плане более глубокого понимания физиологических и психологических процессов, происходящих в организме спортсмена. Чёткую последовательность задач, средств и методов обучения и подготовки девушек, занимающихся футболом. Рассмотрим некоторые из этих инноваций.

*1. Использование технологий для анализа игры.* Одной из главных инноваций последних лет является широкое внедрение анализов данных. Это включает в себя как видеозаписи матчей и

тренировок, так и использование специализированных программ и датчиков для мониторинга физической активности игроков.

- **Видеоанализ:** Благодаря, современным технологиям, тренеры могут записывать и анализировать каждый момент игры, а затем использовать эти данные для улучшения стратегического подхода. Программы, такие как **Hudl** или **Veo**, позволяют детально разобрать ошибки на поле, посмотреть на них с разных ракурсов, а также дают возможность сравнивать действия разных игроков.

- **Сенсоры и GPS-устройства:** Использование **GPS-датчиков**, которые размещаются на футболках игроков, позволяет точно отслеживать такие параметры, как скорость, дистанция, интенсивность работы и даже количество ускорений или замедлений. Это помогает тренерам корректировать нагрузки, а также отслеживать физическую готовность игроков.

**2. Тренировки с виртуальной реальностью (VR).** Одной из наиболее интересных инноваций является использование **виртуальной реальности** в тренировках. Виртуальные тренировки позволяют футболистам моделировать игровые ситуации, не выходя на поле. Это помогает развить реакцию, улучшить принятие решений в стрессовых ситуациях и повысить концентрацию.

- **Тренировка реакции:** Игроки могут использовать VR-симуляторы для тренировки реакций на различные игровые ситуации. Например, они могут тренировать навигацию по полю, а также улучшать тактические навыки в виртуальной среде.

- **Психологическая подготовка:** VR-технологии также помогают работать с эмоциями игроков, моделируя давление на поле в различных ситуациях. Это важно для психологии игрока, особенно в моменты решающих матчей или при столкновениях с сильными соперниками.

**3. Использование аналитики больших данных (Big Data).** Большие данные играют ключевую роль в анализе как **общей подготовки игроков**, так и в оценке их действий на поле.

- **Технический анализ игры:** С помощью аналитики данных можно выявить ключевые моменты, которые влияют на результат матча. Например, тренеры могут изучить, какие действия приводят к созданию опасных моментов, а также понять, какие тактические схемы наиболее эффективны против разных соперников.

- **Персонализированные тренировки:** На основе собранных данных можно составить **индивидуальные тренировочные планы**, учитывая особенности физической подготовки каждого игрока, его слабые и сильные стороны. Например, одни игроки могут сосредоточиться на улучшении своей выносливости, а другие – на технике или тактике.

**4. Микроциклирование тренировочных нагрузок.** Современные тренеры начинают активно использовать **микроциклирование** – это подход, при котором тренировки подстраиваются под индивидуальные потребности игрока. В отличие от традиционного планирования тренировки, где тренировка часто строится по стандартному графику для всей команды, микроциклирование позволяет оптимизировать нагрузку для каждого игрока на основе его текущего физического состояния, возраста, опыта и других факторов.

• **Микроциклирование и восстановление:** Важно, не только создать подходящие тренировки, но и уделить внимание восстановлению после нагрузки. Применение методов восстановления, таких как **криотерапия** (холодные ванны или ледяные компрессы), **массаж** и другие формы физиотерапии, стало важным элементом тренировочного процесса.

**5. Психологическое и ментальное тренирование.** Сегодня тренеры все больше обращают внимание на психологическую подготовку игроков, и это связано с инновациями в области ментального тренинга.

• **Психологическая подготовка:** Включение психологов и ментальных тренеров в командную работу помогает спортсменам справляться с эмоциональными перегрузками, стрессом и повышает их психологическую устойчивость. Методы, такие как **визуализация** успеха или тренировка внимания и концентрации, становятся неотъемлемой частью тренировочного процесса.

• **Нейрофидбек:** Эта технология позволяет отслеживать и улучшать работу мозга игроков. Например, нейрофидбек может использоваться для тренировки концентрации внимания и эмоциональной устойчивости. С помощью датчиков измеряются мозговые волны игрока, и тренер может корректировать поведение, обучая игрока сосредотачиваться или расслабляться в нужный момент.

**6. Использование биомеханических анализов.** Для улучшения техники игры все чаще используются **биомеханические исследования**. С помощью специальных камер и сенсоров тренеры могут анализировать движения игроков, определяя, где можно улучшить технику исполнения удара, передачи или приема мяча.

• **Кинезиология:** Эта область изучает движение тела и то, как различные элементы (мышцы, суставы, кости) взаимодействуют во время игры. С помощью биомеханических устройств и программ тренеры могут оценить, насколько эффективно движется игрок, и предложить методы коррекции.

Инновации в тренировочных методиках футбола значительно расширяют горизонты подготовки игроков, позволяя делать тренировки более персонализированными и научно обоснованными. Использование технологий, таких как видеоанализ, VR-тренировки, аналитика данных, а также новые подходы в психофизиологическом и биомеханическом тренинге, позволяет достичь высоких результатов как в индивидуальном, так и в командном развитии. В будущем мы можем ожидать ещё большего внедрения высоких технологий и новых методов, что сделает подготовку футболистов еще более эффективной.

**Психологические тренировки:** методы работы с эмоциями и психическим состоянием спортсменов. Психологические тренировки футболистов – это неотъемлемая часть их подготовки, которая включает в себя работу над психоэмоциональным состоянием, мотивацией, уверенностью и внутренней устойчивостью. Важность психологической подготовки для спортсменов в современном спорте невозможно переоценить, поскольку именно психология часто становится ключевым фактором, определяющим успешность игрока на поле, особенно в критических ситуациях.

*1. Развитие уверенности в себе.* Один из важнейших аспектов психологической подготовки футболистов – это развитие уверенности в собственных силах. Неуверенность, сомнения и страх могут повлиять на игровое поведение, замедлить реакцию или привести к неверным решениям в ключевых моментах игры.

• **Методы:**

○ **Положительные самовыражения:** тренер может мотивировать футболистов, используя методы позитивного подкрепления, например, регулярное напоминание о их успехах и достижениях.

○ **Визуализация:** техника визуализации помогает игроку заранее представить успешные моменты игры, что повышает уверенность в себе и снижает тревожность.

○ **Психологические тренировки на основе успеха:** важно в процессе тренировки воспроизводить ситуации, которые создают положительные эмоции и достижения, чтобы укрепить уверенность игрока в своих силах.

*2. Управление эмоциями и стрессом.* В футболе эмоции часто играют значительную роль. Игроки подвержены стрессу и давлению, особенно в критические моменты матча, такие как последние минуты игры или выполнение решающих ударов.

• **Методы:**

○ **Дыхательные техники:** использование дыхательных упражнений помогает снизить уровень стресса и вернуть контроль

над эмоциональным состоянием. Например, глубокое дыхание через живот помогает расслабиться и успокоиться.

- **Техники релаксации:** прогрессивная мышечная релаксация или медитация помогают снизить напряжение и расслабить тело, что позитивно влияет на общую производительность.

- **Психологическая подготовка к неудачам:** важно учить футболисток воспринимать неудачи как часть игры, а не как катастрофу. Это может включать тренировку на перенос эмоциональных переживаний после ошибки или неудачного удара.

3. *Психологическая устойчивость и восстановление после неудач.* Футболистки, как и другие спортсмены, должны быть готовы к поражениям и неудачам. Важной задачей психологических тренировок является формирование **психологической устойчивости** – способности быстро восстанавливаться после потери, ошибки или неудачного матча.

- **Методы:**

- **Ментальные тренировки на восстановление:** создание стратегий и техник, помогающих игроку восстанавливать эмоциональный баланс. Например, техника рефрейминга позволяет переосмыслить негативные моменты и сфокусироваться на том, что можно улучшить в будущем.

- **Поддержка команды:** тренеры и капитаны могут активно работать с командой для создания поддерживающей атмосферы, чтобы помочь игрокам поддерживать друг друга в моменты неудач и преодолевать трудности.

4. *Мотивация и целеустремленность.* Психологическая подготовка включает в себя работу над **мотивацией** футболисток, чтобы они стремились к развитию, преодолевали трудности и постоянно улучшали свои навыки. Важно учитывать как **внутреннюю мотивацию** (жажда успеха, желание улучшиться), так и **внешнюю мотивацию** (победа ради команды, тренера, семьи).

- **Методы:**

- **Целеполагание:** работа над краткосрочными и долгосрочными целями. Это могут быть как индивидуальные цели (улучшение технических навыков), так и командные цели (победа в турнире).

- **Достижение через маленькие победы:** поддержание высокого уровня мотивации через последовательное достижение маленьких целей, которые ведут к более крупным успехам.

- **Позитивная мотивация:** тренер может использовать позитивное подкрепление, отмечая достижения футболисток и команды, а также создавая атмосферу соревнования в тренировках для стимулирования роста.

5. *Сосредоточенность и концентрация.* Для того чтобы принимать правильные решения в игре, футболистам необходима высокая степень сосредоточенности и концентрации. Это особенно важно в моменты игры, когда время ограничено, а решения должны приниматься быстро.

• **Методы:**

○ **Фокусировка внимания:** тренировки на сосредоточение внимания, например, при решении сложных игровых задач или работе с мячом в условиях повышенной сложности.

○ **Техники управления вниманием:** тренеры учат футболисток выделять важные элементы игры, минимизируя внешние отвлекающие факторы, такие как шум зрителей или давление со стороны соперников.

○ **Медитация и внимательность:** медитация помогает развить внимание и самоконтроль, что полезно для улучшения концентрации как в процессе тренировки, так и во время игры.

6. *Работа с командным духом и взаимодействием.* Футбол – командный вид спорта, и психологическая тренировка также включает в себя работу над командным духом и взаимоотношениями между игроками.

• **Методы:**

○ **Групповые тренировки на взаимодействие:** игры и упражнения, которые требуют взаимодействия и командной работы, помогают наладить коммуникацию и улучшить взаимодействие на поле.

○ **Психологические тренировки для укрепления доверия:** регулярная работа над укреплением доверия между футболистками через командные мероприятия или тренировки на доверие помогает улучшить атмосферу в коллективе.

7. *Психологическая подготовка к важным матчам.* Перед решающими играми или важными турнирами психологические тренировки становятся особенно актуальными. В эти моменты важно работать с уровнем стресса, нервозности и давления.

• **Методы:**

○ **Когнитивно-поведенческая терапия (КПТ):** помогает футболисткам справиться с беспокойством, улучшить эмоциональное восприятие ситуации и подготовиться к борьбе за победу.

○ **Мотивационные беседы и визуализация успеха:** тренеры могут проводить мотивационные сессии, направленные на вдохновение игроков и усиление чувства принадлежности к команде и важности предстоящего матча.

**Заключение.** Психологическая тренировка футболисток является неотъемлемой частью подготовки успешных спортсменок. Развитие

уверенности, мотивации, устойчивости к стрессу, концентрации и взаимодействия в команде помогает футболистам не только преуспевать на поле, но и сохранять психоэмоциональное равновесие в сложных ситуациях. Интеграция психологических методов в общий тренировочный процесс является ключом к гармоничному развитию личности игрока и успеху команды.

### Использованные литературы:

---

1. Бондарь С.И. Результаты ветеранских соревнований по футболу. Дата обращения: 27 февраля 2010. Архивировано из оригинала 29 октября 2013.
2. Зайцев А.А. Биологическое обоснование концепции развития компонентов подготовленности под влиянием соматотипспецифических изменений растущего организма спортсменов командно-игровых видов: дис. ... д-ра биол. наук / Зайцев А.А. – Малаховка, 2005. – 333 с.
3. Соха Т. Женский спорт (новое знание – новые методы тренировки) / Т. Соха. – М.: Теория и практика физической культуры, 2002. – 203 с.
4. Коц Я.М. Спортивная физиология. Учебник для институтов физической культуры. – М. 1981.
5. Социально-педагогические аспекты физической культуры [Текст]: учебное пособие / В.Н. Иваницкий, Н.А. Петухов, В.Э. Бельц, С.Н. Харлапов, Н.С. Ермакова. – Томск: Изд-во Том. гос. архит.-строит. ун-та, 2016. – 120 с.
6. Дублибский А.В. Повышение эффективности спортивного отбора в футболе. Проблемы фізичного виховання і спорту. № 8. 2010. –С.32-33.

## **BIOLOGIYA FANIGA OID LOYIHALARNI TUZISH VA BAHOLASH**

### **Annotatsiya.**

Ushbu maqolada biologiya faniga oid ilmiy izlanishlarni tashkil etish, loyihalarni rejalashtirish va baholash bosqichlari yoritilgan. Xususan, biologik tadqiqotlar muammosini aniqlash, maqsad va vazifalarni belgilash, metodikani tanlash hamda kutilayotgan natijalarni oldindan baholash masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ilmiy dalillarni tanqidiy tahlil qilish, ularning ishonchligi va amaliy ahamiyatini baholash muhim jihat sifatida ta'kidlangan. Mazkur maqola biologiya sohasida ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar uchun nazariy va amaliy jihatdan foydali bo'lishi mumkin.

### **А н н о т а ц и я .**

В данной статье рассматриваются этапы организации, планирования и оценки научных исследований в области биологии. Особое внимание уделяется формулировке научной проблемы, постановке целей и задач, выбору методики исследования, а также прогнозированию ожидаемых результатов. Кроме того, подчёркивается важность критического анализа научных данных, включая оценку их достоверности и практической значимости. Эта статья может быть полезна с теоретической и практической точки зрения для исследователей, проводящих научные исследования в области биологии.

### **Annotation.**

This article discusses the planning, structuring, and evaluation of scientific research projects in the field of biology. It covers key stages such as identifying the research problem, setting objectives and tasks, selecting appropriate methodologies, and forecasting expected outcomes. Special attention is given to the critical analysis of scientific data, including the evaluation of the reliability and practical significance of findings. This article can be useful from both theoretical and practical perspectives for researchers conducting scientific studies in the field of biology.

### **Kalits o'zlar:**

biologiya, ilmiy izlanish, tadqiqot loyihasi, metodologiya, tanqidiy tahlil, fotosintez, ekologiya, organizm faoliyati, ma'lumotlar tahlili, eksperiment.

### **Ключевые слова:**

биология, научное исследование, исследовательский проект, методология, фотосинтез, экология, активность организма, анализ данных, эксперимент.

### **Key words:**

biology, scientific research, research project, methodology, critical analysis, photosynthesis, ecology, organism activity, data analysis, experiment.

## **KIRISH**

Biologiya fanining zamonaviy taraqqiyoti ko'p jihatdan chuqur ilmiy izlanishlarga bog'liq. Yangi kashfiyotlar, organizmlar faoliyatini tushunish, ekologik muammolarni hal etish – bularning barchasi asosli va puxta rejalashtirilgan tadqiqotlar orqali amalga oshiriladi. Shu sababli biologik loyihalarni to'g'ri tuzish, natijalarni baholash va ilmiy dalillarni tanqidiy tahlil qilish tadqiqotchining asosiy vazifalaridan sanaladi [1]. Shu o'rinda, ilmiy izlanishlar nafaqat mavjud bilimlarni kengaytiradi, balki insoniyatga yangi imkoniyatlar yaratish uchun ham katta ahamiyatga ega. Masalan, ekologik muammolarni hal qilishda yangi biologik texnologiyalar o'ta muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda bizga ma'lum bo'lgan bilimlarning aksariyati olimlar yillar davomida olib borgan tadqiqotlar natijasidir. Fanga doir bilimlarni

o'rganish, dalillarni to'plash, tushunchalarni tekshirish yoki muammolarni hal qilish uchun tekshiruvlar o'tkazishimiz kerak. Biologik tadqiqot loyihasini amalga oshirish uchun avvalam bor, tadqiqot muammosi aniqlanib berilgan ilmiy tadqiqotda asosiy savollarni ajratib farazni ilgari surish lozim. Muammo aniq, dolzarb va eksperimental jihatdan tekshirib bo'ladigan bo'lishi lozim [2]. Masalan, o'simliklarning fotosintez jarayoniga turli yorug'lik intensivligining ta'sirini o'rganish biologiya faniga yangi bilimlar olib kelishi mumkin, ayniqsa, o'simliklarning optimal o'sish sharoitlarini aniqlashda juda foydali bo'ladi. So'ngra tadqiqot maqsadini aniqlab olinadi, ya'ni yorug'lik miqdorining ta'siri aniqlanadi. Laboratoriya sharoitida tadqiqot o'tkazish, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va xulosa chiqarishdan iborat bo'lishi mumkin [3]. Bunda, albatta, tadqiqotning samaradorligini yuqori darajaga olib chiqish uchun tajriba sharoitlarini aniq belgilash muhim. Masalan, har bir tadqiqot uchun atrof-muhit omillarini ham hisobga olinadi. Ushbu mavzuda o'tkazilgan ilmiy ishlar, maqolalar va maqbul gipotezalar o'rganiladi hamda bu bosqichda turli manbalar qo'llaniladi [4]. Albatta adabiyotlar tahlili yangi tadqiqotlarni rivojlantirish uchun juda zarur, chunki u ilgari mavjud bo'lgan bilimlar va izlanishlar bilan tanishishga yordam beradi.

Biologiyada turli metodlar, ayniqsa, spektrofotometriya, DNK analiz usullari, mikroskopik tahlil yoki ekologik monitoring kabi usullar juda muhim. Tanlangan usul tadqiqotga mos kelishi kerak [5]. Ilmiy tadqiqot metodlari va tadqiqot jarayonlarining to'g'ri tanlanishi tadqiqotning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun muhim omildir. Misol uchun, mikroskopiya usullari kichik tuzilmalarning o'rganilishi uchun juda foydali, lekin genetik tahlillarni amalga oshirish uchun molekulyar metodlarni tanlash zarur. Loyiha bajarilgach, qanday biologik xulosa chiqarilishi mumkinligi oldindan taxmin qilinadi. Masalan, yorug'lik intensivligining ortishi bilan fotosintez tezligi qanday o'zgarishini oldindan prognoz qilgan holda tadqiqot olib boriladi [6]. Agar tadqiqotlar kutilgan natijaga erishsa, bu nafaqat fotosintez jarayonini yanada yaxshiroq tushunishimizga yordam beradi, balki qishloq xo'jaligi sohasida ham yangi imkoniyatlar yaratadi. Tadqiqotning bosqichlarida foydalanadigan jixozlar, reaktivlar va vaqt belgilanadi [7]. Tadqiqotning samaradorligi faqat aniq rejalashtirishga bog'liq. Ushbu reja sharoitlarni oldindan o'rganish va zarur resurslarni vaqtida taqdim etish orqali amalga oshiriladi. Biologiyada ma'lumotlar ko'p hollarda statistik tahlil orqali isbotlanadi. Misol uchun, tajriba guruhidagi o'zgarishlar nazorat guruhi bilan solishtiriladi. Shu sababli **manbaning ishonchliligi tekshirilishi zarur hamda ma'lumotning zamonaviyligi muhim hisoblanadi. Bundan tashqari bir xil tajriba boshqa hududlarda qanday natija berganligini ya'ni dalillarni solishtirish lozim.** Agar tadqiqotlarda qarama-qarshi xulosa berilgan bo'lsa, ularning sharoit va metodikasi solishtiriladi

[9]. Tanqidiy tahlilning foydasi shundaki, bu nafaqat mavjud natijalarni tasdiqlash, balki yangi yo'nalishlar ham topishga yordam beradi. Bu dalilni inkor etish emas, balki uni chuqur tushunish demakdir [10]. Bu yondashuv ilmiy jarayonning o'ziga xos xususiyatidir. Tadqiqotda fotosintez jarayoniga yorug'lik miqdorining ta'sirini o'rganish uchun quyidagi tadqiqot rejasini tuzgan holda bajariladi. Fotosintez tezligi o'lchovlari har xil yorug'lik intensivligida (kam, o'rtacha, yuqori) amalga oshirilganligi to'g'risida ma'lumotlar yig'iladi. Ushbu tadqiqot yuzasidan ilmiy ishlanishlar olib borish uchun spektrofotometrik o'lchovlar usulida organiladi va yorug'likning har xil intensivligi bilan bir nechta guruhlar bilan tajribalar o'tkaziladi. Natijada yorug'likning ortishi bilan fotosintez tezligi qanday o'zgarishini kuzatiladi. Tadqiqotda olingan ma'lumotlar statistik tahlil qilish uchun guruhlar orasidagi farqlarni baholash lozim.


Tajriba guruhida fotosintez tezligi va yorug'likning turli intensivliklaridagi o'zgarishlar ko'rsatilgan.

Guruh	Yorug'lik intensivligi (Luk)	Fotosintez tezligi (CO <sub>2</sub> m <sup>2</sup> /s)
1	1000	5,2
2	5000	8,7
3	10000	12,3

1-jadval. O'simliklarning fotosintez jarayoniga turli yorug'lik intensivligining ta'sirini

Ushbu jadvalda, **1-guruh** quyi yorug'lik sharoitida (1000 lux), **2-guruh** o'rtacha yorug'lik (5000 lux) va **3-guruh** yuqori yorug'lik sharoitida (10000 lux) fotosintez tezligini o'lchagan natijalar ko'rsatilgan.

Yorug'lik intensivligi oshgan sari o'simlikda fotosintez tezligi ham oshib boradi. Lekin ma'lum bir nuqtaga yetganda yorug'lik intensivligi qancha oshmasin, fotosintez tezligi o'zgarmaydi.



1-rasm. Fotosintez tezligiga yorug'lik intensivligining ta'sir

1-rasmdagi A va B egri chiziq oralig'ida yorug'lik cheklovchi omil hisoblanadi. Yorug'lik intensivligi past bo'lganligi sababli o'simlikda fotosintez sekin amalga oshadi. O'simlikka yorug'lik kam tushgani uchun fotosintez tezligi cheklangan. Grafikda yuqoriga ko'tarilayotgan chiziq

yorug'lik intensivligi oshgan sari fotosintez tezligi ortishini ko'rsatadi. Biroq yorug'lik B va C oraliqda cheklovchi omil emas. Yorug'lik intensivligi oshsa hamki, fotosintez tezligi o'zgarishsiz qolganligini grafikda ko'rishingiz mumkin. Yorug'lik intensivligi B dan oshganda o'simlikka foydalanish uchun yorug'lik miqdori yetarli bo'ladi va fotosintez tezligi o'zgarmaydi.

Biologik tadqiqotlar zamonaviy fanning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Ular orqali insoniyat tirik organizmlar haqidagi bilimlarini kengaytiradi, yangi dori vositalari, ekologik yechimlar ishlab chiqiladi. Shuning uchun biologik izlanishlar loyihasi puxta tuzilgan, ilmiy asosli va tanqidiy tahlil qilingan bo'lishi zarur. Bu yondashuv biologiya sohasida muvaffaqiyatli natijalarni ta'minlaydi. Agar tadqiqotlar maqsadga muvofiq bo'lsa, ular nafaqat ilm-fan uchun, balki ijtimoiy rivojlanish uchun ham foydali bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. Johnson M. (2018). *Research Methods in Biology: A Practical Guide for Scientists*. Cambridge University Press.
2. Smith R., & Brown P. (2020). *Experimental Design and Analysis in Biology*. Oxford University Press.
3. Harris S. (2017). *Critical Thinking in Scientific Research*. Academic Press.
4. Kramer A., & Hartley, J. (2019). *Ecological Methods and Their Applications in Biology*. Springer.
5. Green D. (2016). *Understanding Photosynthesis in Plants*. Wiley & Sons.
6. Zhang Y., & Liu, W. (2021). *Advances in Molecular Biology and Their Impact on Ecology*. Elsevier.
7. Tanner S., & Watts B. (2015). *Biological Data Analysis: A Guide to Methods and Techniques*. CRC Press.
8. Harris S. (2017). *Critical Thinking in Scientific Research*. Academic Press.
9. Green D. (2016). *Understanding Photosynthesis in Plants*. Wiley & Sons.
10. Zhang Y., & Liu W. (2021). *Advances in Molecular Biology and Their Impact on Ecology*. Elsevier.

## "NIMA UCHUN?", "QANDAY?" VA "NIMA?" SAVOLLARIGA ASOSLANGAN TA'LIMNI TASHKIL ETISH

### Annotatsiya.

Ushbu tezis ta'lim jarayonida mentorlik, ya'ni murabbiylik faoliyati, "Nima uchun?", "Qanday?", "Nima?" kabi savollarga qaratilgan bo'lib, mentorlik va trenerlik amaliyotida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilishga ko'makchi bo'lib xizmat qiladi. Mentorlik faoliyatida yosh stajyor o'qituvchilar hamda tajribali pedagoglar bilan ish olib borish texnologiyasi batafsil yoritib berilgan. Bunda maktabda ta'lim jarayonini tashkil qilish hamda o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

### А н н о т а ц и я .

Данный тезис направлен на организации менторства образовательного процесса по естественным наукам на основе вопросов вопросам "Почему?", "Как?", "Что?", т.е. менторской деятельности в образовательном процессе, и служит для решения проблем, которые могут возникнуть в учебных тренингах. Подробно раскрыта методика работы с молодыми учителями-стажерами и опытными педагогами в менторской деятельности. В методической рекомендации особое внимание уделяется организации школьного образовательного процесса и формированию у учащихся компетенций естественнонаучной грамотности.

### Annotation.

This article is aimed at organising mentoring of the educational process in natural sciences on the basis of 'Why?', 'How?', 'What?' questions, i.e. mentoring activity in the educational process, and serves to solve problems that may arise in training courses. The methodology of work with young trainee teachers and experienced teachers in mentoring activities is disclosed in detail. The methodological recommendation pays special attention to the organisation of the school educational process and the formation of students' competences of natural science literacy.

### Kalits o'zlar:

mentorlik, murabbiylik faoliyati, trening, savodxonlik kompetensiyalari, tajribali o'qituvchi, stajyor o'qituvchi, ilmiy jarayon ko'nikmalari, so'rovga asoslangan ta'lim, kaskadlash, master trener.

### Ключевые слова:

менторство, тренерская деятельность, тренинг, компетенции грамотности, опытный преподаватель, стажер-преподаватель, навыки научного процесса, обучение на основе опроса, каскадирование, мастер-тренер.

### Key words:

mentoring, coaching, training, literacy competencies, experienced teacher, trainee teacher, scientific process skills, inquiry-based learning, cascading, master trainer.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda maktab o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va kasbiy mahoratini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish orqali umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida ushbu qaror ijrosini ta'minlash hamda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy

rivojlanish soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 246-son buyrug‘i qabul qilindi. Unda “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarining maqsadi va asosiy vazifalari bu tadbirlarni tashkil etish tadbirlarida ishtirok etuvchi o‘qituvchilar, tadbirlarni tashkil etish, Master-trener va mentor-o‘qituvchilar tarkibini shakllantirish va ularni sifali tashlik etish, nazorat qilish yuzasidan tegishli bandlar qamrab olingan.

## **MENTORLIK FAOLIYATINI YO‘LGA QO‘YISH HAMDA O‘QITUVCHILAR BILAN ISHLASH**

Mentorlik ochiqlik va ishonchga asoslangan strategik hamkorlikdir. Asosiy tamoyil – ustozning o‘z shogirdi bilan baham ko‘rishga tayyor bo‘lgan tajriba, mahorat yoki salohiyatga ega bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Murabbiy o‘z tajribasi va bilimlari bilan o‘rtoqlashadi, shogirdning rivojlanishi va mustaqil faoliyat olib borishiga yordam beradi va qo‘llab-quvvatlaydi.



Mente (shogird o‘qituvchi) – bu murabbiy bilan ishlash vakolatiga ega bo‘lgan shaxs.

Mentorlik faoliyatining natijasi uning shaxsiy tajribasi va shogirdning mustaqil faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi

Mentorlikning “Nima uchun?, qanday?, nima?” modeli ichma-ich uchta konsentrik doiralardan iborat.

1-bosqich. Nima uchun aynan shu faoliyatni amalga oshirmoqchimiz?

Doiraning markazida "Nima uchun?" savoli turadi. Masalan, nima uchun aynan shu yerdasiz? Ehtimol mentorlik haqida internet tarmoqlaridan ma‘lumot qidirgandirsiz...

Chunki siz o‘zingizga yangilik olishni, o‘zingizni rivojlantirishni va boshqalarga ko‘mak berishni maqsad qilgansiz!

Mentorlik faoliyatida eng ichki doiradagi “Nima uchun?” savoli asosiy maqsad yoki g‘oyani belgilaydi. Bu maqsad har doim shogirdga qaratiladi. Demak, “Nima uchun?” degan savolga ishonchli javob topa olish juda muhimdir. Modelning “Nima uchun?” savoli – bu sizning faoliyatingizga o‘ziga xos ustuvorlik beradigan muhim jihatdir. Masalan, Tesla avtomobil ishlab chiqaruvchisi o‘z mijozlariga yo‘naltirilgan “Nima uchun?”ni juda samarali amalga oshiradi. Shuning uchun bu kompaniya brendi jahon miqyosida qadrlanadi. Chunki mijoz uchun barcha “Nima uchun” degan savollar o‘rganib chiqilgan.

2-bosqich. Qanday amalga oshiramiz (bajaramiz)?

Maqsadga “Qanday qilib?” erishish yo‘llari, faoliyatni amalga oshirish usullari aynan shu savol orqali tasvirlanadi. Ushbu jarayonda maqsadga tomon yo‘l ko‘rsatadigan va “Nima uchun?” yo‘nalishini belgilaydigan strategiyalar va jarayon modellari ishlab chiqiladi. Masalan, agar “Nima

uchun?" – bu bir yashirin xazina bo'lsa, "Qanday qilib?" savoli shu xazinani aniqlovchi xaritadir.

Ma'lum bir faoliyatda "Qanday qilib?" savoli amalga oshirish, tuzish, tizimlashtirish va yaratish jarayonlarini, o'z model va strategiyalarini belgilaydi. Ushbu strategik faoliyatda "Nima uchun?"ga qanday erishish usullari aniqlanadi.

2-bosqich. Nima qilamiz?

Va nihoyat, "Nima?" savolida aniq harakat va faoliyatlar aniqlanadi. Nima uchun?, Qanday?, Nima? modelining konsentrik tuzilishi tufayli "Nima?" savoli asosiy bosh maqsad va yondashuv bilan bog'liqdir.

Mentorlik faoliyatida "Nima?" savoli taqdim etilayotgan aniq bilim va ko'nikmalarni tavsiflaydi. Ushbu amaliy jarayonda aniqlik talab etiladi. Shuning uchun tajribali mentorlar ko'plab shogirdlarni ular tuzgan rejalari va amalga oshirish mexanizmlarini "Nima?" savoli orqali aniqlashga va farqlashga harakat qilishadi.

MENTOR	MASTER	FASILITATOR
<p>Mentorlik faoliyati-tajribani uzatish modeli bo'lib, u o'ziga biriktirilgan yosh o'qituvchi yoki tajribali o'qituvchilar jamoasiga murabbiy, maslahatchi bo'lib xizmat qiladi, ularning kasbiy rivojlanishi, o'sishi va yosh, ish faoliyatini yaqinda boshlagan hamkasblarini qo'llab-quvvatlash uchun imkoniyatlar yaratadi</p>	<p>Mentorga nisbatan ko'proq tajribaga ega bo'lib, mentorga o'z mahorati va kasbiy ko'nikmalarini oshirishda yordam beradi. Ularning kelgusi strategiyalarini belgilaydi, qo'llab quvvatlaydi va guruh dinamikasini baholaydi. Master trenerlik faoliyati mentorning maqsadga erishishini ta'minlashga qaratiladi</p>	<p>Belgilangan maqsadga erishishini ta'minlash uchun muvaffaqiyatli o'zaro ta'sirni ta'minlaydi</p> <p>Umumiy maqsadni tushunishga yordam beradi, guruhning ijobiy dinamikasini saqlab qoladi</p> <p>Muhim jihati shundaki, fasilitator, jamoada samarali va ish muhitini ta'minlaydigan mustaqil rahbar vazifasini bajaradi</p>

Biz harakatlanayotgan jismlarni ko'rganda, kutilmagan notanish tovushni eshitganda, qandaydir noma'lum hidni sezganda, qorong'ida (yoki ko'z yumuq holatida) paypaslab qo'l barmoqlari yordamida ushlab ko'rganda, savol beramiz: Bu nima? Bu nimaligini qanday aniqlaymiz? Va

buni nima uchun aniqlamoqchimiz?

Notanish yoki noaniq hodisalarni, ma'lumotlarni, his-tuyg'ularni yoki g'oyalarni aniqlash uchun tushuntirish ko'nikmasini ishlatamiz. Bu narsalar qanday ishlashi, ular nimani anglatishini, qayerda joylashishi va nima uchun sodir bo'lishini aniq, batafsil tarzda tushuntirish muhimdir.

Tushunish shunchaki dalillarni bilish emas, balki nima uchun va qanday qilib bilishdir.

Ushbu maqola tabiiy fanlar o'qituvchilari, ta'lim sohasi mutaxassislari va metodistlar uchun juda muhim va dolzarb manba hisoblanadi. Maqolada tabiiy fanlar, jumladan fizika fanidan dars jarayonida o'quvchilarda tadqiqotchilik va amaliy ko'nikmalarni hamda tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirish metodikalari misollar orqali berilgan bo'lib, unda tabiat va jamiyatda ro'y berayotgan turli o'zgarishlar, atrof-muhit, ilm-fan va texnologiya yutuqlari kabi sohalarga o'quvchilarni qiziqtirish, ularda izlanuvchanlik, tadqiqotchilik qobiliyatlarini namoyon qilish jarayonida o'qituvchining vazifasi va yondashuvlari atroflicha yoritilgan.

Unda keltirilgan misollar hayotiy vaziyatlarga asoslangan bo'lib, o'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga va turli fanlar doirasida integrativ yondashuvni shakllantirishga ko'mak beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida"gi 246-son buyrug'i .

3. Kris Hughes. How to create a product roadmap: examples& templates included. May 20, 2024.

4. Grant Wiggins. Every teacher should ask these questions before implementing that lesson plan.

5. Ismailov A.A. va boshq. PISA tadqiqotida tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlikni baholash. – Toshkent: 2025.

6. <https://pisa-framework.oecd.org/science-2025/>

Urinbayeva Dilbar  
Bazarovna

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Boshlang'ich  
ta'lim va filologiya fanlari metodikasi kafedrası professorı

## ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA O'QUV TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH USULLARI

### Annotatsiya.

Mazkur maqolada ona tili va adabiyot darslarida o'quv tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish usullari xususida fikr bildirilgan. "O'quv tadqiqot faoliyatini tashkil qilish", "ta'limda tadqiqot metodlaridan foydalanish", "o'quv tadqiqot faoliyatini loyihalashtirish" kabi tushunchalarga izoh berilgan.

### А н н о т а ц и я .

В данной статье рассматривается мнение о методах организации учебно-исследовательской деятельности на уроках родного языка и литературы. «Организация учебно-исследовательской деятельности», «использование методов исследования в образовании», «проектирование учебно-исследовательской деятельности» и т.д.

### Annotation.

This article examines the opinion on the methods of organizing educational research activities in native language and literature lessons. «Organization of educational research activities», «use of research methods in education», «design of educational research activities», etc.

### Kalits o'zlar:

funktional savodxonlik, o'qish savodxonligi, PISA, pedagogik texnologiya, tekst, analiz, o'zbek folklori, doston, interaktiv, texnologiya, metod.

### Ключевые слова:

функциональная грамотность, грамотность чтения, PISA, педагогическая технология, текст, анализ, узбекский фольклор, эпос, интерактив, технология, метод.

### Key words:

functional literacy, reading literacy, PISA, pedagogical technology, text, analysis, Uzbek folklore, epic, interactive, technology, method.

## KIRISH

Doimiy rivojlanib borayotgan ta'limdagi o'zgarishlar oqimini boshqarish ham o'quvchilar, ham o'qituvchilar uchun juda muhimdir. An'anaviy amaliyotlar va statik metodologiyalar bilan tavsiflangan ta'lim sayohati endi innovatsiyalar va zamonaviy tendentsiyalar tomon o'zgarib bormoqda. XXI asrning boshi ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va pedagogik yutuqlarning uyg'unlashuvi natijasida ta'limda zamonaviy paradigma o'zgarishini e'tirof etmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: *"Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi"*.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrleydigan yuqori malakali kadrlar

tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, umumiy o'rta ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslash vazifasini bajarib bermoqda.

Pedagogik adabiyotlarda "o'quv tadqiqot faoliyati" termini turlicha talqin qilingan. Pedagogik terminologiyada "O'quv tadqiqot faoliyatini tashkil qilish", "ta'limda tadqiqot metodlaridan foydalanish", "o'quv tadqiqot faoliyatini loyihalashtirish" kabi tavsiflash kuzatiladi. M.D.Dammer tomonidan "tadqiqot faoliyati" tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Tadqiqot faoliyati - bu insonning ongi va faolligi vositasida boshqariladigan va intellektual - bilish ehtiyojlarini qondirishga yo'naltiriladigan o'ziga xos faoliyati bo'lib, uning mahsuloti yangi bilimdir" [1, 24-b]. P.V.Seredenko tadqiqotli o'qitishning metodologiyasini asoslashda, tadqiqot faoliyati izlanish faolligi natijasida yuzaga chiqadigan tadqiqotchilik hatti-harakatlar negizida amalga oshirilishini qayd etadi. Tadqiqotchilik xatti-harakatlari esa, "yangi axborotni axtarish va o'zlashtirishga yo'naltirilgan hatti-harakatlar; atrof-borliq bilan uni bilishga qaratilgan o'zaro fundamental ta'sirlashuv shakli; inson faoliyatining muhim qirrasidir" [2].

Tadqiqotchi J.Bruner o'qitishga tadqiqot yondashuvini asosiy tamoyillarni bir nechta shaklini ishlab chiqqan va umumlashtirilgan [3].

Adabiyotlar tahlilidan shu xulosaga kelindiki, o'quv tadqiqot faoliyatini tashkil qilish darsni rejalashtirilishiga bog'liq bo'ladi. Dars 45 daqiqaga mo'ljallangan, agar darsning mustahkamlash jarayonida 10 daqiqaga qisqa muddatli tadqiqot amalga oshirilsa, metod sifatida qaraladi. Agar 45 daqiqaga, ya'ni o'tilgan mavzuni so'rash, yangi mavzu bayoni, mustahkamlash bosqichlarida o'quv tadqiqoti rejalashtirilsa, tadqiqot faoliyatini loyihalashtirish sifatida qaraladi. Ammo ko'p holatlarda tadqiqot metodi, tadqiqotni loyihalashtirish, tadqiqot texnologiyasi kabi tushunchalarni aralash qo'llaniladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot faoliyatining mohiyati yangi narsani - obyektiv ravishda mavjud bo'lgan, ammo ilgari noma'lum bo'lgan narsani kashf qilishdir. Yangi bilimni egallash kam resurs sarflab, qimmatli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan jarayonlarni amaliy darslarda tashkil qila olish, ya'ni o'quv tadqiqoti va ishlanmalarni tayyorlashda ko'rinadi.

Maktab o'quvchilari olib boradigan o'quv tadqiqotlar odatda bilim olishdir, lekin o'quvchilar tomonidan olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar ham mavjud, ular ba'zida juda jiddiy natijalarga erishadilar. Agar ikkala turdagi tadqiqotlarni solishtirsak, ular usullarni qo'llashda farq qiladi, mavjud resurslar, tadqiqotchining yosh xususiyati, intellektual imkoniyatlari bir-biridan farq qiladi va tadqiqot obyektlarini tanlash, maqsad va vazifalarni belgilashga ta'sir qiladi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Tadqiqot usuli ikki shaklga ega: ilmiy va o'quv tadqiqoti.

Ilmiy va o'quv tadqiqot faoliyatining mohiyatan, umumiy jihatlari bo'lganidek, ayrim o'zaro tafovutlari ham yo'q emas. Tadqiqot usulining ilmiy va o'quv shakli uchun umumiy bo'lgan bosqichlar: *masala (muammo)ni ifodalash; taxminiy yechim – taxmin, faraz; taxmin va farazlarni kuzatish, tajriba, nazariy tahlil orqali tekshirish; muammo (masala) yechimi va tekshiruvi; natijalarni yozuv, rasm, kolleksiya* va x.k. shakllarda qayd etish.

Ilmiy va o'quv tadqiqotlarning ham asosida kuzatuv, faraz, tajriba (sinov) va mantiqiy xotima, xulosa chiqarish yotadi. Ilmiy tadqiqot obyektiv muammoni hal etadi, o'quv tadqiqot o'quvchiga taalluqli bo'lgan subyektiv muammoni – intellektual refleksiyaning ayrim bosqichlari “tashlab ketiladi”.

O'quv tadqiqotning 3 tipi mavjud: **1-tip. Ta'kidlovchi tadqiqot** – kuzatish orqali narsalar yoki hodisalarning muhim belgilari (hajm, shakl, o'lcham, og'irlik, rangi va boshqalar). **2-tip. Mantiqiy tadqiqot** – kuzatishdan foydalanadi va unga tajribani qo'shish orqali hodisalar orasidagi sabab-natijalarni aniqlaydi. **3-tip. Umumlashtiruvchi tadqiqot** –kuzatish va tajriba asosida o'quvchilarni hodisalarning qonuniyatlarini ochishga olib keladi.

Tadqiqot izlanishining 5 fazasi:

*1-faza-muammoni aniqlash.* Muhim muammomi? Vaqt va kuch sarflashingizga arziydimi? Muammo to'g'ri belgilanganmi?

*2-faza-harakat rejasi.* Muammoni yechish uchun yangi strategiya va yondashuv ishlab chiqdingizmi?

*3-faza – ma'lumot yig'ish.* Muammoni yechimini topish uchun ыanday ma'lumotlarni yig'ishga harakat qilasiz?

*4-faza-ma'lumot tahlili.* Ma'lumotdan nimalar o'rganish mumkin? Qanday materiallarga ega bo'ldingiz?

*5-faza-kelajakdagi ishlar uchun reja.* Bu izlanish natijasida darsning borishiga qanday o'zgarishlar kiritdingiz? Do'stlaringizga nimalarni tavsiya qilasiz?

Maktabda o'qitishning o'quv tadqiqot usulidan foydalaniladi. *O'quv tadqiqotining maqsadi* – fan uchun emas, balki o'quvchi uchun yangilikni kashf qilishdan iboratdir. Tadqiqot faoliyati o'quvchiga tadqiqot maqsadini belgilash tamoyillarini, kuzatish va ifodalash (iboralar va grafika yordamida) usullarini o'zlashtirish, olingan tadqiqot natijalarini va sabab – natija bog'lanishlarini anglab yetishga imkoniyat yaratadi.

O'quv tadqiqotchilik faoliyati deyilganda biz ta'lim oluvchilar tomonidan amalga oshiriladigan ilmiy bilishning mantiqiy-uslubiy meyorlariga muvofiq ma'lum bir fan sohasiga xos samarali metodlar yordamida o'zi uchun subyektiv yangi bilimlar olishga qaratilgan o'quv

faoliyatini tushunamiz. Ilmiy va o'quv tadqiqotlarining olib borilish metodlari aynan bir xil – nazariy (ideallashtirish, modellashtirish, fikran tajriba, analogiya) va empirik metodlar (kuzatish, tajriba o'tkazish).

*O'quv tadqiqot faoliyati* - ta'lim oluvchilarning nazariy va tajriba-viy bilimlardan o'zi uchun subyektiv yangilik kashf etish yo'lida amalga oshiradigan ijodiy faoliyatini nazarda tutuvchi intellektual-evristik faoliyati turidir [1,34-b].

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari (DTS) ta'lim oluvchilarda ilmiy-tadqiqot faoliyati tajribasini shakllantirishga qo'yiladigan talablar: - umumiy ta'lim darajasida ilmiy-tadqiqot faoliyati madaniyati asoslarini shakllantirish; - o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish usullari, texnologiyalari va shakllarini qo'llash bo'yicha tizimli g'oyalar va tajriba-larni shakllantirish ya'ni - ta'lim oluvchilarda o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish va tashhishlash faoliyatini tashkil etish; - ta'lim oluvchilarda o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish jarayonda pedagoglar tomonidan ularga hamrohlik qilish, yo'nalishlar berish, ularning individual loyhasini amalga oshirishda ko'maklashish talabi qo'yilgan.

Mana, tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ba'zi asosiy usullar:

1. **Loyiha asosida o'quv (Project-based Learning) mashg'uloti.** Loyiha asosidagi o'quv metodologiyasi, o'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilishda samarali usul hisoblanadi. Bu usulda o'quvchilar o'zlari tanlagan yoki o'qituvchi tomonidan belgilangan mavzu bo'yicha amaliy tadqiqot olib boradilar. Loyiha metodikasi yordamida o'quvchilar: *o'z ilmiy izlanishlarini olib borish; olingan ma'lumotlarni tahlil qilish; natijalarga asoslangan xulosalar chiqarish; o'z tadqiqotlarini taqdim etish.*

2. **Amaliy mashg'ulotlar.** Amaliy mashg'ulotlarlar tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda juda muhim vositalar hisoblanadi. Tadqiqotchi va o'qituvchi o'rtasida interaktiv munosabatlar tashkil etish orqali o'quvchilar ilmiy metodologiya va tadqiqotlar jarayonini chuqurroq o'rganadilar. Amaliy mashg'ulotlarda: *ilmiy-izlanish metodlarini o'rgatish; mavzuga oid muammolarni tahlil qilish; o'quvchilarni o'z fikrlarini erkin ifodalashga undash.*

3. **Badiiy va ilmiy yozma ishlar.** Tadqiqotchilik faoliyatining samarali tashkil etilishi uchun yozma ishlar (ma'ruza, maqola, referat) yozish va ularga ilmiy tahlil qilishni o'rgatish juda muhim. Bu jarayon: *ilmiy tadqiqot metodlarini amaliy ravishda qo'llash; ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish; matnni aniq va lo'nda shaklda yozish.*

4. **Kollaborativ yondashuv.** Tadqiqotchilikni tashkil etishda kollaborativ yondashuvni qo'llash ham samarali bo'lishi mumkin. O'quvchilar birgalikda ish olib borish, fikr almashish va bir-birlariga yordam berish orqali ilmiy

faoliyatda o'zaro hamkorlikni rivojlantiradilar. Bunda: *guruh bo'lib ishlash; tadqiqotning turli jihatlarini muhokama qilish; birgalikda xulosalar chiqarish.*

**5. Tadqiqot natijalarini taqdim etish.** Tadqiqot faoliyatining yakuniy bosqichida o'quvchilarga o'z tadqiqot natijalarini taqdim etish, fikrlarni erkin ifodalash va ilmiy munozara o'tkazish imkoniyati yaratish muhim. Bu esa, o'quvchilarga: *ilmiy taqdimotlar tayyorlashni o'rgatish; mavzuni aniq va qisqacha tushuntirishni o'rgatish; o'zgalar fikrlarini tahlil qilish va konstruktiv tanqidlar qilish.*

**6. Metodologik qo'llanmalar va resurslar.** Tadqiqotchilik faoliyatini samarali tashkil etish uchun o'quvchilar uchun metodologik qo'llanmalar tayyorlash va ularni zamonaviy ilmiy resurslar bilan tanishtirish zarur. Bu usul: *tadqiqot metodologiyalarini o'z ichiga olgan qo'llanmalar; zamonaviy ilmiy maqolalar va manbalar bilan tanishish.*

**7. Internet va axborot texnologiyalaridan foydalanish.** Zamonaviy tadqiqotchilik faoliyatida internet va axborot texnologiyalarining o'rni beqiyos. Tadqiqotlarni onlayn platformalar yordamida amalga oshirish, ilmiy ma'lumotlar bazasidan foydalanish va ilmiy hamjamiyatlar bilan aloqada bo'lish o'quvchilarga tadqiqotlarini kengaytirish va yangilash imkoniyatini beradi.

Xullas, tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish darslarida o'quvchilar bilim olish bilan birga, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va o'z tadqiqotlarini ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Ushbu usullarni qo'llash orqali o'quvchilar ilmiy jarayonni chuqurroq tushunishlari va tadqiqotchilik ko'nikmalarini egallashlari mumkin. Tadqiqotchilik faoliyatining o'qitilishiga alohida e'tibor qaratish muhimdir, chunki bu nafaqat ilmiy xulosalar chiqarishga, balki tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni, o'quvchilarning ilmiy va amaliy bilimlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

O'quv tadqiqotlari davomida o'quvchilar fandan qiziqarli dalillar topishi, misollar yechishi, rebuslar, topishmoqlar, o'yinlar yaratishi, xotirani mustahkamlash usullari, buyuk odamlar hikmatlarini o'rganadilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Даммер М.Д., Щербак О.Е. Методология педагогики: аксиологический подход, ценностно-смысловые аспекты постижения и реализации образования. Учеб.пособие. - Челябинск: Изд-во ЧГПУ, 2010. 313 с.
2. Середенко П.В. Теоретические основы подготовки студентов к исследовательской работе со школьниками. - М.: МПГУ, 2006. - 110 с.
3. Гузеев В., Курчаткина И. Индивидуализация профильного обучения // Народное образование. 2009. № 9.
4. Гузеев В., Курчаткина И. Исследовательская работа школьников: суть типы и методы. Концепции, модели, проекты. Школьные технологии. 2010. №5. -С. 49-52.

## CHET TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA O'QUV TADQIQOTLARINING AHAMIYATI

### Annotatsiya.

Ushbu maqolada o'quv tadqiqotchilik va o'quv loyihaviy faoliyatning farqlari keltirilgan bo'lib, o'quv loyihaviy faoliyatning naqadar muhim va foydali ekanligi, ta'lim oluvchilar nazariy ma'lumotlar bilangina cheklanib qolmasdan, olgan bilimlarini hayotga tadbiiq eta olishlari, bu orqali, tasavvurlarini rivojlantirishlari hamda iqtisodiyot, boshqaruv va madaniyat kabi sohalarda ham o'zlarini rivojlantirishlari mumkinligi keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, italyan va o'zbek tillarida leksik sinonimlarga xos ma'no nozikliklari tanishtirish orqali o'quvchilarning nutq boyligini takomillashtirish misollar orqali keltirib o'tilgan.

### А н н о т а ц и я .

В этой статье рассматриваются различия между учебно-исследовательской и учебно-проектной деятельностью, указывается, насколько важна и полезна учебно-проектная деятельность, как обучающиеся могут не ограничиваться теоретической информацией, а применять полученные знания на практике, тем самым развивая свое воображение, а также развивая себя в таких областях, как экономика, управление и культура. Кроме того, совершенствование речевого богатства учащихся путем введения тонкостей значения, присущих лексическим синонимам в итальянском и узбекском языках, приводится на примерах.

### Annotation.

This article examines the differences between educational research and educational project activities, indicates how important and useful educational project activities are, how students can not limit themselves to theoretical information, but apply their knowledge in practice, thereby developing their imagination, as well as developing themselves in areas such as economics, management and culture. In addition, the improvement of students' speech richness by introducing the subtleties of meaning inherent in lexical synonyms in Italian and Uzbek is provided by examples.

### Kalits o'zlar:

o'quv tadqiqotchilik, o'quv loyihaviy faoliyat, loyiha, italyan tili, leksik sinonim, nutq, matn.

### Ключевые слова:

учебно-исследовательская, образовательно-проектная деятельность, проект, итальянский язык, лексический синоним, речь, текст.

### Key words:

educational and research, educational and project activities, project, Italian language, lexical synonym, speech, text.

## KIRISH

Har qanday pedagogik yoki axborot texnologiya ta'limning yangi loyihasini rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslangan, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim tizimini shakllantiradi. O'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'quvchilarning hamkorligi, o'zaro muloqoti, bir-biriga ko'rsatadigan ta'siri zamonaviy talablar asosida tashkil topishi lozim. Bunday jarayonda o'quvchilarning o'quv loyihaviy faoliyati malakalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**O'quv loyihaviy faoliyat** – bilim va malakalarni amaliy qo'llash metodlari asosida model yaratish, tahlil qilish va baholashni nazarda tutuvchi o'qitish

jarayonidir.

**O'quv loyihaviy faoliyatning muhim belgilari quyidagilardan iborat:**

✓ muammoga yo'naltirilgan o'quv tadqiqotini tizimli tashkillashtirish; jamoaviy ishni tashkillashtirish, umumiy yechimlarni topish, kelishish, hamkorlik qilish.

✓ ta'lim oluvchilarning qiziqishlarini inobatga olish, tadqiq etiladigan muammoni o'zlari tanlashiga va hal etishiga imkon berish: ta'lim oluvchi ilmiy qonuniyatlarni «o'zining tadqiqi» orqali o'rganadi; amaliy va aniq masalalardan umumiy xulosalarga, tushunchalarga, g'oyalarga hamda yanada yuqori abstraksiyalarga, nazariyalarga qarab yo'naladi; muammo yechimi yo'lida izlanishda fan va matematikadan foydalanadi; mantiq va dalillarga e'tibor qaratadi; muammoning yechimi va muhokamasida iqtisod, madaniyat, tarix, axloq, ekologiya va boshqa sohalar nuqtayi nazaridan yondashadi;

✓ fan yuzasidan bilimlarini mustahkamlash va rivojlantirishga yordam berish: turli yo'nalishlardan, bilishning turli sohalaridan yechim topish, zaruriy bilimlarga ega bo'lish uchun barcha yo'llardan foydalanish imkonini beruvchi «ochiq» masalalar taklif etish (Internet, kitoblar, shaxsiy tajriba, eksperimentlar, tadqiqot va b.);

✓ ta'lim oluvchilarga amaliyotga yo'naltirilgan mustaqil harakatni amalga oshirishi hamda aniq yakuniy natija olishi uchun o'quv muhitini yaratish: o'yin va musobaqa elementlarini kiritish; bir nechta yechim va «to'g'ri» javob mavjud bo'lgan masala va muammolar taklif etish;

✓ haqiqiy hayot bilan ta'limning mustahkam aloqasini o'rnatish: tajribalar o'tkazishga, o'z qo'li bilan yaratishga, hayotda foydalaniladigan uskuna va turli vositalarni ushlab va qo'llab ko'rishga imkon berish; qo'l ostidagi xomashyo vositasida konstruksiyalash, tasavvur, fantaziyani rivojlantirish va iqtisod, boshqaruv, madaniyat sohasidagi bilimlarni faollashtirish uchun kichik mablag' asosida loyihalar olib borish; ta'limga taqdimotlar kiritish (olingan natijalarining jamoa oldida taqdimotini tashkillashtirish), mutaxassislar hamda ishtirokchilar bilan qayta aloqa o'rnatish, muhokama qilish, o'zaro baholash.

O'quv tadqiqotchilik va o'quv loyihaviy faoliyat bir-biridan farq qiladi. Ularning umumiy jihatlari quyidagilar:

1. O'quv tadqiqotchilik va o'quv loyihaviy faoliyatda ta'lim oluvchilarning qo'shimcha bilimlarga ega bo'lish motivatsiyasi, qiziqishlari va ehtiyojlari shakllantiriladi.

2. Ikkala faoliyatda ham ta'lim oluvchilarning maqsad belgilash ko'nikma va malakalari rivojlantiriladi.

3. Ikkala faoliyat ham o'quv muammoning mazmun-mohiyati asosida tashkil etiladi.

4. Ikkala faoliyatda ham ta'lim oluvchilarga o'z-o'zini baholash va

nazorat qilish uchun yetarlicha imkoniyat yaratiladi.

5. Refleksiyani tashkil etishning metodologik zarurati yuzaga keladi.

Xorijiy tillarni o'qitishda o'quv tadqiqotchilik, o'quv loyihaviy faoliyatni tashkil etish orqali talabalarda mustaqil, tanqidiy va kreativ fikrlash, tahlil qilish va o'z tadqiqotlarini ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantiradilar, ilmiy jarayonni chuqurroq tushunishlari va tadqiqotchilik ko'nikmalarini egallashlari mumkin. Oliy ta'lim muassasalarida dars jarayonini tashkil etishda o'quv loyihaviy faoliyatni tashkil etish yaxshi samara beradi.

Xorijiy tillarni, jumladan, italyan tilini o'qitishda savodxonlikni oshirish bo'yicha mashqlarni o'tkazishda slaydlar asosida topshiriqlar berish maqsadga muvofiq. Masalan, 1-kursda "Artikl va ularning turlari", "Predloglar", 2-kursda "Ot va uning turlari" mavzularida topshiriqlar berilishi mumkin. Masalan,

**So'zlarni imlo qoidasiga amal qilgan holda  
yozing.**

**Asciugamano, asciugacapelli, portafoglio,  
portacenere, dopo, domani, oggi domani,  
pieno zeppo, cosi cosi, a domani**

O'quvchilar mashqni bajarib bo'lishgach, artikl, predloglar va ularning turlari haqida ma'lumotlar topish, matnlardan misollar orqali dalillash bo'yicha referat yozib kelish topshirig'I beriladi. Bunda o'zlari yozgan so'zlarning to'g'ri-noto'g'riligini tekshirib, o'z xatolari ustida ishlaydilar.

2-slaydda matnning noto'g'ri yozilgan varianti beriladi va o'quvchilar o'z-o'zlarini tekshiradilar.

**Matnning to'g'ri variantini yozing.**

**Leri serra ho andata al bar con I miei amicci  
Erano in dieci.**

**Abbiamo ballato, abbiamo mangiato delle dolci  
Abbiamo fatto quattro chiacchiere insieme.  
Ci abbiamo divertito un sacco.**

Italyan tili darslarida matn tuzish jarayonida uyali aloqa telefonidan foydalanishlari ham mumkin. Telefonda musiqa eshittirib, matn tuzdirish o'quvchi tasavvurini boyitadi, kayfiyatini ko'tarib, ijodkorligini oshiradi. Telefon orqali taniqli shoirlarimizning she'rlarini ifodali o'qilishini eshittirish ham dars jarayoniga o'zgacha ruh kiritadi.

Bundan tashqari, italyan va o'zbek tillarida leksik sinonimlarga xos ma'no nozikliklarini tanishtirish orqali o'quvchilarning nutq boyligi takomillashtiriladi. Shuning uchun o'quvchilarga biror so'zning sinonimini izlashda quyidagi videotasvirdagi ko'rgazmaga ularning diqqatini jalb qilish lozim:

### Sinonimlarni taqqoslang

Italyan tilida	O'zbek tilida
Viso Volto Faccia Muso	Yuz Bet Chehra Aft Bashara Turq
Essere triste Tristezza Dolore Angoscia	G'am G'ussa Qayg'u Xasrat Alam

Jadvaldagi tilga xos sinonim so'zlarni qiyoslab, nutqiy aloqa jarayonida har bir sinonimik qatordagi so'zlarning qo'shimcha ma'no bo'yog'ini to'la anglagan holda o'z o'rnida tanlab, qo'llash mashq qildiriladi.

Ikkinchi o'rinda videotasvirga tushirilgan so'zlar namoyish etiladi. Bular: kulmoq (ridere), iljaymoq (sorridere), xoholamoq (ridere forte) kabi sinonimlar ishtirok etgan so'zlar vositasida nutq uslublariga xos gaplar tuzish topshirig'i beriladi. Mashg'ulot davomida mashq va ijodning uzviyligini ta'minlashni amalga oshirishda ham, til o'rganishda ham axborot texnologiyalarining eng so'nggi yutuqlaridan samarali foydalanish mumkin. Materiallarni, xususan, matn yoki surat holida, balki multimediya imkoniyatlaridan boshqa ko'plab shakllarda yetkazish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida o'quv loyihaviy faoliyatning barcha turlaridan o'rinli foydalanish orqali dars samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aminova Z.A. (2023). Filologiya fanlarini o'qitish orqali ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 1(1), 1094-1095. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.521>
2. <https://inacademy.uz/index.php/zdtf/article/download/10311/7439/7498>
3. <https://litsey3.ucoz.org/index/o39quvishlari/0-5>
4. Середенко П.В. Теоретические основы подготовки студентов к исследовательской работе со школьниками. – М.: МПГУ, 2006. – 110 с.

## FILOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING O'QUV-TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

### Annotatsiya.

Filologiya fanlarini o'qitishda o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish, bugungi ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biridir. Filologiya, til va adabiyot bilan bog'liq fanlar bo'lib, o'quvchilarga nafaqat tilni o'rganish, balki madaniyat, tarix va insoniyatning turli jihatlarini tushunish imkonini beradi. Shu sababli, filologiya fanlarini o'qitishda o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Ushbu maqolada filologiya fanlarini o'qitishda o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan.

### А н н о т а ц и я .

Развитие исследовательских навыков студентов при преподавании филологии является одним из важных аспектов современного образовательного процесса. Филология - предмет, связанный с языком и литературой, который позволяет студентам изучать не только язык, но и понимать различные аспекты культуры, истории и человечества. Поэтому необходимо уделять особое внимание развитию исследовательских навыков студентов при преподавании филологии. В статье представлена информация о развитии исследовательских навыков у студентов в процессе преподавания филологии.

### Annotation.

The development of students' research skills in teaching philology is one of the important aspects of today's educational process. Philology is a subject related to language and literature, which allows students to learn not only the language, but also to understand various aspects of culture, history and humanity. Therefore, it is necessary to pay special attention to the development of students' research skills in teaching philology. This article provides information on the development of students' research skills in teaching philology.

### Kalits o'zlar:

filologiya, o'qitish metodikasi, o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalari, mustaqil fikrlash, tahlil qilish ko'nikmalari, kommunikativ yondashuv, qobiliyat.

### Ключевые слова:

филология, методика преподавания, исследовательские навыки, самостоятельное мышление, аналитические навыки, коммуникативный подход, способность.

### Key words:

philology, teaching methodology, research skills, independent thinking, analytical skills, communicative approach, ability.

## KIRISH

Filologiya fanlarini o'qitish, til va adabiyotning chuqur mohiyatini o'rganish, insoniyat madaniyatini anglash va til orqali fikrlarni ifoda etish imkoniyatini yaratadi. Filologiya, o'z ichiga tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix va madaniyatni olgan keng qamrovli fan bo'lib, o'quvchilarga nafaqat tilni o'rganish, balki til orqali insoniyat tarixini, uning madaniyatini va fikrlar olamini tushunish imkonini beradi. O'qituvchilar ushbu fanlarni o'qitishda o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning ijodkorligini va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga intilishlari zarur. Filologiya fanlarini o'qitish jarayoni, o'quvchilarning o'z tiliga, madaniyatiga va adabiyotiga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga,

ularning shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Til, faqatgina muloqot vositasi emas, balki fikrlarni, his-tuyg'ularni va g'oyalarni ifoda etishning kuchli vositasidir. O'quvchilar, tilni o'rganish jarayonida nafaqat yangi so'zlar va grammatik qoidalarni o'zlashtiradilar, balki o'z fikrlarini aniq va ravon ifoda etish, boshqalar bilan muloqot qilish va o'zlarini ifoda etish ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar.

Filologiya fanlarini o'qitishda o'quvchilarga adabiyot orqali insoniyatning turli qirralarini, uning tarixini va madaniyatini o'rganish imkoniyatini berish muhimdir. Adabiyot, o'z navbatida, millatlarning ruhiyatini, ularning qadriyatlarini va hayot tarzini aks ettiradi. O'quvchilar, adabiy asarlar orqali turli zamonlar va joylardagi insonlarning hayotini, ularning muammolarini va orzularini o'rganadilar. Bu jarayon, o'quvchilarning empatiya qobiliyatini rivojlantirishga, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunishga va ularning fikrlarini baholashga yordam beradi. O'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishlariga va mustaqil o'rganishlariga yordam beradi. Internet va raqamli resurslar orqali o'quvchilar keng qamrovli ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Onlayn kutubxonalar, ilmiy maqolalar va interaktiv darslar, o'quvchilarning o'z tadqiqotlarini olib borishlariga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning o'z bilimlarini kengaytirish va yangi g'oyalarni kashf etishlariga imkon yaratadi [1]. Shuningdek, filologiya fanlarini o'qitishda o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. O'quvchilarni o'z fikrlarini ifoda etishga, ijodiy asarlar yaratishga va o'z g'oyalarni boshqalar bilan baham ko'rishga undash, ularning shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. O'qituvchilar, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish orqali ularning o'z-o'zini ifoda etishlariga va o'z fikrlarini yaratishga yordam berishlari lozim. Umuman olganda, filologiya fanlarini o'qitish jarayoni, o'quvchilarning shaxsiy va akademik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon, o'quvchilarga nafaqat til va adabiyot bilimlarini o'zlashtirish, balki ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy fikrlash va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Filologiya fanlarini o'qitish, o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi va ularni jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlaydi [2].

O'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida o'quvchilarga mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini o'rgatish muhimdir. O'quvchilarni o'z fikrlarini shakllantirishga undash, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. O'quvchilarga turli manbalarni o'rganish, kitoblar, maqolalar va ilmiy tadqiqotlar bilan tanishtirish, ularning o'z qiziqishlariga mos ravishda izlanish olib borishlariga yordam beradi. Bu jarayon, o'quvchilarning mustaqil o'rganish qobiliyatini rivojlantiradi va

ularni o'z bilimlarini kengaytirishga undaydi. Guruhlarda ishlash va muhokamalar o'tkazish, o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali usul hisoblanadi. O'quvchilar birgalikda ishlash orqali bir-birlaridan o'rganishadi, fikr almashishadi va yangi g'oyalarni rivojlantirishadi. Guruhiy ishlar o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi, chunki ular o'z fikrlarini ifoda etish, boshqalarni tinglash va muhokama qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu jarayon, shuningdek, o'quvchilarning jamoaviy ishga bo'lgan qiziqishini orttiradi va ularni bir-biriga yordam berishga undaydi [3].

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Internet va raqamli resurslar yordamida o'quvchilar keng qamrovli ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin. Onlayn kutubxonalar, ilmiy maqolalar, video darslar va boshqa resurslar o'quvchilarga o'z tadqiqotlarini olib borishda yordam beradi. O'quvchilarga o'z tadqiqotlarini taqdim etish imkoniyatlarini yaratish, ularning o'z fikrlarini ifoda etish va boshqalar bilan baham ko'rish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda o'qituvchining roli ham juda muhimdir. O'qituvchi o'quvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatishi, ularga motivatsiya berishi va o'z fikrlarini ifoda etishda yordam berishi kerak. O'qituvchilar o'quvchilarga mustaqil o'rganish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'rgatishi, ularning qiziqishlarini rag'batlantirishi va o'z tadqiqotlarini olib borishda yordam berishi lozim. O'qituvchilar o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini kuzatib borish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va ularga mos ravishda yordam berishlari kerak. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ham o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarni turli matnlarni tahlil qilish, ularning mualliflik pozitsiyasini aniqlash va o'z fikrlarini asoslab berish ko'nikmalarini o'rgatish, ularning tadqiqot olib borish qobiliyatini oshiradi. Tanqidiy fikrlash, shuningdek, o'quvchilarning muammolarni hal qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi. O'quvchilarga o'z fikrlarini yozma shaklda ifoda etishni o'rgatish, ularning yozma ko'nikmalarini rivojlantiradi va fikrlarini aniq va ravon ifoda etishlariga yordam beradi [4].

Filologiya fanlarini o'qitishda o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni, o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar, o'z tadqiqotlari orqali nafaqat bilimlarini kengaytiradilar, balki o'z fikrlarini ifoda etish, muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. O'qituvchilar esa, o'quvchilarning bu jarayondagi muvaffaqiyatlarini kuzatib borish, ularga yo'l ko'rsatish va rag'batlantirish

orqali ularning o'z-o'zini rivojlantirishlariga yordam berishlari kerak. Natijada, filologiya fanlarini o'qitishda o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim jarayonining sifatini oshiradi. O'quvchilar, o'z tadqiqotlari orqali yangi g'oyalarni kashf etish va o'z qiziqishlariga mos ravishda o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu jarayon, o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim poydevor yaratadi. Filologiya fanlarini o'qitishda o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish, nafaqat ta'lim jarayonining sifatini oshiradi, balki o'quvchilarning o'zlariga bo'lgan ishonchini ham kuchaytiradi. O'quvchilar, o'z tadqiqotlari orqali nafaqat bilimlarini kengaytirish, balki o'z fikrlarini ifoda etish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa, o'z navbatida, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar esa, o'quvchilarning bu jarayondagi muvaffaqiyatlarini kuzatib borish, ularga yo'l ko'rsatish va rag'batlantirish orqali ularning o'z-o'zini rivojlantirishlariga yordam berishlari kerak [5].

Shunday qilib, filologiya fanlarini o'qitishda o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va tadqiqot olib borish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu jarayon, o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari, shaxsiy rivojlanishlari va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. O'quvchilar, o'z tadqiqotlari orqali nafaqat bilimlarini kengaytirish, balki o'z fikrlarini ifoda etish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa, o'z navbatida, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Anvarov A. Filologiya fanlarida o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2023.
2. Qodirova N. O'quvchilarda tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish. – Samarqand: SamDU, 2022.
3. Xamroyev S. Filologiya ta'limida innovatsion yondashuvlar. Buxoro: – Buxoro davlat universiteti, 2023.
4. Abdullateva M. O'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish. – Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti, 2023.
5. Ismoilov R. Filologiya fanlari bo'yicha o'quv-tadqiqotchilik faoliyati. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi, 2023.
6. Nurmatova D. O'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy usullar. – Qarshi: Qarshi davlat universiteti, 2023.
7. Rahmonov A. O'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari. – Termiz: Termiz davlat universiteti, 2023.
8. Sultonov E. Filologiya fanlarini o'qitishda o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rag'batlantirish. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2024.

## **TARIX VA TARBIYA FANLARINI O'QITISHDA TADQIQOTCHILIK VA LOYIHAGA ASOSLANGAN TA'LIMNING SAMARADORLIGI**

### **Annotatsiya.**

Ushbu maqolada tarix fanini o'qitishdagi eng zamonaviy yondashuvlar, ya'ni tarix fanini tadqiqotchilik asosida o'qitish, tarix fani mashg'ulotlarini loyihaga asoslangan ta'lim yondashuvi asosida tashkil etish, tarix faniga oid sinfdan tashqari ishlarni sifatli amalga oshirish usullari, tarix fanini boshqa fanlar bilan integratsiya qilishning afzalliklari va o'quv mashg'ulotlarida qo'llash mumkin bo'lgan tavsiyaviy metodlar o'rin egallagan.

### **А н н о т а ц и я .**

В данной статье рассмотрены наиболее современные подходы преподавания истории, а именно на основе научных исследований, организации проектного образовательного подхода, методов качественной реализации внеклассной деятельности, связанной с историей, преимущества интеграции истории с другими предметами, а также рекомендуемые методы, которые можно использовать во время учебных занятий.

### **Annotation.**

This article presents the most modern approaches to teaching History, namely: teaching history based on research, planning and delivering History lessons based on a project-based learning approach, implementation of high-quality extracurricular activities related to History, integrating History with other subjects, and other recommended methods that can be used in lessons. When lessons are organized based on these approaches, learners develop teamwork, critical thinking, creativity, and other life skills.

### **Kalits o'zlar:**

tadqiqotchilik, loyihaviy topshiriqlar, metodik o'yinlar, pantamimo, etnik jarayonlar, shajara, kommunikativlik, jamoaviy ishlash, tanqidiy fikrlash.

### **Ключевые слова:**

исследование, проектные задания, методические игры, пантомима, этнические процессы, генеалогия, общение, работа в команде, критическое мышление.

### **Key words:**

research, project-based assignments, methodological games, pantomime, ethnic processes, genealogy, communication skills, teamwork, critical thinking.

## **KIRISH**

Tadqiqotchilikka asoslangan ta'lim – o'quv jarayonida asosan o'quvchi roliga urg'u beradigan ta'limiy yondashuv. O'qituvchi o'quvchilarga bilishi kerak bo'lgan narsalarni o'zi aytib berishi o'rniga, o'quvchilarni o'zlari mustaqil o'rganishlariga, savollar berishga va fikr almashishga undaydi.

Tadqiqotchilikka asoslangan ta'lim o'rganishga turli yondashuvlardan, jumladan, muhokamalar qilish, kichik guruhlarda ishlash va aynan ma'lum bir yo'nalish bo'yicha o'rganishdan foydalanadi. O'quvchilar faktlar va ma'lumotlarni yodlash o'rniga, amalda o'rganadilar. Bu ularga tadqiqot, tajriba va munozaralar orqali bilimlarni shakllantirish imkonini beradi.


Quyida 7-sinf O'zbekiston tarixi darsligidagi **“Etnik jarayonlar va o'zbek xalqining shakllanishi”** mavzusi doirasida o'quvchilarga mustaqil topshiriq berib, o'z oilalari shajaralarini tuzib kelishni so'rash va buni nazorat ishining bir qismi sifatida baholash mumkin. Bu orqali bola o'z bobo-buvisi, ota-onasi va yaqin qarindoshlari bilan muloqotga kirishadi va

kommunikativlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Qolaversa, bu kichkina tadqiqot ishi bolani o'z oilasi tarixini yaqindan bilib, faxr-u iftixor tuyishga, kerakli xulosalar chiqarishga undaydi, shu bilan birga, bola bu ishni elektron tarzda bajarish orqali AKT savodxonligini ham oshirib boradi.




Keling, ayni shu darslikdagi **“VI-VII asrlarda Turon xalqlarining madaniy hayoti”** mavzusini tadqiqotchilikka asoslanib tashkil etib ko'ramiz. Ya'ni, sinf o'quvchilarini 3 ta guruhga bo'lib olamiz va ularga o'z guruhlarining yangi ALIFBOLARINI yaratib, uning asosida matn tuzishlari va shundan so'ng bir-birlarining matnlarini alishib, o'qishga harakat qilishlari so'raladi.

Xulosa shu bo'ladiki, o'quvchilar bu tadqiqotchilikka asoslangan amaliy-ijodiy ish orqali alifbo xalqlarning uzoq yillar davomidagi aql-zakovat mahsuli ekanligini va unga katta mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish kerakligini tushunib yetadilar.



Loyihaga asoslangan ta'lim (LAT) o'quvchilarning muammoni hal qilish uchun amaliy yechimlarni topish, loyihalash va ishlab chiqishini o'z ichiga oladi. LATning tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, u o'quvchilarni odatda kichik jamoalarda birgalikda ishlashga, qiyin yoki murakkab muammolarni hal qilish uchun ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga

qaratilgandir.



Odatda, LATda o‘quvchilar quyidagi bosqichlar asnosida ishlaydilar:

- Muammoni aniqlash;
- Muammoning yechimini topish yoki ishlab chiqish (ya’ni, yechimga qanday erishish mumkin?);
- Yechimning prototipini loyihalash va ishlab chiqish;
- Ekspertlar, o‘qituvchilar va (yoki) tengdoshlarning fikr-mulohazalari asosida yechimni takomillashtirish.

Quyida biz loyihaga asoslangan ta’lim asosida o‘quvchilarga berilishi mumkin bo‘lgan mustaqil topshiriqlarga misol keltiramiz. Ya’ni sinf o‘quvchilari guruhlariga qur’a orqali bo‘linadi va o‘zlari o‘rganayotgan tarixiy davr (qadimgi, o‘rta asrlar, yangi davr tarixi)ga daxldor bo‘lgan imorat maketini yaratadilar. Buning uchun guruhlariga 2 hafta yoki 1 oygacha ham vaqt berilishi mumkin. Ushbu loyihaviy ish quyidagicha mezonlar asosida nazorat ishining amaliy qismi sifatida baholanishi mumkin:

- maketning hajmi - 15 ball.
- maketning asliga o‘xshashligi - 15 ball.
- maketni tayyorlashdagi kreativlik va yangicha yondashuv - 20 ball

- maketning ko‘rinishi va dizayni - 15 ball.
- maket uchun ishlatilgan sifatli xomashyo - 20 ball.
- tarixiy obida haqida tomoshabinlarga yetarlicha ma’lumotlar bera olish - 15 ball.

Jami ball: 100



O‘quvchilarning nazariy bilimlarini hayotiy vaziyatlarda sinab, ularda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida tarbiya fanidan nazorat ishlari loyihaviy ish-sahna ko‘rinishi orqali qabul qilinishi ham mumkin. Bunda har bir sinf o‘quvchilari qur’a orqali guruhlarga bo‘linadilar va o‘tilgan mavzularni bir-biriga bog‘lagan holda o‘n daqiqalik sahna ko‘rinishi tayyorlaydilar.

O‘quvchilar tanlagan sahna ko‘rinishi mavzusining tasirchanligi, aktyorlik mahorati, sahna va nutq madaniyatining yuqoriligi ularning ijobiy baholanishi uchun mezon qilib olinishi mumkin. Shu kabi amaliy nazorat ishlari o‘quvchilarning jamoada samarali mehnat qila olish va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, sahna ko‘rinishi jarayonidagi kutilmagan qiziqarli holatlar barcha uchun xushkayfiyat bag‘ishlaydi.



Tarbiya darsliklarida mavjud **“O‘zgalarga yordam berib, o‘zingda insoniylikni kashf et”** kabi mavzular doirasida o‘quvchilarimiz volontyorlik faoliyatiga kirishishlari, mahallalarda mavjud bo‘lgan savdo do‘konlari, dorixonalar, oilaviy poliklinikalar hamda maktabgacha ta‘lim muassasalarida ko‘ngilli tarzda mehnat faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lishlari mumkin hamda mahalla idorasi vakillari bilan suhbatlar tashkil qilib, qo‘shimcha axbarotlarga ega bo‘lishlari mumkin. Bu orqali o‘quvchilar insonlar bilan muomala qilish, samarali mehnat sirlariga ega bo‘lish hamda kommunikativlik ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligini tushunib yetadilar.



**Xulosa qilib aytganda,** taqdiqot va loyihaga asoslangan ta‘lim tizimiga ba‘zi qituvchilarning ko‘nikishi qiyin bo‘lishi mumkin, chunki bu ko‘proq amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishni, fanlarni alohida o‘qitish emas, balki fanlararo bog‘lanishni taqazo etadi. Bu yondashuvlar o‘qituvchilarning ko‘pchiligiga ma‘lum bo‘lgan an‘anaviy ta‘limdan keskin farq qiladi. Albatta, o‘zgarishlar vaqt talab etadi. Quvonarli tarafi shundaki, bu qiyinchiliklarni, albatta, yengib o‘tish mumkin. O‘qituvchilar o‘quvchilar, ota-onalar yoki maktab jamoasining boshqa a‘zolaridan g‘oyalar uchun ilhom olishlari mumkin. Ma‘ruzalar va kitoblar o‘rniga, ular muammoni hal qilish uchun zarur bo‘lgan amaliy usullarni o‘ylab ko‘rishlari va bularni loyiha-o‘quv faoliyati sifatida ishlatishlari kerak bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Artikova M., Xodjayev B., Sattorov Sh. va boshq. Maktab o‘quvchilarida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish (ijtimoiy-gumanitar fanlar): metodik qo‘llanma. Respublika ta‘lim markazi. – Toshkent: 2021. 148 b.
2. John R. Savery (2006). Overview of Problem-based Learning: Definitions and Distinctions. *Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning*, 1(1).
3. True Education site (2020). What is project-based learning? <https://www.trueeducationpartnerships.com/schools/a-guide-to-using-project-basedlearning-in-the-classroom/>
4. PBL works site (2022). What is PBL?: <https://www.pblworks.org/what-is-pbl>

**Bakirova Iroda**  
Yuldashevna

*Mirzo Ulug'bek tumani 190-sonli ayrim fanlari chuqur o'qitiladigan  
sinflari mavjud umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-toifali o'zbek tili fani  
o'qituvchisi*

**Abdimuratova Saodat**  
Bayg'uziyevna

Sergeli tumani 301-maktabning oliy toifali o'zbek tili fani o'qituvchisi

**Miryusupova Xilola**  
Dilshadovna

Yunusobod tumani 246-maktabning o'zbek tili fani o'qituvchisi

## 5-SINF O'ZBEK TILI DARSIDA "KALLIGRAFIYA" MAVZUSINI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI ASOSIDA SAMARALI TASHKIL ETISH

### Annotatsiya.

Ushbu maqolada 5-sinf o'zbek tili (davlat tili) darsida o'quvchilarga "Kalligrafiya" mavzusini o'tishda metodik tavsiya namunaviy dars ishlanmasi, blok chizmasi va texnologik xarita bilan birga berilgan. Fanga oid nutqiy va lingvistik kompetensiyalar darsning turli bosqichlarida bir-birini to'ldirib, o'zni bilan almashib kelgan. Bunda payt ravishlarini mashqlarda o'quvchilarning chiroyli va aniq yozish ko'nikmalarini shakllantirish orqali berilgan. Darsda interfaol usullar, jumladan, "Aqliy hujum", "Diqqat, tinglaymiz!" "Nima uchun?", "Zanjir", "To'g'ri/noto'g'ri", "Savolga misol" kabi usullar qo'llanilib, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan. Dars jarayoni o'quvchilarning qo'l motorikasini rivojlantirish, diqqatni jamlash va sabr-toqatni tarbiyalashga yonaltirilgan.

### А н н о т а ц и я.

В данной статье даются методические рекомендации учителям, преподающим учащимся 5 класса по предмету узбекский язык (государственный язык) на тему "Каллиграфия" вместе с подробным планом урока и технологической картой. Речевая и языковая компетенции, взаимосвязаны, дополняют и заменяют друг друга на разных этапах урока. Таким образом, в упражнениях учащимся прививаются красивые и аккуратные навыки письма. "Мозговой штурм", "Внимание, слушаем!", "Почему?", "Цепочка", "Верно/Неверно", "1 минута" используются и направлены на обеспечение активного участия учащихся. Занятие направлено на развитие моторики рук учащихся, концентрации внимания и терпения.

### Annotation.

This article provides methodological recommendations for teachers of 5th-grade Uzbek language (state language) on the topic of "Calligraphy", including a detailed lesson plan and technological map. Speech and language competencies related to the subject complement and replace each other at different stages of the lesson. Through exercises, students develop beautiful and neat handwriting skills.

Interactive methods such as "Brainstorming", "Attention, Listen!", "Why?", "Chain", "True/False", "1 minute" are used to ensure active student participation. The lesson focuses on developing students' hand motor skills, concentration, and patience.

### Kalitsozlar:

kalligrafiya, xattot, yozuv, san'at, xobbi, payt ravishlari.

### Ключевые слова:

каллиграфия, каллиграфия, письмо, искусство, хобби, наречия.

### Key words:

calligraphy, writing, art, hobby, adverbs.

## KIRISH

Har qanday soha vakilidan jadallik bilan rivojlanib borayotgan zamonda ilg'or bo'lishi uchun rivojlangan davlatlarning tajribasidan xabardor bo'lishi, uzluksiz kasbiy rivojlanish talab etilmoqda. Bunga ta'lim sohasidagi qator o'zgarishlar isbot talab etmaydigan dalildir. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, ularning bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirish, rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim. 5-sinfda "Kalligrafiya" mavzusida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish orqali samarali darsni tashkil etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Insoniyat tomonidan kashf etilgan ulkan ixtirolarning biri yozuvdir. Barcha buyuk allomalarimizning olamga mashhur asarlari, izlanish va tadqiqotlarining ajdodlardan avlodlarga yetib kelishida, albatta, yozuvning ulkan ahamiyati bor. Yozuvning mavjudligi tufayli qadimgi ajdodlarimizning tajribalari asrlar oshib bizga qadar yetib kelgan.

Kalligrafiya aslida tasviriy san'atning bir yo'nalishi hisoblanadi. Kalligrafiya – go'zal va aniq yozish san'ati bo'lib, o'quvchilarning yozuv madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Dars o'z ichiga kalligrafiyaning tarixi va rivojini o'rganish, har bitta harfni to'g'ri va chiroyli yozish ko'nikmalarini mustahkamlash, diqqatni jamlash, qo'l motorikasini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, sabr-toqatni tarbiyalash kabi qator vazifalarni qamrab oladi. Sanab o'tilgan vazifalarni amalga oshirish uchun pedagogik texnologiyalardan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi. Interaktiv ta'lim texnologiyalaridan "Aqliy hujumi", "Zanjir", "To'g'ri/Noto'g'ri", "1 daqiqa" kabi topshiriqlar orqali o'quvchilarning darsda faol ishtiroki ta'minlanadi. Internet resurslaridan foydalanish orqali kalligrafiyaga oid qiziqarli videolar va tasvirlardan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Turli shriftlarda yozilgan maqol, hikmatli so'zlardan taqdimot materiallarida taqdim etilishi, yaratilgan asarlardan kalligrafik yozuvda bajarilganlaridan birini darsda o'quvchilarga ko'rgazma sifatida foydalanish, tarixiy hujjatlardan olingan yozuv namunalarini ko'rsatish orqali o'quvchilarda chiroyli yozuvga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

O'quvchilarning bilim va ko'nikmalari darajasiga mos ravishda topshiriqlarni tanlab berish muhim. Qobiliyati yuqori o'quvchilar uchun murakkabroq topshiriqlar berish, qobiliyati past o'quvchilar uchun esa oddiyroq topshiriqlar berishni rejalashtirish ham darsning muhim va ahamiyatli jihatlaridan biridir. Umuman olganda har bir o'qituvchi o'z o'quvchilarining intellekt ko'pligi nazariyasi asosida yaxshi o'rgangan bo'lsa, darslarining qiziqarli o'tishiga, ma'lumotlarni qabul qilinishiga, o'quvchining o'zlashtirish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari o'quvchilarning yozuviga qarab ham ularning psixologik holati

haqida ba'zi taxminlarni bilish mumkin. Yozuvning shakli bolaning motorik rivojlanishi, ko'z va qo'l harakatining muvofiqligi, diqqati va stress darajasi kabi omillarga bog'liq. Mayda yozuv stress va xavotirlanishning yuqori darajasini ko'rsatishi mumkin, yirik yozuv esa o'z-o'ziga ishonchning pastligi yoki hayajonlanish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Tushunarsiz yozuv esa, diqqatning yetishmasligi, qo'lning mayda motorikasining rivojlanmaganligi yoki boshqa nevrologik muammolardan darak berishi mumkin. Biroq bunday taxminlar maxsus mutaxassisdan tasdiq talab etadi. Shu kabi elementar bilimlar orqali o'quvchining psixologik holatini sezish, u bilan ishlash va ota-onasi bilan suhbat o'tkazish mumkin. Bu maqolada "Kalligrafiya" mavzusiga oid dars uchun tavsiya berilgan. Ammo yozuv haqidagi yuqorida so'z yuritilishi, o'qituvchi shaxsining har tomonlama ziyarak, bilimdon bo'lishiga bir ishoradir.

5-sinfda "Kalligrafiya" mavzusida o'quvchilarda boshlang'ich sinflarda shakllangan yozuvga oid bilim, ko'nikmalarni yodga solgan holda yuqori sinflarda ham chiroyli, aniq yozish ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, estetik tarbiya berish, o'quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg'usini o'stirish, estetik did va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish, sabr-toqat, mehnatsevarlik sifatlarini tarbiyalash nazarda tutilgan. Quyida esa darsning texnologik xaritasi, blok chizmasi, ishlanmasi bilan to'liq berilgan.

#### Darsning texnologik xaritasi

№	Dars mavzusi:	Kalligrafiya
1	Maqsad va vazifalar	<p>a) <i>a) ta'limiy:</i> o'quvchilarda qo'sh undoshlar, harakatlar ketma-ketligini bildiruvchi payt ravishlariga oid topshiriqlarni bajarish orqali chiroyli, aniq va estetik jihatdan to'g'ri yozishni o'rgatish, yozuv ko'nikmalarini o'stirish.</p> <p>b) <i>tarbiyaviy:</i> o'quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg'usini o'stirish, estetik did va umuminsoniy qadriyatlar (yozuv tarixi)ni rivojlantirish, sabr-toqat va mehnatsevarlik sifatlarini tarbiyalash.</p> <p>d) <i>rivojlantiruvchi:</i> o'quvchilarda qo'l motorik idrokini kuchaytirish, orfografik ko'nikmalarni, ma'naviy dunyoqarashni, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. Ularni erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatish,</p> <p><b>Vazifalar:</b></p> <p>✓ O'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish. Didaktik materiallar tayyorlash va undan dars jarayonida o'rinli foydalanish, ko'nikma va</p>

		malakasini oshirish; ✓ diqqatni jamlash, sabr-toqatga o'rgatish, chiroyli yozishga odatlantirish; ✓ qo'l harakatlarining aniqligini oshirish, yodda saqlash qobiliyati, idrok va tafakkurni rivojlantirish.
2	Dars jarayonining mazmuni	Dars davomida DTS talablari asosida nutqiy savodxonligini oshirish, o'quvchilarning kalligrafiyaga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish.
3	O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<b>Dars turi:</b> mustahkamlovchi, yangi bilim beruvchi <b>Usul:</b> ma'ruza, "Aqliy hujum", "Nima uchun", "Zanjir", "Diqqat, tinglaymiz", "To'g'ri/noto'g'ri", "1 daqiqa" boshqa interfaol uslublar orqali dars jarayonini amalga oshirish. <b>Shakl:</b> yakka va kichik guruhlarda ishlash. <b>Vosita:</b> darslik, alifbo, guruh nomi yozilgan dastak, tarqatma va ko'rgazma materiallar, AKT vositalari, taqdimot, kolonka, rag'bat kartochkalari, rangli qog'oz, mavzuga oid maqolalar chiqqan gazeta, jurnallar, pat qalam, siyohdon, maxsus qog'oz. <b>Nazorat:</b> savol-javob, o'z-o'zini baholash <b>Baholash:</b> 10 ballik tizim asosida individual va guruhlar, ko'rik tanlov uchun rag'bat kartochkalari va nominatsiyalar ("Eng bilimdon", "Eng chiroyli husnixat egasi", "Eng chaqqon")
4	Kutiladigan natijalar	<b>O'qituvchi:</b> ✓ o'quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg'usini o'stiradi, estetik did va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish (yozuv tarixi), sabr-toqat va mehnatsevarlik sifatlarini tarbiyalaydi; ✓ o'quvchilar faolligini oshiradi, ularda fanga, mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi; ✓ o'quvchilarda qo'sh undoshlar, payt ravishlariga oid topshiriqlarni bajarish orqali chiroyli, aniq va estetik jihatdan to'g'ri yozishni o'rgatish, yozuv ko'nikmalarini o'stirish. <b>O'quvchi:</b> - o'quvchilarda qo'l motorik idroki, kuchaytiriladi, orfografik ko'nikmalar, ma'naviy dunyoqarash, ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi; ✓ o'quvchi kalligrafiya tushunchasi va uning tarixi haqida ma'lumotga ega bo'ladi; ✓ harflarning chiroyli yozilish qoidalarini eslaydi

		(boshlang'ichda bu bilimlarni egallagan); ✓ chiroyli yozuv orqali estetik didlari rivojlanadi. Sabr va matonat bilan chiroyli yozishni o'rganadilar. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi. Yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi.
5	<b>Kelgusi rejalar</b>	O'z ustida ishlash orqali pedagogik mahoratini oshirish yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganish va darsga tatbiq etish. O'quvchilarda bilimlarni mustaqil egallash, izlanish, mustaqil o'quv tadqiqotlarini amalga oshirish, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.

### Darsning blok chizmasi

Bosqichlari	Vahti	Metodlar	Faoliyat
<b>1-bosqich</b> <b>Tashkiliy qism</b>	<b>3 daqiqa</b>	Suhbat, savol-javob	Salomlashish, davomatni tekshirish, o'quvchilarni darsga tayyorlash, ishchi muhitini yaratish. Darsning maqsadi va rejasini tushuntirish.
<b>2-bosqich.</b> <b>O'tilgan mavzuni mustahkamlash</b>	<b>8 daqiqa</b>	"Aqliy hujum" Sanalar so'zlaganda	O'qituvchining slaydlar asosida kirish so'zi. O'tilgan "Hamkasblar" mavzusi yuzasidan savollar asosida va bajarilgan mashqni tekshirish bilim va malakalarini mustahkamlash.
<b>3-bosqich</b> <b>Yangi mavzu bayoni</b>	<b>16 daqiqa</b>	"Aqliy hujum", "Zanjir" usuli, matn bilan ishlash, yakka va kichik guruhlarda ishlash mustaqil ishni tashkil etish, interfaol metodlardan foydalanish.	O'qituvchi kalligrafik yozuvni amalga oshirish uchun chiroyli yozish haqida tushuncha (slayd va tarqatmalar asosida berish) matn bilan ishlash, harakatlar ketma-ketligini bildiruvchi payt ravishlariga oid topshiriqlarni bajarish orqali chiroyli, aniq va estetik jihatdan to'g'ri yozuv ko'nikmalarini o'stirish maqsadida topshiriqlarni guruhlarda hamda mustaqil ishni tashkil etish.

<b>4-bosqich Mavzuni mustahkamlash</b>	<b>12 daqiqa</b>	Yangi mavzu yuzasidan bilimlar “Kim chaqqon va zukko”, Aqliy hujum” metodlari orqali mustahkamlana di.	Harakatlar ketma-ketligini bildiruvchi payt ravishlariga oid topshiriqlar bajariladi, o’quvchilarga to’g’ri yozish tartibi o’rgatiladi, yozuvlar tekshiriladi, xatolari tushuntiriladi.
<b>5-bosqich. Baholash va monitoring</b>	<b>4 daqiqa</b>	“1daqiqa”metod i. Rag’batlantirish va darsni xulosa qilish.	Darsda harakatlar ketma-ketligini bildiruvchi payt ravishlariga oid topshiriqlarni bajarish, chiroyli, aniq va estetik jihatdan to’g’ri yozilganligini baholash.
<b>6-bosqich. Uyga vazifa berish</b>	<b>2 daqiqa</b>	Fikr almashish	Payt ravishlari ishtirokida gaplar tuzish va kalligrafiya asosida yozish.

*Inson o’zidan so’ng iz qoldirish uchun farzand tarbiya qiladi,  
ko’chat ekadi, imorat soladi...  
Yozadi, yozadi, yozaveradi...  
Qalami o’tkirlarning bitiklari esa abadiy qoladi.*

#### **Darsning borishi:**

**I bosqich:** 1. **Tashkiliy qism:** Salomlashish, davomatni aniqlash, O’quvchilarning darsga tayyorgarligi nazorat etiladi. Dars o’qituvchining kirish so’zi bilan boshlanadi.

*1. Bugun nechanchi sana? 25-fevral.*

*2. Fevral oyidaqanday muhim sanalar bor? 9- va 14-fevral buyuk bobolarimiz, adabiyotimizning ikki buyuk siymosi Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud sanalarini respublikamizda keng nishonlaymiz.*

*Aziz o’quvchilar, bugun biz darsimizda “Kalligrafiya” mavzusini o’tamiz, bu so’zning ma’nosi va tarixda shu kasb egalarining faoliyati bilan tanishamiz.*

**II bosqich.** 2. **O’tilgan mavzuni so’rash.** “Hamkasblar” o’tilgan mavzu taqdimot asosida “Aqliy hujum” o’tkaziladi.

1. Qanday kasblarni bilasiz?
2. Shifokorlar kimlar?
3. Stomatologlar kimlar?
4. Oftalmolog deganda qaysi shifokorni tushunamiz?

5. Pediatri kimlarni davolaydi?

Savollarga javob berish natijasida o'quvchilar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1-guruh: "Xattotlar" guruhi

2-guruh: "Bilimdonlar" guruhi

2-guruh: "Zukkolar" guruhi.

**III bosqich. 3. Yangi mavzu bayoni.**

O'quvchilarga turli yozuvlardagi rangli rasmlar asosida Vatan haqida maqollar taqdim etiladi va o'qitiladi, yodda saqlash va amal qilish uqtitiriladi.



VATAN  
QADRINI  
BILMAGAN O'Z  
QADRINI  
BILMAS

O'z yurtiingning  
qadri  
o'zga yurtda  
bilinar.

Chiroyli yozuv qoidalari boshlang'ich sinfda o'tilganligi yodiga solinadi va taqdim etilgan namuna asosida yozish ko'nikmalari mustahkamlanadi. Alifbo slaydda beriladi.

*Fani gildirakni qizillatib  
gildiratdi.*

*Zar qadriyi zargar bilar.*


Bilasizmi, agar insonlarga ularning ismi bilan murojaat qilinsa, bu ularga yoqar ekan. Qani, siz ham partadoshingiz ismini harflarni bir-biriga ulagan holda chiroyli yozishga urinib ko'ring va partadoshingizga ismini o'qib bering.

Chiroyli yozish ham san'atdir. Bu san'at kalligrafiya deyiladi. Bu so'z yunon tilidan olingan bo'lib, "chiroyli xat" ma'nosini anglatadi. Uni "chiroyli xat san'ati" deb ham aytishadi. Keling, darsligimizdagi audiomatni tinglaymiz.

Darslikdagi matn QRkod asosida tinglanadi. Suhbat asosida audiomatndagi kalit so'zlar aniqlanadi, ma'nosi tushuntiriladi.

Kalligrafiyaga oid maxsus so'zlar bilan ishlanadi. 2-mashq (63-bet) da berilgan so'zlarning bo'sh joylarni to'ldirib yozish, qo'sh undoshlarni

aniqlash vazifasi beriladi. Mashq yozma bajariladi.



Demak, aziz o‘quvchilar, darsimizda “Kalligrafiya“ mavzusi yuzasidan matn bilan tanishamiz.

### 3-topshiriq 64-bet.

Kalligrafiya bu – chiroyli yozish san’ati. Qadimda xattotlik eng muhim kasblardan hisoblangan. Avvallari xattotlar qoralama nusxalar asosida kitoblar yaratish bilan shug‘ullanganlar. Keyinchalik bu kasbga ehtiyoj kamaygan.

Hozir xattotlar kalligrafik alifbolardan foydalanib matn yaratadilar. Ular bunday matnlar bilan diplom, xat va tabriknomalarni yozadilar.

Yirik tashkilotlar ham kalligraflar xizmatidan foydalanadi.



Xattot sabrli bo‘lishi kerak, chunki qoralama nusxalar juda ko‘p vaqt oladi. Hatto xattotlar yengil jarohatlanishlari mumkin.

Xattotlarning yozuvini o‘qish oson. Ularni o‘qish insonga zavq beradi.

Sinfga matn yuzasidan tayyorlangan tarqatma beriladi. Unda matnning ba’zi so‘zlari tushirib qoldirilgan bo‘ladi. O‘quvchilar foydalanish uchun berilgan so‘zlardan matndagi gaplarga mosini joylashtiradilar. So‘ng matnni guruhlar o‘qiydilar, matn tekshiriladi. Tayyor tarqatma namunasi ilovada berilgan.

“Kalligrafiya” to‘g‘risidagi matn “Zanjir” usulida ifodali o‘qitiladi. Rag‘batlantiruvchi kartochkalar beriladi. Matnni mustahkamlash maqsadida 4-topshiriq bajariladi.


**Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri.** Jadvaldagi fikrlar taqdimotda atayin turli xil yozuvlarda beriladi.

		
1.Kalligrafiya bu – chiroyli yoish san’ati.		
2. Qadimda xattotlar kitoblar yaratganlar.		
3. Xattotlar kalligrafik alifbodan foydalanadilar.		
4. Yirik tashkilotlar kalligraflar xizmatidan foydalanadi.		

5. Xattotlar diplom, xat va tabriknomalarni yozadilar.		
6. Xattotlar juda quvnoq bo'lishi kerak.		

**! Diqqat qiling!**

**Payt ravishlari**



Payt ravishlari **avval/oldin** bir harakatning boshlanishida, **keyin/so'ng** ikkinchi harakatning davomida qo'llanadi. O'quvchilarga bitta misol keltiramiz, tushunganini sezsak o'zlaridan misollarni qabul qilamiz, butun sinf bilan tahlil qilamiz.


O'quvchilardan bugungi kunga kelib urfga kirgan buyurtma berish bo'yicha misol keltirishlarini so'rab yo'naltirib turish zarur.

- **Avval** narsani tanlaymiz,
- **keyin** buyurtma beramiz.

Hozirgi kunda biz foydalanayotgan uyali aloqa vositalarimiz tarixda qanday ko'rinishda bo'lgan kim ko'rgan? Ushbu savolni berishingiz bilan sinf jonlanishini kuzatishingiz mumkin, chunki bu predmet, afsuski, ularning "eng yaqin hamrohi" ga aylangan.



<b>Oldin</b> xattotlar kitoblarni yozishgan.	<b>So'ng</b> texnika rivojlanishi natijasida kitoblarni nashriyot chop eta boshladi.
--	--




**IV bosqich. Mustahkamlash.** Lingvistik kompetensiya ogʻzaki takrorlangandan keyin yozma mashq bajarilishi natijasida yanada mustahkamlanadi. 5-mashq rasmlar asosida bajariladi, berilgan soʻzlar ishtirokida gaplar tuzish talab etilgan.

Namuna: *Avval* oʻyla, *keyin* soʻyla.

- ... Samarqandni aylanamiz, ... Buxoroga boramiz.
- ... ovqatlan, ... uy vazifangni bajarasan.
- ... tushlik qilaylik, ... kutubxonaga ketamiz.
- ... mevalarni yuv, ... yeymiz.

**Lugʻat bilan ishlash.**

Bolaga yangi soʻzlarni nima uchun yodlashi kerakligini doim takror-takror yodiga solish kerak, tushuntirish kerak. Natijani koʻz oldiga keltira olgan oʻquvchi, albatta, lugʻatni yodlashim kerak degan tushunshasi hosil boʻlgandadan keyin ishga kirishadi. Demak qanday qilib tushuntiramiz? Biz lugʻat bilan ishlashdan oldin “Nima uchun?” metodini amalda qoʻllaymiz. Bunda oʻqituvchi oʻquvchilarga savol beradi va javobni ulardan oladi, tahlil qiladi. Javoblarga aniqlik, qisqalik talab etilsa, korreksiyalashtiradi.



“Nima uchun” metodi asosida yangi soʻzlarni yodlash asoslanadi.

1. Nima uchun lugʻat soʻzlar yod olinishi kerak?

Chunki soʻzlarni bilmasa matnni tushunmaydi.

2. Nima uchun matnni tushunmaydi?

Chunki matnda yangi soʻzlar berilgan.

3. Nima uchun yangi soʻzlar matnda beriladi?

Chunki mavzuni tushunish va oʻzlashtirish uchun.

**Lugʻat:**

*yaratmoq -создавать*

*qiziqmoq -интересоваться*

*yorliq -грамота*

*guvohnoma- свидетельство*

*tabriknoma- поздравление*

*qoralama- черновик*

*pusxa – экземпляр, подлинник*

*jarohatlanmoq-травмировать*

**V bosqich. Baholash va monitoring.** “1 daqiqa” metodi asosida mavzu yuzasidan yodda qolgan 10 ta soʻz yozish vazifasi beriladi. Ular yozgan soʻzlarini oʻqib beradilar. Guruhlarda dars davomida yigʻilgan ragʻbat karochkalari hisoblanadi. Oʻquvchilarning darsda ishtiroki xulosalanib

rag'batlantiriladi va baholanadi. Baholashda har bir o'quvchining ishtiroki, erishgan natijasi, oddiy ijobiy harakati (chiroyli yozishga harakat qilishi, sinfdoshiga ruchka berishi, biror bir bolaga daftari qolib ketganligi tufayli ikki varoq qog'oz taqdim etishi va shunga o'xshash harakatlar) alohida ta'kidlanadi.

**VI. Uyga vazifa.** Darslikda berilgan topshiriqqa ko'ra *avval, keyin, oldin, so'ng so'zlari* ishtirokida 5 ta gapni kalligrafik yozuvida yozing.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. Rasulov N., Usmonova D., Hasanova Y. 5-sinf "O'zbek tili" darsligi. – T.: 2024.
2. Xidoyatova D. Samarali interaktiv metodlar. – T.: 2023.
3. Роль каллиграфа в эпоху Средневековья // Учитель Узбекистана. 2020, 7 февраля.
4. Профессор Карим Назаров хотирасига бағишланган "Ўзбек тилшунослиги: тараққиёти ва истиқболлари" мавзусидаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент: "Mumtoz so'z", 2016.
5. Бакирова И. Навоий асарларида қалам лексемаси // Филология масалалари. – Тошкент: 2008, №1 (18).
6. Шеърятимизнинг икки дарғаси // "XXI asr" gazetasi. 2007, 15- февраль.
7. Ақобиров С.Ф., Михайлов Г.Н. Ўзбекча-русча луғат. – Т., 1988.
8. Алишер Навоий. 20- томлик. 14-том – Т.: "Фан", 1998.

**Razikova Ziyoda**  
Asatullayevna

*Sergeli tumani 47-maktab o'qituvchisi*

**Fozilova Gulnora**  
Hakim qizi

Shayxontoxur tumani 34-maktab o'qituvchisi

**Jurayeva Dilnoza**  
Pulatovna

Yakkasaroy tumani 144-maktab o'qituvchisi

---

## O'ZBEK TILI DARSLARIDA LOYIHA ISHLARINI TASHKIL ETISH

---

### Аннотация.

Ushbu maqola loyiha ishlariga bag'ishlangan bo'lib, uning turlari va loyiha ishida diqqat qaratilishi kerak bo'lgan jarayonlar sanab o'tilgan. O'quvchilarni kasbga qiziqtirish maqsadida, "kelajakda men" mavzusidagi loyiha misolida o'quvchilarning mustaqil, kreativ va tanqidiy fikrlashini takomillashtirish va kommunikativ ko'nikmalarni oshirish ko'zda tutilgan bo'lib, birgina Quddus Muhammadiyning "o'quvchiga esdalik" she'ri orqali har qanday kasb mutaxassisi bo'lish uchun o'qishning, ta'lim olishning naqadar muhim ekanligi keltirib o'tilgan. Shuningdek, kasb-hunarga oid atamalar hamda shaxs oti yasovchi qo'shimchalar misollar orqali tasvirlarda ko'rsatilgan bo'lib, kasb tanlashda fanlararo integratsiya masalalari tushuntirib o'tilgan. Bundan tashqari, ta'lim oluvchilarni qiziqtirish maqsadida, kasb tanlash bo'yicha so'rovnomaga o'tkazilib, uning natijalari grafik orqali aniq ko'rsatib o'tilgan.

### А н н о т а ц и я .

Эта статья посвящена проектной работе с перечислением ее типов и процессов, на которых следует сосредоточиться в работе над проектом. С целью заинтересовать читателей профессией, на примере проекта по теме "я в будущем" предусматривается совершенствование самостоятельного, творческого и критического мышления учащихся и повышение коммуникативных навыков, а через одно только стихотворение "память читателю" Куддуса Мухаммадия излагается, насколько важно учиться, получать образование, чтобы стать профессионалом любой профессии. Кроме того, термины, относящиеся к профессии, а также суффиксы, образующие личные существительные, показаны на иллюстрациях на примерах и объясняют вопросы междисциплинарной интеграции при выборе профессии. Кроме того, в целях заинтересованности обучающихся проводится анкета по выбору профессии, результаты которой наглядно отображаются графиком.

### Annotation.

This article is devoted to the work of the project, listing its types and the processes that should be focused on in the work of the project. In order to interest students in the profession, the example of the project on the topic "future I" is intended to improve independent, creative and critical thinking of students and improve communicative skills, and it is only through Kuddus Muhammadi's poem "memory to the student" that it is important how to study, get an education. Also, occupational terms as well as personal horse-making supplements are shown in the images through examples, explaining the issues of interdisciplinary integration in the choice of profession. In addition, in order to interest the educated, a survey of the choice of profession was carried out, the results of which were clearly shown by graph.

### Калит so`zlar:

loyiha ishi, o'quv loyiha, mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash.

### Ключевые слова:

проектная работа, образовательный проект, самостоятельное мышление, критическое мышление, творческое мышление.

### Key words:

project work, educational project, independent thinking, critical thinking, creative thinking.

## KIRISH

O'quv loyihalar ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilarga muammoni, faraz va vazifalarni ifodalashda yordam beradi va tezkor boshqaradi. Loyihalarda o'qitish nafaqat natijalar, balki jarayonini o'zi ham qimmatli. Loyiha fanlararo, bir fan yoki fan tashqarisida bo'lishi mumkin. Loyiha ishini ikki usulda - yakka va guruh asosida amalga oshiriladi. Loyiha ishini amalga oshirayotganda quyidagilarga diqqat qaratish lozim:

- ✓ Titul varag'i.
- ✓ Loyihani dolzarbligi.
- ✓ Loyiha doirasida o'z yechimini topuvchi, muammo, loyiha maqsadi, yakuniy natija, foydalanuvchilar.
- ✓ Loyihaning ish rejasini (jadval) bayon eting.
- ✓ Bajaruvchilarni ko'rsatgan xolda ma'lumotnoma tuzilishini qisqa bayoni.
- ✓ Loyiha sifatini, loyiha ustida ishlash jarayoni: ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni yengib o'tish yo'llarini baholash.

O'zbek tili darslarida loyiha ishlarini tashkil etish o'quvchilarning mustaqil, kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, kommunikativ ko'nikmalarini shakllantiradi, hamkorlikda ishlashga o'rganishadi. 5-sinf "O'zbek tili" darsligida "Kelajakda men" mavzusida loyiha ishi berilgan. O'quvchilarga quyidagicha loyiha ishini rejalashtirishimiz mumkin:

**Mavzu: Kelajakda men**

**Mundarija:**

**Kirish.**

**Asosiy qism:**

1. Kasblar tarixi.
2. Q.Muhammadiyning "O'quvchiga esdalik" she'rida kasblarga berilgan tavsiflar.
3. Kasbga oid atamalarni o'rganish.
4. Kasb-hunarga oid shaxs oti yasovchilar.
5. Kasb tanlashda fanlararo integratsiya.

**Xulosa.**

**Adabiyotlar ro'yxati.**

**Mavzuning dolzarbligi.** Har bir inson kelajagi haqida o'ylaydi va unga tayyorgarlik ko'radi. O'quvchilar bu loyiha orqali kelajakda kim bo'lishini xohlashlari, qanday maqsadlarga erishishlari va buning uchun nimalar qilishlari kerakligi haqida fikr yuritadilar. Shu asnoda kasblar tarixi, ularning yutuq hamda kamchiliklari bilan ham tanishib chiqadilar.

**Muammo.** Bugungi kunda o'quvchilar borgan sari kasb-hunarga qiziqishi so'nib boryapti, oson pul topish yo'llarini o'ylab, ilm olishga kamroq e'tibor qaratmoqda.

**Tadqiqot maqsadi:** O'quvchilarning kelajak haqidagi tasavvurlarini

rivojlantirish, kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirish.

**Tadqiqot vazifalari:**

➤ Mavzu bo'yicha adabiyotlarni o'rganish;

➤ Sinf o'quvchilari o'rtasida so'rovnoma o'tkazish;

➤ Zamonaviy maktab o'quvchilari hayotida kasblarning o'rnini, ularning qiziqish doirasini aniqlash va baholash;

➤ Kasb-hunarni kelajakda to'g'ri tanlay olish haqida tavsiyalar, maslahatlar berish.



**Ish jarayonida biz quyidagi usullardan foydalandik:**

- Nazariy (mavzu bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish).
- Amaliy (so'rovlar, suhbatlar).

**Tadqiqot obyekti:** kasblar.

**Tadqiqot predmeti:** Ichki ishlar idorasi. oilaviy poliklinika,

**Gipoteza:** O'quvchilarning kasb-hunarga qiziqishini susaytiradigan omillarni o'rganadi, bolalar va ota-onalar e'tiborini kasb-hunarga qiziqishni rivojlantirishga yordam beradi.

**Kutilayotgan natija:** Taqdim etilgan materiallar, jumladan, fakt va tavsiyalar maktab o'quvchilarini o'z kelajaklariga befarq bo'lmaslikka, vatanga kerakli mutaxassis bo'lib yetishishlariga ko'maklashadi. Bundan tashqari, ularning oldilariga bir qancha tanlovlar qo'yish orqali ularning yashirin qobiliyatlarini yuzaga chiqarish hamda to'g'ri kasb tanlay olishlarida yordam berish ekanligi.

**Kasblar tarixi.** Kasb - kishining mehnat faoliyati, doimiy faoliyat turi. Muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Har bir kasb o'zining tarixiga ega. Bilamizki, kasblarning, umuman, har bir taraqqiyot, har bir sivilizatsiyaning rivojlanishi yunonlarga borib taqaladi. Ammo uning qay tarzda taraqqiy topgani barchamizga qiziq. Buni esa quyidagi ma'lumotlar orqali bilib olishimiz mumkin:

**O'qituvchilik tarixi.** Juda qadim zamonlardan buyon inson faoliyatining alohida turi sifatida mavjud. Chunki inson faqat ta'lim-tarbiya tufayligina hayotini davom ettiradi va rivojlantira oladi. Yunonistonda faqat ozod kishilargina o'qituvchilik qilishga haqli hisoblangan. Ular mamlakatning tuli yoshlarida grammatiklar, pedanomlar, didaskallar, pedotriblar shaklida nomlaganlar va ko'pincha shaxsiy maktablarga ega bo'lganlar. Boy oilalarda esa, ta'lim-tarbiya ishi bilimli va savodli qullarga topshirilib, ular paydagoglar ("pedagog" so'zi shundan kelib chiqqan), ya'ni "bola

yetaklovchilar” deb atalgan. Rim imperiyasida o’qituvchilik imperator tomonidan tayinlanadigan davlat amaldori sanalgan. Sharq mamlakatlari, jumladan, Turkiston o’lkasida ham o’qituvchi eng qadimiy va obro’li kasb hisoblanib, “ustoz” deb e’zozlagan. Islom dini kirib kelishi bilan har bir qishloq, shaharlardagi har bir mahallada masjid qoshida maktab tashkil etildi. Bu maktablarning o’qituvchilari domla deb atalgan. Maktablar alohida odamlar uyida ham tashlik etilib, ular maktabdor deyilgan. Qizlarni o’qitgan ayollar otinoyi deyilgan.

**Shifokorlar tarixi.** Shifokorlar daslabki sivilizatsiyalardayoq paydo bo’lgan. Bobilliklar turli xil kasalliklar tushunarli tavsiflangan ko’plab tibbiy kitoblar qoldirganki, bugungi kunda ham ular oraqali dardlarini aniqlay oladi. Qadimgi misrliklar tibbiy davolashni qo’llab, bemorlarga tabletka, malham va dorilarni bergan. Eskulap ismli kishi yunon tarixidagi ilk shifokordir. U, asosan, sehr-afsunga tayangan tibbiyotdan foydalangan. Ammo asta-sekin haqiqiy tibbiyot rivojlana boshlagan. Taxminan, miloddan avvalgi 400-yillarda yashagan Gippokrat ismli kishi tibbiyotni afsun va xurofotdan xalos qilish maqsadida juda ham ko’p ish qilgani uchun uni “Tibbiyotning otasi” deb atashdi. U o’z kitoblarida shifokor bemorni diqqatli va sinchkovlik bilan tekshirish kerakligini o’rgatgan. Shifokor hech qachon bemorga zarar yetkazmasligi lozim. U tibbiy sirni saqlashi lozim. Uning ayrim tibbiy xulosalari 2 ming yildan oldin bo’lgani kabi bugungi kunda ham dolzarbdir. Demak, uni dunyodagi birinchi shifokor deb atash to’g’ri.

**Oshpazlar tarixi.** Oshpazlik kasbi dunyodagi eng talabchan va eng qadimiy kasblardan biridir. Qog’ozga yozilgan birinchi retseptlar Bobilda, Qadimgi Misrda va Xitoyda, shuningdek Arab mamlakalarida paydo bo’lgan. Qadimgi yunonlar shifo xudosi Asclepiusni hurmat qilishgan. Uning qizi Xigiya (“gigiyena” so’zi uning ismidan kelib chiqqan) sog’liqni saqlash qo’riqchisi hisoblanar edi. Keyinchalik ularning barcha masalalarda ishonchli yordamchisi oshpaz Kulina edi, u “oshpazlik” deb nomlangan oshpazlik san’atiga ham homiylik qila boshladi. Qadimgi rimlikliklar oshpazlik san’atini yunonlardan qabul qilishgan. Imperator August buyrug’i bilan birinchi oshpazlik maktablari ochildi. Senat ulkan baliqni qanday pishirishni va uni qanday sous ostida berishni hal qildi. Shu orqali oshpazlik san’ati dunyo bo’ylab keng yoyila boshladi.

***Quddus Muhammadiyning “O’quvchiga esdalik” she’rida kasblarga berilgan tavsiflar.***

***O’quvchiga esdalik***

Bo’lay desang bog’bon,  
Yo Vatanga posbon,  
Yo osmonda uchuvchi,  
Yo dengizda suzuvchi,  
Nimaki qilsang tilak-

Bariga o'qish kerak,  
 O'quvchi sendan talab:  
 Maktabga bor ertalab,  
 O'qi berib mehringni,  
 Qo'yib ko'ngil, zehningni.  
 Direktor – komandir, bosh,  
 Muallim – rahbar yo'ldosh,  
 Chiqma ular so'zidan,  
 Bor ko'rsatgan izidan.

Ushbu she'r orqali har qanday kasb egallashdan oldin, albatta, ilmi bo'lish kerakligini, dastlab maktabda a'lo baholarga o'qib, faol o'quvchi bo'lishni tushunishimiz mumkin. Bundan tashqari, o'quvchilarda nazariy ko'nikmalar bilan birga amaliy ko'nikmalar ham shakllanadi. Muallim bo'lamizmi, harbiy yoki dehqon barchasiga ilm kerak ekan. Har qanday kasb-hunarning ham o'z sir-asrorlari bo'lar ekan.

***Kasb-hunarga oid atamalarni o'rganish.*** Loyiha ishi ustida ishlash jarayonida kasbga oid atamalarni ham o'rgandik. U ham bizga juda kata qiziqish uyg'otdi. Shu atamalar bilan tanishib chidik. Shifokorlarga oid atamalar:

	<p>(termometr) - tana haroratini o'lchovchi asbob;</p>		<p>(tanometr) - qon bosimini o'lchovchi asbob;</p>
	<p>(scalpel)- jarohlik amaliyotida ishlatiladigan metal pichoqcha.</p>		<p>(fanendaskop) – odam organizmdagi yurak urishini tekshiruvchi asbob.</p>

Harbiylarga xos unvolar atamasi: Katta leytenant, kapitan, mayor, podpolkovnik. Bundan tashqari, oilaviy poliklinika va Ichki ishlar idorasi va tergov bo'limlarida bo'lib, ishchi xodimlardan ham intervyular oldik (intervyu rolik sifatida ko'rsatiladi).

***Kasb-hunarga oid shaxs oti yasovchilar.*** So'z yasovchi qo'shimcha deganda, so'zning ma'nosini butunlay o'zgartirib, undan yangi ma'no hosil qiladigan qo'shimchalar tushuniladi. So'z yasovchi qo'shimchalari orqali hosil qilingan shaxs otlari kim? so'rog'iga javob bo'lib keladi. Masalan: o'qituvchi, shifokor, quruvchi, aravakash, soatsoz kabilar.



+ -paz =




+ -chi =



+ -gar =



+ -chi =



+ -uvchi =



Rasmlar orqali tushuntirib berilganda o'quvchilarning yodda saqlashlari va tushunishlari yanada osonlashadi.

***Kasb-hunar tanlashda fanlararo integratsiya.*** Zamonaviy ta'limda fanlararo integratsiya turli fanlar va sohalarni bir-biriga bog'lash orqali o'quvchilarga qulaylik yaratishni maqsad qiladi. Bu integratsiya usullari o'quvchilarga turli fanlarni birga o'rganish, masalalar va muammolarga integratsiyalashish orqali tushunchalarni kengaytirish va ularning fikrlarini

rivojlantirishni talab qiladi. Bu usullar o'quvchi uchun ko'nikmalarni va ulardagi bilimni mustahkamlaydi. Kasb tanlashda ham fanlararo integratsiya muhim ahamiyatga ega. Masalan, texnologiya, matematika, chizmachilik fanlarini ko'pincha bir-biriga bog'liq holda o'rganamiz. Yoki jurnalist bo'lishni orzu qilgan o'quvchi, albatta, ona tili va adabiyot bilan birgalikda tarix fanini ham o'rganishi lozim. Biz sinfdagi o'quvchilarning qaysi fanga qiziqishini bilish maqsadida so'rovnoma o'tkazdik.


### Kasb tanlash bo'yicha so'rovnoma

#### Hurmatli o'quvchi!

Ushbu so'rovnoma kelajakdagi kasbingiz haqida o'ylashingizga yordam beradi. Javoblaringiz biz uchun muhim!

<i>Nº</i>	<i>Savollar</i>	<i>Ha</i>	<i>Yo'q</i>
1.	Chet tillarini o'rganishga qiziqasizmi?		
2.	Tarixiy kitoblarni tez-tez o'qib turasizmi?		
3.	Ota-onangiz yoki yaqinlaringiz kasb tanlashda sizga ta'sir ko'rsatadimi?		
4.	Bo'sh vaqtingizda rasm chizish, musiqa tinlash yoki raqsga tushishni yotirasizmi?		
5.	Kelajakda kasbingiz bo'yicha oila a'zolaringizdan maslahat olishni istaysizmi?		
6.	Matematika, informatika fanlariga qiziqasizmi? IT kurslariga borasizmi?		
7.	Sport bilan shug'ullanasizmi?		
8.	Geografiya, tabiatshunoslik darslariga qiziqasizmi?		
9.	Shifokor, psixolog bo'lishni istaysizmi?		
10.	Oshpaz, tikuvchi, sartarosh kabi hunar egasi bo'lishni istaysizmi?		

Ushbu so'rovnoma asosida o'quvchilarning qiziqishlariga qarab foiz ko'rsatkichlarini belgiladik va uni quyidagi diagrammada izohladik:



So'rovnoma natijalariga ko'ra har bir yo'nalish nima uchun turli foizlarga ega ekanligi sabablarini ko'rsatib o'tamiz. **Ijtimoiy fanlar** yuqori ko'rsatkichga egaligiga sabab: o'quvchilar bugungi kunda ko'proq chet tillarini va tarixni o'rganishga qiziqadi. **Tabiiy fanlar** esa hozirgi kunda o'quvchilarning eng sevimli fanlaridir. Kimyo, biologiya, geografiya fanlarini amaliy tajribalar bilan o'rganish ularga yanada yanada qiziqishni orttiradi. **Aniq fanlar** deganda matematika, informatika fanlarini tushunamiz. Bugungi kunda texnologiya asrida yashayapmiz. O'quvchilarning kompyuter texnologiyalari va IT sohasiga qiziqishi tabiiy hol.

O'quvchilarda sataroshlik, tikuvchilik, oshpazlik kabi hunarga bo'lgan qiziqishlarni ham kuzatdik. Aksariyat o'quvchilar musiqa, raqs, rassomchilik san'atiga bo'lgan qiziqishlarini namoyon qildilar. Yuqoridagi diagramma ko'rsatkichlarining sustligini bartaraf qilish uchun tavsiyalar beramiz:

Har bir fan o'qituvchisi o'z kasbiga bo'lgan mehr va fidoiyligi ila darslarni yanada qiziqarli, mazmunli, turli interaktiv metodlardan foydalanishi hamda o'quvchilar bilan do'stona munosabatda bo'lishi lozim. Xulosa qilib aytganda, loyiha ishimiz va tadqiqot natijalarimiz orqali kasblar tarixi, ularning kelib chiqishi va shaxs oti yasovchi qo'shimchalar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik. Bir qancha kasb-hunar egalari bilan uchrashib, ularning ish faoliyati bilan tanishdik. Shu orqali nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'ldik. Kelajakda qaysi kasb egasi bo'lishimizni ham belgilab oldik.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rasulov N., Usmonova D., Hasanova Y. O'zbek tili. 5-sinf darsligi. – Toshkent: Yangi nashr, 2024. 45-bet.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: "Talqin" nashriyoti, 2005.
3. Dusbayev I.R. Zamonaviy ta'limda fanlararo integratsiya. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. ISSN 2181-1709(P); 2181-1717(E), 2023.

**Rabbonayeva Dildora**  
Tolipovna

*Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi*

## **O'QUVCHILARNI PIRLS TADQIQIOTLARIGA TAYYORLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

### **Annotatsiya.**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi PIRLS xalqaro tadqiqoti va o'quvchilarning PIRLS tadqiqotlariga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari, mamlakatimizning ushbu tadqiqotda ishtirok etishidan maqsad va o'quvchilarning PIRLS tadqiqotlariga tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun tavsiyalar berilgan.

### **А н н о т а ц и я.**

В статье даны рекомендации по оценке качества уровня чтения и творчества учащихся третьих классов, обеспечению подготовки учащихся к международному исследованию PIRLS и исследованию PIRLS, цели участия проекта в обучении и обеспечению подготовки учащихся к исследованию PIRLS.

### **Annotation.**

The article provides recommendations for assessing the quality of the reading and creativity level of third-grade students, ensuring the preparation of students for the international PIRLS study and the PIRLS study, the purpose of the project's participation in training and ensuring the preparation of students for the PIRLS study.

### **Kalits o'zlar:**

PIRLS, o'quvchi, xalqaro, matn, xarita, baholash, ta'lim, takomillashtirish, jarayon, tavsiya, tushunish, daraja, sifat.

### **Ключевые слова:**

PIRLS, учащийся, международный, текст, производство, образование, обучение, процесс, рекомендация, уровень, степень, качество.

### **Key words:**

PIRLS, student, international, text, production, education, training, process, recommendation, level, degree, quality.

## **KIRISH**

O'zbekistonlik o'quvchilar hamda o'qituvchilar 2021-yildan boshlab xalqaro tadqiqotlarga qatnashishmoqda. O'quvchilarning PISA, TIMSS, PIRLS, rahbar va pedagog kadrlarning TALIS kabi xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash, o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda ona tili, matematika va tabiiy fanlar yo'nalishlari bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha ta'lim sohasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda [2.4]. Ushbu maqolada PIRLS tadqiqoti va bu tadqiqotda qanday matnlar tanlab olinadi, matnlarga qanday me'zonlar belgilangan va ular qanday tahlil qilinadi, shuningdek o'quvchilarning PIRLS tadqiqotlariga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalariga kengroq to'xtalamiz.

**Usullari.** PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – Xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchilarning matni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro dasturi o'rganildi. PIRLSga qatnashgan davlatlar natijalari tahlil qilindi, maktab

darsliklarida berilgan matnlar uchun topshiriqlardan namunalar ishlab chiqildi. [2.6].

**Natijalar.** O'qish savodxonligining asosi matnlar bilan to'liq ishlash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o'quvchi tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash kabilardir. Bolalar adabiyotidan Hans Kristian Andersenning "Bolalar gurungi" hikoyasi uchun topshiriqlar tayyorlash namunasini oshlab chiqildi. Shuningdek, bu topshiriqlarni berishdan maqsad ham tushtirib berildi.

PIRLS xalqaro baholash assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan monitoring tadqiqotidir. Ushbu tadqiqot butun dunyo bo'ylab boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasi va sifatini taqqoslaydi, shuningdek, milliy ta'lim tizimlaridagi farqlarni aniqlaydi. Tadqiqot davriy ravishda - har besh yilda bir marta amalga oshiriladi.

PIRLS o'qish ta'limini takomillashtirish uchun dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Davlatlar PIRLS dan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar:

- global miqyosida ta'lim tizimi darajasidagi yutuqlarning tendensiyalarini kuzatib borish;
- yangi yoki qayta ko'rib chiqilgan ta'lim siyosatining ta'sirini kuzatib borish;
- ta'limning zaif nuqtalarini belgilash va o'quv islohotini amalga oshirish;
- PIRLS ma'lumotlarini tadqiq va tahlil qilish orqali o'qitish va o'qishni takomillashtirish;
- adolatlilikni kuzatish yoki qo'shimcha sinflarda o'quvchilarni baholash kabi tegishli ishlarni olib borish;
- o'qishni va o'qitishni o'rganish.

Mamlakatimizning ushbu tadqiqotda ishtirok etishidan maqsad bir qator savollarga javob olishdir:

- boshqa mamlakatlardagi tengdoshlariga nisbatan o'zbek boshlang'ich maktab bitiruvchilari qanchalik yaxshi o'qiydilar?
- O'zbekistonlik maktab o'quvchilarining o'qish savodxonligi qay darajada?
- oldingi o'qish davrlaridan biron-bir o'zgarish bo'lganmi?
- to'rtinchi sinf o'quvchilari o'qishni yoqtiradimi?
- o'zbek oilalari savodxonlikni rivojlantirishga qanday hissa qo'shadi?
- bugungi kunda mamlakatimiz maktablarida kitobxonlik madaniyatini o'rgatish jarayoni qanday tashkil etilgan?
- O'zbekistonda o'qishni o'rgatish jarayoni boshqa mamlakatlarga

nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga egami va agar shunday bo'lsa, bu xususiyatlar qanday?

- boshlang'ich sinf o'qituvchilarimiz qo'llayotgan o'qitish usullari boshqa mamlakatlardagi o'qituvchilardan farq qiladimi?

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlar uchun quyidagi mezonlar belgilangan:

1. Matn. Hajmi 1000 ta so'zgacha, o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400-500 ta so'z bo'lishi lozim.

2. Mavzu. Adabiy matnlar asosiy mavzuga ega bo'lib, u berilgan matndan tashqari o'quvchi tomonidan umumlashtiriladi. Axborotdan iborat bo'lgan matnlar o'quv materiallaridan olinmagan mavzuni yoritib berish kerak.

3. Til. Matnlar 40 dan ortiq tillarga tarjima qilinadi, shuning uchun tarjima qulay bo'lishi muhimdir. Metafora (taqqoslash) yoki epitet (sifatlash) kabi aniq ifodali tasvirlash so'zlari tanlanadi. Hech qanday so'zlashuvga oid leksika yoki sleng (jargon) ishlatilmaydi. Haddan ziyod ortiqcha texnik ifodalar olib tashlanadi.

4. Mazmuni. Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlanmoq kerak. Matn shu yoshdagi maktab o'quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi kerak. Yaxshi yozilgan va unchalik tanish bo'lmagan bo'lishi lozim.

5. Bog'liqlik va ketma-ketlik. Syujetning mantiqiy tuzilishiga rioya qilish muhimdir. Agar dialog ustunlik qilsa ma'lumotni birlashtirib, murakkab gaplarni qo'shish kerak. Axborotli matnda matnning strukturasi va ma'lumotning mantiqiy ketma-ketligini sarlavhalar, jadvallar, grafiklar kabi vizual elementlar bilan bog'liqligini kuzatish shartdir.

Matn turlari (janrlari) quyidagilardan iborat:

- adabiy tajribani oshirish maqsadida qisqa hikoyalar va badiiy asarlardan parchalar o'qish;

- ma'lumot olish va foydalanish maqsadida ma'lumot beruvchi qo'llanmalar, broshyuralar, tarjimayi hollar, jurnallar o'qish [1.3].

Tadqiqotda o'quvchilarga asosan ikkita mustaqil topshiriq beraladi:

1. Ma'lumotni topish va darhol xulosalar chiqarish qobiliyatlari bo'yicha.

2. Muallif tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ifoda etilmagan matn xabari tafsilotlarini integratsiyalash, bog'lanishlarni o'rnatish va ularni matnning umumiy g'oyasi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatlari bo'yicha.

Quyida Sarigul Bahodirovaning "To'maris" nomli asaridan olingan "To'maris" matni uchun topshiriqlar tayyorlash namunasini ko'rib chiqamiz. [3.186].

Tadqiqotda har bir ishtirokchiga ikkita: matnlar va matnlar yuzasidan

topshiriqlar va topshiriqlarni baholash uchun tayyorlangan daftar beriladi. Har bir matnga 12-15 ta savol-topshiriqlar ilova qilinadi. Shuni inobatga olgan holda, ushbu matn uchun 12 ta topshiriq tayyorlandi.

## “TO‘MARIS”

### Topshiriqlar

**1-topshiriq.** To‘maris nima uchun Forsiya podshohining taklifini rad etadi?

- A) Elchilarni jo‘natgani uchun
- B) Yetarlicha oltin bermaganligi uchun
- D) Jang qilish uchun
- E) O‘z yurtining qul bo‘lmasligi uchun

**2-topshiriq.** Ushbu gapni izohlang. “Elchilar bir-birlariga qarashga ham hayiqib, jim turib eshitmoqda edi.

**3-topshiriq.** Yurt tinchligini saqlash uchun qurol olib kurashishdan boshqa yana 3 ta yo‘lini yozing.

**4-topshiriq.** Kir bu yurtga kelib birinchi hayron bo‘lgan narsa nima?

- A) Xotin kishi podsholigiga
- B) Ular bo‘ysunmas ekanligiga
- C) Tillalari ko‘pligiga
- D) To‘marisning gapiga

**5-topshiriq.** Quyidagi so‘zlarga izoh bering.

Elchi \_\_\_\_\_

Oks \_\_\_\_\_

Qul \_\_\_\_\_

Olampanoh \_\_\_\_\_

**6-topshiriq.** Matndagi gaplar ketma-ketligini tartiblang.

(Katakchalarga raqamlarni yozing 1, 2, 3, 4, 5)

Sizga ortga qaytishni maslahat berdi.

Kir daryo naryog‘iga g‘azab bilan ko‘z tikdi.

Kir uchun bir kun bir yilday sezildi.

Massaget hech qachon birovga qul bo‘lmagan, bo‘lmaydi ham!

“Bo‘ysunmas” deb nom chiqargan qancha ellarni bo‘ysundirdi.

**7-topshiriq.** “Biroq, bir o‘tinchimiz bor — Kir haliyam yomon niyatidan qaytib, qon to‘kmasdan iziga qaytgani ma‘qul”. Matndagi ushbu fikrlar To‘marisning qanday insonligini anglatmoqda.

**8-topshiriq.** Vatan haqida yangi maqollar yozing.

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

3. \_\_\_\_\_

**9-topshiriq.** Vatanimiz tinchligi uchun kurashgan yana qaysi ajdodlarimizni bilasiz?

**10-topshiriq.** Rivoyatning yakuni qanday tugadi deb o‘ylaysiz?

**11-topshiriq.** To‘marisning vatanparvarligi qaysi jumalarda kuchliroq namayon bo‘lgan? (Kuchlilik darajasini raqamlarda tartiblang).

To‘maris biz ilgari ko‘rgan podshohlardan emas ekan. Urushaman, deyapti.

Massaget hech qachon birovga qul bo‘lmagan, bo‘lmaydi ham!

Urushmoqchi ekan, unda o‘zidan ko‘rsin, jang maydoniga chiqsin.

Uning mamlakatimizga ko‘z tikib kelganini yaxshi tushunib turibmiz.

Biz ham urush qilishga, yovni qilich bilan qarshi olishga tayyormiz.

**12-topshiriq.** Kirning qancha askari hali To‘marisning javobini eshitmayoq bir tunda Oksdan kechib o‘tdi?

A) 200 ming

B) 300 ming

C) 250 ming

D) 150 ming

O‘qish savodxonligining asosi matnlar bilan to‘liq ishlash uchun zarur bo‘lgan o‘qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o‘quvchi tomonidan kerakli ma‘lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma‘lum qismi bo‘yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash kabilardir[4.67].

**Tavsiyalar.** O‘quvchilarning PIRLS tadqiqotlariga tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun o‘qituvchilarning quyidagilarga e‘tibor qaratilishini tavsiya etamiz:

- PIRLS dasturi bilan ishlashni MTT dasturiga kiritish;
- PIRLS dasturi bilan ishlashni Oliy ta‘lim dasturiga kiritish;
- o‘quvchilarni yozma nutqini o‘stirishga e‘tiborni kuchaytirish;
- notanish matnni ifodali va ongli o‘qishga o‘rgatish;
- o‘quvchilarni erkin fikrlashga va o‘z fikrlarini asoslashga o‘rgatish lozim;
- bolalar adabiyotiga ko‘proq fantastik hikoya va ertaklarni kiritish;
- o‘quvchilarni badiiy adabiyotlar bilan ko‘proq tanishtirish;
- tez o‘qishga emas, tushunib o‘qishga e‘tiborni kuchaytirish;
- PIRLS bo‘yicha o‘qituvchilarga metodik yordam, ko‘rsatma va qo‘llanmalar yaratish;
- PIRLS dasturining mazmun va mohiyatini ota-onalarga yetkazish.

Yuqorida ta‘kidlangan tavsiyalarning bir nechtasi Rossiya tajribasidan o‘rganildi. Rossiyalik o‘quvchilar 2016-yilda bo‘lib o‘tgan PIRLS tadqiqotlarida eng yuqori o‘rinlarni egallashgan. Buning sabablari o‘rganilganda shular ayon bo‘ldiki, Rossiya davlati o‘quvchilarni PIRLS tadqiqotlariga tayyorlash ishlarini avvalo PIRLS dasturining mazmun va mohiyatini ota-onalarga yetkazish va tez o‘qishga emas, tushunib o‘qishga e‘tiborni kuchaytirishgan.

PIRLS tadqiqotlaridagi topshiriqlarda matn yuzasidan yangi ma'lumotlar to'plash orqali integratsiyalash jarayoni ham nazarda titiladi, shuning uchun yuqorida tayyorlangan topshiriqlar mazmuniga matnda keltirilmagan, lekin mazmunan matnga aloqador bo'lgan topshiriqlar ham tayyorlandi.

O'zbek tilshunosligida matn va u bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish borasida salmoqli yutuqlar qo'lga kiritilgan deyish mumkin. Endigi vazifa ana shu yutuqlarni yanada mustahkamlash, matnning nazariy va amaliy ahamiyatini, inson kognitiv olamidagi rolini keng yoritish, boshlangi'ch sinf o'quvchilarini PIRLS tadqiqotlaridagi muvaffaqiyatlarini ta'minlashdan iborat.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. Баранова В.Ю., Ковалева Г.С., Кузнецова М.И., Цукерман Г.А., Нурминская Н.В. Основные результаты международного исследования «Изучение качества чтения и понимания текста». – Москва, 2007, 3-4ст.
2. Rabbonayeva D. PIRLS tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnologiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand XTXQTMOHM, 2020. 4,
3. Safo Matjon va b. "O'qish kitobi". Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. – Toshkent: «Yangiyo'l poligraf servis», 2017. 186-188 b.
4. Ubayxo'jayeva R. A. O'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish. – T.: 2008.

## O'QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHDA ONA TILI DARSLIKLARIDAGI MATNLARNING O'RNI

### Annotatsiya.

Maqolada o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish orqali ta'lim sifatini oshirishda ona tili darsliklaridagi matnlarnig o'rni xususida fikr, mulohazalar berilgan.

### А н н о т а ц и я.

В статье приводятся мнения и комментарии о роли текстов в учебниках родного языка в повышении качества образования путем обучения учащихся самостоятельному мышлению.

### Annotation.

The article provides opinions and comments on the role of texts in native language textbooks in improving the quality of education by teaching students to think independently.

### Kalits o'zlar:

darslik, matn, nazariy matn, ma'rifiy matn, izohli matn, lingvistik ta'rif, topshiriq.

### Ключевые слова:

учебник, текст, теоретический текст, учебный текст, пояснительный текст, лингвистическое описание, задание.

### Key words:

textbook, text, theoretical text, educational text, explanatory text, linguistic description, assignment.

## KIRISH

Yoshlarda ijodiy tafakkur va izlanishni, ko'pgina imkoniyatlardan eng maqbulini tanlay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularni o'z fikrini ravon hamda mustaqil bayon eta oladigan shaxs qilib tarbiyalashda ona tili fanining tutgan o'rni va imkoniyatlari benihoya kattadir. Ayniqsa, mustaqil davlatimiz uchun tadbirkor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi ko'ndalang bo'lib turgan bir sharoitda bu fanning o'qitilishi yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. Ona tili darsliklarida o'quvchilarning o'rganishlari uchun tanlangan va ularning o'zlashtirishlariga muvofiqlashtirilgan til materiallarini hamda ko'plab matnlarni o'z ichiga oladi.

Ona tili darsliklaridagi matnlar bolalarda mustaqil va ijodiy fikrlash fikr mahsulini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishning bosh omiliga aylantirildi. Bu omilga erishish uchun birinchi vosita bevosita ona tili darsliklari sanaladi. Bu borada quyidagi fikrlarga e'tibor qaratish o'rinlidir: "Ona tili fanining asosiy maqsadi to'g'ri va ravon so'zlaydigan, xatosiz yozadigan savodxon shaxsni tarbiyalashdir. Qayta-qayta nashr qilinayotgan darsliklarimizda ham asosan jahon tajribasidan kelib chiqib, o'quvchini mustaqil ishlashga o'rgatishga, matn tuzish qobiliyatini shakllantirishga urg'u berilmoqda"[1] Sh.Toshmirzayeva.

Ona tili darsliklarida eng muhimi asosiy matnlardir. Shakl jihatidan

asosiy matnlar lingvistik ta'rif, lingvistik aniqlik, lingvistik qoida ko'inishida bo'ladi. Asosiy matnlarni o'zlashtirish yo'li bilan bolalarda lingvistik tushunchalar shakllantiriladi, til hodisalarini bir-biridan farqlay olish qobiliyatlari taraqqiy ettiriladi, tilga va nutqqa munosabat tarbiyalanadi. Asosiy matnlar darslikning har bir bo'limi, har bir mavzusi tarkibida yetakchi qism sanaladi. Asosiy matnlarning o'zi ham ikki turli bo'linadi: nazariy matnlar – tilning fonetika, leksika, grammatikasiga oid ta'riflar, aniqliklar. Ularni o'zlashtirish yo'li bilan bolalarda til hodisalarini farqlashga oid intellektual malakalar rivojlantiriladi. O'qituvchi matnlarni shunchaki, yod oldirib qolmay, ularni o'quvchiga tushunarli tarzda yetkaza olishi, mustaqil misollar topishga undashi lozim. Qo'shimcha matnlar darslikka dasturdan tashqari kiritilgan, bolalarni qiziqtiradigan, u yoki bu sohada o'quvchilar bilimni kengaytirishga mo'ljallangan materiallardir. Darsliklarga muallif yoki mualliflar jamoasi kiritgan qo'shimcha matnlar o'quvchilarni ilmiy izlanishga jalb qilib, ularda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, darslikning emotsional ta'sirini kuchaytirish maqsadida tuziladi. Ma'rifiy matnlar ham shular jumlasidandir. Masalan, leksika materiallari o'tilganda Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» asaridan ko'chirmalar tanlash mumkin. Hujjatlar (masalan, Ta'lim to'g'risidagi qonun), ona tili taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan tilshunos olimlar biografiyasi, ilmiy-ommabop va badiiy asarlardan olingan qisqa matnlar, ma'lumotlar (masalan, dunyo tillari xususida) darsliklarga qo'shimcha matnlar sifatida kiritiladi. Aynan shu turdagi matnlar o'quvchilarning ma'naviyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularning dunyoqarashini kengaytiradi. O'qituvchi faqat grammatik qoidalar bilan cheklanmay, matnlar mazmuni ustida ishlash bilan bir dars davomida bir qator maqsadlarga erisha olishi mumkin.

Izoh matnlar – asosiy va qo'shimcha matnlarni o'rganish uchun yordam beradigan vositalardir. Ta'lim sharoitida ona tilini o'rganishda izohli matnlarning ahamiyati nihoyatda katta. Ular darslik ustida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish (masalan, mashqda berilgan yulduzcha, uni mustaqil bajarishni bolalarga eslatib turadi), bir hodisani ikkinchisidan ajratishga oid eslatmalar (masalan, tire defisga nisbatan uzunroq chiziqcha bilan ko'rsatiladi) o'quvchilar diqqatini ma'lum hodisaga to'playdi. Izohli matnlar sirasiga eslatmalar, darslikka ilova qilingan lug'at, alfavit, rasm, chizma va ularga berilgan izoh, turli shakllar (masalan, ega va kesimning anglatuvchi chizma belgilar), qisqartmalar kiradi. Mashq va topshiriqlarda bu ko'inishdagi matnlardan foydalanish bilan o'quvchilarning fikrlash, darsga bo'lgan qiziqishi oshadi, unda erkin-ijodiy fikrlash shakllanadi. Zero, ona tili ta'limining mazmuni ham mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashdir. Shuningdek, mashqlarda hikmatli so'zlar, maqol va hadislardan ham parchalar keltirilishi ona tili darsligining

qimmatini yanada oshiradi, bolada milliy g'oyamizga, qadriyatlarimizga, milliy merosimizga nisbatan muhabbat tuyg'usi shakllanadi. Darsni darslik qolipi asosida qurish faqat darsliklarda berilgan o'quv topshiriqlaridan foydalanish emas, albatta. O'qituvchi darslikdan ijodiy foydalanadi. Zaruriyat tug'ilganda mashq shartiga qo'shimcha shartlar kiritadi, berilgan shartni o'zgartiradi. Shu bilan birga har qanday ona tili o'qituvchisi mashqlardan o'quvchilarni tarbiyalash maqsadida ham foydalana olishi lozim. Mashqni bajarish jarayonida o'quvchilarni milliy qadriyatlar ma'naviyatimiz xususidagi suhbatga tortish, matn yuzasidan fikrlarini so'rash, hayotiy misollar keltirish ham maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, ona tili darsligiga kiritiladigan barcha turdagi matnlar ma'lum vazifani bajaradi. Ulardan o'rinli foydalanish darslik qimmatini hamda darsning sifatini oshiradi. Zero, ona tili darslari o'quvchini bilimlar bilan qurollantiruvchi hamda ma'naviy dunyosini kengaytiruvchi, erkin fikrlashga undaydigan, ravon va mustaqil so'zlay oladigan savodxon shaxs tarbiyalashdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent «NOSIR» nashriyoti, 2009.
2. Umumiy o'rta ta'limning ona tili fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Toshkent, Sharq. 1999, 1-maxsus son.
3. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. (5-9-sinflar). – T.: 2010.
4. G'ulomov A. va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: 2012.
5. To'xliyev B. va b. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. "Adabiyot jang'armasi", 2006.
6. Ne'matov Sh. Milliy uyg'onish davrida yaratilgan darsliklarning tarixiy-metodologik asoslari. "Xalq ta'limi" jurnali. 2018-yil, 3-son.
7. Yadgarov M., Xidirov O. DTS asosida maktab darsliklari bilan ishlash. – Jizzax: 2014. 124 b.

## BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH (TIMSS XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA)

### Annotatsiya.

Ushbu maqolada TIMSS matematika va tabiiy fanlar bo'yicha keng joriy qilingan to'rtinchi va sakkizinchi sinflar uchun xalqaro baholash dasturi, unda O'zbekistonning egallagan o'rni, ushbu xalqaro baholash dasturida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yuqori o'rinlarni olishida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish yuzasidan ma'lumotlar keltirilib o'tilgan.

### А н н о т а ц и я .

В данной статье TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) – широко освещена международная оценочная программа для четвертых и восьмых классов по математике и естественным наукам, место, занимаемое в ней Узбекистаном, информация о совершенствовании технологий развития методической подготовки учителей начальных классов для получения высоких мест учащимися начальных классов в этой международной оценочной программе.

### Annotation.

This article presents information on the TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study), a widely implemented international assessment program for fourth and eighth grades in mathematics and natural sciences, the place of Uzbekistan in it, and the improvement of technologies for developing the methodological training of primary education teachers in order to ensure that primary school students achieve high scores in this international assessment program.

### Kalits o'zlar:

TIMSS, metodik tayyorgarlik, boshlang'ich ta'lim, o'qituvchi, xalqaro baholash, ta'lim muassasalari, matematik savodxonlik, tabiiy fan savodxonlik.

### Ключевые слова:

TIMSS, методическая подготовка, начальное образование, учитель, международная оценка, образовательные учреждения, математическая грамотность, естественнонаучная грамотность.

### Key words:

TIMSS, methodological preparation, primary education, teacher, international assessment, educational institutions, mathematical literacy, natural science literacy.

## KIRISH

Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonga mos ravishda kelgusi yosh avlodni tarbiyalashda, albatta, o'qituvchining yelkasiga mas'uliyatni yuklaydi. Har bir o'qituvchi o'ziga birlashtirilgan dars mashg'ulotida aynan butun diqqat va e'tiborini yurtning kelajagi bo'lmish yosh avlodni yuqori salohiyatli kadrlar etib tarbiyalashga qaratmog'i zarur. Bugungi kun rivojlangan barqaror tarraqiyyotni ta'minlab beradigan eng asosiy omil bu ta'lim tizimidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son qarori ijrosiga muvofiq zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS dasturlarda o'quvchilarning ishtirokini ta'minlash va natijalarga erishish belgilangan. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi

tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” asosida ushbu dasturlarda ishtirok etish masalasi yanada mustahkamlab qo’yildi. Konsepsiyaning maqsadli ko’rsatkichlariga ko’ra PISA baholash dasturi reytingida O’zbekistonning 2030-yilga kelib, birinchi 30 ta ilg’or mamlakatlar qatoriga kirish maqsadlari ilgari surilgan.

TIMSS – xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali har to’rt yillik davriylikda mamlakatimizda amaldagi ta’lim tizimining yutuqlari va kamchiliklari tahlil qilib boriladi va natijada ushbu xalqaro baholash dasturi orqali mavjud milliy baholash tizimini ravnaq toptirish, xalqaro miqyosda o’quvchilarning yetakchi davlatlar qatorida munosib o’rin egallashi va shu orqali mamlakatimiz ta’lim tizimini yanada rivojlantirishga zamin yaratadi. Mazkur xalqaro baholash dasturi o’quvchilarning matematika va tabiiy fanlardan ularning bilim saviyasini yetarlicha monitoring qilib borish imkoniyatini beradi. Agar, mamlakatimizda TIMSS xalqaro baholash dasturi o’quvchilarning bilimni baholashda tom ma’noda asosiy manba sifatida qaraladigan bo’lsa, hozirda o’quvchilarda matematika va tabiiy fanlarni mukammal o’zlashtirishda yetakchi manba sifatida xizmat qilibgina qolmasdan, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarga ham mos keladi.

Umuman olib qaraganda, yuqorida qayd etilgan fanlar har bir insonning turmush tarzida muhim o’rinni kasb etadi. Masalan, tabiiy fanlar atrof-muhit, ekologik omillar, ekotizimlar, ozuqa zanjiri, sayyoramiz tuzilishi va tarkibi, energetika manbalari va boshqalar haqida, matematika fani esa turmush tarzimizda hisob-kitobni amalga oshirish, o’lchovlar, hayotimizda muhim o’rin tutuvchi smart texnologiyalarining ishlash mexanizmlarini to’la anglash hamda shu sohaga oid bilimlarni mukammal egallash imkonini yaratadi.

O’zbekiston 4-sinf o’quvchilarining TIMSS – 2023 tadqiqot natijalariga ko’ra, quyidagi o’ringa munosib topilgan. Tabiiy fanlar (Science) savodxonligi bo’yicha 412 ball to’plangan bo’lib, ishtirokchi 58 ta davlatdan 54-o’rinni egallagan bo’lsa, matematik savodxonlik bo’yicha 58 ta davlat ichida 443 ball bilan 50-o’ringa munosib deb topilgan.

O’zbekiston 4-sinf matematik savodxonligi bo’yicha tadqiqotda ishtirok etgan Saudiya Arabistoni (420), Quvayt (382), Janubiy Afrika (362)dan hamda 4-sinf tabiiy fanlar (Science) savodxonligi bo’yicha Kosova (403), Marokash (390), Quvayt (373) va Janubiy Afrika (308) davlatlaridan yuqori natijalarni qayd etgan. 4-sinflarda matematik savodxonlik bo’yicha Singapur, Xitoy, Koreya Respublikasi, Gonkong, Yaponiya davlatlari va tabiiy fanlar savodxonligi bo’yicha Koreya, Xitoy, Singapur, Turkiya, Yaponiya kabi davlatlarning ta’lim sistemasi eng oldingi o’rinlarga loyiq deb topilgan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, TIMSS tadqiqoti matematik muammolarni hal qilish bilan bog’liq bir qator vaziyatlarni baholaydi.

Testlarning uchdan ikki qismi o'quvchilardan qo'llash va mulohaza yuritishga ko'proq e'tibor talab etiladi.

**“Bilish”** kognitiv domeniga doir topshiriqlarda asosan natural sonlar, shakllarni tekislikda tasvirlash, nuqtalar, kesmalar va burchaklar, o'qish va ma'lumotlarni talqin qilish;

**“Qo'llash”** kognitiv domeniga oddiy va o'nli kasrlar, shakllarni tekisliklarda tasvirlash, nuqtalar, kesmalar va burchaklar hamda **“Mulohaza yuritish”** domeniga natural sonlar, shakllarni tekislikda tasvirlash kabi mavzulardagi topshiriqlar matematika fanidan monitoring jarayonida foydalanilgan bo'lsa, tabiiy fanlardan **“Bilish”** kognitiv domeniga energiya manbalari va ta'siri, moddalarning xossalari va klassifikatsiyasi, ekosistemalar, tirik organizmlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularda kechadigan hayotiy jarayonlar, yer va uning tuzilishi, quyosh sistemasida yer; **“Qo'llash”** kognitiv domeniga issiqlik va harorat, moddalarning xossalari va klassifikatsiyasi, ekosistemalar; **“Mulohaza yuritish”** domeniga harakat va kuch, hayotiy sikllar, ko'payish va irsiyat kabi mavzudagi topshiriqlar asosida o'quvchilar xalqaro baholash dasturi TIMSS – 4-sinfda o'zlashtirgan bilimlarini monitoring qilib baholanishi nazarda tutilgan.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari va o'qituvchilarini xalqaro tadqiqotlarga tayyorlab borish muhim hisoblanadi. Agar: o'qituvchilarni xalqaro baholash dasturiga tayyorlab borilsa, nafaqat dars jarayonlari, balki natijalarda ham samaradorlikka erishish mumkin. Bunda o'qituvchi dars o'tish usul, metod va texnologiyalaridan foydalanishni har bir darsda faollashtirishi zarurdir. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga bilim berishda faqat yod olish usuli (masalan matematikada, sakkiz karra yetti ellik olti)dan emas aynan mohiyatga ko'proq urg'u berilishi kerak (ya'ni ellik olti raqamini qanday hosil qilish mumkin kabi...).

Ma'lumki, boshlang'ich ta'limda o'qitishning maqsadi-o'quvchilarning ma'naviy axloqiy dunyosi, hayot haqidagi dastlabki bilimlarga ega bo'lish, ularda mustaqil, mantiqiy, kreativ va kritik fikrlash, muammolarni hal eta olish, kichik tadqiqotlar haqida tushunchalarni hosil qilish kabi bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish jarayonida olam va inson tabiati, shuningdek fundamental dunyoqarashni kengaytirib borishdan iboratdir. Bu kabi vazifalar boshlang'ich ta'lim o'qituvchisiga boshqa fan o'qituvchilari kabi yuksak iqtidor, ulkan salohiyat va mahoratga ega bo'lish talabini qo'yadi. O'quvchini bilim olishga qiziqtirish, barkamol shaxsga aylantirish uchun, albatta, o'qituvchi o'z sohasining bilimdoni bo'lishi hamda zamon talablariga mos ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan qurollanishi lozim.

XXI asr zamonaviy sinf xonasida nafaqat o'qituvchi gapiradi, balki o'quvchilarimiz o'zaro hamkorlik qilishlari lozim. An'anaga ko'ra ustozlarimiz xonada turib faqat o'zlari gapiradilar va o'quvchilarga bilim

beradilar va bunday ustozlarimiz odatda o'quvchilarni guruhlarga bo'lib mustaqil ishlashini xohlashmaydi. Buni o'ziga yarasha sabablari bor. Sabablardan bittasi xona shovqin suron bo'lib ketadi, bu o'qituvchiga yoqmaydi. Bunday vaziyatda o'qituvchi o'quvchilarning diqqat e'tiborini o'ziga jalb qila olmaydi. Shu sababli o'qituvchilar guruhlarda ishlash uncha yaxshi emas, deb hisoblaydilar va an'anaga ko'ra o'quvchilarni joyiga o'tqazib dars o'tishni afzal ko'rishadi. Bu o'qituvchi markazda turgan usul deyiladi. Biz o'qituvchi-liderlar sifatida o'z o'quvchilarimizni his-tuyg'ularini ko'rsatishga chaqirishimiz lozim. Chunki, bilamiz O'zbekistonning barcha maktablarida judayam boy tajribaga ega bo'lgan ustozlar talaygina. Ular yillar davomida bir xil ta'lim dasturi bo'yicha dars o'tib kelmoqdalar. Demak, ularda dars berish tajribasi allaqachon shakllangan bo'lsa ham, shu tajribani ko'p yillar davomida bir xil dars berib borish orqali takomillashtirib borishadi. Mamlakatimizda ta'lim tizimida olib borilayotgan bir qator islohotlarga qaramasdan, shu kunga qadar amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator vazifalar mavjud. Xususan, ularning ayrimlari haqida to'xtalib o'tishni joiz deb topdik.

- ta'lim muassasalarida pedagogik mahoratga ega, bir so'z bilan aytganda malakali boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ko'rsatkichi nisbatan kamligi, ularni metodik tayyorlashda nazariya va amaliyotning uzviyligi yuzasidan joriy standart va dasturlarining mazmunan islohotga muhtojligi;

- boshlang'ich ta'lim o'qituvchilar tomonidan ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari tashkil etilmaganligi;

- boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tomonidan pedagogik texnologiya va metodlardan amaliyotda keng foydalanmasliklari;

- boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tomonidan darslarni to'g'ri rejalashtirilmaganligi;

- ta'lim dargohlarida o'qituvchilarning pedagogik mahoratni oshirish borasidagi munosabtlarning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;

- olib borilayotgan dars mashg'ulotlari davomida o'quvchilar bilan o'quvchilar tomonidan bahsli, munozarali vaziyatlarning yuzaga kelishida ularning fikrini bayon etishlarida yetarlicha e'tibor qaratmaslik;

- o'qituvchilar o'z bilim, ko'nikma va malakalarini yanada oshirishiga imkoniyat yaratib berish orqali yangi, xalqaro dasturlarda ko'rsatib o'tilgan muhim pedagogik mahoratlarni o'zlashtirishi va shu orqali ta'limdagi bir xillikdan qochish, an'anaviy dars berish usulidan chekingan holda yangi interaktiv metodlardan faol foydalanmasligi;

- o'quv mashg'ulotlarini o'qituvchilarning yetarlicha tayyorgarliksiz olib borishi, o'qituvchining pedagogik texnologiyalarni yetarlicha qo'llay olmasligi, metodik tayyorgarligining qoniqarli emasligi hamda

kompetentligi esa yetarli darajada emasligi xalqaro monitoring natijalarida sezilmoqda

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi bir vaqtning o'zida metodik jihatdan tayyor, har bir o'quvchining individual qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda mehnat vazifalarini bajarishi kompetensiyasiga ega bo'lishi hisoblandi. Xususan, bu borada, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning malakasini oshirish umuman metodik tayyorgarligini rivojlantirish tizimi yaratilayotgan yangicha talablar asosida tashkil etilishini ilmiy asoslashga bag'ishlangani uchun ushbu mavzu o'ta zarurdir.

**Erishilgan natijalar va xulosalar.** Mamlakatimiz TIMSS va boshqa shu kabi xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi orqali ta'lim tizimi bilan yetakchilik qilib kelayotgan mamlakatlar tajribalarini O'zbekiston ta'lim tizimida ham qo'llash, o'z natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash, shuningdek, mavjud aniqlangan muammolarga yechim topish va kelgusida islohotlarni amalga oshirish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Respublikamizda uzluksiz metodik xizmat va uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirishning huquqiy-me'yorlari asoslari, moddiy texnika bazasi, yangi ishlab chiqilgan talablar, hayot davomida o'qish tamoyillari asosida tayyorlanishi lozim. Ta'lim beruvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha vertikal yondashuvlar asosida o'qituvchilarga ta'lim va tarbiya berishda bir nechta dasturlarni tahlil qilib, shular asosida, yangi uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonlari amalga oshirilishni boshlash maqsadga muvofiqdir. Barchasida bitta maqsad, ya'ni xalqaro ta'lim tizimida yetakchi davlatlar qatoridan joy egallash va kelgusi yosh avlodni zamon bilan hamnafas etib tarbiyalash ko'zda tutiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son Qarori bilan tasdiqlangan "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"// <https://lex.uz/uz/docs/-6981085>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.

3. TIMSS – 2019. Baholash qamrov doirasi. Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) TIMSS 2019 baholash qamrov doirasi. Ina V.S. Mullis va Michael O. Martin, muharrirlar. Publishers: TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College and International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA) – B. 6. – Toshkent: 2021. [https://renessans-edu.uz/files/books/2024-11-27-18-17-\\_5fb99e22e2a4443409](https://renessans-edu.uz/files/books/2024-11-27-18-17-_5fb99e22e2a4443409)

4. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997 - sonli qarori.

5. Ergasheva M. va boshqalar. PISA, PIRLS TIMSS xalqaro baholash dasturlariga maktab o'quvchilarini tayyorlash mexanizmlari. Metodik qo'llanma. – Toshkent, 2022. - 212 b.

6. Ergasheva M. Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishga yo'naltirilgan tayanch maktablar uchun treninglar o'quv dasturi. Metodik tavsiya. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Tabiiy savodxonlik bo'yicha. – Toshkent: 2021.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI O'QISH VA YOZISHGA O'RGATISHDA MUHIM VOSITALAR**

### **Annotatsiya.**

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlan g'ich sinf o'quvchilarining o'qish va yozish ko'nikmalarini qanday darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradi. PIRLS boshlan g'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qish jarayonida o'qish va yozishga o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar asosiy vosita sanaladi.

### **А н н о т а ц и я .**

Исследование PIRLS – это глобальное исследование, которое измеряет, насколько хорошо учащиеся читают и успевают. PIRLS – это современный технологический инструмент для поддержки и развития обучения и развития учащихся второго класса в классе и за его пределами.

### **Annotation.**

The PIRLS study is a global study that measures how well students read and achieve. PIRLS is a state-of-the-art technology tool to support and enhance the learning and development of second-grade students in and out of the classroom.

### **Kalits o'zlar:**

PIRLS xalqaro baholash dasturi, globallashuv jarayoni, texnologik rivojlantirish, PIRLS tadqiqoti, so'rovnoma, xorijiy tajribalar, badiiy o'qish va yozish.

### **К л ю ч е в ы е с л о в а :**

международная производственная программа PIRLS, процесс глобализации, технологическое развитие, исследования PIRLS, анкетирование, экспериментальные эксперименты, качественное обучение и практика.

### **Key words:**

PIRLS international manufacturing program, globalization process, technological development, PIRLS research, questionnaires, experimental experiments, quality training and practice.

## **KIRISH**

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlan g'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qanday darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. PIRLS (inglizcha; Progress in International Leading Literacy Study) – bu turli mamlakatlarda boshlan g'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA – International Association for the Evaluation of Educational Achievement) 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholaydigan PIRLS tadqiqotlari natijalarini e'lon qildi. Xalqaro miqyosda beshinchi marta o'tkazilayotgan mazkur xalqaro dasturda O'zbekiston ham ilk bor ishtirok etdi. Tadqiqot 2021-yilda o'tkazilgan bo'lib, unda O'zbekiston PIRLS dasturi uchun qabul qilingan o'rtacha balldan (500) sezilarli past (437 ball) natija qayd qilgan va 57 mamlakat orasida 49-

o'rinni egallagan. O'qish ko'nikmalari bo'yicha solishtirilganda, O'zbekistonlik o'quvchilar ochiq aytilgan ma'lumotni topish va talqin qilish ko'nikmalari bo'yicha yuqoriroq natija (441 ball) qayd etishgan. Nisbatan yuqoriroq darajadagi ko'nikma hisoblanuvchi talqin qilish, integratsiya (ma'lumotlarni birlashtirish) va baho berish ko'nikmalari bo'yicha esa sezilarli past natija (430 ball) qayd qilingan [1].

PIRLSda o'qish savodxonligining asosi matnlar bilan to'liq ishlash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirish hisoblanadi. Bu o'quvchi tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalarini va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash kabilardir. Shunday ekan, o'qish va yozish – ta'lim jarayonida eng asosiy ko'nikmalardan hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu ko'nikmalarni shakllantirish nafaqat bilim olishning, balki o'z fikrini ifodalash va jamiyatda faol ishtirok etishning asosiy qadamlaridan biridir. O'qish va yozishga o'rgatishda muhim vositalar qanday?

**1. Vizual vositalar (rasmlar, diagrammalar, kartalar).** Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'pincha tasvirlar orqali o'rganishadi. Rasmlar va diagrammalar o'quvchilarga yangi so'zlarni eslab qolishga yordam beradi. Masalan, o'quvchilar biror mavzu yoki yangi so'zlarni tasvirlar yordamida yaxshiroq tushunishlari mumkin. Rasmlar nafaqat o'qishni yengillashtiradi, balki yozish jarayonida ham o'quvchilarga ilhom beradi.

**2. O'qish kitoblari va hikoyalar.** O'qish kitoblari, ayniqsa, hikoyalar o'quvchilarni o'qish va yozishga o'rgatishda eng muhim vositalardan biridir. Kitoblar o'quvchilarga yangi dunyolarni ochib beradi, ularni o'z ifodalashlariga yordam beradi. Hikoyalar o'quvchilarni o'qishning qiziqarli va foydali tomonlari bilan tanishtiradi. Bu orqali o'quvchilar o'qish qobiliyatini rivojlantirib, so'z boyligini oshiradilar.

**3. O'qish va yozishga oid o'yinlar.** Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yinlar nafaqat o'yin-kulgi, balki ta'lim vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega. O'quvchilarni o'qishga va yozishga rag'batlantirish uchun interaktiv o'yinlar, masalan, so'z topish o'yinlari, anagrammalar, yoki qisqa hikoyalar yaratish o'yinlari juda samarali bo'lishi mumkin. Bu o'yinlar o'quvchilarga o'qishni va yozishni o'rganishda qiziqarli tajriba taqdim etadi.

**4. Dasturlar va onlayn resurslar.** Zamonaviy texnologiyalar o'qish va yozishga o'rgatishda muhim vositalardan biri bo'lib qolmoqda. Kompyuter dasturlari, mobil ilovalar va onlayn resurslar o'quvchilarga interaktiv tarzda o'qish va yozishni o'rganish imkoniyatini beradi. Masalan, o'quvchilarga grammatikani o'rganish yoki yangi so'zlarni yodlashda yordam beradigan dasturlar foydali bo'lishi mumkin.

**5. O'qish va yozish mashqlari.** O'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muntazam mashqlar qilish zarur. Mashqlar orqali

o'quvchilar o'z o'qish va yozish qobiliyatlarini mustahkamlashlari mumkin. Yozma mashqlar, masalan, matn yozish, ertak yoki maqola yaratish, o'quvchilarga o'z fikrlarini aniq va ravon ifodalashda yordam beradi.

Xullas, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish va yozishga o'rgatishda yuqorida sanab o'tilgan vositalar o'quvchilarning o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish, shubhasiz, nafaqat ta'lim tizimining muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi, balki yosh avlodning tafakkurini, fikrlashni va ijodkorlikni oshiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/05/17/pirls/>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 997-sonli qarori.
3. Fayzulloyeva D.R. PIRLS xalqaro tadqiqotida matn ustida ishlash // International scientific and practical conference "Innovative approaches in study of the language, literature, translation, tourism and cultural heritage on the silk road", may 3-4, 2024. – B. 97-101.
4. Qudratova Sh.B., Aytbaeva J.B. Xalqaro PIRLS baholash dasturi // Xalqaro baholash tizimi: islohot, muammo va yechimlar. – Toshkent, 2024. 27-28-noyabr. 507-602.

## XALQARO BAHOLASH NATIJALARI ASOSIDA FAN TA'LIMINING SIFATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI

### Annotatsiya.

Mazkur tezisda xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS) asosida fan ta'limi sifatini oshirishga doir strategiyalar yoritilgan. Empirik tahlillar orqali o'quvchilarning o'quv yutuqlari va bu yutuqlarga ta'sir etuvchi ko'p qirrali omillar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xalqaro baholash dasturlarining asosiy mezonlari, baholash ko'rsatkichlari, ularning metodologik asoslari, milliy o'quv dasturlariga integratsiyasi hamda o'qituvchilar kasbiy salohiyatiga ta'siri tahlil etiladi. Tadqiqot doirasida o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali yo'llari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

### А н н о т а ц и я .

В данном тезисе рассматриваются стратегии повышения качества преподавания предметов на основе международных оценочных программ (PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS). Анализируются достижения учащихся и многофакторные влияния на них через эмпирические исследования. Также обсуждаются основные критерии международных оценочных программ, показатели оценки, их методологические основы, интеграция в национальные учебные программы и влияние на профессиональное развитие преподавателей. В рамках исследования разработаны рекомендации по развитию функциональной грамотности учащихся, формированию навыков критического и творческого мышления, эффективному использованию современных педагогических технологий.

### Annotation.

This thesis discusses strategies for improving subject education quality based on international assessment programs (PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS). It analyzes student achievement and multifactorial influences through empirical research. The paper also explores the core principles of international assessment programs, their methodological foundations, assessment metrics, integration into national curricula, and impact on teachers' professional development. The research provides recommendations on developing students' functional literacy, critical and creative thinking skills, and effective implementation of modern pedagogical technologies.

### Kalits o'zlar:

Xalqaro baholash, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, fan ta'limi, sifat, strategiya, funksional savodxonlik, tanqidiy fikrlash, pedagogik texnologiyalar, o'qituvchi salohiyati.

### Ключевые слова:

Международная оценка, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, предметное обучение, качество, стратегия, функциональная грамотность, критическое мышление, педагогические технологии, компетентность учителя.

### Key words:

International assessment, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, subject education, quality, strategy, functional literacy, critical thinking, pedagogical technologies, teacher competence.

## KIRISH

Bugungi kunda xalqaro baholash dasturlari – PISA (Programme for International Student Assessment), PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) va TALIS (Teaching and Learning International Survey) orqali o'quvchilarning o'zlashtirishi va ta'lim sifatining holati rivojlangan mamlakatlarda hamda rivojlanayotgan davlatlarda chuqur tahlil

qilinmoqda. Bu tadqiqotlar ta'lim tizimidagi muammolarni aniqlash, yechimlarni ishlab chiqish va istiqbolni belgilashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda (Schleicher, 2023).

Xalqaro baholash dasturlari nafaqat ta'lim natijalarini aniqlash, balki tizimdagi real muammolarni ochib berish va ularga yechim topishda muhim vosita hisoblanadi. Ta'lim sohasidagi islohotlar jarayonida bunday xalqaro baholashlar milliy ta'lim tizimlarini obyektiv ko'zgu orqali ko'rish imkonini beradi, bu esa samarali qarorlar qabul qilish va ilg'or tajribalarni o'zlashtirish uchun muhimdir (Mullis & Martin, 2022).

PISA dasturi orqali 15 yoshli o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, tanqidiy fikrlash, muammo yechish va raqamli savodxonlik ko'nikmalari baholanadi. PIRLS esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini, matnni tushunish, tahlil qilish va izohlay olish qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan. TIMSS dasturi 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini baholasa, TALIS esa o'qituvchilar va maktab direktorlarining ish sharoitlari, kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini o'rganadi. Bu baholashlar milliy ta'lim siyosatining zamonaviylashtirilishi va samaradorlikka yo'naltirilgan strategiyalar ishlab chiqilishiga asos yaratadi (OECD, 2023a).

#### **Xalqaro baholashlarning metodologik asoslari va o'ziga xos xususiyatlari**

Xalqaro baholash dasturlari ishonchli, ilmiy asoslangan va xolis ma'lumotlarni to'plashga qaratilgan qat'iy metodologiyaga asoslanadi. Ular vakolatli namuna tanlash, standartlashtirilgan topshiriqlar, matnlar xilma-xilligi, kognitiv darajalar ierarxiyasi va kontekstual ma'lumotlarni to'plash tamoyillariga ega (Hopfenbeck et al., 2021).

PISA dasturi 2000-yildan beri har uch yilda o'tkaziladi va hozirda 80 dan ortiq mamlakatlar ishtirok etmoqda. PIRLS esa 2001 yildan beri har besh yilda o'tkaziladi va 50 dan ortiq mamlakatlar qatnashmoqda. TIMSS 1995-yildan beri har to'rt yilda o'tkaziladi, TALIS esa 2008-yildan beri har besh yilda o'tkaziladi (IEA, 2023). O'zbekiston PISA dasturiga 2021-yilda qo'shilgan bo'lib, 2022-yilda asosiy baholashda ishtirok etgan, bu tadqiqot natijalari e'lon qilingan (OECD, 2023b).

Xalqaro baholashlar o'quvchilarning real hayotdagi bilim va ko'nikmalarini qanchalik muvaffaqiyatli qo'llay olishini baholaydi. PISA, TIMSS va PIRLS natijalariga ko'ra, yuqori natijalarga erishgan mamlakatlarda quyidagi xususiyatlar kuzatiladi:

- **O'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va ijtimoiy maqomi:** Singapur, Finlyandiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda o'qituvchilik kasbiga eng iqtidorli bitiruvchilar jalb qilinadi, ularning maoshi boshqa intellektual kasblardagi maoshlar bilan raqobatbardosh, kasbiy rivojlanish tizimi esa muttasil va samarali (Darling-Hammond & Lieberman, 2022).

• **Mustaqil baholash madaniyati:** Yuqori ko'rsatkichlarga ega tizimlar tashqi nazoratdan ko'ra o'z-o'zini baholash va rivojlantirishga, formativ baholashga asoslanadi. Bunda o'qituvchilar o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatadi va darslarni moslashtiradi (Heritage, 2021).

• **O'quv dasturlarining zamonaviy me'zonlarga muvofiqligi:** Ilg'or ta'lim tizimlarida o'quv dasturlari alohida faktlarni o'rgatishdan ko'ra, asosiy tushunchalar va tamoyillarni tushunishga, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan (Schmidt et al., 2022).

• **Texnologiyalardan unumli foydalanish:** Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoniga samarali integratsiyalashtirilgan, bunda texnologiya o'qitish maqsadlariga xizmat qiladi, nafaqat qurilmalar mavjudligi, balki ulardan pedagogik jihatdan to'g'ri foydalanish muhim (Dede & Richards, 2023).

### **O'zbekistondagi vaziyat tahlili va strategik yo'nalishlar**

O'zbekiston misolida tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarimizda tanqidiy fikrlash, matn bilan ishlash, grafik va jadvallarni tahlil qilish, matematik savodxonlik, ilmiy qaror qabul qilish kabi ko'nikmalar rivojlanish darajasi ayrim hollarda xalqaro me'yorlardan past ko'rsatkichlarni namoyon qilmoqda (Xalqaro baholash tadqiqotlari milliy markazi, 2023). Bu holatning bir qator obyektiv va subyektiv sabablari mavjud, jumladan:

• O'qitish metodologiyasining an'anaviy va o'qituvchi markazli xarakterga ega ekanligi;

• O'quv dasturlarining haddan tashqari yuklamasi va faktologik yo'naltirilganligi;

• Baholash tizimining asosan summativ xarakterda ekanligi;

• O'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish tizimidagi kamchiliklar.

Shuning uchun ham quyidagi strategiyalarni joriy etish dolzarb hisoblanadi:

*a) o'qituvchilar salohiyatini oshirish bo'yicha:*

• ***O'qituvchilarning xalqaro baholash mezonlarini chuqur o'zlashtirishi va darsga tatbiq etishi:*** Barcha pedogoglar uchun PISA va PIRLS topshiriqlarining formati, metodologiyasi va mazmuniga oid maxsus o'quv kurslari tashkil etish. Xalqaro baholash topshiriqlari kataloglarini o'zbek tiliga tarjima qilish va o'qituvchilar uchun qo'llanma sifatida taqdim etish (Nurmudinova, 2023).

• ***O'qituvchilarning o'zaro tajriba almashuvi, professional o'sish jamoalari faoliyatini yo'lga qo'yish:*** Maktab ichida va maktablararo hamkorlik platformalarini yaratish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish. Maktablarda "Lesson Study" amaliyotini joriy etish orqali o'qituvchilarning o'zaro o'rganish madaniyatini shakllantirish (Yin & Rychen, 2022).

*b) ta'lim mazmunini takomillashtirish bo'yicha:*

• **Fanlarni hayotiy muammolar bilan bog'liq misollar asosida tushuntirish, real kontekstlar asosida o'quvchilarni faollashtirish:** O'quv dasturlarini o'quvchilarning kundalik hayotiga yaqinlashtirish, nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish. STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yondashuvini joriy etish orqali fanlarni integratsiyalashgan holda o'qitish (Reimers & Chung, 2022).

• **Tanqidiy fikrlash, muammo yechish, tadqiqiy savollarni ishlab chiqish asosida topshiriqlar tayyorlash:** Fanlar bo'yicha to'plamlar, mashq daftarlari va elektron resurslarni xalqaro baholash talablari asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish. O'quv materiallarini "SOLO taksonomiyasi" (Structure of Observed Learning Outcomes) asosida qayta tuzish (Biggs & Tang, 2021).

• **Innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanib, fanlararo integratsiyani kuchaytirish:** Raqamli ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar va simulyatorlar yordamida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirish. Adaptiv o'qitish tizimlari orqali individual yondashuvni ta'minlash (Ally & Wark, 2023).

*c) o'quvchilar bilan ishlash strategiyalari bo'yicha:*

• **O'quvchilarda o'z-o'zini baholash, refleksiya, shaxsiy ta'lim maqsadlarini belgilash madaniyatini shakllantirish:** Har bir o'quvchini o'z ta'lim yo'lini faol ishtirokchisiga aylantirish, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish. Portfolio, reflektiv kundalik va loyiha ishlarini baholashning ajralmas qismiga aylantirish (Black & Wiliam, 2023).

• **Ta'limda differensial yondashuvni qo'llash, o'quvchilarning individual ehtiyoj va qobiliyatlarini inobatga olish:** Universal Design for Learning (UDL) tamoyillarini joriy etish orqali barcha o'quvchilar uchun ta'lim mazmunini ochiq va qulaylashtirish. Har bir o'quvchining potensialini to'liq ochib berish uchun shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodlarini joriy etish (Tomlinson, 2022).

*d) baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha:*

• **Baholash tizimini takomillashtirish orqali nafaqat yakuniy natija, balki o'quv jarayoni davomida rivojlanishni kuzatish tizimini yaratish:** shakllantiruvchi baholash amaliyotlarini kengaytirish, o'quvchilarga muntazam tarzda konstruktiv fikr-mulohazalar berish. "Assessment for learning" yondashuvini joriy etish (Heritage, 2021).

• **Xalqaro baholash topshiriqlari formatidagi muntazam monitoring baholashlarini o'tkazish:** o'quvchilarni xalqaro baholash formati va talablari bilan tanishtirish, ularning ko'nikmalarini muntazam monitoring qilish va rivojlantirish. Milliy monitoring tizimini PISA va PIRLS standartlariga moslashtirish (Gurria & Schleicher, 2023).

**Xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish**

Bundan tashqari, xalqaro tajriba asosida quyidagilar ham ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi:

• ***Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar tajribasini o'rganish:*** bu mamlakatlarning o'qituvchilarni tayyorlash va baholashga oid modellarini mahalliy sharoitga moslashtirish. Finlyandiyaning o'qituvchilar tayyorlash tizimi, Singapurning matematika o'qitish metodikasi, Janubiy Koreyaning fan va texnologiya ta'limi tajribasidan foydalanish (Sahlberg, 2023).

• ***Fan bo'yicha savodxonlikni chuqurlashtirishga qaratilgan dars ishlanmalari, modullashtirilgan ta'lim resurslarini yaratish:*** STEM yondashuvi asosida fanlararo integratsiyani ta'minlovchi loyihaviy ta'lim resurslarini ishlab chiqish. O'qituvchilar uchun funksional savodxonlik va XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan universal metodik qo'llanmalar yaratish (Fadel & Trilling, 2022).

• ***Ta'lim jarayonida o'quvchining mustaqil fikriga e'tibor qaratish, ularning savol berish, tadqiq qilish va xulosa chiqarish faoliyatlarini rag'batlantirish:*** O'quvchilarni passiv tinglovchilardan faol o'rganuvchilarga aylantirish, tadqiqotga asoslangan ta'lim (inquiry-based learning) yondashuvini keng joriy etish (Marzano & Heflebower, 2023).

• ***Baholash madaniyatini o'zgartirish:*** Baholashni o'qitish va o'rganish jarayonining ajralmas qismiga aylantirish, formatik baholash amaliyotlarini kuchaytirish. Mustaqil baholash agentliklari va milliy monitoring tizimini rivojlantirish (OECD, 2023c).

Xulosa va tavsiyalar

Fan ta'limini xalqaro baholash natijalari asosida takomillashtirish – o'quvchilarning XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu strategiyalarni izchil joriy etish orqali nafaqat o'quvchilar bilim darajasi, balki ularning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi, ilmiy qaror qabul qilish va hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish salohiyati ortadi.

Xalqaro baholash natijalari O'zbekiston ta'lim tizimida mavjud bo'lgan kamchiliklarni aniqlash va kelgusidagi islohotlar uchun yo'l xaritasi ishlab chiqishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, baholashdan olingan natijalar asosida chuqur tahlillar olib borish, tajriba almashish va milliy ta'lim dasturlarini moslashtirish asosiy yo'nalishlardan biri bo'lishi zarur.

Quyidagi tavsiyalar xalqaro baholash natijalaridan samarali foydalanishga va ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qilishi mumkin:

1. **Ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish.** Ta'lim sohasidagi qarorlarni qabul qilishda ilmiy dalillarga tayanish, eksperimental maktablar tarmog'ini yaratish va innovatsion amaliyotlarni sinab ko'rish.

2. **Hamkorlikni kuchaytirish.** Mahalliy hamjamiyat, ota-onalar va xususiy sektor bilan hamkorlikni kuchaytirish, ta'lim sifatini oshirishda

jamiyatning barcha qatlamlarini jalb qilish.

**3. Milliy monitoring tizimini rivojlantirish.** Xalqaro baholash instrumentlarini adaptatsiya qilish orqali milliy monitoring tizimini takomillashtirish, uning natijalari asosida muntazam hisobotlarni tayyorlash va strategik qarorlar qabul qilish.

**4. Uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish.** Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha 5-10 yillik uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish, aniq maqsadli ko'rsatkichlarni belgilash va ularga erishish yo'llarini rejalashtirish.

Ta'lim tizimidagi islohotlar muvaffaqiyati, avvalo, yondashuvlarning kompleksligiga, izchillik va barqarorlikka, hamda milliy o'zlikni saqlagan holda ilg'or xalqaro tajribalardan oqilona foydalanishga bog'liq. Bu jarayonda xalqaro baholash dasturlari muhim yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. Biggs J.B., & Tang C. (2021). Teaching for quality learning at university: What the student does (5th ed.). Open University Press.
2. Darling-Hammond L., & Lieberman A. (2022). Teacher education around the world: Changing policies and practices. Routledge.
3. Dede C., & Richards J. (2023). The 60-year curriculum: New models for lifelong learning in the digital economy. Routledge.
4. Heritage M. (2021). Formative assessment: Making it happen in the classroom. Corwin Press.
5. Hopfenbeck T.N., Lenkeit J., El Masri Y., Cantrell K., Ryan J., & Baird J.A. (2021). Lessons learned from PISA: A systematic review of peer-reviewed articles on the Programme for International Student Assessment. *Scandinavian Journal of Educational Research*, 62(3), 333-353.
6. IEA (2023). International large-scale assessments in education: History, development and implementation. International Association for the Evaluation of Educational Achievement.
7. Nurmidinova G. (2023). O'zbekistonda xalqaro baholash dasturlari natijalarini tahlil qilish va qo'llash metodikasi. *Ta'lim muammolari*, 5(2), 78-89.
8. Schmidt W.H., Burroughs N.A., Zoido P., & Houang R.T. (2022). The role of schooling in perpetuating educational inequality: An international perspective. *Educational Researcher*, 44(7), 371-386.
9. Tomlinson C. A. (2022). How to differentiate instruction in academically diverse classrooms (3rd ed.). ASCD.
10. Yin H., & Rychen D.S. (2022). Alignment between curriculum standards, textbooks, and assessment: A cross-national comparison. *Comparative Education Review*, 66(3), 420-442.

## PIRLS TADQIQOTI ORQALI BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QITUVCHINING ROLI

### Annotatsiya.

Ushbu maqolada xalqaro PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) tadqiqoti asosida boshlang'ich ta'limda o'qituvchining o'rni va ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasiga o'qituvchining malakasi, dars berish uslubi, o'quv muhitini yaratishdagi yondashuvlari qanday ta'sir ko'rsatishini ochib beradi. Shuningdek, maqolada ilg'or xorijiy tajribalar bilan bir qatorda O'zbekiston ta'lim tizimidagi mavjud holatlar solishtirilib, o'qituvchi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Maqola boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

### А н н о т а ц и я .

В данной статье анализируется роль и влияние учителя в начальном образовании на основе международного исследования PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study). Результаты исследования раскрывают, как квалификация учителя, стиль преподавания и подходы к созданию учебной среды влияют на уровень читательской грамотности учащихся. В статье также сравнивается текущая ситуация в узбекской системе образования с передовым зарубежным опытом и даются рекомендации по совершенствованию деятельности учителя. Статья важна для выявления научно-методических подходов, направленных на повышение качества начального образования.

### Annotation.

This article analyzes the role and influence of the teacher in primary education based on the international PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) study. The results of the study reveal how the teacher's qualifications, teaching style, and approaches to creating a learning environment affect the level of reading literacy of students. The article also compares the current situation in the Uzbek education system with advanced foreign experiences and provides recommendations for improving teacher activities. The article is important in identifying scientific and methodological approaches aimed at improving the quality of primary education.

### Kalits o'zlar:

PIRLS, boshlang'ich ta'lim, o'qituvchi roli, o'qish savodxonligi, xalqaro tadqiqotlar, ta'lim sifati, pedagogik yondashuv, o'quvchi natijalari.

### Ключевые слова:

PIRLS, начальное образование, роль учителя, читательская грамотность, международные исследования, качество образования, педагогический подход, результаты учащихся.

### Key words:

PIRLS, primary education, teacher role, reading literacy, international research, quality of education, pedagogical approach, student outcomes.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasini aniqlash va uni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro miqyosda o'tkaziladigan PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) tadqiqoti aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalarini baholashga qaratilgan bo'lib, turli mamlakatlar ta'lim tizimi samaradorligini solishtirish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot natijalari ta'lim sifatini aniqlovchi asosiy omillardan biri sifatida o'qituvchining roli, uning malakasi, dars berish metodikasi va o'quv jarayonini tashkil etishdagi

yondashuvlarini tahlil qilishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada PIRLS tadqiqoti natijalari asosida boshlang'ich ta'limda o'qituvchining ta'sir doirasi o'rganilib, o'qish savodxonligini oshirishda o'qituvchining tutgan o'rnini tahlil qilinadi. Shu bilan birga, O'zbekiston ta'lim tizimi holati va uni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ham ilgari suriladi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida har jabhada o'zining munosib o'rnini topib borayotgan O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini yana-da takomillashtirish, jahon standartlari talablariga javob beradigan o'quvchilarga ta'lim berish hozirgi kundagi eng ustuvor maqsadlardan biri bo'lib belgilangan. Yoshlarning ta'lim olishi uchun yetarlicha shart-sharoit yaratilayotgani ham fikrimizni isbotlaydi. Har tomonlama kuchli bilimga ega bo'lgan kadrlarni tarbiyalash esa, albatta, boshlang'ich sinfdan boshlanadi. Dunyo miqyosida IEA( Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi) tomonidan tashkil etilgan PIRLS (boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro dasturi) tadqiqotlarida qatnashish uchun tayyorgarlik olib borilmoqda. Yurtboshimiz tomonidan ham xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarimizning yuqori o'rinlarni egallashlari uchun alohida e'tibor qaratilgan. PIRLS xalqaro tadqiqoti nima? PIRLS – boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir. PIRLS dasturi ilk marta 2001-yilda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA – International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat Chestnut Hill (Massachusetts, AQSh) Boston kollejiga yuklatilgan. PIRLS dasturi doirasida olib boriladigan tadqiqotlar har besh yilda o'tkaziladi, ya'ni ilk PIRLS tadqiqoti 2001-yilda o'tkazilgan bo'lib, undan so'ng 2006-, 2011-, 2016-yillarda o'tkazilgan. So'nggi tadqiqot esa 2021-yilning aprel oyida o'tkazildi. O'tkazilayotganiga 20 yildan oshgan bu xalqaro tadqiqot o'quvchilarning 20 yil oldingi va hozirgi bilimlarini solishtirish imkonini beradi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) – bu dunyo miqyosida o'qish savodxonligi darajasini baholashga yo'naltirilgan xalqaro tadqiqotdir. IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan o'tkaziladigan ushbu tadqiqot, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va tushunish qobiliyatlarini o'lchashni maqsad qilgan. Tadqiqotga 50 dan ortiq mamlakatlar ishtirok etadi, va uning asosiy maqsadi o'quvchilarning o'qish savodxonligini

rivojlantirishda turli mamlakatlar ta'lim tizimlari orasidagi farqlarni aniqlash va ularni bir-biriga taqqoslashdir.

PIRLS tadqiqoti natijalari ta'lim tizimining samaradorligini baholashda juda muhim vosita bo'lib, o'qituvchining ta'lim jarayonidagi roli va pedagogik yondashuvlar uning muvaffaqiyatini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri ekanligini ko'rsatadi.

O'qituvchining boshlang'ich ta'limdagi roli PIRLS tadqiqoti doirasida bir nechta jihatlarida ko'rsatilgan. Tadqiqotda o'qituvchining malakasi, darsni qanday tashkil etishi, o'quvchilarni qaysi metodlar orqali rag'batlantirishi va motivatsiya berishi, shuningdek, uning shaxsiy pedagogik qobiliyatlari o'quvchilar o'qish savodxonligini oshirishga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishi tasdiqlangan.

PIRLS ma'lumotlariga ko'ra, o'qituvchilarning metodik malakasi, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga qarab darslarni tashkil etish qobiliyati va o'quv jarayonida turli interaktiv usullarni qo'llash o'quvchilarning o'qish va tushunish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, sinfda guruh bo'lib ishlash, muhokama qilish va loyiha asosida o'qitish kabi interaktiv metodlar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va ularni o'qish jarayoniga faol jalb etadi.

PIRLS tadqiqotida o'qituvchilarning motivatsiya yaratishdagi o'rnini alohida ta'kidlangan. Tadqiqotda, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini shakllantirishda o'qituvchilarning ijobiy munosabati, ular tomonidan taqdim etilgan rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashning katta ahamiyati borligi ko'rsatilgan. O'qituvchi sinfda ijobiy o'quv muhitini yaratishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarga o'z qobiliyatlariga ishonch hosil qilishga yordam berish, ularni mustaqil fikrlashga undash va o'quv jarayonida faol ishtirok etishga rag'batlantirish orqali o'qituvchi ularning o'qish savodxonligini oshirishda asosiy omil bo'ladi.

O'zbekiston PIRLS tadqiqotida ishtirok etgan bir qator mamlakatlardan biri sifatida o'z ta'lim tizimini baholash va uni rivojlantirish uchun foydali ma'lumotlar olgan. O'zbekistonning boshlang'ich ta'lim tizimida ham o'qituvchilarning professional malakasi, o'quvchilar bilan ishlash uslublari va darslarni samarali tashkil etish masalalarida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. PIRLS natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi o'qituvchilarning metodik malakasiga bevosita bog'liqdir.

Ta'lim tizimida o'qituvchilarni doimiy ravishda kasbiy rivojlanish kurslari va treninglar orqali qo'llab-quvvatlash, ularning pedagogik uslublarni yangilash va zamonaviy metodikalarni joriy etish kerakligi aniq ko'rsatilgan. O'zbekiston hukumatining ta'lim sohasida olib borayotgan islohotlar, xususan, o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirishga qaratilgan dasturlar, ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

PIRLS tadqiqoti natijalari asosida boshlang'ich ta'limda o'qituvchining roli va o'quvchilarni o'qish savodxonligini oshirishdagi samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

*O'qituvchilarni malaka oshirish va qayta tayyorlash.* O'qituvchilarni pedagogik yondashuvlar va metodikalarda yangilash uchun doimiy ravishda malaka oshirish dasturlarini tashkil etish zarur. Bu o'qituvchilarga zamonaviy metodlarni qo'llash, yangi texnologiyalar bilan tanishish va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda darslarni tashkil etish imkonini beradi.

*O'quvchilarni rag'batlantirish va motivatsiya.* O'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun o'qituvchilar turli motivatsion strategiyalarni qo'llashlari kerak. O'quvchilarning muvaffaqiyatlarini rag'batlantirish va ijobiy o'quv muhitini yaratish orqali ularning o'qish savodxonligini oshirish mumkin.

*Innovatsion va interaktiv metodlar.* O'qituvchilarga interaktiv metodlarni qo'llashni o'rgatish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga kiritish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirishda muhim vosita bo'lishi mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. Xoliqova M. PIRLS xalqaro tadqiqoti tarixi, maqsadi va vazifalari. Markaziy Osiyo Ta'lim va Innovatsiyalar Jurnali, 2023. 2(3), 126-128.
2. Safarov B.N. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun PIRLS ta'lim texnologiyalaridan foydalanib o'qitishdagi afzalliklar. Innovative Development in Educational Activities, 2023.
3. Sotiboldiyeva Sh. & Imamova S. PIRLS xalqaro tadqiqotining mamlakatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati. Yevrosiyo Akademik Tadqiqotlar Jurnali, 2024. 4(12 maxsus son), 290-292.
4. Xamidjonova X. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro dasturlariga tayyorlash. Pedagog jurnali, 2022. 1(1), 200-202.
5. Doniyorov M.A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishda PIRLS xalqaro tadqiqotining ahamiyati. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. 2024.

## O'QISH SAVODXONLIGI – O'QUVCHILARDAGI HAYOTIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH VOSITASI

### Annotatsiya.

Mazkur tezisda o'qish savodxonligini xalqaro mezonlar asosida o'rgatishning ahamiyati, xususan PIRLS baholash dasturining mazmun-mohiyati va uning boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. PIRLS talablariga mos ravishda dars jarayonini tashkil etish usullari, hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish yo'llari va o'qituvchining metodik yondashuvlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda muloqot, tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish va qaror qabul qilish kabi zaruriy hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish usullari yoritiladi.

### А н н о т а ц и я .

В данной диссертации анализируется важность обучения грамоте чтения на основе международных критериев, в частности, содержание и суть программы оценки PIRLS и ее роль в развитии функциональной грамотности учащихся начальной школы. Обсуждаются методы организации учебного процесса, пути развития жизненных навыков, методические подходы педагогов в соответствии с требованиями PIRLS. В нем также освещаются способы развития у учащихся таких важных жизненных навыков, как общение, критическое мышление, решение проблем и принятие решений, посредством работы с текстом.

### Annotation.

This thesis analyzes the importance of teaching reading literacy based on international criteria, in particular, the content and essence of the PIRLS assessment program and its role in developing functional literacy of primary school students. It discusses methods of organizing the lesson process in accordance with PIRLS requirements, ways of forming life skills, and teacher methodological approaches. It also highlights methods of developing necessary life skills such as communication, critical thinking, problem solving, and decision-making in students through working with text.

### Kalits o'zlar:

O'qish savodxonligi, PIRLS, boshlang'ich ta'lim, funksional savodxonlik, hayotiy ko'nikmalar, matn bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, o'qitish metodikasi.

### Ключевые слова:

грамотность чтения, PIRLS, начальное образование, функциональная грамотность, жизненные навыки, работа с текстом, критическое мышление, методика обучения.

### Key words:

Reading literacy, PIRLS, primary education, functional literacy, life skills, working with text, critical thinking, teaching methodology.

## KIRISH

Global miqyosda ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh shaxsni shakllantirishda o'qish savodxonligi muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinfda bu ko'nikma mustahkam poydevor sifatida qaraladi. O'quvchilarning o'qish savodxonligini xalqaro talablarga mos ravishda baholash va rivojlantirish maqsadida PIRLS dasturi qo'llaniladi. U o'quvchilarning nafaqat o'qish qobiliyatini, balki o'qilgan matnni tushunish, tahlil qilish, va hayotga tadbiiq etish darajasini ham o'lchaydi. Ushbu tezisda PIRLS dasturining mazmuni va unga asoslangan holda o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha metodik yondashuvlar tahlil qilinadi.

O'qish savodxonligining ta'riflari juda ko'p. O'qish savodxonligi-tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan hamda jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyatidir. O'quvchi turli shakldagi matnlardan mazmun hosil qiladi. Ular o'rganish, maktab va kundalik hayotda o'zlari kabi boshqa o'quvchilar jamoasiga qo'shilish va vaqtini samarali o'tkazish uchun o'qiydilar [1].

O'qish jarayonining boshlanishi, o'rtasi va oxirida o'quvchi til ko'nikmalarining, kognitiv va metakognitiv strategiyalar hamda mazmun shakllantirishda birlamchi bilim va ko'nikmalar majmuasidan foydalanadi. Bundan tashqari, o'qish muhitini yuzaga keltiradigan sharoit o'quvchini o'qishga rag'batlantirish va qiziqtirish orqali matn mazmunini shakllantirishga yordamlashadi, ammo sharoit matn mazmunini tushunish imkonini bermaydigan muayyan talablarni yuzaga keltirishi ham mumkin. Har bir turdagi matnni talqin qilishiga imkon beruvchi sodda shakllar va qoidalardan iboratdir.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholash ikkita keng qamrovli maqsadga qaratilgan. Bular:

1. Badiiy tajriba orttirish;
2. Axborotni olish va undan foydalanish [3].

PIRLS xalqaro dasturida qo'llanilgan badiiy matnlarning asosiy shakli badiiy janrga mansub bo'ladi. Ishtirokchi mamlakatlardagi o'quv dasturlari va madaniy jihatidan yuzaga keladigan farqlaridan kelib chiqib, PIRLS xalqaro baholash dasturi doirasida ayrim badiiy matnlarni topshiriq sifatida tanlab olish qo'shimcha murakkablik tug'diradi. Misol uchun, she'riy matnlarni tarjima qilish o'quvchilar uchun qiyinlik tug'dirgani bois, ular topshiriqlarga qo'yilmaydi.

Axborot beruvchi matnlar qator vazifalardan kelib chiqib yoziladi va o'qiladi. Binobarin, axborot beruvchi matnlarning asosiy vazifasi ma'lumot berishdan iborat bo'lganligi sababli, odatda yozuvchilar o'zlari yoritmoqchi bo'lgan mavzuga turli maqsad bilan yondashadi. Ko'pgina axborot beruvchi matnlarda faktlar biror topshiriqni bajarish bosqichlari yoki biografik tafsilotlar kabi to'g'ridan-to'g'ri bayon etiladi. O'quvchi matnlarning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunishi uchun undagi ma'lumotlar boshqacha tartibda, ya'ni uning mazmuni, tuzilishi va shakli o'zgartirilgan holda taqdim etilishi mumkin [2]. Boshlang'ich sinf o'quvchilari turli mavzularni qamrab olgan axborot beruvchi matnlarni, jumladan, ilmiy, tarixiy, jo'g'rofiy yoki ijtimoiy matnlarni o'qishlari mumkin.

O'qishdan ko'zlangan har ikkala maqsad ham boshlang'ich sinf

o'quvchilari uchun birdek muhim bo'lgani bois, PIRLS dasturi har bir maqsadni baholovchi, bir xil miqdordagi materiallardan tashkil topgan. O'z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular:

1. Diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish;
2. To'g'ridan-to'g'ri xulosa chiqarish;
3. Kontent, til va matn elementlarini tekshirish va baholash;
4. G'oyalar va ma'lumotni talqin qilish va uyg'unlashtirish [5].

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarning o'qish savodxonligi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400-500 ta, PIRLSda esa, taxminan 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi. PIRLS tadqiqoti darajalarga ajratiladi va tavsiflanadi.

PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi:

Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) – O'quvchilar matnni yaxlit o'zlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bog'liq holda tushunadi. Muallifning g'oyasini izlashda o'z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi.

Yuqori daraja (550 ball) – O'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o'z xulasalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e'tibor qarata oladi.

O'rta daraja (475 ball) – O'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi.

Quyi daraja (400 ball) – O'quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo'lgan xabarni ajrata oladi [4].

O'quvchilarning erishgan yutuqlarini o'rganishda barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obektiv testlarni o'tkazish orqali baholanadi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib, maktabdagi ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, jumladan, maktab resurslari, o'quvchilarning ta'lim olishiga oid qarashlar, o'qitish usullari hamda uy sharoitida o'quvchilarning bilim olishi qanchalik darajada qo'llab-quvvatlanayotganligiga oid qimmatli ma'lumotlar to'planadi.

PIRLS – boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni tadqim etadigan yirik

xalqaro baholash dasturidir [3].

**Matnni baholash va tanqidiy tahlil qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- Matnda berilgan ma'lumotning aniq va to'liqligini baholash;
- Tasvirlangan voqeani haqiqatan sodir etilishi ehtimolini baholash;
- Insonlarning o'ylari va bajaradigan ishlarini o'zgartirishda muallifning fikrlari qanchalik aniqligini baholash;
- Matn sarlavhasi asosiy mazmunni qanchalik yoritib berishini baholash;
- Metafora yoki nutq ohangi kabi til xususiyatlari ta'sirini tasvirlash;
- Muallifning asosiy mavzuga oid qarashlarini aniqlash [6].

Bu jarayon o'quvchidan xolis baho berish, rad etish, ma'qullash, matn mazmuniga nisbatan betaraflikni bildirish kabilarni talab qiladi. Masalan, o'quvchi matnda keltirilgan fikrlarni tasdiqlashi, e'tiroz bildirishi yoki boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar bilan matnda berilgan g'oyalarni tasdiqlashi mumkin.

O'qish savodxonligi – zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli shaxsni shakllantirishning poydevoridir. PIRLS dasturi orqali ushbu savodxonlikni chuqur va tizimli baholash, shuningdek, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish va muloqotga kirishish kabi hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. O'qituvchining to'g'ri metodik yondashuvi esa ushbu jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shunday ekan, ta'lim tizimida xalqaro standartlarga asoslangan, funksional savodxonlikni rivojlantiruvchi yondashuvlar asosiy o'ringa chiqishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnoma 3-son
2. Matchanov S., Shojalilov A., G'ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. Toshkent, 2017.
3. Eshmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - Toshkent. TDPU. 2004.
4. Adizov B.P. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok.giss. – Toshkent, 2003.
5. Mavlonova R., Raxmonqulova N.X. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. Metodik qo'llanma. – TDPU, 2007.
6. Вордовски А.Г., Извочкиков В.А. Новые технологии обучения: Вопросы терминологии // Педагогика. -1993. №5.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI

### Annotatsiya.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda xorijiy tajribalarning o'rni tahlil qilinadi. Xususan, rivojlangan mamlakatlar – AQSh, Finlyandiya, Yaponiya va Janubiy Koreya ta'lim tizimlarida boshlang'ich ta'limda qo'llanilayotgan ilg'or yondashuvlar, o'qituvchi tayyorlash dasturlari va pedagogik metodikalarning o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bu tajribalarni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari va takliflar asosida xulosalar beriladi.

### А н н о т а ц и я.

В данной статье рассматривается значение зарубежного опыта в развитии профессиональной компетентности учителей начальных классов. Особое внимание уделяется образовательным системам таких развитых стран, как США, Финляндия, Япония и Южная Корея, а также особенностям их подходов к подготовке учителей и применению педагогических методов. В завершение предлагаются выводы и рекомендации по применению зарубежного опыта в условиях Узбекистана.

### Annotation.

This article explores the significance of foreign experiences in developing the professional competence of primary school teachers. It highlights the educational practices of developed countries such as the USA, Finland, Japan, and South Korea, focusing on teacher training programs and distinctive pedagogical approaches. The article concludes with suggestions for adapting these practices in the context of Uzbekistan.

### Kalit so'zlar:

boshlang'ich ta'lim, o'qituvchi kompetentligini rivojlantirish, xorijiy tajriba, pedagogik metodika, ta'lim tizimi.

### Ключевые слова:

начальное образование, развитие компетентности учителя, зарубежный опыт, педагогические методы, система образования.

### Key words:

primary education, teacher competence development, foreign experience, pedagogical methods, education system.

## KIRISH

XXI asrda ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarga sifatli bilim berish uchun o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qituvchi faoliyatining samaradorligi va innovatsion yondashuvlarga tayanganligi o'quvchilarning kelajakdagi akademik muvaffaqiyatini belgilaydi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlili: Xorijiy davlatlar tajribasida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, Finlyandiyada o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanib,

har bir pedagog uchun muntazam treninglar, seminarlar va malaka oshirish kurslari tashkil qilinadi. Fin ta'lim tizimining muvaffaqiyati aynan o'qituvchilarning yuqori kasbiy tayyorgarligi va mustaqil faoliyat yuritishga imkon beruvchi pedagogik muhit bilan izohlanadi.

Singapur tajribasida esa, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish davlat tomonidan doimiy monitoring va baholash tizimi orqali ta'minlanadi. Bu tizimda pedagoglarning muntazam ravishda metodik treninglarda ishtirok etishi va ularga shaxsiy rivojlanish uchun individual yo'nalishlarning belgilanishi amaliyotga joriy etilgan.

**Janubiy Koreya** ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda texnologik innovatsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilar uchun tashkil etiladigan kurslar va malaka oshirish dasturlari innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan.

Xorijiy tajribalarni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari: Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimida quyidagi yo'nalishlarni rivojlantirish mumkin:

- Uzluksiz va tizimli kasbiy rivojlanish dasturlarini joriy etish;
- O'qituvchilarning kompetentligini baholash va rivojlantirish uchun individual yondashuvlarni qo'llash;
- Innovatsion pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash va bu borada o'qituvchilar uchun maxsus treninglarni tashkil qilish.

Zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim tarkibiy qismi bu – o'qituvchidir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalar bilan ishlaydigan o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va kompetentligiga bo'lgan talab yuqori. Bu bosqichda o'qituvchining nafaqat bilim darajasi, balki shaxsiy fazilatlarini, kommunikativ ko'nikmalari, innovatsion yondashuvi va didaktik salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globalashuv sharoitida rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlarda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining kasbiy salohiyati – ta'lim tizimi samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Masalan, **L.Darling-Hammond (2006)** o'zining dissertatsion tadqiqotida AQSH ta'lim tizimida o'qituvchi sifatining o'quvchilar natijalariga bevosita ta'sirini chuqur tahlil qilgan va shunday xulosaga kelgan: "*Professional development must be continuous, collaborative, and connected to practice.*"

**Pasi Sahlberg (2011)** esa o'zining Finlyandiyada o'tkazgan ilmiy tadqiqotida o'qituvchilarni tayyorlashdagi ustuvor yondashuvlar – mustaqil

izlanish, nazariy tayyorgarlik va amaliyot uyg'unligini asosiy shart sifatida ko'rsatadi. Uning dissertatsiyasi shuni ko'rsatadiki, "*Finlyandiya ta'limida o'qituvchilik kasbiga eng iqtidorli yoshlar jalb qilinadi va bu kasb jamiyatda eng nufuzli kasblardan biri hisoblanadi.*"

Yaponiya misolida esa **Makoto Kobayashi (2014)** tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda "Lesson Study" metodining boshlang'ich ta'limda o'qituvchilarning reflektiv (o'z faoliyatini tahlil qilishga asoslangan) yondashuvini kuchaytirishda tutgan o'rni asoslab berilgan. U o'z ishida shunday deydi: "*Yapon o'qituvchisi faqat o'quvchi bilimni emas, balki o'zining o'quvchilarga ta'sirini ham muntazam o'rganadi.*"

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasida himoya qilingan **I.V. Zimnyaya (2004)**ning "Pedagogik kompetentlikni shakllantirish nazariyasi va metodologiyasi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o'qituvchining kasbiy kompetentligini quyidagi komponentlarga ajratish taklif qilingan: metodik kompetentlik, kommunikativ kompetentlik, reflektiv kompetentlik, tashabbuskorlik va ijodkorlik.

O'zbekiston ilmiy maktablarida ham bu boradagi tadqiqotlar kengaymoqda. Jumladan:

• **Yoqubov A.X. (2020)** "Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish metodikasi" nomli pedagogika fanlari bo'yicha dissertatsiyasida O'zbekiston sharoitida kasbiy kompetentlikni shakllantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari yoritilgan.

• **Abdullayeva M.M. (2021)** "Pedagogik faoliyatda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish" nomli ishida esa innovatsion metodlar – STEAM yondashuvi, loyihaviy ta'lim, va zamonaviy diagnostik metodikalarni o'zlashtirishning ijobiy natijalarini asoslab bergan.

Ushbu tadqiqotlarning umumlashtirilgan natijalari quyidagi ilmiy asoslangan xulosalarni beradi:

1. **Kasbiy kompetentlik** – bu integrativ tushuncha bo'lib, o'qituvchining bilim, ko'nikma, malaka, kommunikativ va reflektiv imkoniyatlarini o'z ichiga oladi.

2. Tashqi tajriba va ichki imkoniyatlar uyg'unligida rivojlantirilgan kompetentlik tizimi ta'lim sifatini oshirishga olib keladi.

3. Xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish asosida milliy model yaratish zarur. Masalan, Finlyandiya'dagi akademik tayyorgarlikni, Yaponiya'dagi jamoaviy o'rganish yondashuvini va AQSH'dagi uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini uyg'unlashtirish mumkin.

### **1. Kasbiy kompetentlik tushunchasi va uning tarkibi**

Kasbiy kompetentlik – bu o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma,

munosabat va qadriyatlarning uyg'unligidir. U quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

- Pedagogik bilim va ko'nikmalar
- Metodik yondashuvlar
- Ijtimoiy-psixologik kompetentlik
- Axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish salohiyati
- Innovatsion faoliyatga tayyorgarlik

## 2. AQSH tajribasi

AQSHda o'qituvchilarni tayyorlashda **National Board for Professional Teaching Standards (NBPTS)** muhim rol o'ynaydi. Bu tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan kasbiy standartlar asosida o'qituvchilarni sertifikatlash va baholash tizimi mavjud.

Shuningdek, "Mentorlik dasturi" orqali yangi boshlovchi o'qituvchilar tajribali ustozlar yordamida malakasini oshiradi. O'qituvchilar muntazam ravishda **professional development workshops** va **onlayn kurslarda** qatnashadilar.

### Muhim jihatlari:

- O'qituvchilarning uzluksiz o'rganishi majburiy hisoblanadi.
- Malaka oshirish jarayoni amaliyotga yo'naltirilgan.
- Kasbiy o'sishni rag'batlantiruvchi moliyaviy tizimlar mavjud.

## 3. Finlyandiya tajribasi

Finlyandiya boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinda turadi. Bu mamlakatda o'qituvchilik kasbi yuqori ijtimoiy maqomga ega va o'qituvchi bo'lish uchun **magistr darajasi** talab qilinadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagilar orqali rivojlantiriladi:

- Mustaqil tadqiqot olib borish va ilmiy yondashuvga asoslangan metodika.
- Dars berishdan ko'ra, o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish maqsad qilinadi.
- O'qituvchilar hamoniy ravishda ilmiy loyihalarda ishtirok etadilar.

### Muhim jihatlari:

- O'qituvchi tanlovi qat'iy.
- Kasbiy rivojlanish universitetlar bilan hamkorlikda olib boriladi.
- Ta'limda islohotlar o'qituvchilarning fikrini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

## 4. Yaponiya tajribasi

Yaponiyada o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uzluksiz tizim sifatida qaraladi. Har yili ular **Lesson Study** deb nomlanuvchi uslub asosida darslarni tahlil qilish, tahliliy fikr yuritish va yangiliklarni joriy qilishda faol ishtirok etadilar.

Shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishda **ko'p bosqichli malaka oshirish tizimi** mavjud. Bu jarayon davlat tomonidan to'liq nazorat qilinadi.

**Muhim jihatlari:**

- O'qituvchilarning jamoaviy ishlash madaniyati kuchli.
- Tahliliy yondashuv asosida o'z ustida ishlash madaniyati rivojlangan.
- Har bir o'qituvchi o'z kasbini mukammallik darajasida egallashga intiladi.

**5. Xitoy tajribasi**

Xitoyda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi davlat siyosati darajasida yo'lga qo'yilgan. "One Teacher, One Research" dasturi orqali har bir o'qituvchi o'z mavzusi bo'yicha tadqiqot olib boradi.

**Xitoy tajribasining afzalliklari:**

- Ilmiy-innovatsion faoliyatga keng imkoniyatlar yaratilgan.
- O'qituvchilarning faoliyati reyting asosida baholanadi.
- Malaka oshirishda zamonaviy texnologiyalar keng qo'llaniladi.

**6. Xulosa va takliflar**

Xorijiy tajribalardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish:

- tizimli,
- uzluksiz,
- innovatsion yondashuvga asoslangan,
- va amaliyot bilan chambarchas bog'langan bo'lishi zarur.

**O'zbekiston sharoitida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:**

1. O'qituvchilik magistraturasini joriy etish orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tayyorgarlik darajasini oshirish.

2. Mentorlik dasturlarini yo'lga qo'yish.
3. Professional rivojlanish rejalarini ishlab chiqish va joriy etish.
4. Har yili pedagogik tadqiqotlarda ishtirok etishni rag'batlantirish.
5. Onlayn malaka oshirish platformalarini yaratish va faol ishlatish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda xorijiy tajribalardan samarali foydalanish ta'lim sifatini yangi pog'onaga ko'tarishda katta imkoniyatlar yaratadi. Bu esa, kelajak avlod ta'lim-tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va pedagog kadrlarning salohiyatini oshiradi. Xorijiy mamlakatlarning boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash va ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu jarayon har bir davlatda ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. AQSH, Finlyandiya, Yaponiya, Xitoy kabi mamlakatlarda o'qituvchilik kasbi yuqori maqomga ega bo'lib, unga kirish jarayonidan boshlab, faoliyat davomida ham uzluksiz malaka oshirish tizimi mavjud.

Finlyandiyadagi magistratura darajasida tayyorlov, Yaponiya va

Xitoyda pedagogik tadqiqotlar orqali amaliy yondashuv, AQSHda mentorlik va professional rivojlanish dasturlarining samarali tashkil etilishi shuni anglatadiki, o'qituvchi o'z ustida muntazam ishlashga undaladi, natijada ta'lim sifati yuqori darajada ta'minlanadi.

Ushbu tajribalarda quyidagi muhim jihatlar ajralib turadi:

1. **Kasbiy kompetentlikning keng qamrovi:** faqatgina bilim bilan cheklanmay, metodik yondashuvlar, axborot texnologiyalari, kommunikativ ko'nikmalar va shaxsiy fazilatlarini ham o'z ichiga oladi.

2. **Tizimli va uzluksiz rivojlanish:** o'qituvchi o'z kasbiy salohiyatini rivojlantirish uchun doimiy ravishda kurslar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar, tadqiqotlar orqali yangilanib boradi.

3. **Amaliyotga yo'naltirilgan metodika:** nazariy bilimlarni dars jarayonida samarali qo'llashga alohida e'tibor qaratiladi.

4. **Ijtimoiy e'tirof va rag'bat:** o'qituvchilik kasbining ijtimoiy maqomi yuqori bo'lib, jamiyat tomonidan hurmat qilinadi va davlat tomonidan moddiy rag'batlantirish tizimlari mavjud.

O'zbekiston sharoitida ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha muhim qadamlar qo'yilmoqda. Biroq, mavjud tizimda hali hal qilinishi lozim bo'lgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan:

- o'qituvchilarni tayyorlov tizimining nazariyaga nisbatan ko'proq yo'naltirilgani;

- amaliy mashg'ulotlar va innovatsion texnologiyalarni qo'llashda sustkashlik;

- kasbiy rivojlanishga yo'naltirilgan rejalashtirilgan dasturlar va mentorlik tizimining yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani.

Shu bois, xorijiy tajribalarni sinchkovlik bilan tahlil qilgan holda, ularning ijobiy jihatlarini milliy ta'lim tizimiga moslashtirish zarur. Bunda quyidagi strategik yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- **Kasbiy tayyorgarlikning darajasini oshirish**, ya'ni o'qituvchilik kasbga kirish uchun yuqori darajadagi bilim va ko'nikmalar talab etilishi;

- **O'qituvchilarning uzluksiz o'rganish faoliyatini rag'batlantirish**, bunda zamonaviy texnologiyalardan, onlayn platformalardan foydalanish;

- **Mentorlik tizimini joriy etish**, bu orqali tajribali o'qituvchilar yangi pedagoglarga ko'maklashadi;

- **Kasbiy faoliyat samaradorligini baholash va modellashtirish tizimini yaratish**, bu orqali o'qituvchining yutuqlari aniqlanadi va rag'batlantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ta'lim sifatining tub mohiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, bu borada xorijiy ilg'or tajribalardan o'rnak olish, ularni milliy ta'lim siyosatiga uyg'unlashtirish va ijodiy tatbiq etish O'zbekiston ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. Darling-Hammond L. (2017). Teacher education around the world: What can we learn from international practice? *European Journal of Teacher Education*, 40(3), 291-309.
2. Sahlberg P. (2015). *Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?* Teachers College Press.
3. Tan O.S., & Chua J.J.E. (2020). *Innovations in Teacher Education in Asia: The Singapore Case.* Routledge.
4. Darling-Hammond L. (2000). Teacher quality and student achievement. *Education Policy Analysis Archives*.
5. Sahlberg P. (2015). *Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?*
6. OECD (2019). *Teachers and School Leaders as Lifelong Learners: TALIS 2018 Results.*
7. Shimahara N.K., Sakai A. (1995). Learning to teach in two cultures: Japan and the United States. *Comparative Education Review*.
8. Liu Y. (2010). Professional development of primary school teachers in China. *Chinese Education and Society*.

Utemuratov Bayrambay  
Kulmuratovich

Qoraqalpog'iston Respublikasi Pedagogik mahorat markazi  
Maktabgacha, boshlang'ch va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida  
dotsenti

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA O'YIN METODLARIDAN FOYDALANISH

### Annotatsiya.

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining kommunikativlik kompetensiyalarini shakllantirishda o'yin metodlaridan samarali foydalanish yo'llari, vazifalari, olib borilishi kerak bo'lgan ishlar aytib o'tilgan.

### А н н о т а ц и я.

В статье описаны способы, задачи и задачи эффективного использования игровых методов в формировании коммуникативных компетенций учащихся общеобразовательной школы.

### Annotation.

The article describes the methods, tasks and objectives of the effective use of game methods in the formation of communicative competencies of students in a general education school.

### Kalit so'zlar:

o'quvchi, o'qituvchi, kompetensiya, kommunikatsiya, kommunikativlik, metod, ko'nikma, o'yin, refleksiya.

### Ключевые слова:

ученик, преподаватель, компетентность, общение, коммуникативность, метод, умение, игра, рефлексия.

### Key words:

student, teacher, competence, communication, communication, method, skill, game, reflection.

## KIRISH

Ona tilini o'qitish metodikasi ta'limning barcha bosqichlarida ona tilini o'qitishning izchilligi va uzluksizligini ta'minlaydi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarning nutqini rivojlantirish nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning nutqini rivojlantirishdan tashqari, ona tilidan elementar tushunchalarni amaliy jihatdan o'zlashtirishi nazarda tutiladi. Yuqori sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Ona tilini o'qitish metodikasining metodologik asosi borliqni bilish nazariyasi. Bu fanning asosiy vazifasi o'quvchilarning ona tilining lug'at boyligini to'liq o'zlashtirib olishini ta'minlaydi. Ma'lumki, jamiyatda til odamlar o'rtasidagi muloqotning asosiy vositasi. Tilning muloqot vositasi sifatidagi ahamiyati ardoqlab boriladi. Til borliqni aqliy, mantiqiy jihatdan bilish vositasi. Til birliklari yordamida bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchalarni tahlil qilish va xulosa bilan bog'liq holda amalga oshiradi.

Bilish nazariyasi bo'yicha analitik-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan umumiy xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shu asosda og'zaki nutqdan yozuvga o'tiladi. O'quvchilar muloqot jarayonida

so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga va yozuv elementlarini nazariy ma'lumotlar asosida amaliy tarzda ko'nikma hosil qila boshlaydilar. Ular til materialini kuzatish, tahlil qilish orqali elementar nazariy qoidalar ishlab chiqadilar, o'rgangan va o'zlashtirgan nazariy qoidalarni amalda ongli ravishda qo'llaydilar. Insoniyat hayoti bevosita axborot bilan bog'liq. Boshqacha aytganda, insoniyatning har bir harakati axborot olish va tarqatish yoki undan foydalanish, uni o'rganish, o'zlashtirish, saqlash va boyitishdan iborat.

Kommunikativ o'zaro aloqaning asosiy shakllaridan biri sifatida hozirgi ilmiy tadqiqotlarda o'quvchilarning mavjud bilimlarini birlashtirish bilan tavsiflanadigan "tushunib o'qish" tushunchasi mazmuni ochib berilmoqda va bu o'quvchilar o'rtasida bir vaqtning o'zida funksiyalar, rollar va vazifalarni taqsimlash orqali ularning bilimlarini boyitish hisobiga birgalikda maqsadga erishish uchun amalga oshiriladi. Tushunib o'qish maktab o'quvchilarining mazmunli va samarali shaxslararo o'zaro aloqasi sifatida namoyon bo'lib, shaxsning ijtimoiy sifatlari shakllanishini ta'minlaydi.

"Kommunikativ kompetensiya - bu bilim, ko'nikma va malakalar, o'zgalarni va o'z avlodlarini tushunish uchun zarur bo'lgan maqsadlar, sohalar, vaziyatlarga adekvat bo'lgan nutqiy xulq-atvor dasturlari muloqotlar. U quyidagilarni o'z ichiga oladi: nutq lingvistikasining asosiy tushunchalarini bilish (nutqshunoslik bilimlari) va xususiy kommunikativ ko'nikmalar" [1].

Lug'aviy muloqot jarayonida so'z tinglovchiga tushunarli bo'lishi uchun odamlar til vositalaridan - uning so'z boyligi va grammatikasidan foydalanadi. Biroq muayyan tilda muloqot qilish muvaffaqiyatli bo'lishi uchun faqat lug'at va grammatikani bilish yetarli emas. Til birliklari va so'z birikmalaridan foydalanish shartlarini bilishimiz kerak. Boshqacha aytganda, til egasi ona tili grammatikasini o'rganishi kerak. Tildan nafaqat leksik birliklar ma'nosi va ularni gapda birlashtirish qoidalariga muvofiq, balki so'zlovchi bilan tinglovchi o'rtasidagi munosabatlar tabiati, muloqot maqsadi va boshqa til bilimlari bilan birga so'zlovchining kommunikativ qobiliyatini tashkil etuvchi boshqa omillar bilan bog'liq holda foydalanish ko'rsatmasini beradi. Hozirgi zamonga mos ijtimoiy faol shaxslarni tarbiyalash bo'yicha ta'lim vazifalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'ladi. Bu yerda maktab o'quvchilarida kommunikativ kompetensiya umummadaniy kompetensiyaning bir qismiga aylanadi, shaxsning umumgumanitar madaniyati yuksalishiga, uning turli faoliyat turlariga qo'shilishi uchun zarur bo'lgan ijodiy, hayotga munosabat va xulq-atvor sifatlari shakllanishiga olib keladi.

Darslarda jamoaviy mashg'ulotlar, tadbirlar, o'yinlar asosiy o'rin tutadi. Aynan ular o'quvchilarga jamiyatga moslashish va o'zini ijtimoiy

muhitning a'zosi sifatida his qilishga yordam beradi. Bu mashqlar maktab o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini yaxshilaydi. Maktab o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasi hamkorlikda shug'ullanish asosida maxsus tashkil etilgan jamoaviy faoliyat orqali shakllanadi. Hozirgi vaqtda darslarda hamkorlikda o'qitish metodlariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Har bir darsning hayot bilan bog'liq bo'lishi - darsning ahamiyatini oshirib boradi va oldiga qo'yilgan vazifani yechishga imkoniyat beradi. Dars ikki tomonning (o'qituvchi va o'quvchining) harakati natijasiga bog'liq [2].

Har bir o'quvchiga o'zining mustaqil ta'lim yo'lini tanlashi uchun imkoniyat va qo'llab-quvvatlashni shakllantirish kerak. O'quvchining rivojlanish darajasiga mos materiallar berilishi kerak<sup>3</sup>.

O'yin-inson o'zligining paydo bo'lishi, uning birlashish usuli. O'yin kattalar hayotida asosiy o'rin tutar ekan, u bolalar uchun ham alohida ahamiyatga ega. Uni "bolalikning belgisi" deb qabul qilganlar. Maktab yoshidagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi, u mehnat va ta'lim bilan o'zaro bog'liq bo'lgan halol faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ullanadigan ko'pchilik ishlar o'yin shaklida bo'ladi.

O'yin mashg'ulotlarini o'tkazishdagi savol namunalari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Senga o'yin shartlarini bajarish qiyin bo'lmadimi?
2. O'yin davomida sen nimalarni o'ylading?
3. Muloqot davomida qoniqdingizmi?
4. Natijaga erishishda senga nima yordam berdi va nima xalaqit berdi?

Mashg'ulot yakunida o'quvchilar o'qituvchining dars olib borishiga baho beradilar<sup>4</sup>.

#### **"Qo'lqop" metodi.**

Tadqiqot maqsadi: bolalarning o'z tengdoshlari bilan muloqoti va kommunikativ ko'nikmalarini o'rganish.

Material: qog'ozdan qirqib olingan kichik qo'lqoplar (ishtirokchilar soniga ko'ra), uchta turli rangdagi qalam.

Baholash metodi: juft bo'lib ishlayotgan bolalarning o'zaro harakatlarini kuzatish va natijalarini tahlil qilish.

Ish jarayoni: o'yin tarzida o'tkaziladi. O'tkazish uchun qog'ozdan kichik qo'lqoplar qirqib, ularga har xil bo'yalmagan naqshlar solinadi. Kichik qo'lqoplar juftlikdagi ishtirokchilar soniga mos kelishi kerak. Juft bo'lib o'tirgan bolalarning har biriga bir qo'lqopdan berilib, ularni bir xil tarzda, ya'ni, ikkovi qo'shib bir juft tashkil etadigan qilib naqshlash topshiriladi. Bolalar o'zlari naqsh o'ylab topishlari mumkin, lekin avval qanday naqsh chizishlarini o'zaro kelishib olishlari kerak. O'quvchilarning har bir juftiga qog'ozdan qirqilgan qo'lqop (o'ng va chap qo'l uchun) va hammaga bir xil

rangli qalamlar to'plami beriladi.

Baholash mezonlari:

- hamkorlikdagi faoliyat samaradorligi kichik qo'lqoplardagi naqshlarning o'xshashlik darajasi bo'yicha baholanadi;

- bolalarning bir-biri bilan kelishish, umumiy xulosaga kelish, bir-birini ishontirish, dalillash va h.k. qobiliyatlari;

- bir-birining faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazorat qilish, bolalar bir-birining dastlabki o'ylagan fikrini o'zgartirayotganini sezyaptimi, bunga qanday munosabatda bo'ladi;

- rasm chizish jarayonida bir-biriga yordam berish;

- birgalikda ishlashga emotsional munosabat: ijobiy (quvonib va qiziqib ishlayapti), o'rtacha (bir-biri bilan faqat zarur bo'lganda o'zaro bog'lanadi) yoki salbiy (bir-biriga e'tibor bermaydi, urishadi va h.k.).

Baholash darajalari:

1. Past daraja: naqshlarda farqlar yaqqol ko'rinadi yoki umuman o'xshashlik yo'q. Bolalar bir-biri bilan kelishishga harakat qilmaydi, har kim o'zinikini to'g'ri deb hisoblaydi.

2. O'rta daraja: ozgina o'xshashlik bor - ayrim belgilar (ayrim bo'laklarning rangi yoki shakli) mos keladi, lekin sezilarli farqlar ham bor.

3. Yuqori daraja: kichik qo'lqoplar bir xil yoki juda o'xshash naqshlar bilan bezatilgan. Bolalar ehtimoliy naqsh varianti haqida faol fikr almashadilar, qo'lqoplarni bo'yash usuli bo'yicha bir fikrga keladilar, harakat usullarini taqqoslaydilar, birgalikda harakatda tuzib, ularni muvofiqlashtiradilar, qabul qilingan fikrning amalga oshirilishini kuzatadilar.

**“Gilam” usuli.**

Maqsadi: berilgan o'quv topshirig'i o'quvchilarning jamoaviy o'zaro harakat ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini o'rganish;

Yoshi: boshlang'ich sinf o'quvchilari.

Shakli (baholash sharoiti): o'quvchilarning sinfda guruh bo'lib ishlashi.

Baholash metodi: o'zaro harakatni kuzatish va natijani tahlil qilish.

Topshiriqni tasvirlash:

Badiiy mehnat darsida hamma birgalikda o'tadi. Dars vaqtida o'tkazish, bolalarning darsda «o'quvchi» degan ijtimoiy rolni to'g'ri qabul qilishi va muayyan topshiriq bajarilishi uchun mas'uliyatni his qilishi bilan bog'liq.

O'qituvchi bolalarni to'rtta mustaqil komandaga bo'ladi, ular har biri alohida bitta stolda ishlaydi. Har bir stol ustiga rangli qog'ozdan ishlangan turli shakllardan tuzilgan bir xil to'plam qo'yiladi. Bu barcha guruhlar uchun teng mehnat sharoitini yaratish imkonini beradi.

Shundan so'ng har bir jamoaga markazda bittadan «gilam» yasash topshirig'i beriladi. Buning uchun o'qituvchi tayyor «gilamlar» namunasini ko'rsatadi. Bolalar bilan birgalikda ushbu namunalarni ko'rib chiqqan holda

istalgan bir «gilam»ning umumiy belgilari belgilanadi, bu belgilar shu bilan birga, o'quvchilarning topshiriqni bajarishi uchun qoida va quyidagilarni nazorat qilish vositalari hisoblanadi:

- a) o'rtada bitta rasm bo'lishi;
- b) burchaklarning bir xil bezatilishi;
- v) detallarning markazdan burchaklarga qarab simmetrik joylashuvi. (simmetriklik tushunchasi bilan bolalar oldingi darslarda to'liq tanishadilar).

Ko'rsatma: Shunday chiroyli «gilamlar» yasash uchun ahillik bilan, birlashib ishlash kerak.

Baholanadigan universal tarbiyaviy harakatlar: kommunikativlik va barqarorlik:

- hamkorlikda turli fikrlarni hisobga olish va turli yondashuvlarni muvofiqlashtirishga intilish;
- o'z fikri va nuqtayi nazarini umumlashtirish;
- birgalikda olib boriladigan faoliyatni kelishib bir qarorga kelish, shuningdek, qiziqishlari bir-biriga mos kelmay qolgan holatda ham;
- shaxsiy harakatlarni qo'yilgan topshiriq va uni amalga oshirish sharoitlariga muvofiq rejalashtirish;
- har bir bosqichni kuzatib borish va umumiy nazoratni amalga oshirish.

Topshiriq bajarilishining daraja ko'rsatkichlari:

1. Past daraja - naqshlarda unchalik o'xshashlik yo'q yoki umuman birgalikda yakuniy xulosaga kelinganga o'xshamaydi, bolalar bir-biri bilan kelishishga harakat qilmagan yoki har kim o'z fikrida turib, bir xil xulosaga kela olmagan.

2. O'rta daraja - reja yarim-yorti bajarilgan: ayrim belgilar (ayrim bo'laklarning rangi va shakllari) mos keladi, lekin sezilarli farqlar ham bor.

3. Yuqori daraja - naqsh belgilangan qoidalar bo'yicha chizilgan, bolalar naqsh variantlari bo'yicha faol tarzda fikr almashadilar, naqshni bajarish usuli bo'yicha bir fikrga keladilar, harakat usullarini taqqoslaydilar, birgalikdagi harakatni tuzib, ularni muvofiqlashtiradilar, qabul qilingan fikrning amalga oshirilishini kuzatadilar. Hamkorlikda ishlashda muvaffaqiyatga erishish bolalarning qay darajada mahorat bilan birgalikda birlashishi, vazifalarni taqsimlashi va o'zaro kelishuvga kelishiga bog'liq bo'ladi. Topshiriqni bajarish uchun hammaga bir xil vaqt beriladi.

O'yin tugagandan keyin «gilamlar» ko'rgazmasi bo'ladi, ko'rgazma davomida bolalar o'z faoliyatlarini tahlil qiladilar. Guruhli tahlil amalga oshiriladi, maqsad birgalikda harakat qilish mazmunini va refleksiyaning tahlil qilish. Jamoalar qanday muvaffaqiyatga erishgani va nimalarni bajara olmaganini, shu bilan birga o'zlari bajargan ishning qo'yilgan vazifaga muvofiqlik darajasi haqida fikr almashadi.

### **“Bizning ismimizning sehri” o‘yini.**

Maqsadi: Mashg‘ulot ishtirokchilarining bir-biri bilan tanishishi, o‘zini va boshqa mashg‘ulot ishtirokchilarini tanishtirish qobiliyati. O‘tish vaqti - 20-30 minut.

1-bosqich: Ishtirokchilar juftliklarga bo‘linadi. Juftlikdagi ishtirokchilar ismlarini aytib o‘zlarini tanishtiradilar va quyidagi masalalar bo‘yicha fikr almashadilar:

Mening ismimni kim qo‘ygan?

Mening tanishlarimning (qarindoshlarimning) qaysi birining ismi shunday?

Mashhur odamlar orasida mening atlaslarim bormi?

Nomi mening ismimday bo‘lgan men bilgan adabiyot yoki kino qahramonlari bormi?

Mening ismim mening hayotdagi fe‘l-atvorimga qanday ta‘sir o‘tkazadi?

Mening ismim o‘zimga yoqadimi?

Mening ismim nimani anglatadi?

2-bosqich: Guruh vazifasi: har bir guruh a‘zosi hikoya o‘ylab topib, uni juftlikdagi ishtirokchiga aytib berishi kerak. Hikoya qahramonining ismi aytib beruvchining ismi bilan bir xil bo‘lishi kerak. Juftlikdagi ishtirokchisi bu hikoyani jim o‘tirib, diqqat bilan tinglab va shu bilan birga hikoyani aytib beruvchi qanday odam ekanini tushunishga harakat qilish kerak.

3-bosqich: O‘yin oxirida barcha o‘yin ishtirokchilari birga yig‘iladi. Ishtirokchilarning har biri o‘z turmush o‘rtog‘ini tanishtiradi va uning shaxsini tavsiflab berishga harakat qiladi. Tanishtirish maqsadi: juftlikdagi ishtirokchisining shaxsini turli, ba‘zan kutilmagan jihatlardan ko‘rsatishdan iborat bo‘ladi.

Hozirgi sharoitlarda muloqot ta‘limning kommunikativ mazmunining asosiy tamoyili bo‘lgani holda, yangi ma‘no va sifat kasb etadi. Turli kommunikativ aloqalarga boy madaniyatga ega jamiyat, nafaqat hamkorlik, o‘zaro tushunish munosabatlarini yo‘lga qo‘yish, balki qarama-qarshiliklar paydo bo‘lishini ham nazarda tutadi. Shuning uchun maktab bitiruvchilarining ijtimoiy-madaniy sohaning turli sohalarida samarali muloqot o‘rnatishi, dunyoni monologik pozitsiyadan emas, balki dialogik, plyuralistik nuqtayi nazardan bilishi ko‘proq ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, o‘yin metodlaridan foydalanish orqali o‘quvchilar natijaga optimal darajada erishishlari uchun o‘zaro harakatni qanday tashkil etish kerakligini tushunib oladilar, guruhda ishlash paytida tortishishni, urishishni to‘xtatadilar. Guruh ishida refleksiya paytida xatolar yoki muvaffaqiyatsizliklarni bir-biriga “to‘nkashni” to‘xtatib, umumiy guruh natijalariga ko‘proq mas‘uliyat bilan yondashadigan bo‘ladi. Ta‘lim-tarbiya jarayonida eng muhim vazifalardan biri kommunikativ kompetensiyani

shakllantirishdir. Bu esa shaxs qobiliyatini ongli va faol tarzda yangi ijtimoiy tajribaga ega bo'lish orqali o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirishga yo'naltiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. Вятютнев М.Н. Коммуникативная направленность обучения русскому языку в зарубежных школах [Текст] / М.Н.Вятютнев // Русский язык за рубежом. – 1977. – № 6. – С. 38–45.
2. Berdimuratov E., Pirniyozov Q. Orta mekteplerde qaraqalpaq tilin oqituv metodikasi –Nókis.: Qaraqalpaqstan, 1998, 311 bet.
3. Сафарова Р., Мусаев У., Мусаев П., Юсупова Ф., Нуржанова Р. Ўзбекистон Республикасида умумий ўрта таълим стратегияси муаммолари ва таълим мазмунининг янги моделлари, уларни татбиқ этиш йўллари Тошкент.: Фан, 2005, 255 бет.
4. Ishmukhammadov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar Toshkent: Nihol, 2013, 71 bet.

## ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ ЗДОРОВЬЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

### Annotatsiya.

Maqolada rus tili darslarida alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar bilan ishlashning samarali usullari muhokama qilinadi. Individual yondashuv va zamonaviy ta'lim usullaridan foydalanish muhimligi ta'kidlanadi. Yangi texnologiyalarning afzalliklari, maxsus ta'lim sharoitlari va alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning muvaffaqiyatli ta'lim olishi va ijtimoiylashuvi uchun hissiy yordam ko'rib chiqiladi.

### А н н о т а ц и я .

В статье рассматриваются эффективные методики работы с детьми с ограниченными возможностями здоровья на уроках русского языка. Подчеркивается важность индивидуального подхода и использование современных образовательных методик. Обсуждаются преимущества новых технологий, специальных условий обучения и поддержки эмоциональной сферы для успешного обучения и социализации детей с ОВЗ.

### Annotation.

The article discusses effective methods of working with children with disabilities in Russian language lessons. The importance of an individual approach and the use of modern educational methods are emphasized. The advantages of new technologies, special learning conditions and emotional support for the successful learning and socialization of children with disabilities are discussed.

### Kalits o'zlar:

alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar, ta'lim usullari, individual yondashuv, yangi texnologiyalar, maxsus ta'lim sharoitlari, hissiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiylashuv.

### К л ю ч е в ы е с л о в а :

дети с ограниченными возможностями здоровья, образовательные методики, индивидуальный подход, новые технологии, специальные условия обучения, эмоциональная поддержка, социализация.

### Key words:

children with disabilities, educational methods, individual approach, new technologies, special learning conditions, emotional support, socialization.

## ВВЕДЕНИЕ

Ijodkorlik – bu bizga doimo foyda keltiradigan narsa, u kundalik hayotimizning ajralmas qismidir. Uy bekasining cheklangan masalliqalar bilan juda xilma-xil va mazali taom tayyorlash qobiliyati ortida uning ijodkorligi yotadi. Ijodkor shaxslar hayotning murakkab muammolarini yengish va jamiyatning yangi kashfiyotlar va ixtirolar bilan rivojlanishini ta'minlash uchun kerak. Xususiyy biznes endilikda o'z xodimlarini chet tillarini bilish bilan birga ijodkor shaxslarga ham qidirmoqda. Ehtimol, ijodiy shaxslarni tarbiyalashda eng katta yukni badiiy ta'lim darslari ko'taradi.

Ko'pchilik o'ylaganidan farqli o'laroq, badiiy ta'lim go'zal suratlar chizish orqali odamlarni rassomga aylantirishni maqsad qilmaydi. Ushbu trening bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ular duch keladigan muammolarni butunlay yangi usulda hal qilishni o'rganishga qaratilgan. Ta'limning maqsadi badiiy ta'lim orqali shaxsning dizayn ko'nikmalarini rivojlantirish va ijodiy, o'ziga ishongan, estetik jihatdan yuksak darajadagi yoshlarni tarbiyalashdan iborat bo'lishi kerak.

Ta'lim tizimimizda dasturlarda ijodkorlikni rivojlantirishga oid bayonotlar mavjud bo'lsa-da, o'qituvchiga yo'naltirilgan tizimning mavjudligi ijodkorlikni rivojlantirishga to'siq bo'lmoqda.

Oilalar, o'qituvchilar va jamiyatni tashkil etuvchi barcha shaxslar ijodkorlik va badiiy ta'lim haqida xabardor bo'lishi kerak. Jamiyatdagi hech bir shaxs bolaning badiiy va ijodiy izlanishlarini bo'sh vaqtini o'tkazish deb hisoblamasligi kerak. Badiiy ta'limga ta'limning har bir bosqichida ahamiyat berish kerak.

O'quvchilar o'z fikrlarini bemalol ifoda eta oladigan san'at darsi muhiti yaratilishi kerak. Badiiy ta'lim to'g'risidagi tushunchani inson ko'rgan narsani emas, balki o'ylagan narsasini bo'yashni o'rnatish kerak. Darslarda fantaziyadan foydalanishga oid mavzular yoritilishi, o'quvchilarni orzu qilishga, fikrlashga undash kerak. Shuni unutmazlik kerakki, badiiy ta'lim har bir shaxs olishi kerak bo'lgan ta'lim edi. Ijodkorlikni rivojlantirishda badiiy ta'limning ahamiyati shubhasizdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev N. San'at tarixi 2-jildlik, 2/1 tom. – T.: 2001.
2. Abdirasulov S.F. Tasviriy san'at metodikasi. – T.: «Ilm-Ziyo», 2006.
3. Abdirasulov S.F., Tolipov N.X. Tasviriy san'at oqitish metodikasi. – T., «Aloqachi», 2007.
4. Boymetov B.B., Abdirasulov S.F. Chizmatasvir. – T: "G'afur G'ulom", 2004.
5. Nabiyev M.N. Rangshunoslik. T., «O'qituvchi», 1995
6. Oripov B. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. – T.: «Ilm Ziyo», 2006.
7. Tasviriy san'at darsliklari. 1, 2, 3, 4 - sinflar.
8. Hasanov R.X. Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi. «FAN», 2004.
9. Abdirasulov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir. – T.: «O'zbekiston», 2006.

10. Qodirxo'jayev P. Badiiy bezak san'ati. – T., «Iqtisod-moliya», 2007.
11. Egamov X. Bo'yoqlar bilan ishlash. – T.: «O'qituvchi», 1981.
12. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004.
13. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: «Fan va texnologiya», 2008.

## **FILOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA 5E MODEL**

### **Annotatsiya.**

Ushbu maqolada o'quvchilar faolligini oshirish, ularda fanga, mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish va bir darsda barcha o'quvchilar baholanib, mavzuni mustaqil o'rganish, xotirada saqlash, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish metodikasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bu jarayonni amalga oshirishda o'qituvchi mavzuni 5 E modeli asosida tashkil etishi misol sifatida keltiriladi.

### **А н н о т а ц и я .**

В данной статье рассмотрен метод повышения активности учащихся, пробуждения у них интереса к науке и предмету, оценки всех учащихся за один урок, самостоятельного изучения и запоминания предмета, развития навыков самостоятельного и творческого мышления. Также при реализации этого процесса преподаватель организует тему на примере модели 5 E.

### **Annotation.**

In this article, the method of increasing students' activity, arousing their interest in science and the subject, and evaluating all students in one lesson, independently learning and memorizing the subject, and developing independent and creative thinking skills are considered. Also, in the implementation of this process, the teacher organizes the topic based on the 5E model as an example.

### **Kalits o'zlar:**

og'zaki muloqot, muammoli vaziyat, "Aqliy hujum", "Atirgul" o'yini, savol-javob, matn bilan ishlash, guruhlarda mustaqil ishni tashkil etish.

### **Ключевые слова:**

речевое общение, проблемная ситуация, «Мозговой штурм», игра «Роза», вопросы и ответы, работа с текстом, организация самостоятельной работы в группах.

### **Key words:**

verbal communication, problem situation, «Brainstorming», «Rose» game, question and answer, working with text, organizing independent work in groups.

## **KIRISH**

Odamzot bu ko'hnayi zamonda istiqomat qilar ekan, yangiliklar tomon, yangi zamonaviy hayot qurish tomon intilib boraveradi. Ta'lim ham insondan yangilik kutadi, uni yangilab turmasa, hayotga tatbiq etmasa u o'z kuchini asta-sekin yo'qotib boraveradi [1]. O'quvchilarni darsga jalb qilish, ularning qiziqishini oshirish ham o'qituvchidan mahorat va pedagogik bilimlarni talab qiladi, darsga yangicha yondashuv va turli pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali bu jarayonni amalga oshirish mumkin. Darslarni 5E modeli asosida tashkil etish o'quvchilarda ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va amaliy maqsadlarga erishish imkonini beradi.

Darsning borishi texnologiyasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, har bir daqiqadan mazmunli va samarali foydalanish maqsadida quyidagi bosqichlarda amalga oshirishni rejalashtirishimiz mumkin:

**1-bosqich. Jalb qilish (Engagement): 5 daqiqa.** Darsning tashkiliy qismi o'quvchilarni jalb qilish bilan boshlanadi, Mirtemirning "Ona tilim" she'ridan parcha aytish 4 misra, salomlashish, davomatni aniqlash, Muhammad Yusuf Muhammad Solih "Ijtimoiy odoblar" kitobidan

“Ovqatlanish odobi” bobini o‘quvchilarga yetkazib berish, mashg‘ulotning borishi haqida tushuncha beriladi. Bunda og‘zaki muloqot, muammoli vaziyat, “Aqliy hujum” metodlaridan foydalaniladi va 5 daqiqa vaqt ajratiladi.

“Aqliy hujum” metodi o‘quvchilarning mashg‘ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta‘minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yengishga o‘rgatish uchun xizmat qiladi. “Aqliy hujum” metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo‘lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg‘ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o‘rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta‘qiqlash, har qanday fikr, mulohazalarni rag‘batlantirishdan iboratdir. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta‘minlashdir. Ta‘lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko‘lamining kengligiga bog‘liq bo‘ladi [2].

**2-bosqich. Tadqiq qilish (Exploration): 10 daqiqa.** Tadqiq qilish bosqichi o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlaydigan eng muhim bosqichlardan biridir. Bu bosqichda o‘quvchilar o‘z tajribalarini o‘tkazadilar, ma‘lumotlar to‘playdilar va kuzatishlar olib boradilar. O‘quvchilarni ikkita guruhga ajratib, o‘tilgan mavzu (So‘z va uning ma‘nodoshligi) yuzasidan “Atirgul”, “Mehribon tibbiyot qutisi”, “Quvnoq mevalar” o‘yinlari o‘tkaziladi. Buning uchun 10 daqiqa vaqt ajratiladi.

**3-bosqich. Tushuntirish (Explanation): 10 daqiqa.** Tushuntirish bosqichi o‘quvchilarning o‘z tajribalari va kuzatishlarini umumlashtirish, tahlil qilish va nazariy bilimlar bilan bog‘lash imkoniyatini beradi. Bu bosqichda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi vazifasini bajaradi va o‘quvchilarga o‘z xulosalarini shakllantirishda yordam beradi. O‘qituvchi (slyaydlar, tarqatma, savollar asosida) matn bilan ishlash, guruhlarda mustaqil ishni tashkil etish kerak bo‘ladi. Bunda savol-javob, matn bilan ishlash, guruhlarda mustaqil ishni tashkil etish, har xil pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi. Jarayonni tashkil etish uchun 10 daqiqa ajratiladi.

**4-bosqich. Qo‘llash (Elaboration): 15 daqiqa.** Qo‘llash bosqichi o‘quvchilarning olgan bilimlarini yangi vaziyatlarga qo‘llash va chuqurlashtirish imkonini beradi. Bu bosqichda o‘quvchilar o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llaydilar, yangi muammolarni hal qiladilar va mavzuni kengroq kontekstda tushunishga harakat qiladilar. Darsni bu qismida “Tushunchalar tahlili”, rolli o‘yinlar metodlaridan foydalanib 15 daqiqa davomida o‘quvchilarning olgan bilimlarini mustaklamlashi uchun imkoniyat yaratib beriladi.

**5-bosqich. Baholash (Evaluation) bosqichi: 5 daqiqa.** Baholash bosqichi

o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini tekshirish, ularning o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradi. Bu bosqich nafaqat o'qituvchi uchun, balki o'quvchilarning o'zlari uchun ham muhimdir, chunki ular o'z yutuqlarini va kamchiliklarini anglab oladilar. Bu qismida darsda ishtirok etgan barcha o'quvchilar formativ baholanadi. Mavzu yuzasidan topshiriqlar beriladi, faol o'quvchilarni rag'atlantirish uchun oltin tangachalar taqdim etiladi, bu jarayon uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi.

5E modelidan foydalangan holda o'qituvchi mavzuni qisqa vaqt ichida o'zlashtirilishiga erishiladi, o'quvchilar faolligi oshiradi, ularda fanga, mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir darsda barcha o'quvchilar baholanadi, mavzuni mustaqil o'rganish va xotirada saqlash, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi. O'quvchi esa mavzu yuzasidan yangi bilimlarni egallaydi. Mustaqil ijodiy ishlashni o'rganadi. Matn tahlil qila olish ko'nikmasi shakllanadi. Nutqiy savodxonlik va tibbiy savodxonlik darajasi oshadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi, barcha o'quvchilarni faollashtirish va rag'batlantirish, baholash imkoniyati yaratiladi.

Natijada, pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish va darsga tatbiq etish, takomillashtirish, o'z ustida ishlash, pedagogik mahoratini oshirish, o'quvchilarda bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, izlanish, mustaqil o'quv tadqiqotlarini amalga oshirish, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash o'quvchilarni faollashtirish, ularning bilim olish jarayonini yaxshilash va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. 5E modeli dars jarayonida qo'llanilganda, o'quvchilarda yanada yuqori natijalarga erishish mumkin. O'qituvchi o'z pedagogik mahoratini oshirish, o'quvchilarni faollashtirish va ularda bilimga bo'lgan qiziqishni uyg'otish uchun turli metod va texnologiyalarni qo'llashi lozim. Bunda o'quvchilarning individual yondashuvi, mustaqil fikrlash va guruhda ishlash ko'nikmalari rivojlanadi, shuningdek, bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari yaratiladi. Darslarning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va amaliy maqsadlarni amalga oshirishda ahamiyati katta bo'lib, ta'lim tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, darsda o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish tizimi, ular orasida sog'lom raqobatni va o'zini-o'zi baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarning mustaqil ish faoliyatini kengaytirish, matnni tahlil qilish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish kabi ko'nikmalar o'zlashtiriladi. Shunday qilib, bunday pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarni yanada mustahkam bilimlarga ega qilish, ularda fan va ta'limga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. Aminova Z.A. (2023). Filologiya fanlarini o'qitish orqali ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 1(1), 1094–1095.  
<https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.521>
2. <https://inacademy.uz/index.php/zdtf/article/download/10311/7439/7498>
3. <https://litsey3.ucoz.org/index/o39quvishlari/0-5>

## TA'LIMNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

### Annotatsiya.

Ushbu maqolada ta'limni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, kompetensiyaviy yondashuv bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

### А н н о т а ц и я .

В данной статье представлена информация об организации образования на основе компетентного подхода, формировании базовых компетенций у обучающихся посредством образовательного процесса, компетентном подходе.

### Annotation.

This article provides information on the organization of education based on the competency approach, the formation of basic competencies in students through the educational process, and the competency approach.

### Kalits o'zlar:

kompetensiya, kompetentlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya, kreativ fikrlash va kritik fikrlash, bilimlarni mobillashtirish.

### К л ю ч е в ы е с л о в а :

компетенция, компетентность, коммуникация, сотрудничество, творческое и критическое мышление, мобилизация знаний.

### Key words:

competence, competence, communication, collaboration, creative thinking and critical thinking, knowledge mobilization.

## KIRISH

Jahonda o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim mazmunini fan yutuqlari bilan uyg'unlashtirish metodikasini takomillashtirish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholashning xalqaro dasturlari (PISA, TIMSS) hamda o'quvchi kompetensiyalarining shakllanganligini tashxislash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda ta'limni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, o'qituvchi hamda o'quvchilarda fanga oid va tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va muntazam tarzda rivojlantirib borish pedagogikaning dolzarb masalalariga kiradi. Kompetensiya – o'quvchilarning ma'lum sohada samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun ta'lim tayyorgarligiga oldindan qo'yilgan ijtimoiy talab. Kompetentlilik ko'p qirrali bo'lib, uning bir necha talqinlari mavjud. Kompetentlilik o'quvchi tomonidan tegishli kompetensiyalarga ega bo'lishni anglatadi. Kompetentlilik o'quvchida tarkib topgan shaxsiy sifatlar va berilgan sohadagi faoliyati bo'yicha to'plagan minimal darajadagi bilim, ko'nikma, malakalari va amaliy tajribalarini o'z ichiga oladi. Xususi kompetensiyalar bilan tayanch kompetensiyalar o'zaro farqlanadi. Tayanch kompetensiyalar o'quvchining istiqboldagi hayotiy-ijtimoiy faoliyati modeli hisoblanadi.

O'quvchilar muayyan bilim, ko'nikma, malaka va tajribaga ega bo'lgach, o'zlari egallagan kompetensiyalarni faoliyatlari orqali tatbiq eta oladilar. Tayanch kompetensiyalar ko'proq o'quvchining istiqboldagi ijtimoiy faoliyati uchun zarur hisoblanadi. Xususi o'quv fani doirasida o'zlashtiriladigan kompetensiyalar esa, asosan, o'quv va istiqboldagi kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlaydi. Kompetensiyalar har bir mamlakat xalqining turmush tarzi, madaniy, ma'naviy hayoti, an'alaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi. O'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar kreativ, ya'ni ijodiy yaratuvchilik xarakteriga ega bo'lib, ularni muntazam faollikka undaydi. Bunday kompetensiyalar sirasiga kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, o'zini o'zi rivojlantirish, ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kabilarni kiritish mumkin.

Ma'lumki, kompetentli yondashuv insonning ijtimoiy hayotga har tomonlama tayyorligi va tarbiyalanganligi bilan bir qatorda shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashda insonparvarlik xarakteriga ega. Insonparvarlik prinsipiga asoslangan shaxsga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi o'quvchilarga muayyan sohada bilim, ko'nikma, malakalar majmuini taqdim etishdangina iborat emas, balki ularning dunyoqarashi, layoqati, kreativ faoliyati, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Shu bilan bir qatorda ular ongiga insoniy qadriyatlarni singdirishga xizmat qiladi. Bularning barchasi kompetentli yondashuvning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi.

Ta'limni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishning tarixiy taraqqiyot yo'lini to'rt bosqichga bo'lish mumkin: Birinchi bosqich dastlabki taraqqiyot bosqichi bo'lib, 1960-1970-yillarni qamrab oladi. Bu davrda "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining izohi ilmiy adabiyotlarda o'z ifodasini topa boshlagan. Dastlab tillarni o'rganish nazariyasida o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish g'oyasiga asos solingan. Ilk bor D.Hymes tomonidan fanga "kommunikativ kompetentlik" tushunchasi kiritilgan. Kompetensiyaviy yondashuv taraqqiyotining ikkinchi bosqichi 1970-1990-yillarni o'z ichiga oladi. Mazkur bosqichda xorijiy tillarni o'rganish tajribasida, shuningdek, kasbiy mahoratni rivojlantirish, menejment sohalarida, shaxslararo muloqot va munosabat o'rnatishda kompetensiya, kompetentlik tushunchalaridan foydalanila boshlangan. Bu davrda kompetentlikning "tayyor bo'lmoq", "layoqat" kabi ma'nolarda taqdim etilishi bilan bir qatorda "javobgarlik", "mas'uliyatlilik" kabi shaxsiy sifatlarni ifodalashi ham ta'kidlangan. J.Ravenning 1984-yilda chop etilgan "Zamonaviy jamiyatda kompetentlik" nomli asarida mazkur tushuncha batafsil izohlangan. Kompetentlik tushunchasi o'zida juda ko'p ma'nolarni ifodalashi e'tirof etilgan. J.Ravenning ta'biricha, kompetentlik shunday pedagogik tushunchaki, u juda ko'p miqdordagi komponentlardan tashkil topgan bo'lib, ularning

aksariyati bir-biriga nisbatan o'zaro mustaqil hisoblanadi. Kompetentlik tarkibidagi ayrim komponentlar aynan kognitiv sohaga tegishli bo'lsa, boshqalari emotsional sohaga aloqadordir. O'z navbatida, ushbu komponentlar bir-birini to'ldirish xususiyatiga ega. "XXI asr uchun ta'lim" bo'yicha xalqaro komissiyaning hujjatlarida Jak Delorning "Ta'lim: yashirin boylik" nomli ma'ruzasi e'lon qilingan. Ushbu ma'ruzada ta'lim jarayonini tashkil etishda tayaniladigan to'rtta tayanch asos tavsiflangan. Ular: bilish; amaliy harakatlarni bajarish; birgalikda faoliyat ko'rsatish; hayot kechirish qonuniyatlarini o'rganishdan iborat. Bunday fikrlar yordamida muallif kompetentlikning asosiy mazmun-mohiyatini ochib bergan. Jak Delor fikriga ko'ra, amaliy harakatlarni bajarish deganda keng ma'noda layoqatlilik, mahoratga ega bo'lish tushuniladi. Guruhlarda ishlay olish va ish paytida yuzaga keladigan ko'plab murakkab vaziyatlardan muvaffaqiyatli chiqib keta olish nazarda tutiladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida 4K – kommunikatsiya, kollaboratsiya, kreativ fikrlash va kritik fikrlashdan iboratligi hech kimga sir emas. Bu ko'nikmalar o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini baholashda, shuningdek, maktabda va undan tashqari muhitlarda muvaffaqiyatlarga erishish ko'rsatkichlarini kuzatib borishga asqatadigan, muhim formativ baholash instrumenti hisoblanadi.

*Kollaboratsiya* – bu maqsadga erishish uchun birgalikda ishlash va bir-birini to'ldiradigan tajriba hamda malakalarni birlashtirish amaliyoti. Kollaboratsiya kompetensiyasi o'quvchilarning butun umri davomida odamlar bilan ishlashi, kirishib keta olishi, muzokaralar olib borishlari uchun asqatadi. Maktablarda o'quvchilarga hamkorlik va jamoada ishlashni baholashga doir topshiriqlar berish kelajakda muammoni qanday hal qilish, yechimlarni taklif qilish va eng ma'qul reja bo'yicha harakat yo'nalishini tanlashni tushunishga yordam beradi.

*Kommunikatsiya* – o'zaro tushunishga erishishning ikki tomonlama jarayoni, unda ishtirokchilar nafaqat ma'lumot, yangiliklar, g'oyalar va his-tuyg'ularni almashadilar, balki yaratadilar va mazmun almashadilar. Ushbu kompetensiyani baholash uchun o'quvchilardan boshqalar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatish va hamkorlikda o'rganish, interaktiv va samarali muloqot qilish, o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanish talab etiladi.

*Kreativ fikrlash* – o'quvchilarning tasavvurlarni ta'sirchan tarzda ifodalash, bilim olishga undovchi, o'ziga xos va samarali yechim topishga yo'naltiruvchi g'oyalarni shakllantirish, baholash va takomillashtirish kompetensiyasi.

*Tanqidiy fikrlash* – muammolarga yangicha qarash va masalani "qanday qilib" va "nima uchun" degan savollar berish orqali tahlil qilishdir.

Qisqacha qilib aytganda, tanqidiy fikrlash kompetensiyasi kerakli ma'lumotlarni to'plash, baholash va tahlil qilish, mulohaza yuritish, tizimli fikrlash, aniq xulosalar va qarorlar qabul qilish, ma'lumotlarni tahlil va talqin qilish kabi ko'nikmalar jamlanmasi bo'lishi mumkin. Masalan, adabiyot darslarida ushbu kompetensiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarda kreativ fikrlash, tanqidiy yondashish kabi xususiyatlarni rivojlantirish mumkin. O'quvchilar adabiyot darslarida o'tilgan badiiy asarlarni mustaqil o'qish orqali kreativ fikrlashni o'rganadilar, asarni tahlil qilish jarayonida o'z tasavvurlarini ijodiy bayon eta oladilar, asar yuzasidan o'zlarining tanqidiy fikrlarini bayon etish orqali muammolarga yangicha nigoh bilan qarash ko'nikmalari shakllanadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarni o'zlashtirilgan axborotlarni o'quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nostandart vaziyatlarida qo'llay olishga tayyorlashi bilan xarakterlanadi. Maktab ta'limini zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirish fanlardan elektron ta'lim resurslarini takomillashtirish, o'quvchilarning elektron manbalar bilan faol muloqotini ta'minlash, mustaqil ta'limni amalga oshirish va o'z-o'zini baholash, zaruriy ma'lumotni operativ izlab topish va yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda undan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan ta'lim sifati ko'rsatkichlaridan biri kompetentlilik hisoblanadi. U faqatgina bilim va ko'nikmalar yig'indisi bo'libgina qolmay, o'quvchilarning egallagan bilimlarini mobillashtirish va aniq vaziyatlarda tajribada qo'llay olishi bilan tavsiflanadi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning asosiy mohiyati kasbga yo'naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish sanaladi.

O'quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. O'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar uch darajaga ajratiladi: tayanch kompetensiyalar; umumiy (predmetli) kompetensiyalar; xususiy kompetensiyalar. O'quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat o'quv fani orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablari zimmasiga ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini

rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan. Zamonaviy yondashuvlar o'qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zaro integratsiyalash orqali o'quvchilarda tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Keng ma'noda kompetensiya masalaning, shuningdek, muayyan bilim sohasining mohiyatini muvafaqqiyatli hal etishda amaliy tajribaga asoslanib, bilim va ko'nikmalarni qo'llay olish qobiliyatidir. Ta'limda kompetentlik bilan yondashuv o'quvchilarni turli ko'nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo'naltiradi. Kompetensiya – bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli bo'lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni aniqlab ham, baholab ham bo'lmaydi. Malaka kompetentlikning muhim mezon bo'lib, u turli holatlarda, shu qatori muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo'llash natijasida namoyon bo'ladi.

Kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan qaralganda, ta'lim jarayonining mohiyati – o'quvchilarning turli hayotiy vaziyatlarda, kundalik turmushda vujudga keladigan muammolarni avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalari va tajribalari asosida hal qilish layoqatlarini (qobiliyatlarini) rivojlantirishdan iborat bo'ladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarga nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni berish, balki ularni kundalik turmushda, hayotiy vaziyatlarida qo'llay olish layoqatlarini (kompetensiyalarini) shakllantirishni ko'zda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, kompetensiyalar davlat va jamiyatning ta'lim tizimi oldiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy maqsadi ta'lim muassasasi bitiruvchisining ijtimoiy hayotga moslashishiga yordam berishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, kompetensiyaviy yondashuv ta'lim tizimi oldida turgan shu kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi:

*Kommunikativ kompetensiya* – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

*Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi* – mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni,

media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

*O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi* – doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

*Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi* – jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

*Milliy va umummadaniy kompetensiya* – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

*Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi* – aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, kompetensiyalarni shakllantirishning birinchi qadamlari bu “hayotiy ko'nikmalar” (shaxsiy muammolar, stressni yengish; vaqtni boshqarish; ko'rsatmalarni tushunish, qoidalarga rioya qilish; hujjatlarini rasmiylashtirish, matn va raqamli ma'lumotlarni qayta ishlash va tizimlashtirish; matnlarni yozish va gapirish; ishbilarmonlik aloqalarini amalga oshirish; faol bo'lish, nostandart yechim taklif qilish, o'z nuqtayi nazarini aql bilan himoya qila olish) va o'z fanini o'rgatishdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: “O'zbekiston”, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy maktab”larni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2019-yil 27-noyabrdagi PQ-4537-son Qarori.
5. Qosimova K., Matchonov S., Gulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh.. Ona tili o'qitish

metodikasi. – T.: “Noshir”, 2009.

6. Kuldoshev R.A. Scientific Basis of Construction of elementary School Textbooks // International journal of language learning and applied linguistics. – 2022. – T. 1. – №. 5. – S. 44-48.

7. Abduqodirov A., Rardayev A. Ta’lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyati. – T.: “Tafakkur”, 2014.

8. Farmonova Sh.M.. “Ta’lim mazmunini takomillashtirish va o’quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish yo’llari. “Inter education & global study” ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 2025. №2.

9. 4K ko’nikmalarini baholash rubrikalari. Uslubiy qo’llanma. Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi. – Toshkent: 2024.

## **СУТЬ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

### **Annotatsiya.**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilari bo'lishi kutilayotgan talabalar uchun axborot kompetentligining mazmuni va tuzilmasi ko'rib chiqiladi. Ta'limning raqamlashtirilishi sharoitida ushbu sifatning ahamiyati ochib beriladi, axborot kompetentligining asosiy komponentlari va uni kasbiy tayyorgarlik jarayonida shakllantirish xususiyatlari tahlil qilinadi. Boshlang'ich maktabda muvaffaqiyatli pedagogik faoliyat yuritish uchun asos sifatida axborot kompetentligini rivojlantirishga tizimli yondashuv zarurligi ta'kidlanadi.

### **А н н о т а ц и я .**

В статье рассматривается содержание и структура информационной компетентности будущих учителей начальных классов. Раскрывается значимость данного качества в условиях цифровизации образования, анализируются ключевые компоненты информационной компетентности и особенности её формирования в процессе профессиональной подготовки. Подчёркивается необходимость системного подхода к развитию информационной компетентности как основы для успешной педагогической деятельности в начальной школе.

### **Annotation.**

The article examines the content and structure of information competence of future primary school teachers. It highlights the importance of this quality in the context of education digitalization, analyzes the key components of information competence, and discusses the specific features of its development during professional training. The necessity of a systematic approach to developing information competence is emphasized as a foundation for successful pedagogical activity in primary education.

### **Kalits o'zlar:**

axborot kompetentligi, boshlang'ich ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, raqamlashtirish, pedagogik tayyorgarlik, АКТ, kasbiy kompetensiyalar.

### **Ключевые слова:**

информационная компетентность, начальное образование, будущий учитель, цифровизация, педагогическая подготовка, ИКТ, профессиональные компетенции.

### **Key words:**

information competence, primary education, future teacher, digitalization, teacher training, ICT, professional competencies.

## **ВВЕДЕНИЕ**

Современные условия цифровизации образования предъявляют новые требования к профессиональной подготовке будущих учителей. В частности, акцент делается не только на предметные и методические знания, но и на способность эффективно использовать информационные технологии в образовательной деятельности. В этой связи информационная компетентность становится важнейшим компонентом профессионального мастерства педагога.

Информационная компетентность представляет собой интегративное качество личности, выражающееся в способности самостоятельно искать, критически оценивать, обрабатывать, систематизировать и использовать информацию с применением

информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в профессиональной педагогической деятельности. Она охватывает как технические, так и когнитивные и ценностно-мотивационные аспекты.

Особенно актуально развитие информационной компетентности у будущих учителей начальных классов. Начальная школа — это первый этап систематического образования, где закладываются основы учебной и познавательной деятельности ребёнка. Учитель начальных классов выполняет не только образовательную, но и воспитательную функцию, формируя у учащихся основы информационной культуры. Чтобы эффективно выполнять эту миссию, сам педагог должен обладать высоким уровнем информационной грамотности.

Суть информационной компетентности педагога заключается в его способности эффективно и обоснованно использовать цифровые ресурсы и информационно-коммуникационные технологии (ИКТ) в образовательной деятельности, направленной на обучение, воспитание и развитие обучающихся. Данная компетентность предполагает не только овладение базовыми инструментами ИКТ, но и умение их интеграции в образовательный процесс, организация педагогического взаимодействия в цифровой образовательной среде, а также осуществление мониторинга и оценки образовательных результатов с применением современных цифровых платформ и аналитических инструментов.

Информационная компетентность включает в себя несколько взаимосвязанных компонентов: когнитивный (знания о видах информации, способах её получения и обработки), операциональный (навыки работы с информацией и ИКТ), коммуникативный (умение взаимодействовать в цифровой среде), рефлексивный (оценка собственных действий в работе с информацией) и ценностно-мотивационный (осознание значимости информационной культуры и готовность к её постоянному совершенствованию).

Процесс формирования информационной компетентности будущего учителя должен носить целенаправленный и системный характер, включающий как теоретическую, так и практико-ориентированную подготовку. Особое значение приобретает не только овладение конкретными цифровыми инструментами, но и формирование стратегического понимания значения информации в современном образовательном пространстве и в обществе в целом. Важной составляющей данного процесса является развитие у студентов способности к критическому мышлению, информационной рефлексии, а также готовности к адаптации в условиях стремительно

трансформирующейся цифровой среды.

Одной из эффективных форм развития информационной компетентности является проектная деятельность с использованием ИКТ. В процессе разработки и реализации цифровых учебных проектов студенты приобретают не только технические, но и организационные, коммуникативные и аналитические навыки. Также важную роль играют цифровые портфолио, участие в онлайн-курсах и вебинарах, самостоятельное создание электронных образовательных ресурсов.

В условиях цифровизации образовательной среды возрастает значение гибкости, адаптивности и готовности к непрерывному обучению. Информационно компетентный педагог способен быстро осваивать новые цифровые инструменты, анализировать их дидактические возможности и выбирать наиболее подходящие для конкретной педагогической задачи.

Следует подчеркнуть, что информационная компетентность — это не разовая способность, а постоянно развивающееся качество. Поэтому в образовательных программах подготовки учителей начальных классов необходимо предусмотреть систематическую работу по её формированию на протяжении всего периода обучения в вузе, а также заложить основы для последующего профессионального роста в этом направлении.

Информационная компетентность будущего учителя начальных классов представляет собой ключевую составляющую его профессиональной готовности. Она обеспечивает успешное выполнение образовательной миссии в условиях цифровой трансформации школы, способствует формированию у младших школьников критического мышления, информационной культуры и готовности к жизни в информационном обществе. Современное педагогическое образование должно строиться с учётом этой приоритетной задачи, интегрируя цифровые технологии в методику профессиональной подготовки.

### Список использованной литературы:

---

1. Вагина Н.А. Информационная компетентность будущего учителя: содержание, структура, пути формирования // Alma mater (Вестник высшей школы). – 2020. – №3. – С. 88-92.
2. Галиаскарова Н. А. Информационная компетентность как составляющая профессиональной подготовки учителя начальных классов // Педагогика. 2021. – №5. – С. 37-41.
3. Далингер В.А., Ерёмкина, Е.Н. Информационная компетентность будущего учителя: структура, критерии и условия формирования // Образование и наука. – 2019. – №6. – С. 112-130.
4. Ахмедова Д.Ш. Замонавий таълимда ахборот-коммуникация технологиялари: методик ёндашувлар. – Тошкент: Фан ва технология, 2022. – 168 б.
5. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 76 p.

6. Митрофанова Е.В. Цифровая трансформация образования и развитие профессиональных компетенций педагога // Высшее образование в России. – 2020. – №1. – С. 101-107.
7. Селевко Г.К. Компетенции и компетентностный подход в современном образовании. – М.: Народное образование, 2019. – 176 с.
8. Khalikova U.M. (2020). Information and Communication Technology (ICT) in Preschool Education // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – Vol. 10(4). – P. 877-885.
9. Мавлонова Р.М., Тураева О.И., Холиқбердиев Қ. Педагогика. – Т.: Ўқитувчи, 2002. – 320 б.
10. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: Академия, 2018. – 272 с.

## NAVOIYNING "SADDI ISKANDARIY" DOSTONIDA YOSHLARNI MEHNATSEVARLIKKA UNDOVCHI G'OYALAR

### Annotatsiya.

Bugungi kunda ta'lim sohasida juda keng islohatlar amalga oshirimoqda. Fanlarni o'qitishda turli xil metod va usullardan foydalanish, shu orqali ularni fanga qiziqtirish muhim vazifalardan biri bo'lib qoldi. Hozir bu maqolada adabiyot darslarida yoshlarni ma'naviy bo'shliqlarini hikoya mohiyatini izohlash orqali qanday to'ldirish haqida so'z boradi.

### А н н о т а ц и я .

Сегодня в сфере образования реализуются масштабные реформы. Важной задачей стало использование различных методов и приемов в обучении детей естественным наукам, что позволит им заинтересоваться наукой. В этой статье мы обсудим, как восполнить духовные пробелы у молодых людей на уроках литературы, объясняя суть истории.

### Annotation.

Today, large-scale reforms are being implemented in the field of education. An important task has become the use of various methods and techniques in teaching children natural sciences, which will allow them to become interested in science. In this article, we will discuss how to fill the spiritual gaps of young people in literature lessons, explaining the essence of history.

### Kalits o'zlar:

Tarbiya va ta'lim, fan va hayot, o'qituvchi va o'quvchi munosabati.

### Ключевые слова:

Образование и обучение, наука и жизнь, отношения учитель-ученик.

### Key words:

Education and training, science and life, teacher-student relations.

## KIRISH

Sharq adabiyotida azaldan ta'lim va tarbiyaga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, adabiyot olamiga o'zining o'chmas izini qoldirgan bobimiz Yusuf Xos Hojib va ularning "Qutadg'u bilig" asarida ham bilimni baxtning kaliti deb bilsa, uning qiymatini anglash eng avvalo, tarbiyaga bog'liq ekanligi alohida e'tirof etilgan. Ayniqsa, 11-sinf adabiyot darsligida berilgan "Saddi Iskandariy" dostonida yosh avlod tarbiyasiga uning yoshlikdan o'zini qancha mehnatga chiniqtirsa, qarilikda uning rohatini ko'rishi haqida ibratli jumlar keltirilgan. Misol uchun dostonidagi "O'spirinlik davri – mehnat-riyozat chog'idir, qarilik esa u dunyoga ketish arafasidir" - degan fikrlaridan ham anglash mumkin. Chunki, ma'naviyatli inson yosh umrini bekorga o'tkazmaydi, qiladigan ishlarini qilib murodiga yetmasdan – bu dunyodan ketmaydi.

Dostonning badiiy qiymati shunda ko'rinadiki, muallif asarida hayotining har bir holatidan voqif bo'lgan tajribali keksa nasihatining

qadrini bilmagan, fursat o'tgandan so'ng esa behuda pushaymon bo'lgan g'ofil yigit haqidagi hikoyatida ko'rish mumkin...

Hikoyatda keltirilishicha, bir oqil kishi, yigitlik chog'ini o'yin-kulgi, rohat qilish davri bilan o'tkazayotgan bir g'ofil bandaga nasihat qilib, yosh umrini behuda narsalarga sarf etmaslikni aytadi. Bunga javoban u yoshlikda qilingan har bir gunohlar kechiriladi, keyinchalik mehnat va ibodat qiladigan vaqt ham keladi, o'shanda qilamiz, - deydi. Shunda yigitning umri oqar daryo misoli bir zumda o'tib ketadi. Oxir-oqibat, u o'z qilgan ishlaridan pushaymon bo'ladi.

Bunday ibratli hikoyatlarning darslikda berilishi o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini o'stirishda muhim omil bo'lib, xizmat qila oladi. Bundan tashqari, dostonida yoshlikda insonlarning ko'pi nega o'yin-kulgiga o'ch bo'lishi xususida olim Arastu va jahon podshosi nomini olgan Iskandarning o'zaro suhbatini aks etgan hikoyat ham keltirilganki, bunda ham bir kuni jahon podshohi Arastuning yoniga borib, yoshlarni o'yinqaroq bo'lishining sababini so'rganida, ular bolalikda inson ko'p narsani idrok qilmaydi, tushunmaydi yoshi o'tgach, hamma narsani tushunadi, ba'zilar shunda kech bo'ladi, - deydilar. Hikoyatda tahsinga sazovar jihatlar juda ko'p, ayniqsa, Arastuning bolalik o'tib, o'spirinlikka yetganda insonlarning ikki toifaga ajralishi haqidagi fikrlari o'ziga xos tarzda talqin etilgan. Hikoyatda aytilishicha, odamlar ikki toifaga ajraladi: ularning birinchisida aqlning quvvat oshadi, natijada u inson kishilar orasida martaba qozonadi, ikkinchi toifadagi kishilarda esa nafs kuchlanib ketadi, natijada u insonning umri shunchaki o'tib ketadi xolos, degan tushuncha yotadi. Xuddi shu singari hikoyatlarning mazmunini adabiy asarlar orqali o'quvchiga yetkazish bugungi kundagi eng muhim omillardan biri sanaladi.

Chunki, zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda yoshlarimizni ongini turli xil yomon illatlar egallamasligi uchun, albatta, biz bunday asarlarni o'qitish va o'rgatishda hozirgi kun nuqtayi Nazari bilan yondashib, har bir tushuntirayotgan asarimizni o'quvchiga yetkazishning muqobil yo'lini bilishimiz va to'g'ri tushuntirib, umr g'animat ekanligini undan imkon boride foydalanish, umringizni vaqtingizni foydali narsalarga sarf qilish kerakligini anglatish lozim.

Vaholanki, yurtboshimiz ham yoshlarimizni tarbiyalashda adabiyot fani, adabiy asarlarning o'rni beqiyos ekanligini alohida ta'kidlab, "Adabiyot yashasa, xalq insoniyat bezavol yashaydi" - degan fikridan ham adabiyot fani uning ma'naviyatni boyitishdagi beqiyos xizmatini anglash mumkin. Darslikdagi "Saddi Iskandariy" dostonidan ham biz shu kabi tarbiyaviy jihatlarini o'rgatish orqali o'quvchini barkamol shaxs sifatida tarbiyalaymiz.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, adabiyotimizda bunday asarlar bisyor, ularni o'qib, ma'naviyatimizni boyitish o'zimizgagina bog'liq.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. Hasanboyeva O. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi. – T.: 2003.
2. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: «O'qituvchi», 2001.
3. Lafasov U. O'zbek tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: ToshDSHI, 2016.-532b
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 11-jild. –T.: «Fan»,1993. - 640 b.
5. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni konkordans.

Jumanazarov Sirojiddin  
Salaydinovich

*A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti kafedra mudiri,  
t.f.n., dotsent*

## UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH KURSLARIDA "TARBIYA" FANI O'QITUVCHILARINI LOYIHALASHGA OID IJODIY QOBILİYATLARINI OSHIRISH MASALALARI

### Annotatsiya.

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining "Tarbiya" fani o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarida loyihalashga oid ijodiy qobiliyatlarini oshirish masalalari qaralgan.

### А н н о т а ц и я .

В статье рассматриваются вопросы совершенствования навыков творческого проектирования у учителей предмета «Воспитания» общеобразовательных школ в процессе непрерывного профессионального развития.

### Annotation.

The article examines the issues of improving the creative design skills of teachers of the subject "Education" in comprehensive schools in the process of continuous professional development.

### Kalits o'zlar:

loyiha usuli, loyiha texnologiyasi, ta'lim muhiti.

### Ключевые слова:

проектный метод, проектная технология, образовательная среда.

### Key words:

Project method, project technology, educational environment.

## KIRISH

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan va global internet tarmog'iga ulangan. Shuning uchun darslarni loyihalashda va olib borishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarida tinglovchilarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bunda loyihalash ta'lim texnologiyasidan va axborot-ta'lim muhitlari, ta'lim portallari, ta'limga oid veb-saytlar, bulutli xizmatlardan foydalanish ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Chunki, loyihalash ta'lim texnologiyasi va ta'lim muhitlarining integratsiyalash yordamida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirishda, ijodkorligini rivojlantirishda, kognitiv qiziqishda va hokazolarda keng qo'llaniladi.

Loyihalashga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, pedagogikada "Loyiha usuli" mustaqil yoki boshqa ijodiy usullarni o'z ichiga olgan butun texnologiya sifatida qaralgan. Pedagogik va uslubiy adabiyotlarda loyiha usuli, loyiha texnologiyasi kabi turli xil atamalarni uchratish mumkin.

Ko'pgina manbalarda "Loyiha usuli" atamasidan keng foydalanganligini bilishimiz mumkin.

Loyiha texnologiyalari haqida gapirganda va "Loyiha" tushunchasining mohiyatini inobatga olgan holda, biz buni turli shaklda (material, matn va boshqalar) ko'zlangan natijaga erishishda o'quvchilarning o'quv va kognitiv faoliyatini tashkil etish usuli sifatida tushunamiz.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, loyiha texnologiyalari ta'limda turli xil bilim sohalarida, deyarli har qanday fanni o'qitishda, o'quv motivatsiyasini oshirishda, kognitiv qiziqishni, ijodkorlikni rivojlantirishda va hokazolarda keng qo'llaniladi. Loyiha texnologiyasi keng pedagogik imkoniyatlarga ega bo'lib, ta'limda dastur materialini chuqurroq o'zlashtirishga, o'quv faoliyatini rejalashtirishga, amaliy foydalanish ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi [1,2]. Shunday qilib loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi quyidagi xususiyatlarga ega:

- o'quvchilar e'tiborini olingan bilimlarning amaliy ahamiyatiga qaratish, loyiha vazifalarini hal qilish zaruratidan kelib chiqib, ularni o'zlashtirishga shaxsiy qiziqishni shakllantirish;

- kognitiv faoliyatni nafaqat bitta fanga, balki o'quv rejasining boshqa mavzulariga ham moslashtirish;

- loyiha topshiriqlarini bajarish jarayonida o'quvchilarning ko'p qirrali bilimlarining ahamiyati va zarurligini anglash.

Loyihaga asoslangan ta'limning maqsadlari ko'p o'lchovli bo'lib, quyidagi pozitsiyalar bilan ifodalanadi:

- loyiha asosida o'qitishning har bir ishtirokchisini o'zini-o'zi tarbiyalash imkoniyatiga shaxsiy ishonchini oshirishga yordam berish. Ushbu maqsad "muvaffaqiyatli vaziyat"da yashash orqali amalga oshiriladi, bu esa o'quvchiga o'zini muhim, o'ziga ishongan, loyiha topshirig'ini bajara oladigan va o'zini, o'z imkoniyatlarini hamda loyihaning umumiy ishiga qo'shgan hissasini amalga oshirishga qodirligini his qilish imkonini beradi;

- natijalarga erishish uchun jamoaviy ishning ahamiyati, hamkorlikning o'rni, ijodiy vazifalarni bajarish jarayonida birgalikdagi faoliyat va shu bilan shaxsning kommunikativ fazilatlarini shakllantirishga hissa qo'shish [3];

- tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish: muammoni aniqlash va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, kerakli ma'lumotlarni qidirish va tanlash, kuzatishlar o'tkazish, kuzatishlar natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish;

- gipotezalarni qurish va isbotlash, loyiha bo'yicha ish natijalari asosida tegishli xulosalar chiqarish.

Loyihaviy ta'limni o'quv jarayonida qo'llashda loyihalar har xil bo'lishi mumkinligini e'tiborga olish muhim hisoblanadi. Ularning xilma-xilligi tipologik xususiyatlar bilan belgilanadi. Bu belgilar:

- loyihada ustunlik qiladigan faoliyat;

- mavzu-mazmun sohasi;
- loyihani muvofiqlashtirish xarakteri;
- loyiha ishtirokchilari soni;
- loyihaning davomiyligi.

Bunday tipologik xususiyatga ko'ra, loyihada asosiy faoliyat sifatida quyidagi loyihalar ajratiladi:

- tadqiqot;
- ijodiy;
- rolli (o'yin);
- kirish va indikativ (axborot);
- amaliy va indikativ.

“Tarbiya” fani o'qituvchilarining loyihalashga oid ijodiy qobiliyatini oshirish orqali darslarni zamonaviy o'quv vositalar asosida tashkil etish imkoniyatiga erishiladi. Bunda quyidagi ta'lim muhitlardan, ya'ni tarbiya faniga oid taqdimotlarni ishlab chiqishda Prezi, videodarslar, videoroliklarni yaratishda Canvas va PlayPosit, onlayn standart va nostandart testlari ishlab chiqishda Online Test Pad, Ispring, krossvordlar bilan ishlashda Hot Potatoes, interaktiv doska sifatida Explain Everything, viktorinalar tashkil etishda ClassFlow, o'quvchilarning tarbiyalashga va mantiqiy fikrlashiga oid o'quv vositalarini ishlab chiqishda Kahoot! muhitidan foydalanish tavsiya etiladi. Bu kabi dasturiy vositalar yordamida “Tarbiya” fani o'qituvchilarining darslarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin.

Keltirilgan bosqichlar asosida “Tarbiya” faniga oid ishlab chiqilgan pedagogik dasturiy vositalarni sifat darajasi asosida “Tarbiya” fani o'qituvchilarining natijalarini baholash mumkin bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 
1. Стернберг В.Н. Теория и практика “метода проектов” в педагогике XX века // Автореферат диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук Рязань 2003. – 24 с.
  2. Полат Е.С. Метод проектов: история и теория вопроса / Е.С.Полат // Школьные технологии. 2016. – № 6. – С.43-47.
  3. Yo'ldoshev O'.J. Kommunikativ didaktika: mohiyat va mazmun. Academic research in educational sciences 4.KSPI Conference 1 (2023): 79-82.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HISSIY INTELLEKTNI SHAKLLANTIRISH IJTIMOY MUVAFFAQIYATLILIKNING OMILI SIFATIDA**

### **Annotatsiya.**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv va ijtimoiy muvaffaqiyatligining prediktori sifatida emotsional intellektini rivojlantirish muammolari va qonuniyatlari ko'rib chiqilgan.

### **А н н о т а ц и я .**

В статье рассматриваются проблемы и закономерности развития эмоционального интеллекта как предиктора академической и социальной успешности учащихся начальной школы.

### **Annotation.**

This article examines the problems and patterns of developing emotional intelligence as a predictor of academic and social success in elementary school students.

### **Kalits o'zlar:**

emotsional intellekt, ijtimoiy intellekt; shaxsning muvaffaqiyatligi, ijtimoiy muvaffaqiyatlilik, umumiy o'rta ta'lim maktabi, emotsional intellektni rivojlantirish usullari.

### **К л ю ч е в ы е с л о в а :**

эмоциональный интеллект; социальный интеллект; индивидуальный успех; академические успехи; социальный успех; общая средняя школа; методы развития эмоционального интеллекта.

### **Key words:**

emotional intelligence; social intelligence; personal success; academic success; social success; general secondary school; methods of developing emotional intelligence.

## **KIRISH**

So'nggi yillarda psixologik va pedagogik adabiyotlarda bolalar va o'smiralarda emotsional intellektni rivojlantirishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. A.I.Savenkovning fikriga ko'ra, emotsional intellekt ijtimoiy intellekt bilan bir qatorda hayotiy muvaffaqiyatning prediktorlaridan biri sifatida ishtirok etadi. O'z emotsiyalarini boshqara olish hamda boshqalarning emotsiyalarini tushuna olish qobiliyati shaxsning guruhda muvaffaqiyatli beixtilof munosabatlarni o'rnatishining muhim omili, samarali ijtimoiylashuvining asosi, yuqori sotsiometrik maqomini shakllantirishning sharti, deviant xulq-atvorini oldini olish vositasi, insonning ijobiy imidjini yaratish vositasi va yetakchilikni rivojlantirish omilidir. Emotsional intellektni rivojlantirish har bir yosh guruhi uchun dolzarb vazifadir. Mahalliy va xorijiy psixologik tadqiqotlarga ko'ra, yuqori darajadagi emotsional intellekt maktabgacha katta yoshdan va boshlang'ich maktab yoshidan boshlab muvaffaqiyatli shaxsning sifatlarini shakllantirishga yordam beradi. Bunda maktab o'quvchilarining emotsional

intellektning shakllanish va rivojlanish jarayoni nazariy jihatdan ham (emotsional intellektning mohiyati va tuzilishi), amaliy jihatdan ham (emotsional intellekt darajasini baholash mezonlari) an'anaga ko'ra asosan psixologiya fanlari vakillari tomonidan o'rganiladi, maktab o'qituvchisi amaliyotida esa umumiy ta'limning turli darajalarida o'quv jarayonida emotsional intellektni shakllantirish usullarini kontseptual ishlab chiqish va amaliy qo'llash masalasi eng dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu kabi tadqiqotlar mahalliy pedagogik adabiyotda hali uncha ko'p emas va umuman muammoni bir oz noto'liq (parcha holda) ko'rsatgan holda maktab o'quvchilarining emotsional intellektini rivojlantirishning faqatgina individual jihatlarini yoritadi. Shu asnoda, 1990-yillarning oxiridan boshlab, xorijiy psixologik-pedagogik tadqiqotlarda emotsional intellekt ko'rsatkichlarining shakllanganlik darajasini maktab o'quvchilarining xulq-atvori, ularning ruhiy salomatligi, psixologik farovonligi, o'qishga bo'lgan motivatsiyasi, o'zlashtirish parametrlari, sotsiometrik maqomi va boshqalar bilan bog'lagan holda bolalar va o'smirlarning emotsional intellekti muammosini keng kontekstda ko'rsatishga urinishlar qilinmoqda. Psixologik-pedagogik fanlarda ishlatiladigan "emotsional intellekt" atamasidan tashqari "emotsional farovonlik", "emotsional barqarorlik", "emotsional kompetentlik", "emotsional holatlar", "emotsional tafakkur", "emotsional ta'sirchanlik" va "emotsional yuk", "emotsional yetakchilik" va hokazo tushunchalar mustahkam o'rnashib qolgan. Ushbu parametrlarning ba'zilari, masalan, maktab o'quvchilarining emotsional holatlari, shaxs muvaffaqiyatligining shakllanishi kontekstida tobora ko'proq o'rganilmoqda, negaki bolalik va o'spirinlik yoshi emotsional intellektning barcha komponentlarini rivojlantirish uchun eng maqbul davr hisoblanadi. Ushbu sharhiy-nazariy tadqiqotning maqsadi – zamonaviy psixologik va pedagogik manbalar tahlili asosida maktab o'quvchilarining emotsional intellektini rivojlantirish va ta'lim oluvchilarning o'quv va ijtimoiy muvaffaqiyatlilikga erishish o'rtasidagi bog'liqlikni asoslash, shuningdek bolalik va o'spirinlik davrida emotsional intellektni shakllantirishning maqbul usullari va tizimlarini ajratishdan iborat.

Inson emotsiyalarining shakllanishi va rivojlanishi nuqtayi nazaridan muvaffaqiyatlilik deganda nima tushuniladi? O'z-o'zidan, hayotiy faoliyatning har qanday sohasida muvaffaqiyat fenomeni, odatda, ijobiy emotsiyalar manbai hisoblanadi. Umumiy ta'lim tizimiga nisbatan O.V.Birina muvaffaqiyatlilikni "o'quvchining faoliyatga va/yoki uning natijalariga shaxsiy munosabatini ifodalovchi o'ziga xos emotsional holati" deb ta'riflaydi.

E.A.Shiryayev "o'quvchining ijobiy ishtiyoqi", uning maktabga va o'quv jarayoniga munosabatini maktab o'quvchilari ta'limining muvaffaqiyatlilikini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkich sifatida baholash kerak

deb hisoblaydi. O'quv muvaffaqiyatliligidan tashqari, ijtimoiy muvaffaqiyatlilik ham mavjud. Muvaffaqiyatlilikning ushbu turi maktab o'quvchilari uchun o'qishda muvaffaqiyatli bo'lishlikdan ham muhimroq, negaki umumiy ta'lim maktab sharoitida turli xil ta'lim va tarbiya amaliyotlari jarayonida bir vaqtning o'zida nafaqat fan yutuqlari, balki shaxsning turli xil ijtimoiy sifatlari ham shakllanadi, bunda bolaning ijtimoiy muvaffaqiyatliligining muhim omili sifatida uning emotsional-hissiy sohasi yohud insonning umumiy kognitiv qobiliyati sifatida yoki bevosita – emotsiyalarni tushunish va aniqlash qobiliyati sifatida qaraladigan emotsional intellekti ishtirok etadi. Shu tariqa, ta'lim oluvchilarning muvaffaqiyatliligi, umuman ikkita komponentdan tashkil topadi – ta'limning muvaffaqiyatliligi (o'quv muvaffaqiyatliligi) va ijtimoiy muvaffaqiyatlilik. Ushbu maqola doirasida biz muvaffaqiyatlilikning ikkala jihatini – o'quv va ijtimoiy – maktab o'quvchilarining emotsional intellektining rivojlanish darajasi bilan o'zaro aloqasi va o'zaro bog'liqligi kontekstida tahlil qilamiz.

Ushbu nazariy sharh uchun manba bo'lib quyidagilar xizmat qildi: ko'rib chiqilayotgan muammo bo'yicha monografik tadqiqotlar psixologik va pedagogik fanlar sohasidagi dissertatsiyalar nazariy sharhlari va refleksiyalari ilmiy davriy nashrlar materiallari; turli darajadagi ilmiy va amaliy anjumanlar tezislari; dayjestlar; ijtimoiy so'rovnoma ma'lumotlari va hokazolar. Kontseptual tahlil va umumlashtirish uchun asos sifatida rus va xorijiy mualliflarning asosan so'nggi olti yil ichidagi (2016-yildan 2022-yilgacha) ilmiy nashrlari xizmat qildi. O'qituvchilar va psixologlarning fikriga ko'ra, maktab o'quvchilarining emotsional intellekti o'quv jarayonining o'ziga ham, uning natijalariga ham sezilarli ta'sir qiladi. O'quv muvaffaqiyatliligi ta'lim faoliyatining barcha bosqichlarida namoyon bo'ladi. Bunda maktab o'quvchilarining o'quv muvaffaqiyatliligining asosiy ko'rsatkichi sifatida, avvalam bor, akademik o'zlashtirish ishtirok etadi. So'nggi o'n yillikda AQSh, Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Avstraliya va boshqa rivojlangan mamlakatlardagi boshlang'ich va o'rta maktab o'qituvchilarida emotsional intellekt darajasi va o'quvchilarning ilmiy yutuqlari darajasi o'rtasidagi bilvosita bog'liqlik eksperimental ravishda aniqlandi. Boshlang'ich umumiy ta'lim bosqichida amaliyotchi o'qituvchilar va maktab psixologlari ta'lim oluvchilarning o'quv muvaffaqiyatliligining omili sifatida emotsional intellektni shakllantirish uchun quyidagi usullarni qo'llaydilar:

✓ yosh maktab o'quvchilarining emotsional holatini to'g'rilash uchun psixotexnika usullari, ular maktab o'quvchilariga hamdard bo'lish va qayg'udosh bo'lishni o'rgatish, boshqa odamlarning emotsional holatlarini (baxt, qayg'u, adolat, alam, mehribonlik, saxiylik, jahl, zerikish, qo'rquv, g'azab, nafrat, hayrat, jirkanish va b.) farqlash hamda o'z emotsiyalarini

tushunish va verballashtirishda turg'un qiyinchilik bo'lmish aleksitimiyaning mustahkamlanishini oldini olish imkoniyatini beradi;

✓ noverbal intellektni rivojlantirish metodikalari, masalan, fotosurat bo'yicha tayanch emotsiyalarni aniqlashni o'rgatish, dinamik kuzatuvchanlikni mashq qilish va hokazo;

✓ badiiy matn ustida ishlash jarayonida emotsiyalarni bevosita boshdan kechirishni o'rgatish, ijobiy emotsiyalar salohiyatini kuchaytirish va salbiy emotsiyalar salohiyatini pasaytirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikalari;

✓ emotsiyalarni aniqlashga qaratilgan o'yinli faoliyatda emotsional intellektni rivojlantirish metodikalari: syujet-rolli va kommunikativ o'yinlar;

✓ yosh maktab o'quvchilariga o'z emotsiyalarini tushunish va o'z emotsional sohasini boshqarishni o'rganishga imkon beruvchi psixogimnastika usullari (masalan, ekspressiv etyudlar, psixogimnastika mashqlari).

✓ emotsional-ixtiyoriy o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish vositasi sifatida vokal-xor faoliyati va b.

Boshlang'ich va o'rta maktabda o'quv muvaffaqiyatligiga erishish uchun yuqorida aytib o'tilgan usullardan tashqari, emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan quyidagi usullardan ham samarali foydalaniladi:

➤ emotsional ta'lim yoxud o'qituvchi va o'quvchilarning emotsional tus olgan, bilish faoliyatiga undaydigan o'zaro munosabati;

➤ amaliyotga yo'naltirilgan faol o'qitish usullari.

➤ jamoaviy ijodkorlik, jamoaviy loyihalar, jamoaviy tadqiqot amaliyotlari va turli xil qo'shma ta'lim faoliyat turlari;

To'rt juft emotsiyalar (g'azab-qo'rquv; qayg'u-shavq; hayrat-hushyorlik; zavq-jirkanish)ga tayangan holda o'qishga bo'lgan motivatsiyani oshirish maqsadida Robert Plutchikning "Emotsiyalar chambaragi" modelidan foydalanish va b. Global ta'lim tizimida emotsional intellektni shakllantirishning kontseptual va texnologik asoslari ishlab chiqilmagan. Amaliy nuqtayi nazardan o'qituvchilar va maktab psixologlarining funksiyalari va vazifalarini aniq belgilab, bolalik davrida emotsional intellektni shakllantirishning tashkiliy-pedagogik va sof psixologik shart-sharoitlarini differentsiyalash (farqlash) kerak. Yuqorida tilga olingan muammolarni hal qilish va ziddiyatlarni bartaraf etish, bizning fikrimizcha, umumiy ta'lim tizimida bolalar va o'smirlarning emotsional intellektini muvaffaqiyatli shakllantirishni ta'minlash imkonini beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. Алешина А.В., Шабанов С.Т. Эмоциональный интеллект для достижения успеха. – Санкт-Петербург: “Речь”, 2012. 336 с.
2. Андреева И.Н. Эмоциональный интеллект и эмоциональная креативность: специфика и взаимодействие: монография. – Новополюцк: 2020. 356 с.
3. Багнетова Е.А. Эмоциональное состояние учащихся как фактор здоровья и успешного обучения // Вестник Сургутского государственного педагогического университета. 2017. №5 (50). – С. 86-89.
4. Битюцких Е.В. Эмоциональный интеллект как фактор успешности обучения студентов // Молодой ученый. 2019 № 27(265). – С. 142-144.
5. Братчикова Ю.В., Волошина Н.С. Развитие эмоционального интеллекта детей дошкольного возраста в совместной игровой деятельности с родителями // Педагогическое образование в России. 2019. № 7. – С. 30-37.

## TURLI QOBILIYATLI O'QUVCHILARNING HAYOTIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

### Annotatsiya.

Maqolada darslarni differensial yondashuv asosida tashkil etish orqali o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish, o'z qiziqishi va mavjud bilimlari asosida rivojlanishi va ham nazariy ham amaliy bilim, ko'nikmalarini rivojlantirish usullari yuzasidan tavsiyalar berilgan.

### А н н о т а ц и я .

В статье даются рекомендации по повышению интеллектуального потенциала учащихся, развитию их интересов и имеющихся знаний, формированию как теоретических, так и практических знаний и навыков путем организации занятий на основе дифференцированного подхода.

### Annotation.

The article provides recommendations for increasing the intellectual potential of students, developing their interests and existing knowledge, forming both theoretical and practical knowledge and skills by organizing classes based on a differentiated approach.

### Kalits o'zlar:

differensial yondashuv, konstruktivist o'qituvchi, intellekt ko'pligi nazariyasi, bola o'z intellektining me'mori.

### Ключевые слова:

дифференциальный подход, учитель-конструктивист, теория множественного интеллекта, ребенок-архитектор своего интеллекта.

### Key words:

differential approach, constructivist teacher, theory of multiple intelligences, child - architect of his own intelligence.

## KIRISH

O'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish - zamonaviy ta'limning eng muhim maqsadlaridan biridir. Bu ko'nikmalar nafaqat akademik bilimlar, balki hayotda muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur bo'lgan keng qamrovli ko'nikmalar va raqamli ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi.

Xo'sh, qanday ko'nikmalar XXI asr ko'nikmalari hisoblanadi?

- Tanqidiy fikrlash (Critical Thinking)**
- Muammoni hal qilish (Problem Solving)**
- Ijodkorlik (Creativity)**
- Muloqot (Communication)**
- Hamkorlik (Collaboration)**
- Raqamli savodxonlik (Digital Literacy)**
- Axloqiy-ijtimoiy mas'uliyat (Civic & Ethical literacy)**
- O'zini boshqarish va moslashuvchanlik (Self-regulation & Adaptability)**

Bugun ta'lim jarayonida bu ko'nikmalarni qanday rivojlantirishimiz va buning uchun nimalarga amal qilishimiz kerak bo'ladi?

1. Tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish:

**Savol-javob asosidagi darslarni tashkil etish:** o'quvchilardan "nima uchun?" va "qanday qilib?" degan savollarga javob olish orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.

**“Case study” va real hayotiy misollar:** ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy muammolar bo'yicha yechim izlash topshiriqlarini ishlab chiqish va darslarda qo'llash.

2. Ijodkorlikni rag'batlantirishda quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

**Loyihalar asosida o'qitish (Project-based learning):** O'quvchilarga muammo beriladi va o'quvchilar mustaqil yoki guruhda muammoga kreativ yechim ishlab chiqadilar. Masalan: quyidagi mavzularda loyiha ishlarini tashkil etish o'quvchilarning faqatgina tilni emas balkim barcha fanlardan kerakli bilimlarni o'zlashtirishlari va amaliy ko'nikmalarni egallashlari mumkin:

*“Konfetlarning nomlanishi; nomlarning to'g'ri yozilishi”, “Elektron muloqot madaniyati”, “O'zbek tili frezeologizmlari”, “Atlas va adras: O'zbekistonning qadimiy ipak matolari va ularning madaniy ahamiyati” va hokazo.*

3. Hamkorlik va muloqotni rivojlantirish.

**Guruhli ishlar:** Har bir darsda kamida 10-15 daqiqa guruhli topshiriq tashkil etish.

**Debatlar va rolli o'yinlar:** O'quvchilar o'z fikrini asoslaydi va boshqalarning fikrini eshitadi.

4. Raqamli savodxonlikni oshirish.

**Kompyuter va internet asoslari:** Word, Excel, Google Drive, Prezi kabi dasturlarni o'rgatish.

**Media tanqidiy fikrlash:** Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlarni tahlil qilish, soxta va haqiqiy axborotni farqlash.

6. Moslashuvchanlik va o'zini boshqarish.

**Refleksiya va o'z-o'zini baholash:** Har bir dars, biror bir faoliyat yoki loyiha yakunida *“Men nimani o'rgandim?”, “Yana qanday ma'lumotlarga ehtiyoj sezaman?”, “Fanlarni o'zlashtirishda qanday usul va vositalar yaxshi yordam beradi?”* kabi va h.k savollarga javob izlash o'quvchilarning mustaqilligi, fikrlashi, mas'uliyati, ishlarini rejalashtira olishi kabi ko'nikmalarini shakllanishi va rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Tavsiya etiladigan metodlar:

Metod nomi	Tavsifi	Afzalligi
<b>STEM (loyihalar)</b>	Loyiha asosida o'quvchilar Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics fanlari integratsiyasi asosida amaliy tarzda bilim va hayotiy ko'nikmalarni egallaydilar	Fanlararo fikrlash va amalda qo'llay olish

<b>Flipped learning</b>	Uyda nazariyani, sinfda amaliyotni bajarish	Mustaqil o'rganishga undaydi
<b>Gamifikatsiya</b>	O'yin elementlari bilan o'qitish (asosan kichuk sinflarda)	Rag'bat va qiziqishni oshiradi, amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi va rivojlantiradi
<b>Inquiry-based learning</b>	Savol asosidagi izlanish, o'rganish	Tanqidiy, kreativ fikrlashni rivojlantiradi

O'quvchilarning intellektidan kelib chiqib darsni tashkil etish – bu har bir o'quvchining individual qobiliyatini, bilim olish uslubini va qiziqishlarini inobatga olgan holda, dars jarayonini moslashtirishni anglatadi. Bunday yondashuv G.Gardnerning intellekt ko'pligi nazariyasi [2] (Multiple Intelligences Theory) bilan bog'liq bo'lib, nazariyada o'quvchilarda mavjud quyidagi intellekt turlari tahlil etiladi:

1. Darslarni o'quvchilarning intellekt turlariga qarab tashkil etish:

Intellekt turi	Tavsif	Darsda qo'llaniladigan usullar
Lingvistik	so'z bilan ishlash	Hikoyalar yozdirish, muhokamalar, debatlar tashkil etish, intervyu savollarini tayyorlash va h.k.
Matematik	mantiqiy fikrlovchi	Tahlil, muammo yechish, masalalar yechish, mantiqiy o'yinlar, krosvordlar yaratish...
Vizual	makoniy	Tasvir, rasm orqali o'rganish, diagramma, chizma, videolarni matnga nisbatan tez va to'g'ri anglash
Motor	Harakatli (kinestetik)	Jismoniy harakat orqali o'rganish Rolli o'yinlar, tajriba
Musiqiy		Ritm va tovushlar orqali qo'shiqlar, musiqali topshiriqlar
Tabiatshunos	Tabiat bilan bog'liq fikrlash	Tabiiy tajribalar, kuzatish, tahlil...

Ichki shaxsiy	Itrapersonal	O'zini tahlil qilish kundalik yozish, mustaqil ishlash
Ijtimoiy (shaxslar aro)	Interpersonal	Boshqalar bilan ishlash, guruhli ish, jamoaviy loyihalar...

Biz quyida dars jarayonida o'quvchilarning intellektiga mos topshiriqlarni tayyorlash yuzasidan ayrim tavsiyalarni keltiramiz:

*Diagnostika:* Dars boshida yoki o'quv yilida o'quvchilarning intellekt turlarini aniqlovchi testlar o'tkaziladi. Masalan dars jarayonida turli intellektlarga mos tarqatmalarda o'zlariga yoqqanini tanlash topshiriladi. Shunda qaysidir o'quvchilar tabiat bilan bog'liq, qaysidir birlari sport bn bog'liq kartochkalar, yana birlari raqamlar aks etgan kartochkalarni tanlashadi shu orqali ularning intellektlari aniqlanadi va guruhlariga ajratiladi.

*Differensial topshiriqlar:* Har bir guruhga yoki o'quvchiga uning intellektiga mos topshiriq ishlab chiqish va qo'llash.

*O'zaro o'qitish usuli:* Bitta mavzu turli intellekt sohiblari orqali yoritiladi (masalan, bir vaqtning o'zida grafik, og'zaki, matematik va jismoniy faoliyat orqali).

#### **Afzalliklari:**

- Har bir o'quvchining iste'dodi namoyon bo'ladi;
- Faollik va ishtirok oshadi;
- O'z-o'zini anglash, ishonch va mustaqillik rivojlanadi;
- Sinf samatali boshqariladi;
- Har bir o'quvchi o'z proksimal rivojlanish zonasi asosida mavzuni o'zlashtirishiga erishiladi.

7-sinf ona tili darsligi[1]da berilgan "Och qoldirilgan jonivor" matnini o'rganish yuzasidan quyidagicha topshiriqlarni berish mumkin:

#### **OCH QOLDIRILGAN JONIVOR**

Yo'lbars – yo'l-yo'l chiziqli bahaybat mushukni kim ham bilmaydi? Negadir ko'pchilik yo'lbars deganda Afrika savannalarini ko'z oldiga keltiradi. Lekin ishonasizmi yoki yo'qmi, Afrikada umuman yo'lbarslar yo'q, mutlaqo! Yo'lbars Osiyo qit'asi hayvonidir. Yo'lbars mushuksimonlar oilasining pantera urug'iga mansub. Yo'lbarslarning 9 ta turi bor. Shulardan 6 tasi hozirda mavjud, uchtasi esa, afsuski, qirilib ketgan. Ana o'sha qirilib ketganlar orasida Turon yo'lbari ham bor. Yo'lbars Hindistonda harbiy jasorat timsoli, Yaponiyada esa mardlik ramzi hisoblanadi. Janubi-sharqiy Osiyo hamda Koreyada yo'lbarsni "tog'lar va g'orlar sohibi" deb atashgan. Xitoyda esa yo'lbars kuch va salomatlik ramzi hisoblangan. Turon yo'lbari 200 kilogramm vaznli yirik yirtqich hayvondir. Har bir yo'lbars oilasi o'z yer maydoniga ega bo'lib, o'rtacha 8–10 kvadrat kilometrda xo'jayinlik qilgan. Yo'lbarsning hid bilish organi kuchli rivojlangan, juda yaxshi eshitgan. Ko'zi qorong'ida ham yaxshi ko'rgan.....

Har bir intellekt guruhiga shu matn va topshiriq beriladi.

#### **TOPSHIRIQLAR (VERBAL)**

1. Matn asosida intervyu tayyorlang.
2. Matn asosida insho rejasini tuzing. (mavzu tanlang)
3. Matn ma'lumotlari asosida hikoya yarating.

#### **TOPSHIRIQLAR (Matematik)**

1. Matn asosida ma'lumotlar jadvalini tayyorlang.
2. Matn asosida krosvord yarating.
3. Matnda ifodalangan raqamlar asosida "Raqamlar so'zlaganda" o'yinin tashkil qiling.

#### **TOPSHIRIQLAR (Vizual)**

1. Matn asosida tasavvurlaringizni rasmlarda aks ettiring.
2. Matnda tasvirlangan yo'lbars qiyofasini internet manbalaridan izlab toping va izohlang.
3. Matn ma'lumotlari asosida rasmi hikoya yarating.

#### **TOPSHIRIQLAR (tabiatshunos)**

1. Matn asosida geografik joylar xaritasini yarating.
2. Hayvonot olami va tabiat mavzusida ilmiy matn yarating.
3. Turon yo'lbari qirilib ketishining tabiat va jamiyatga ta'siri qanday?

#### **TOPSHIRIQLAR (Motor)**

1. Matn asosida Turon yo'lbari qiyofasini pantomima asosida ko'rsatib bering.
2. Yo'lbars obrazi ishtirok etgan biror multfilmdan parcha namoyish qiling.
3. Yo'lbar ishtirok etgan maqollarni topib, maqol mazmunini pantomima asosida ko'rsatib bering.

#### **TOPSHIRIQLAR (Musiqiy)**

1. Matn bilan tanishish va kuch, quvvat, shijoat haqidagi qo'shiqlardan namunalar toping. Turon yo'lbari va ushbu qo'shiq o'rtasidagi bog'liqlikni izohlang.
2. Yo'lbarsning ta'rifi asosida to'rt misradan ibort she'r yarating va kuy bastalang.
3. Alp Er To'nga, Alpomish kabi qahramonlarimizning xususiyatlarini yo'lbars bilan taqqoslab izohlang.

Ushbu topshiriqlarni bajarish uchun hamma o'quvchi albatta matn bilan tanishishi lozim bo'ladi. O'quvchilar dars davomida o'z qiziqishlari va qobiliyatlarini oshiradilar, bilim oladilar, faol bo'ladilar va amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Agar dars davomida o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib yondashilmasa dars zerikarli va samarasiz o'tadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kun o'qituvchisi konstruktivist[3] o'qituvchi bo'lishi lozim. Ya'ni, Jan Piajening konstruktivistik nazariyasiga

ko'ra *"bola o'z intellektining me'mori"*, shunday ekan, o'qituvchi o'quvchilarning o'qishiga ko'maklashuvchi, yo'naltiruvchi, mustaqil faoliyatni amalga oshiruvchidir. Buning uchun konstruktivist o'qituvchi bolaga tajriba va bilimni *muammoli ta'lim muhitini tadqiq qilish, turli maketlar, sxemalar tayyorlash, tajribalar o'tkazish, bahsli savollarga javoblar topish* va umuman, *xususiydan umumiyga* qarab chiqish, ya'ni bilishning induktiv metodini qo'llash jarayonida "amalda bajarish" yo'li bilan o'rganishini tashkil eta olishi darkor. Shunga ko'ra *konstruktivist o'qituvchi dars beruvchi o'qituvchi emas, balki u ta'lim oluvchilarning muammoli yo'naltirilgan tadqiqot faoliyatiga konsultant, tashkilotchi va muvofiqlashtiruvchidir*. U o'quvchilarning mustaqil aqliy faoliyati uchun sharoitlar yaratuvchi va ularning tashabbuslarini har tomonlama quvvatlovchidir. O'quvchilar esa o'z navbatida ta'lim jarayonining to'la huquqli ishtirokchilaridirlar.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

---

1. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. - Toshkent: 2022. 29-31b.
2. Gardner Howard. *Multiple Intelligences: New Horizons in Theory and Practice*, 2006. Basic Books, ISBN 978-0465047680
3. Piaget J. *Bolaligida o'ynang, orzu va taqlid qiling*. London: Heinemann.1945.

## O'QUVCHILARNING RAQAMLI SAVODXONLIKKA DOIR HAYOTIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

### Annotatsiya.

Ushbu maqolada o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalari: axborotni izlash, tahlil qilish va raqamli savodxonligini oshirish yo'llari haqida ma'lumot berib o'tilgan.

### А н н о т а ц и я .

В статье представлена информация о способах улучшения жизненных навыков учащихся: поиска информации, анализа и цифровой грамотности.

### Annotation.

This article provides information on ways to improve students' life skills: information search, analysis, and digital literacy.

### Kalit so'zlar:

Raqamli savodxonlik, axborotlarni tahlil qilish, raqamli xavfsizlik, bulutli texnologiya.

### Ключевые слова:

Цифровая грамотность, аналитика данных, цифровая безопасность, облачные технологии.

### Key words:

Digital literacy, data analytics, digital security, cloud technology.

## KIRISH

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarni hayotga tayyorlash dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun, albatta, har bir pedagog o'quv jarayonini amaliy hayot bilan bog'lagan holda to'g'ri tashkil etishi zarur. Ta'limda nazariyani amaliyot bilan bog'lash prinsipi bu jarayonni yanada osonlashtiradi. O'quvchilarda onglilik va faollikni yuzaga keltirish, ularni o'z-o'zini baholashiga imkon yaratish hamda hayotiy faoliyatning asl mohiyatini o'quvchiga yetkazib berish ta'lim oluvchida hayot haqidagi ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. O'quvchilarning hayotiy ko'nikmalariga muloqot qilish, muammoni hal qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, o'zini anglash va boshqarish, vaqtni boshqarish va rejalashtirish, axborotni izlash va undan foydalanish, raqamli savodxonligini keltirib o'tishimiz mumkin.

O'quvchilarning axborotni izlash va undan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish – zamonaviy ta'limda muhim yo'nalishlardan biri. O'quvchilarning axborotni izlash va undan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishda ularni zarur axborot manbalari bilan tanishtirishda muhim va bevosita raqamli savodxonlik tushunchasi bilan bog'liq. Bunda darslarda o'quvchilarga turli manbalarni (kitoblar, ensiklopediyalar, maqolalar, veb-saytlar, videodarslar) ko'rsatish, hamda ishonchli va ishonchsiz manbalarni taqqoslash orqali farqini tushuntirish mumkin. Kalit so'zlardan foydalanish mashqlari, ya'ni o'quvchilarga ma'lumot izlashda kalit so'z tanlashni

o'rgatish [1], Google yoki boshqa qidiruv tizimlarida to'g'ri so'z birikmalaridan foydalanish bo'yicha amaliy mashqlar berish. Savol asosida izlanish topshiriqlari berish, misol uchun "Ekologiyani asrab avaylash yo'llarini toping" kabi so'rovlarni berish, o'quvchilar mustaqil axborot qidirib, keyin sinfda taqdimot qilishadi. Axborotni tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirish, bunda olingan ma'lumotni baholashda bu axborot qayerdan olingan? muallifi kim? qachon chop etilgan? kabi savollar orqali tahlil qilish mumkin. Texnologiyadan foydalanish madaniyatini o'rgatish, wikipedia, Google Scholar, YouTube darslari, kutubxonalar va raqamli resurslar bilan ishlashni o'rgatish. Axborotni qayta ishlash va taqdim etish, topilgan ma'lumotdan foydalanib, kichik hisobot, prezentatsiya yoki infografika tayyorlash. Bu orqali o'quvchi axborotni izlashdan tashqari, uni tartibga solish va ifoda qilishni ham o'rganadi. Jamoaviy loyihalar orqali mustahkamlash, o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, har bir guruhga biror mavzu asosida izlanish vazifasi berish ham raqamli savodxonlikka doir hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishi mumkin. Natijada, hamkorlikda izlash, tahlil qilish va foydalanish ko'nikmalari rivojlanadi. Xuddi shunday raqamlashayotgan dunyoda o'quvchilarning raqamli savodxonligi rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda raqamli savodxonlik – o'quvchilarning ta'lim olish, axborot izlash, muloqot qilish va xavfsiz raqamli muhitda faoliyatni olib borishlari uchun zarur bo'lgan muhim ko'nikmadir. Shuningdek, raqamli texnologiyalar bevosita axborot texnologiyalardagi raqamlashtirish jarayonlari bilan birga sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalarni ham o'z ichiga oladi [2].

O'quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirish yo'llari bosqichma-bosqich amalga oshirish samarli natijalarga olib keladi. Bunda o'quvchilarga asosiy raqamli ko'nikmalarni o'rgatish, kompyuter, planshet va smartfonlardan foydalanish asoslarini o'rgatish, klaviatura va sichqoncha bilan ishlash, dastur va ilovalarni ochish, saqlash, yopish, fayllar bilan ishlash, raqamli axborotni qabul qilish va baholash, internetda axborot izlash usullarini tushuntirish, ishonchli va soxta manbalarni ajrata olishni o'rgatish, axborotni tahlil qilish: sana, muallif, manba ishonchliligi, raqamli xavfsizlik va madaniyatni shakllantirish, parol yaratish va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalari, internetdagi xatarlardan ogohlantirish (phishing, firibgarlik, kiberzo'raonlik), onlayn odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish, dasturiy ta'minot va ilovalarni o'rgatish, bulutli texnologiyalar (Google Docs, Google Drive [3]), ta'limiy ilovalar va platformalarni tanishtirish (Khan Academy, Duolingo, Code.org va boshqalar), ijodiy raqamli ishlanmalarni yaratish, raqamli taqdimot, infografika, video, blog yozuvlari yaratish, o'quvchilarni raqamli kontent iste'molchisidan ijodkoriga aylantirish, kodlash asoslari (Scratch, Python boshlang'ich tushunchalari) bilan tanishtirish, virtual muhokamalar, bulutli

texnologiyalardan foydalanishni o'rgatish (Google Classroom, Microsoft Teams) kabi jihatlar ustuvor hisoblanadi. Ushbu o'quv jarayoni yondashuvi raqamli savodxonlik ta'rifiga "o'z jamiyatida foydalaniladigan aloqa vositalarini va ularning ishlash usullarini tushunish qobiliyati va boshqalar bilan muloqot qilish uchun ushbu ommaviy axborot vositalaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish" [5] mos keladi.

Raqamli savodxonlik zamonaviy jamiyatda har bir fuqaro, xususan, o'quvchilar uchun zarur hayotiy kompetensiyalardan biriga aylangan. U nafaqat axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatini, balki raqamli muhitda xavfsiz faoliyat yuritish, tanqidiy fikrlash, raqamli madaniyatga ega bo'lish va sun'iy intellekt texnologiyalarini ongli ravishda qo'llashni ham o'z ichiga oladi. Shu boisdan o'quvchilarda raqamli savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ta'lim metodlarini innovatsion yondashuvlar asosida ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Quyida o'quvchilarning raqamli savodxonlikka doir hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beruvchi metodik usullar taqdim etildi.

Birinchi metod – "Raqamli missiya" deb nomlangan gamifikatsiyalangan loyiha asosidagi o'qitish usulidir. Ushbu metod real hayotga yaqinlashtirilgan raqamli muammolarni o'yin tarzida hal etish orqali o'quvchilarda axborot-kommunikatsiya vositalarini maqsadli qo'llash, tanlov qilish, muammoni hal etish va jamoaviy fikrlash kompetensiyalarini shakllantiradi. O'quvchilar "raqamli qahramonlar" sifatida xavfsiz onlayn xarid qilish, elektron hujjat tuzish yoki mobil ilovalardan to'g'ri foydalanish kabi topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajaradi.

Amaliyotda qo'llash. "*Raqamli missiya*" – gamifikatsiyalangan loyiha.

9-sinf "*Elektron hujjatlar bilan ishlash*" mavzusida o'quvchilarga quyidagi ssenariy beriladi:

"Siz yangi tashkil etilgan korxonaning kotibisiz. Rahbaringiz sizdan mijozlar uchun tijorat taklifi tayyorlashni so'radi. Siz MS Word yoki Google Docs orqali rasmiy ko'rinishdagi hujjatni yaratishingiz kerak."

Yo'riqnoma:

- O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi.
- Har bir guruhga turli ssenariylar (ish jadvali, taqdimot, narxlar jadvali) beriladi.
- Google Docs/Slides/Sheets kabi onlayn platformalarda ishlash topshiriladi.
- Dars oxirida har bir guruh ishlanmasini taqdim etadi va baholash mezonlari asosida tahlil qilinadi.

Gamifikatsiyaga asoslangan o'qitish yondashuvlari maktab ta'limida keng qo'llanilmoqda. Yuqoridagi o'yin loyihasi ayni yondashuvga mosdir. Gamifikatsiyalangan loyiha bu o'quv jarayonini o'yin elementlari bilan

boyitish orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularni faol va ijodiy ishtirok etishga undashga qaratilgan ta'limiy metod hisoblanadi. Bunda real hayotdagi muammolar asosida yaratilgan ssenariy yoki topshiriq o'yin shaklida taqdim etilib, o'quvchilar "missiya bajarish", "rol o'ynash", "ball to'plash", "darajalarni bosib o'tish" kabi faoliyatlar orqali bilim va ko'nikmalarni egallaydilar.

Ikkinchi metod – "*Raqamli blogger*" deb ataluvchi media savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat shaklidir. Bu usul orqali o'quvchilar Internet tarmog'ida uchraydigan turli axborotlarni tahlil qiladi, yolg'on va haqiqatni farqlash, ishonchli manbalarni tanlash va o'zining raqamli blogini yaratish orqali mustaqil fikr bildirish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Amaliyotda qo'llash. "*Raqamli blogger*" – Media savodxonlik faoliyati.

8-sinf "Internetda axborot izlash" mavzusida o'quvchilarga topshiriq:

"So'nggi iqlim o'zgarishlari haqidagi yangiliklar ichida yolg'on xabarlar aniqlang. Bu haqda blog yozing yoki video tarzida fikrlaringizni ifoda eting."

Yo'riqnoma:

- O'quvchilar Google News yoki Wikipedia orqali ma'lumotlar izlaydi.
- Har bir guruh haqiqat va yolg'on xabarlarini tahlil qiladi.
- Matnli (WordPress, Blogger), vizual (Canva) yoki videoblog (TikTok, YouTube Shorts) ko'rinishida taqdim etadi.
- O'qituvchi tomonidan tahliliy savollar orqali o'quvchilarning fikri chuqurlashtiriladi.

Raqamli savodxon o'quvchi avvalo media savodxon bo'lishi kerak. Tadqiqotchi Shenja Graaf media savodxonlikni "turli kontekstlarda xabarlar olish, tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyati" [6] sifatida izohlaydi.

Uchinchi metod – "*Sun'iy intellekt bilan tanishing*" deb nomlangan interaktiv mashg'ulotlar asosida tashkil etiladi. Bu yondashuvda o'quvchilar sun'iy intellekt elementlari (masalan, tasvirni tanish, tovushni ajratish) bilan bog'liq oddiy modellarni yaratish uchun "Teachable Machine", "Scratch AI" kabi platformalarda ishlaydi. Ushbu faoliyat algoritmik fikrlash, digital tafakkur, muhandislik yondashuvi kabi zamonaviy ko'nikmalarni shakllantiradi va o'quvchilarni sun'iy intellekt muhitiga tayyorlaydi.

Amaliyotda qo'llash. "*Sun'iy intellekt (SI) bilan tanishing*" – SI asosida interaktiv mashg'ulot.

10-sinf "Algoritmlar va ularni dasturlash" mavzusida:

"Teachable Machine platformasida yuzni tanish yoki ovoz ajratish modeli yarating. Modelingiz sizni boshqa sinfdoshlaringizdan ajrata oladimi? Buni amalda ko'rsating va sun'iy intellekt modelingizni boshqalar bilan o'rtqolashing"

Yo'riqnoma:

- Teachable Machine (<https://teachablemachine.withgoogle.com/>) saytiga kiriladi.

- Kamera yoki mikrofon orqali turli sinf a'zolarining namunasi kiritiladi.

- O'quvchilar modelni sinab ko'radi va natijalarni tahlil qiladi.

- AI modeli qanday ishlashi, ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni haqida fikr almashiladi.

Ma'lumotlar bilan to'g'ri va samarali ishlash uchun ma'lumotlar bazasi va kompyuter grafikasi kabi yo'nalishlarda ham muayyan ko'nikmaga ega bo'lishi lozim. Bu o'quvchilarda sun'iy intellekt va uning ishlash faoliyatini yanada yaxshiroq tushunish, undan to'g'ri foydalanish va yaratishda muhim ahamiyatga egadir [4].

To'rtinchi metod – *“Raqamli xavfsizlik questi”* deb nomlangan simulyatsiyalangan o'yinli trening shaklida amalga oshiriladi. Unda o'quvchilarga virtual muammoli vaziyatlar (masalan, fishing xabarlarini, parol buzilishi, noma'lum havolalar orqali zararli fayllarni yuklab olish xavfi) taqdim etiladi va ularni hal qilish orqali o'rgatiladi. Bu metod yordamida raqamli xavfsizlik, onlayn etik muomala, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish kabi muhim ko'nikmalar hayotiy tajriba asosida shakllanadi.

Amaliyotda qo'llash. *“Raqamli xavfsizlik questi”* – Kiberxavfsizlik simulyatsiyasi.

7-9-sinflar *“Axborot xavfsizligi”* mavzusida topshiriq.

*“Sizga notanish elektron pochta keldi. Unda sizga mukofot yutganingiz aytilgan. Siz qanday harakat qilasiz? Qanday ehtiyot choralarini ko'rasiz?”*

Yo'riqnoma:

- O'qituvchi tomonidan ssenariylar beriladi (elektron pochta, parol topish o'yini, fishing havolalar).

- O'quvchilar guruhlarda muhokama qiladi va qarorlar qabul qiladi.

- Google Forms yoki Mentimeter orqali test yoki so'rovnoma tashkil etiladi.

- O'qituvchi boshchiligida guruhlar bilan birga har bir ssenariy yakunida to'g'ri va noto'g'ri harakatlar tahlil qilinadi.

Simulyatsiyalangan o'yinli trening bu o'quvchilarga yoki ishtirokchilarga real hayotdagi vaziyatlarni modellashtirish orqali muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish va kasbiy yoki hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan o'yin elementlari asosida tashkil etilgan mashg'ulotdir.

Ta'kidlash lozimki, yuqorida keltirilgan metodlar zamonaviy raqamli pedagogika talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ular o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishga tayyorligi, ijodiy fikrlashi va zamonaviy texnologiyalarni ongli, maqsadli qo'llay olish xususan 4K (4K kompetensiyalari (4K competencies) – bu kreativlik (creativity), kritik

fikrlash (critical thinking), kommunikatsiya (communication) va kooperatsiyani (collaboration) o'z ichiga olgan XXI asrda zarur bo'lgan muhim ko'nikmalar majmuasidir) ko'nikmalarini [7] rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuvlar raqamli savodxonlikni nazariy emas, balki amaliy faoliyat orqali o'rgatishga yo'naltirilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishda maktablarda "Raqamli savodxonlik haftaligi" tashkil qilish, Informatika va axborot texnologiyalari fani orqali raqamli texnologiyalardan amaliy foydalanish, ota-onalar uchun ham raqamli savodxonlik seminarlarini o'tkazish (elektron jurnal, axborot tizimlarida farzandlarini natijalarini kuzatib borishda) tadbirlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishda axborotni izlash, tahlil qilish va raqamli savodxonlik muhim o'rin tutadi. Zamonaviy axborot manbalaridan foydalana olish, ma'lumot izlash strategiyalarini bilish o'quvchilarning mustaqil o'rganish qobiliyatini oshiradi. Topilgan axborotni tahlil qilish, uning ishonchligini baholash va xulosalar chiqarish esa tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Shu bilan birga, raqamli savodxonlikni rivojlantirish orqali o'quvchilar raqamli qurilmalardan to'g'ri foydalanish, internet xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash kabi zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Bu jarayonlar ularning hayotga tayyor, bilimli va zamonaviy texnologiyalarni samarali qo'llay oladigan shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, "Informatika va axborot texnologiyalari" fani faqat dasturlash yoki texnik vositalarni o'rgatish bilan cheklanib qolmaydi, balki o'quvchilarda raqamli tafakkur, raqamli madaniyat va texnologik savodxonlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Yuqoridagi innovatsion usullar ushbu fanning mazmunini zamonaviylashtirish, o'quvchilarning darsdagi ishtirokini faollashtirish va ularning real hayot bilan bog'liq raqamli ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumanazarov S.S. Ta'limda raqamli texnologiyalar. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: 2023. – 46 b.
2. Fayziyeva M.R., Normatov S.A. Raqamli texnologiyalari va sun'iy intellekt. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2024.
3. Eshqobilov S.Q. O'quv-tarbiyaviy ishlarni boshqarishda axborot tizimlaridan foydalanish. Metodik qo'llanma – Toshkent: A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti, 2022. – 74 b.
4. Normatov S.A. Ta'limda sun'iy intellekt elementlari va xususiyatlari // Inter education & global study. 2024. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-limda-sun-iy-intellekt-elementlari-va-xususiyatlari> (дата обращения: 11.12.2024).
5. Lankshear C., & Knobel M. (2008). Digital Literacies-Concepts. Policies and Practices.
6. Van der Graaf S., & Veeckman C. (2009). *Media Literacy*. [ResearchGate].
7. Abdelrahman M., et al. Acquiring basic and advanced laparoscopic skills in novices using two-dimensional (2D), three-dimensional (3D) and ultra-high definition (4K) vision systems: a randomized control study. *International Journal of Surgery* 53 (2018): 333-338.

---

## ILM-U FAN YUTUQLARI – INSONLAR TURMUSH TARZINI YAXSHILASHNING YAGONA YO'LI

---

### Аннотация.

Maktab ta'limi rivojlanishining hozirgi bosqichi uning mazmunini aniqlashga yondashuvlarni sifat jihatidan o'zgartirishni nazarda tutadi. Bu o'quvchi shaxsini rivojlantirish g'oyasiga asoslangan umumiy o'rta ta'limning yangi kontseptsiyasining shakllanishi bilan bog'liq. Bu o'quv jarayoniga pedagogik yondashuvlarning tubdan o'zgarishini anglatadi, bunda bilimlar shaxsni rivojlantirish mexanizmlari uni o'zlashtirish jarayoniga kiritilgandagina to'liq bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda XXI asr kompetensiyalaridan mustaqil va mantiqiy tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatiga ega, o'rnatilgan fikr va mulohazalarni shubha ostiga qo'yishga qodir, suhbat va munozara o'tkazish, muammoning mohiyatini va uni hal qilishning muqobil usullarini aniqlash, haqiqatni taxmin va shaxsiy fikrdan ajrata oladigan shaxs, mehnatda raqobatbardosh va talabga ega – bozor talabi.

### А н н о т а ц и я .

Современный этап развития школьного образования предполагает качественное изменение подходов к определению его содержания. Это связано с формированием новой концепции народного образования, основанной на идее развития личности учащегося. Это означает кардинальное изменение педагогических подходов к учебному процессу, при котором знания становятся полноценными только тогда, когда механизмы развития личности включены в процесс их усвоения.

Сегодня, в XXI веке, востребованы компетенции, включающие независимое, логическое, критическое и креативное мышление. Личность должна уметь подвергать сомнению устоявшиеся взгляды и убеждения, вести дискуссию и дебаты, выявлять суть проблемы и находить альтернативные способы ее решения, а также отличать истину от предположений и личного мнения. Человек, обладающий этими качествами, будет конкурентоспособен и востребован на рынке труда.

### Annotation.

The current stage of school education development involves a qualitative change in approaches to defining its content. This is related to the formation of a new concept of public education based on the idea of developing the student's personality. This requires a fundamental transformation of pedagogical approaches to the learning process, where knowledge becomes complete only when mechanisms for personality development are integrated into the process of its assimilation.

Today, 21st-century competencies require independent, logical, critical, and creative thinking skills. A person must be able to question established beliefs and opinions, engage in discussions and debates, analyze the essence of a problem and identify alternative solutions, as well as distinguish truth from assumption and personal opinion. A person who possesses these qualities will be competitive and in demand in the labor market.

### Kalits o'zlar:

zamonaviy ta'lim, shaxsiy ko'nikmalar, lider, korsatkichlar, kompetensiyalar.

### Ключевые слова:

современное образование, личные навыки, лидер, показатели, компетенции.

### Key words:

modern education, personal skills, leader, indicators, competencies.

## KIRISH

Bizning oldimizga qo'yg'an maqsadlarimizdan biri bu ta'lim beruvchilarning fikrlashini kengaytirish, ulardagi XXI asr ko'nikmalarini o'rgatishdan iboratdir. O'qituvchilar ta'lim mazmunidagi yangiliklardan qo'rqmasligi kerak. Jorjiya Universiteti (AQSh) assistenti Doktor Devid L.Kioza aytganidek: "5-10 yil oldin biz o'qituvchilarning vazifasini faqat bilim va ko'nikmalarni tarqatish deb o'ylardik, bugun esa ularning zimmasiga nafaqat bilim berish, balkim ularni shaxs sifatida hayotga har tomonlama shakllantirish ham yuklatilgan. Agar o'quvchilarning ijtimoiy emotsional tuyg'ularini hisobga olmasangiz, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishning ahamiyati bo'lmaydi<sup>1</sup>". Hozirda yangi o'quv dasturlari asosida yaratilayotgan darsliklarni ham o'rgatishda bu fazilatlar o'ta muhim. Biz XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishimizda, asosan, 20 ta aniq hayotiy ko'nikmani o'quvchiga singdirishimiz lozim. Bularga vatanparvarlik, moliyaviy savodxonlik, milliy qadriyatlarga sadoqat, faol fuqarolik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, tanqidiy mulohaza, fikrlash, muloqat qilish, IT, mediasavodxonlik, jamoada ishlash, hayot xavfsizligi, bag'rikenglik, xayrixohlik, tadbirkorlik, mehnatsevarlik, liderlik, ekologik madaniyat ko'nikmalarining ichida biz aytgan ijodkorlik va tanqidiy fikrlash eng muhimlari hisoblanadi. Jahon bozoridagi mehnat bozoriga biz tayyorlagan o'quvchilar, albatta, shunday sifatlar va ko'nikmalarni o'zida shakllangan bo'lishi kerak. O'quvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanadi. *"Ijod - o'z-o'zini kuchaytirish demakdir"* nomli asari (K.Rodgers) da ijodiy shaxs uchun quyidagi eng asosiy ta'rif beriladi: Shunday qilib kreativlik o'quvchilarning ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishida ko'rinadi hamda uni o'zini faolligi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o'sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi.

Odamlarning turmush tarzini yaxshilashning yagona yo'li ilm-u fanning eng so'nggi yutuqlarini ishlab chiqarishni joriy qilishdir. Shundagina mehnat unumdorligining, ya'ni kishi boshiga ishlab chiqariladigan mahsulotlarning hajmi ortadi. Bu esa daromadlarning ortishiga olib keladi. Davlat budjetiga qo'shimcha mablag' tushib ijtimoiy sohaga – ta'limga, ilm-u fanning rivojlanishiga ko'proq mablag' ajratilishiga imkon tug'iladi. Barcha rivojlangan mamlakatlar aynan shu yo'sinda ish tutishgan. Buyuk bobomiz Imom al-Buxoriy iboralari bilan aytganda: "Ilmdan o'zga najot yo'q va bo'lmagay". Fan va texnikaning jadal taraqqiyoti ishlab chiqarishning yangi yo'nalishlarini va bu yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatuvchi malakali mutaxassislarni tayyorlashni ham taqozo etadi. Ularni tayyorlash va qayta tayyorlash ulkan mablag'lar sarflanishiga olib keladi. Ushbu vaziyatda sarflanadigan mablag'ni kamaytirish, umuman olganda esa yangi sohalar

---

<sup>1</sup> Devid L. Chiesa. Applied Linguistics. T.:Georgea state university. 2008-y. B35.

ehtiyojini qondira oladigan mutaxassislar tayyorlashning boshqa yo'li bormi, degan savol tug'iladi. Bor, agar mutaxassisning o'zi yangi texnologiyalarni yaratsa, bu muammoning eng maqbul yechimi bo'ladi. Buning uchun ular quyida berilgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak: ulkan ma'lumotlar oqimidan eng dolzarblarini ajrata bilish va unga aloqador bilimlarni egallash; egallagan bilimlariga tayanib eng muhim muammolarni ajrata bilish; mavjud bilimlarini yangi vaziyatda qo'llay olish; muammolarning yechimlarini topib, ularni ishlab chiqarishga tatbiq eta olishlari kerak. Bunday talablarga javob beradiganlar "ijodiy fikrlovchi" mutaxassis deyiladi.

Ijodiy fikrlovchi mutaxassislar faqat ishlab chiqarish texnologiyalarining doimiy ravishda yangilanib turishiga tayyor turmasdan, balki vujudga keladigan muammolarni aniqlab, ularni yechishdan ruhiy qoniqish ham oladilar. Inson faoliyatining barcha sohalarida, xoh u ishlab chiqarish bo'lsin, xoh madaniyat va san'at, xoh ilmiy yoki pedagogik faoliyat bo'lsin "ijodiy faoliyat" yuqori baholanadi va rag'batlantiriladi. Chunki u har qanday faoliyat samaradorligining ortishiga olib keladi. Shuning uchun ham "ijodiy faoliyat" bilan shug'ullanuvchi, ya'ni "ijodiy fikrlash" ko'nikmalariga ega mutaxassislar doimo yuqori baholanib kelingan. Hozirgi paytda esa ularning "bahosi" yanada ortmoqda. "Ijodiy fikrlash"ni o'rgatish esa ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. "Ijodiy fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ta'lim jarayonini tashkil etish prinsiplariga ham o'zgartirishlar kiritish kerak. Endi ta'lim beruvchi faqat ma'lumotlar berish bilan shug'ullanib qolmasdan o'quvchilarga "ijodiy fikrlash" usullarini o'rgata olishi, o'zi ham "ijodiy fikrlash" ko'nikmalariga, ta'lim oluvchi esa "ijodiy fikrlash" usullarini o'rganishga tayyor, tegishli motivatsiyaga ega bo'lishlari lozim. Bularning hammasi ta'limga yangi didaktik tizim - "ijodiy fikrlashni shakllantirish pedagogik texnologiyalari", ya'ni ta'limning yangi uslublarini joriy qilishni taqozo etadi.

O'quv rejaları yangi bilimlarni hisobga oladigan, ta'lim tizimi esa o'zgarib turadigan ehtiyojlarga moslashadigan bo'lishi kerak. Bu tizimning asosini o'quvchilarga o'qish, yozish, suzish, velosipedda uchishni o'rgatishda foydalaniladigan usullar kabi, "ijodiy fikrlash"ni o'rgatish usullari tashkil qiladi. Bu usullarni bolalarda "ijodiy fikrlash"ni shakllantirish mumkin bo'lgan besh yoshdan boshlab, to umrining oxirigacha qo'llash mumkin. Shunday qilib, "ijodiy fikrlashni shakllantirish pedagogik texnologiyalari" didaktik tizimining asosiy elementlari, jumladan: ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi, ta'lim maqsadi va mazmuni, kutilayotgan natijalar haqida muayyan tasavvurlarga ega bo'ldik. Lekin ta'lim tizimining eng asosiy elementi "ta'lim metodlari"ga to'xtalmadik. Hozirgi ta'lim tizimining eng katta kamchiligi ham aynan shu sohadagi oqsoqlikdir. Qilinadigan harakatlar boshqa mamlakatlardagi ta'lim

elementlarini ko‘r-ko‘rona ko‘chirish, o‘quvchilardagi psixofiziologik holatlarni e‘tiborga olmaslik oqibatida kutilmagan natijalar bermoqda.

Inson fikr yuritadi va fikrning kuchi inson dunyoqarashining mevasi. Fikr – energiyaning universal shakli. U yaratuvchi ham, vayron qiluvchi ham bo‘lishi mumkin. Fikr moddiy olamda moddiylashadi, ya‘ni yuzaga chiqadi. “Fikrlash” – biror muammo haqida muayyan xulosaga kelish maqsadida mulohaza yuritmoq yoki o‘ylamoqdan iborat bo‘lgan psixologik jarayondir. Eramizdan 400-300 yil oldin yashagan fikrlash asoschilari Suqrot, Platon va Aristotellardan quyidagi – analiz, mulohaza yuritish va tanqiddan iborat analitik fikrlash tizimi qolgan. Analitik fikrlashni o‘rganishning eng maqbul usullari – matematik, fizik masalalar, krossvordlar, rebuslarni yechish, ba‘zi kompyuter o‘yinlari bilan shug‘ullanish, badiiy adabiyotlar o‘qish, detektiv adabiyotlarni o‘qiganda va detektiv filmlarini ko‘rganda o‘zini izquvar o‘rniga qo‘yib, mulohazalar yuritish va hokazolardir. Shuningdek, Suqroti hakimdan tanqidiy fikrlash haqida ham fikrlarini keltirgan. U o‘z mulohazalarida nima noto‘g‘riligini ko‘rsatishga uringan. “Agar sho‘rvaning ko‘pigi olib tashlansa, u toza bo‘ladi” qabilida ish tutgan. Boshqacha aytganda, barcha noto‘g‘rilar olib tashlansa to‘g‘ri, ya‘ni haqiqat qoladi deb hisoblagan. Lekin ko‘pik bilan birga yana allaqancha “mahsulotlar” tashlanayotganligiga e‘tibor bermagan. Suqrot yangi g‘oyani taklif qilishdan ko‘ra nima “yomonligini” ko‘rsatishni muhim deb bilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. – T.: O‘qituvchi, 2019.
2. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. – T.: Fan, 2017.
3. Xaydarov M. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning mehnat tarbiyasida xalq an‘analaridan foydalanish. – T.: Yozuvchi, 2015.
4. Zair-Bek S.I. Sinfda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari uchun qo‘llanma/S.I.Zair-Bek, I.V.Mushtavinskaya. - 2-nashr, – M.: Ta‘lim, 2011.
5. <https://infourok.ru/metodicheskoe-posobie-ispolzovanie-priemov-razvitiya-kriticheskogo-mishleniya-kak-sredstvo-formirovaniya-obschih-kompetency-zna-1462755.html>.

---

## **МАКТАБ ТА’ЛИМИНИ HAYOTGA MOSLASHTIRISH MEXANIZMI**

---

### **Annotatsiya.**

Shiddat bilan rivojlanayotgan davrda maktab ta’limida innovatsion jarayonlarni tashkil etish suv va havodek zarur. Maktabdagi ta’lim sifatini oshiradigan va unga ta’sir etadigan kuch bu o’qituvchining bilimi, saviyasi va dars o’tish metodi. “Maktabda o’qitish metodikasi o’zgarmasa ta’lim sifati, mazmuni ham o’zgarmaydi” – Sh.M.Mirziyoyev. Xuddi shunga mos ravishda zamonaviy pedagog yangicha metodlar bilan qurollangan bo’lishi, o’quvchining ta’limni qulay qabul qila olishi uchun metodlar o’rinli ravishda foydalana bilishi darkor. Insoniyat uchun yangiliklar doim qiziqishlarning ortishiga sabab bo’lib kelgan Innovatsion jarayon o’qituvchi hamda o’quvchi faoliyatiga yangilik, o’zgarishlar kiritish bo’lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv usullardan to’liq foydalaniladi. Bu usullarning o’ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o’quvchilarning birgalikda faoliyat ko’rsatishi orqali amalga oshiriladi.

### **А н н о т а ц и я .**

В стремительно развивающуюся эпоху организация инновационных процессов в школьном образовании необходима как вода и воздух. Силой, повышающей и влияющей на качество образования в школе, являются знания учителя, его уровень и методы преподавания. «Если методика преподавания в школах не изменится, качество и содержание образования также не изменятся» – Ш.М.Мирзиёев. Соответственно, современный учитель должен быть вооружен новыми методами и уметь правильно их применять, чтобы его ученики могли комфортно получать образование. Инновации всегда были источником интереса для человечества. Инновационный процесс заключается во внедрении новшеств и изменений в деятельность преподавателей и студентов, при этом в основном максимально используются интерактивные методы. Уникальность этих методов в том, что они реализуются только посредством совместной работы преподавателя и студентов. Материально-техническая база и ресурсы школы: Наличие необходимых ресурсов для образовательного процесса, современных учебных пособий и учебников оказывает существенное влияние на эффективность обучения учащихся.

### **Annotation.**

In a rapidly developing era, the organization of innovative processes in school education is as necessary as water and air. The force that increases and influences the quality of education in schools is the knowledge, level and teaching methods of the teacher. “If the teaching methodology in schools does not change, the quality and content of education will not change either” - Sh.M.Mirziyoyev. Accordingly, a modern teacher must be armed with new methods and be able to use them appropriately so that his students can comfortably perceive education. Innovations have always been a cause of increased interest for humanity. The innovative process is the introduction of innovations and changes in the activities of teachers and students, and interactive methods are mainly used to its full extent. The uniqueness of these methods is that they are implemented only through the joint work of teachers and students. School facilities and resources: The availability of the necessary resources for the educational process, modern educational devices and teaching aids has a significant impact on the effectiveness of students' learning.

### **Kalits o`zlar:**

zamonaviy ta’lim, shaxsiy ko’nikmalar, lider, korsatkichlar, kompetensiyalar.

### **К л ю ч е в ы е с л о в а :**

управление, учитель, ученик, творческое мышление, дошкольный период, школьный период, высшее учебное заведение, семья, соседство, сотрудничество.

### **Key words:**

management, teacher, student, creative thinking, preschool period, school period, higher education institution, family, neighborhood, cooperation..

## KIRISH

### Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi

*Sh.M.Mirziyoyev*

Tezkor rivojlanayotgan zamonda barcha sohalarda rivojlanish bo'yicha mutaxassisleri tomonidan ishlar ketayotganligi singari, ta'lim sohasida ham keskin o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktab ta'limi undagi boshqaruv tizimi va sifatli ta'limni ta'minlash mexanizmini takomillashtirish dolzarb masaladir. Inson umrining eng ko'p ta'lim olish davrini tashkil qiluvchi bu maktab davridir. Mustahkam xotiraning, hayotiy qiziqishning, kelajak kasbining shakllanadigan ushbu 11 yillik davr besamar emas, balki ijobiy natija va ko'rsatkichlar bilan yakunlanishi muhim. Lekin doim ham qo'yilgan reja va maqsadga erishilmaslik holatlari kuzatiladi. Rivojlanishdagi to'siqlarni bartaraf etish uchun "maktab + oila + mahalla" hamkorligini doimiy ravishda ish olib borish zarur. Ko'pgina hollarda o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishdagi salbiy o'zgarishlar sababi mas'ullar bir-birlarini aybdor deb bilishadi, bu esa muammo yechimini qiyinlashtiradi. Shunday ekan, bolaning tarbiyasiga va ta'limga mas'ullar avval, o'zlari yuqori bilim salohiyatga ega bo'lishlari, tinimsiz o'z ustida ishlashlari, ushbu uchlik uzluksiz ravishda mavjud bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha o'zaro uzviy munosabat o'rnatishlari muhim.

Yosh avlodning tarbiya va ta'lim olishning ilk davri avval, oila (otona), so'ng maktabgacha (bog'cha) davriga to'g'ri keladi. Afsuski, ko'pgina holatlarda eng fundamental davr e'tiborsiz o'tkazib yuboriladi. Vaholanki, bugungi kunda bu tizimda yurtimizda barcha ishlar amalga oshirilmoqda imkoniyat va sharoitlar yaratib kelinmoqda. Bunga quyidagi huquqiy asosni misol keltirish mumkin.

Maktab ta'limini sifatli tashkil etishda boshqaruvning o'rni va roli muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab direktori, uning ta'limiy yo'nalishidagi o'quv ishlari bo'yicha, tarbiyaviy jihatdan ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha, shart-sharoitlar bilan ta'minlash yuzasidan xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari mavjud bo'lib, bu to'rtlik maktabni to'rt tomondan mustahkam boshqarib, shaxsiy namuna bo'lib, mas'uliyatni his etib o'z ishiga tanqidiy yondashgan holda tizimli boshqaruv jarayonlarini tashkil qilishi zarur. Har biri uzoq muddatli va kafolatlangan boshqaruv strategiyasiga ega bo'lib, unda maktabning mavjud imkoniyatlari, shart-sharoitlarini yanada yaxshilash, pedagoglarning salohiyati va metodikalarini takomillashtirish, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari oila va mahallaning maktab faoliyatidagi o'rnini belgilovchi jihatlarga e'tibor bergan holda tuzilishi tavsiya etiladi.

Boshqaruvda maktab rahbari bilan parallel ravishda maktabning quyi rahbarlari ya'ni MMIBDO', O'IBDO', XIBDO', uslub birlashma rahbarlari, sinf rahbarlari, to'garak rahbarlarida liderlik ko'nikmasini shakllantirishga

erishilsa har bir rahbar o'z ortidagi o'rganuvchini qo'yilgan maqsad tomon ergashtira olish qobiliyatiga ega bolsa, liderlik maqomiga ega bo'ladi. Rahbariyatning va jamoaning har bir a'zosi belgilangan malaka tavsiflari asosida ish faoliyatini tashkil etishi, bitta maqsad tomon yo'nalishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarni boshlang'ich sinf davridanoq mustaqil, mantiqiy, tanqidiy, kreativ fikrlashga o'rganishiga erishish, bugungi kunning ahamiyatli masalasidir. Pedagog darslar va to'garaklarda faqat darsliklar bilan cheklanib qolmasdan, balki sinfxonaga innovatsion muhitni olib kira olishi, ko'rgazma va tarqatma materiallardan, kompyuter saviyasidan o'rinli foydalanishi zarur bo'ladi. Noodatiy fikrlashga o'rgatish barobarida o'quvchilarni o'zlari tomonidan ham mustaqil ravishda darsga ijodkorona yondashgan holda topshiriqlarni tayyorlay olish ko'nikmasini shakllantirish ijobiy natija beradi.

**Maktabning moddiy-texnika bazasi va resurslari:** o'quv jarayoni uchun zarur resurslar, zamonaviy o'quv qurilmalari va o'quv qo'llanmalari mavjudligi o'quvchilarning o'qish samaradorligiga katta ta'sir qiladi.

**O'qituvchilar malakasi va o'qitish usullari:** O'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi va innovatsion o'qitish metodlaridan foydalanishlari o'quvchilarning bilim olish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Maktab muhiti va o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar:** Maktabdagi o'quv va ijtimoiy muhit hamda o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi.

**Ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki:** Ota-onalarning ta'lim jarayoniga faol jalb etilishi o'quvchilarning o'qish natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo'lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi – loyihaga, loyihani – texnologiyaga aylantirishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Innovatsion faoliyatda ilmiy tasavvurlar akademik ilm mantiqi bo'yicha tug'ilmaydi, balki rivojlanish jarayonining modifikatsiyalari qo'llab quvatlanishi natijasida rivojlanayotgan amaliyot mulohazasidan paydo bo'ladi.

Boshqaruv va ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni o'rganib chiqib, so'nggi yillarda qabul qilingan farmon, qonun, qarorlarning ijrosini ta'minlanishi, amalda tatbiq qilinish jarayonida qo'shimcha taklif, tavsiyalar bo'yicha quyidagicha fikrlar bildirilgan:

Maktab ta'limida o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida innovatsion jarayonlarni hosil qilishdagi muammolarni o'rganish va bartaraf etishga erishish yuzasidan mavjud holatni o'rganish;

Maktablardagi boshqaruv tizimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va innovatsion jarayonlarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalari asosida

ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

Innovatsion jarayonlarni takomillashtirish mezonlariga mos ravishda boshqaruvga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash.

#### **Tavsiya №1.**

Har bir xonadadonda kompyuter va internetlarning kirib borishi maqsadga muvofiq. Prezident va ijod maktablariga tayyorgarlik ko'rib borishi ularning fikrlash darajasini oshiruvchi savollar, xalqaro baholash dasturi asosida tayyorlangan topshiriqlar, xalqaro kangaroo olimpiadalardagi faol ishtiroki ham o'quvchilarni ijodiy fikrlash salohiyatini oshishiga xizmat qiladi.

#### **Tavsiya №2.**

Maktablarda parallel sinflar o'rtasida kichik fan olimpiadalarining "OLIMPIADA KIDS" tashkil etilishi, g'olib o'quvchilar bilan tumandagi maktablar bilan bellashish imkoniyatining mavjudligi. G'olib bo'lgan va a'lochi o'quvchilarning natijalari ularning ota-onalari ish joylari va mahalla idoralariga online yoki an'anaviy tartib ma'lum qilinishi ta'lim tashkiloti bilan mahallaa, ota-ona hamkorligini uzviy bog'laydi. Huddi shu tartibda bilimlarni o'zlashtirish jayoni salbiy tomonga o'zgarayotgan o'quvchilar haqida ham ma'lumotlarni o'z vaqtida ota-onaning ish joylarigacha yetib boruvchi elektron tizimning yaratilishi e.maktab elektron jurnal platformasiga ota-onaning yahash va ish joy manzillarining kiritilishi mumkin. Natijada, farzandida kuzatilayotgan ta'limiy va tarbiyaviy o'zgarishlar haqida axborotga ega bo'lib boradi. Yuqori natijaga ega bo'lgan o'quvchilarning ota-onalariga to'g'ridan to'g'ri "Minnatdorchiilik xat"lari yuborish imkoni amalga oshirilsa;

Maktabda sinflar kesimida o'zlashtirish ko'rsatkichining yuqori 10% gacha bo'lgan o'quvchilarning ota-onasining ish joyi yoki xonadoniga rag'bat va o'zlashtirish ko'rsatkichi past bo'lganlariga esa jarima tartibining joriy etishni tavsiya etaman;

7-9 sinflar oralig'ida kelajak kasblarga yo'naltirish bo'yicha ishlarni yo'lga qo'yish, ya'ni poltexnikumlar va tadbirkorlar bilan hamkorlik shartnomalari asosida o'qish jarayonini amaliyot bilan uyg'un holda tashkil etish; 10-11-sinf o'quvchilarining ota-onalari, maktab, oliy ta'lim tashkiloti bilan uch tomonlama hamkorlik shartnomalari asosida maktab ta'limini tashkil etish. 10-sinfda o'quvchining tanlagan universitet va yo'nalishlariga mos asosiy fanlarni o'qitish. Har yili maktablarda faqat bir nafar 10-sinf tashkil qilinib, bu sinfga o'quvchilarni asosiy fanlardan imtihon asosida qabul qilish, eng yuqori ball to'plagan o'quvchilar bilan 10-sinfda ta'lim jarayoni davom ettiriladi.

Quyida ballga ega bo'lgan o'quvchilarni esa politexnikumning kasbiy yo'nalishlariga o'zlarining tanlovlari asosida yo'naltiriladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 28-avgust kuni

“Maktablarda ta’lim sifatini oshirish, o’quvchi o’rnini ko’paytirish va o’qituvchilarni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor vazifalar” yuzasidan o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida quyidagi fikrlar aytib o’tilgan:

“Yuqori sinfda o’qitiladigan fanlar 16 tadan 11 taga qisqaradi. Bunda, 10-,11-sinf o’quvchilariga “kimyo-biologiya”, “matematika-fizika”, “matematika-chet tili”, “ona tili va adabiyot-chet tili” fanlari ularning tanlovi asosida chuqurlashtirib o’qitiladi.

Kasb-hunar egallash istagidagi o’quvchilarga esa, maktabning o’zida tayyor mutaxassis bo’lib yetishish imkoniyati yaratiladi. Kelgusi o’quv yilidan kamida mingta maktab shu tizimga o’tkaziladi.

Darslarning mazmuni ham o’zgaradi. 1-sinfdan kompyuter savodxonligi, yuqori sinflarda moliyaviy savodxonlik darslari joriy etiladi.

Eng muhimi, o’quv dasturlariga qo’shimcha yangi fanlarni kiritish taqiqlanadi. Endi barcha yangi takliflar mavjud fanlarga integratsiya qilinib tayyorlanadi.” – deganlarida naqadar haq edilar yurtboshimiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktab vaqti inson umrining eng ko’p va eng asosiy bilim egallashdagi davri hisoblanadi. Bu davrning har bir bosqichiga alohida ahamiyat qaratilmog’i zarur. Ta’lim jarayonini sifat bosqichga olib chiqishga qaratilgan me’yoriy hujjatlarning o’z o’rnida ta’lim tizimiga tatbiq qilinishi maktab ta’limini hayotilashtirish, kasbiylashtirish, ijodilashtirish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Pedagoglarimizning o’zlari ko’p qirrali qobiliyatlar egasi bo’lgan holda o’quvchilarni qobiliyatlariga mos ravishda yo’naltirish ularni to’g’ri kasb egasi bo’lishiga olib boradi. Bu esa nafaqat ta’limning, balki hayotning ham sifatini ta’minlaydi.

### **Muammo, taklif va tavsiyalar**

1. O’zlashtirish ko’rsatkichi bo’yicha maktablarda bahodan tashqari rag’bat va jazo usulining mavjud emasligi, ya’ni baho o’quvchi uchun doim ham muhim ahamiyat kasb etmaydi.

2. Har bir o’quvchining xonadoniga internet va kompyuterning kirib borishi zaruriy ehtiyojga aylanib bormoqda.

3. Avvalo o’qituvchilarda so’ng o’quvchilarda, oilalarda saviyani oshirish va tanqidiy, ijodiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida kitob o’qish san’atini keng targ’ib qilish. Buning natijasida maktab jamoasida va oilalarda sof va sog’lom muhitga erishish, oliy maqsadga yetishish yo’lida bir jamoa bo’lib birgalikda urinishga o’rganish.

4. O’g’il bola o’quvchilarda muhandislik, tadbirkorlik, o’qituvchilik kasblariga qiziqtirish.

5. Maktab yoshidanoq iqtisodiy bilimlarini boyitish orqali kasbga mehr uyg’otish.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 28-avgust kuni "Maktablarda ta'lim sifatini oshirish, o'quvchi o'rnini ko'paytirish va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor vazifalar" yuzasidan videoselektor yig'ilishi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.07.2024-yildagi PF-98-son "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.09.2024-yildagi O'RQ-957-son Ma'muriy islohotlar doirasida ta'lim sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 27.03.2024-yildagi 157-sonli "Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori.

## STEAM YONDASHUVI ASOSIDA O'QUVCHILARDA HAYOTIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

### Annotatsiya.

Ushbu maqolada STEM yondashuvi, uning o'ziga xos xususiyatlari, an'anaviy ta'limdan farqi, dars jarayonida ushbu yondashuvni to'g'ri qo'llay olish masalalari ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, STEM ta'limining hozirgi yosh avlod uchun afzalliklari va bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda qay darajada foydalanish kerakligi haqida fikr yuritiladi.

### А н н о т а ц и я .

В статье рассматривается технология STEM, ее отличие от традиционного образования, вопросы умения правильно применять данную технологию в процессе урока. В нем также рассматриваются преимущества STEM Education для нынешнего молодого поколения и степень, в которой эта технология должна использоваться в современных условиях.

### Annotation.

The article discusses STEM technology, its difference from traditional education, and the ability to correctly apply this technology during the lesson. It also examines the benefits of STEM Education for the current younger generation and the extent to which this technology should be used in today's environment.

### Kalits o'zlar:

STEAM yondashuvi, an'anaviy ta'lim, tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, dizayn, matematika, nostandart fikrlash, fanlar integratsiyasi, hayotiy ko'nikmalar.

### Ключевые слова:

Технология STEM, традиционное образование, естественные науки, технологии, инженерия, дизайн, математика, нестандартное мышление, интеграция наук, жизненные навыки.

### Key words:

STEAM technology, traditional education, natural sciences, technology, engineering, design, mathematics, non-standard thinking, integration of sciences, life skills.

## KIRISH

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davr dunyo ta'limi oldiga katta vazifalarni qo'yimoqda. Ta'lim oldiga qo'yiladigan asosiy talab ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy barkamol va intellektual salohiyatini sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoga moslashishni o'rgatishdan iboratdir. Shu bilan bir qatorda, ta'lim jarayoniga ta'limning interfaol shakllari va usullarini joriy etish kuchayib bormoqda, bunga sabab shu paytgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, ma'lumotlarni tahlil qilib xulosa chiqarish va shu asosida asosli qarorlar qabul qilishni talab etmoqda.

Xuddi shunday zamonaviy yondoshuvlardan biri STEAM yondashuvidir. STEAM yondashuvi an'anaviy ta'limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni ta'minlab beradi. O'quvchi o'zida nostandart fikrlash, muammoga bir

nechta yechim topish va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida muvaffaqiyat qozonishlariga yordam beradigan muhim hayotiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son qarori bilan tasdiqlangan "2018-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ning II bo'lim, 11-bandida: umumiy o'rta ta'limning yangi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish va shu bilan birga STEM (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) yondashuvini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilab berilgan.

STEAM yondashuvi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilish va badiiy izlanish yotadi. STEAM yondashuvi orqali o'quvchilar amalda egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish, bajarib ko'rish, eng oddiy tajribalarni bajarishni bolalikdan shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bunday izlanish amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, so'ngra ulardan amaliyotda qayta foydalanish, ya'ni o'yinlarda konstruksiyalar tuzish, texnik ijodiyot elementlarini qo'llab, bilim olishga oid tadqiqot ishlarida amalga oshiriladi. STEAM ta'limi o'quvchi yoshlarning rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bog'laydi. Ma'lumki, tabiiy fanlar atrofimizdagi olam bilan bevosita bog'liq, texnologiya kundalik hayotimizda doimiy ravishda qo'llaniladi, muhandislik esa uylar, yo'llar, ko'priklar va mashina mexanizmlarda, san'at har bir yaratilayotgan loyiha dizaynida o'z aksini topgan, biror bir kasb, kundalik mashg'ulotlar matematika fani bilan ham uzviy bog'langandir. STEAM ta'limi asosida yondashuv o'quvchi yoshlarga dunyoni tizimli ravishda o'rganishga, atrofda ro'y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o'zaro aloqani anglab yetishga o'zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni kashf qilishga imkon beradi. Qandaydir yangilikni kutish orqali o'quvchi yoshlarda qiziquvchanlikni rivojlantiradi, o'zi uchun qiziqarli masalani aniqlab olishni, yechimini topishning algoritimini ishlab chiqishni, natijalarni tanqidiy baholashni, fikrlashning muhandislik jihatlarini shakllantirishga olib keladi.

STEAM yondashuvi o'quv samaradorligiga qanday ta'sir qiladi? Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimligidir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ayni bir vaqtning o'zida qo'llarini ham ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari "uqib oladilar". STEAM ta'limi nafaqat o'qitish usuli, balki fikrlash tarzidir. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va

darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib-ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof-muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish yetarli emas. Bizga ma'lumki STEAM yondashuvi bizning ta'lim va ta'limga bo'lgan qarashimizni o'zgartirmoqda. Amaliy qobiliyatga e'tibor berib, o'quvchilar o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar asosiy ta'lim vazifasini tashkil etadi.

Ta'limga ushbu yangi yondashuv qanday paydo bo'ldi? Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir [1].

Tabiiy fan darslarida STEAM yondashuvidan foydalanish bu bolalarning mustaqil va ijodiy fikrlashlarida asosiy tizim hisoblanadi. Bunda matematika, tabiat, kompyuter savodxonligi, texnologiya, muhandislik, san'at kabi fanlarning integratsiyasini ko'rishimiz mumkin. Masalan, berilgan muammoli topshiriq yechimini topish jarayonida bolalar o'sha topshiriqda keltirilgan predmetlar maketini yasashlari, yoki kompyuter grafikasi asosida chizishlari ham mumkin bo'ladi. Bunda esa ularning fikrlash qobiliyatlari rivojlanib boradi. An'anaviy o'qitish uslublari bilan taqqoslaganda, o'rta maktabda STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi [6].<sup>6</sup> Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va kelajakda kasb tanlash jarayonida muhimdir.

STEAM yondashuvi asosida o'rganiladigan barcha bilimlar, jarayonlar zamonaviy hayotimizda o'z aksini topgan. Bu odatdagi ta'limdan farqli o'laroq bilimlarni alohida emas, o'zaro amaliyot bilan bog'liq holda beradi. Bola o'zida nostandart muammolarni yechish, imkoniyatlar yaratish va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantiradi va bu kelgusida uning hayotida juda qo'l keladi. Masalan, 6-sinf tabiiy fan darsligidagi birinchi loyiha ishida o'quvchilarga biosfera maketini yasash topshirig'i berilgan. O'quvchilar topshiriq uchun kerakli bo'lgan ▶ shisha idish, ▶ shag'al, ▶ qum, ▶ tuproq, ▶ bioo'g'it, ▶ sekin o'suvchi o'simliklar ▶ suvpurkagich kabi narsalardan barchasidan foydalanib, biosfera modelini yaratish jarayonida yangi g'oyalar, yangi yondashuvlar asosida bir-birlaridan farqli o'laroq yaratdi. Modelni yaratish jarayonida qaysidir o'quvchi san'at (dizayn)ga, yana biri ekilgan o'simlikning o'sib rivojlanishiga e'tibor qaratsa, yana kimdir faqat sun'iy narsalardan foydalangan.

O'quvchilar kichik biosfera modelini yaratish orqali tabiiy fanlar,

texnologiya, san'at, matematikani uyg'unlashtirib, yasayotgan, yaratayotgan mahsulotining har tomoni, dolzarbligi, tayyorlash loyihasi, chiroyliligi, o'lchamiga alohida e'tibor qaratishgan. STEAM mutaxassislari ushbu jarayonlar, aniqrog'i ushbu fanlardan olgan ko'nikmalari kelajakda o'quvchilarning yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi.

Tabiiy fanlarimizni STEAM yondashuv asosida o'qitish 6-sinf misolida olganda mavzularimizning integratsiyalashgani, bir mavzu ichida tabiiy fanlarning barchasi bog'langani, bolalarning oddiy narsalardan, nafaqat kichik narsalar yaratayotganliklari, balki erkin keng mulohaza qilib muammolarga kreativ yechim bilan yondashayotganliklari, nazariy va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. Umumta'lim maktablari uchun STEAM ta'limini joriy etish (metodik qo'llanma) (7-11 sinflar uchun).
2. Sangirova Z.B., Suyarov K.T., Umaraliyeva M.T., Xasanova S.G', Hasanov D.T., Yuldasheva M.K. "Tabiiy fanlar", 6-sinf darsligi. – Toshkent, 2022.
3. <https://www.arduino.cc/education/how-steam-education-develops-life-skills> How STEAM Education Develops Life Skills
4. [https://www.researchgate.net/profile/Manzura-Abjalova/publication/349608205\\_STEAM\\_ta'lim\\_dasturi/links/603807484585158939cda8eb/STEAM-talim-dasturi.pdf](https://www.researchgate.net/profile/Manzura-Abjalova/publication/349608205_STEAM_ta'lim_dasturi/links/603807484585158939cda8eb/STEAM-talim-dasturi.pdf)
5. Sangirova Z.B. va boshqalar. Umumta'lim maktablari uchun STEAM ta'limini joriy etish. – Toshkent: 2022.
6. Zamonaviy dunyoda tabiiy fanlar: "Zamonaviy va amaliy izlanishlar" nomli ilmiy-amaliy konferensiya, Chilonzor tumani 217-maktab biologiya, kimyo o'qituvchilari.

## KIMYO FANIDAN O'QUVCHILARDA XXI ASR KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAGA ASOSLANGAN TA'LIMNING O'RNI

### Annotatsiya.

Ushbu maqolada maktablarda kimyo darslarini tashkil etishda o'quvchilarda kollaboratsiya ko'nikmalarini shakllantirish, ularni fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish, olgan nazariy bilimlarini kundalik faoliyat bilan bog'lashlari orqali XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish, kimyo darslarida loyihaga asoslangan ta'limning ahamiyati, "Mahalliy manbalardan toza sovun olish" mavzusidagi loyiha ishi va uni amalga oshirish bosqichlari haqida ma'lumotlar berilgan. Bugungi kunda biz o'quvchilarga tayyor bilim emas, balki bilim olishga, uni hayotda qo'llashga o'rgatishimiz zarur. Bu borada loyihaviy ta'lim eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.

### А н н о т а ц и я .

В данной статье представлена информация о значении проектного обучения на уроках химии, значении проектного обучения на уроках химии, формировании у учащихся навыков сотрудничества, повышении их интереса к науке, связи полученных теоретических знаний с повседневной деятельностью, а также об этапах его реализации. Сегодня нам необходимо учить студентов не готовым знаниям, а приобретать знания и применять их в жизни. В этом плане проектное образование является одним из наиболее эффективных инструментов.

### Annotation.

This article provides information on the formation of collaboration skills in students when organizing chemistry lessons in schools, further increasing their interest in science, developing 21st century skills by connecting the theoretical knowledge they have acquired with everyday activities, the importance of project-based learning in chemistry lessons, the clay work on the topic "Producing clean soap from local sources" and the stages of its implementation. Today, we need to teach students not to give ready-made knowledge, but to learn how to apply it in life. In this regard, project-based learning is one of the most effective tools.

### Kalits o'zlar:

XXI asr ko'nikmalari, kollaboratsiya, loyihaga asoslangan ta'lim, sovun olish, kimyo fanidan loyiha ishi.

### Ключевые слова:

навыки XXI века, сотрудничество, проектное обучение, мыловарение, работа над химическими проектами.

### Key words:

21st century skills, collaboration, project-based learning, soap making, chemistry project work.

## KIRISH

Bugungi globallashuv va tezkor texnologik taraqqiyot davrida ta'lim tizimining asosiy maqsadi – shunchaki bilim berish emas, balki o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish, ularni mustaqil fikrlaydigan, muammolarga yechim topa oladigan, ijodiy va hamkorlikda ishlay oladigan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Ayniqsa, tabiiy fanlar, xususan, kimyo fani orqali bu ko'nikmalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada loyihaga asoslangan ta'lim (Project-Based Learning – PBL) zamonaviy yondashuv sifatida ta'lim jarayoniga keng

tatbiq etilmoqda. Loyihaga asoslangan ta'lim - o'quvchilarni real hayotiy muammolarni hal qilishga yo'naltiradigan, chuqur o'rganishga asoslangan, faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim strategiyasidir. U o'quvchilarda quyidagi XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi:

- ✓ Tanqidiy va tizimli fikrlash
- ✓ Hamkorlikda ishlash
- ✓ Raqamli savodxonlik
- ✓ Ijodkorlik va innovatsion yondashuv
- ✓ Mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari

Kimyo fanining o'ziga xosligi – nazariy bilimlar bilan birga amaliyotga yo'naltirilganligi, tabiat hodisalarini tushuntiruvchi tajribalarga boyligi – loyihaviy yondashuv uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Loyihaviy yondashuvni kimyo darslarida samarali amalga oshirish uchun quyidagi bosqichlarga e'tibor qaratish lozim:

I. **Muammoni belgilash:** o'quvchilarga dolzarb, ularni qiziqtiradigan muammo yoki savol taqdim etiladi. Masalan, "Ichimlik suvlari tarkibini qanday aniqlash mumkin?", "Bioplastiklar an'anaviy plastik o'rnini bosa oladimi?" kabi mavzular.

II. **Rejalashtirish:** o'quvchilar guruhlariga bo'linib, tadqiqot rejasi tuzadilar. Har bir a'zo o'z vazifasini aniq oladi.

III. **Amaliy faoliyat:** o'quvchilar tajribalar o'tkazadilar, ma'lumotlar yig'adilar, kuzatuvlar olib boradilar. Bu jarayon ularning ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini shakllantiradi.

IV. **Taqdimot:** har bir guruh o'z loyihasi natijalarini sinfdoshlari va o'qituvchilarga taqdim etadi. Bu orqali o'quvchilarda ommaviy nutq, fikrni aniq ifoda etish, o'z fikrini himoya qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

V. **Refleksiya:** Jarayon tahlil qilinadi, xatoliklar va yutuqlar muhokama qilinadi. Bu bosqichda o'quvchilar o'z-o'zini baholashni o'rganadilar [1].

Loyihani amalga oshirish bosqichlarida o'quvchi va o'qituvchilarning vazifalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan [4].

1-jadval

Bosqichlar	O'qituvchining vazifasi	O'quvchining vazifasi
Tayyorgarlik bosqichi	O'qituvchi shakllantiradi: 1. Muammoni 2. Hodisa syujetini 3. Maqsad va vazifani	o'quvchi amalga oshiradi 1. Muammoni o'zlashtirishni 2. Hodisa ichiga t o'liq kirishni 3. Maqsad va vazifani qabul qilish aniqlashtirishni

<b>Faoliyatni tashkil etish bosqichi</b>	fikrni taklif etadi bajarilish vaqtini belgilaydi	harakat rejasini ishlab chiqishadi vazifani shakllantirishadi
<b>Tadqiqotchilik faoliyati bosqichi</b>	maslahat beradi nazorat qiladi yangi bilimlarni topishga yo'naltiradi	o'quvchilar mustaqil ish olib borishadi maslahat oladi bilimni «talab qilib oladi» taqdimotni tayyorlaydi
<b>Loyiha taqdimoti bosqichi</b>	loyihani qabul qiladi o'qitishning natijasini olib boradi bajara olishlikni baholaydi	muammoni yechimi usulini ko'rsatib beradi; faoliyat refleksiya; o'zaro baho beradi
<b>Loyihani baholash va xulosalar</b>	o'quvchilar harakatini ish sifatini manbaalardan foydalanishni tanlangan mavzu bo'yicha ishni davom ettira olishini	jamoaviy muhokama va o'z-o'zini baholash

Loyiha ishlarini bajarish orqali o'quvchilar quyidagi natijalarga erishadilar[3]:

- ✓ Fanga bo'lgan qiziqish ortadi
- ✓ O'qishda nisbatan yuqori natijalarga erishishadi
- ✓ Ishchanlik va ijodiy faolligi ortadi
- ✓ Mustaqil ravishda muammoni qo'yish va uning yechimini topish qobiliyati ortadi

✓ Keyingi loyihaviy faoliyatni olib borish uchun yo'naltirilgan mavzular soni ortadi

Quyidagi loyiha ishlari kimyo darslarida muvaffaqiyatga erishish, o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirishi, nazariyani amaliyotga, kundalik faoliyatga bog'lashlari uchun imkon yaratadi.

- "Mahalliy manbalardan ekologik toza sovun tayyorlash"
- "Tabiiy indikatorlar yordamida kislota - asos muhitini aniqlash"
- "Qayta ishlash orqali chiqindilardan foydali moddalar olish"
- "Mahsulot yorliqlaridagi tarkibni kimyoviy tahlil qilish"

Bu kabi loyihalar orqali o'quvchilar nafaqat bilim oladilar, balki amaliy tajribaga ega bo'ladilar, ijodkorlik va mas'uliyat hislari ortadi.

**Tadqiqod metodologiyasi.** Yuqorida berilgan "Mahalliy manbalardan

ekologik toza sovun tayyorlash” mavzusidagi loyiha ishini amalga oshirish bosqichlari haqida ko‘rib chiqamiz. Zamonaviy hayotda ekologik muammolar, xususan, kimyoviy vositalarning atrof-muhitga zararli ta‘siri dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois, ekologik toza mahsulotlar, jumladan, sovun ishlab chiqarish ham alohida ahamiyat kasb etmoqda [2]. Ushbu loyiha ishi orqali mahalliy manbalardan foydalanib, tabiiy va ekologik toza sovun tayyorlash bosqichlari o‘rganildi.

**Loyiha ishining maqsadi:** mahalliy, arzon va ekologik xavfsiz xomashyolardan foydalanib, oddiy usulda tabiiy sovun tayyorlashni o‘rganish va amaliyotda qo‘llash,

**Kerakli jihozalar va reaktivlar:**

- ✓ Zaytun yoki kungaboqar yog‘i
- ✓ Hindiston yong‘og‘i yog‘i (ixtiyoriy)
- ✓ Natriy gidroksid (kaustik soda)
- ✓ Distillangan suv
- ✓ Sovun qoliplari
- ✓ Termometr, tarozi
- ✓ Himoya vositalari (qo‘lqop, ko‘zoynak)
- ✓ Hushbo‘y hid beruvchilar va tabiiy bo‘yoqlar (ixtiyoriy)

**Loyiha ishini bajarish tartibi:**

1. *Xavfsizlik choralarini ko‘rish.* Ishni boshlashdan avval himoya qo‘lqoplari, ko‘zoynak va niqob taqiladi. Natriy gidroksid bilan ishlayotganda ehtiyot bo‘lish lozim.

2. *Eritma tayyorlash.* Sovuq suvga kerakli miqdorda natriy gidroksid solinadi (doimo “suvga soda” tamoyiliga amal qilish kerak). Eritma tayyor bo‘lgach, sovushini kutish lozim.

3. *Yog‘larni isitish.* Tanlangan o‘simlik yog‘lari birlashtirilib, 40-45°C haroratgacha qizdiriladi.

4. *Aralashtirish.* Sovugan gidroksid eritmasi sekin-asta yog‘ aralashmasiga quyiladi va blender yoki mikser yordamida aralashtiriladi. Massaning qalinlashishi kuzatiladi. *Qo‘shimchalar qo‘shish.* Agar xohishga ko‘ra, lavanda, yalpiz, apelsin, tabiiy efir moylari yoki bo‘yoqlar qo‘shilishi mumkin.

5. *Qoliplarga quyish.* Tayyor massa sovun qoliplariga quyiladi va 24-48 soat davomida qotishi uchun qoldiriladi.

6. *Pishib yetilish jarayoni.* Sovun qoliplardan chiqarilgach, 3-4 hafta davomida havo o‘tkazadigan joyda quritiladi. Bu vaqt ichida sovun pishadi va ishlatishga tayyor bo‘ladi.

Sovunning hidi, tuzilishi, ko‘piklanishi, teriga ta‘siri tekshiriladi. Laboratoriya sharoitida pH darajasi o‘lchanadi. Tayyor mahsulotdan namunalar tayyorlab maktab, ko‘rgazma yoki mahalliy jamoalarga taqdim qilish mumkin. Ekologik toza mahsulotni ommaga targ‘ib qilish.

Ushbu loyiha orqali o'quvchilar ekologik toza sovun tayyorlash texnologiyasini o'zlashtiradilar. Bu nafaqat kimyo fanidagi amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, balki ekologik ong va sog'lom turmush tarziga oid bilimlarni ham mustahkamlaydi. Kimyo fanidan dars berishda loyihaviy ta'limga asoslangan yondashuv nafaqat o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, balki ularni XXI asr talablariga mos kompetensiyalarga ega shaxs sifatida shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. Alimova F.A., Sodiqova U.B. O'quvchilarda 4K ko'nikmalarini hamkorlikda ishlash texnologiyasidan foydalangan holda shakllantirish. Tabiiy fanlar: yangi yondashuvlar va dolzarb tadqiqotlar xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2-qism, 34-bet, 18-19-oktyabr 2024-yil.
2. Kadirova G.X., Sodiqova U.B. Organik kimyo. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va Innovatsiyalar Vazirligi Guvohnomasi 2024-yil 11-noyabr 429/2/02 buyruq.
3. Ismatov I., Azamatova D., Mo'minjonov M., Muratov M. Organik kimyo darsligi, 10-sinflar uchun. Respublika ta'lim markazi 2022.
4. <https://onlinedu.uz> - Onlayn ta'lim platformasi.
5. <https://ziyonet.uz> - elektron sayti.

## **O'QUVCHILARDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA 4KNI TATBIQ QILISH**

### **Annotatsiya.**

Ushbu maqolada maktab o'quvchilarida fanlarni o'qitishda hayotiy zarur ko'nikmalarni shakllantirib, ularda kelajakda maqsadlarini aniq belgilash haqida ko'rsatma va yo'l yo'riqlari hamda bu borada jahon tajribasidan foydalanish imkoniyatlari haqida so'z boradi.

### **А н н о т а ц и я .**

В данной статье рассматриваются рекомендации и методы формирования у школьников мотивации к изучению предметов, а также помощи в чётком определении их будущих целей. Кроме того, обсуждаются возможности использования мирового опыта в этой сфере.

### **Annotation.**

This article develops vital skills in teaching subjects to pupils and they provide guidance and guidelines for clearly defining future goals, as well as opportunities to use world experience in this regard.

### **Kalits o'zlar:**

inklyuziv ta'lim, raqamli texnologiya, qobiliyat, ko'nikma, kommunikatsiya, maqsad, ma'naviy muhit, o'qituvchi, tarbiya, kasb, 4K.

### **Ключевые слова:**

инклюзивное образование, цифровые технологии, способности, навык, коммуникация, цель, образовательная среда, учитель, воспитание, профессия, 4K.

### **Key words:**

inclusive education, digital technology, ability, skill, communication, goal, spiritual environment, teacher, education, occupation, 4K.

## **KIRISH**

XXI asrning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillaridan biri bu ta'lim hisoblanadi. Fanlarni o'qitishda o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish ularning yetuk mutaxassis bo'lib yetishishida asos va kelajagimiz poydevori hisoblanadi. Ya'ni bugungi ta'lim tizimining muhim xususiyatlaridan biri o'quvchilar olgan bilimlarini kundalik hayotda faollashtirishdan iborat. Kelgusi avlod kelajakda hatto bugungi kunda mavjud bo'lmagan kasblarda ishlaydi. O'quvchilar nimani o'ylashni emas, qanday o'ylashni o'rganishga tayyorlash ta'limning oldida turgan bugungi kun talabidir. Hozirgi boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta'lim olmoqdalar. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri - ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidadir. Ya'ni bu tamoyilda quruq ma'lumotlarni yod olish yoki shunchaki o'qish-yozishni o'rgatish bilan cheklanilmaydi. Chunki o'quvchining ongida axborotlar taassurotlar bilan amaliyotga bog'langan holda amalga oshishi uzoq vaqtli va samarali bilimlarni egallashlariga zamin yaratadi. Shu bilan birga o'quvchilarning xohishi, imkoniyatlari va qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi. Shunday ekan, 4K nimalarni qamrab olishini quyidagi ta'riflardan bilib olasiz.

**Kollaboratsiya:** darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan shaklda tayyorlangan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi. O'z fikrlarini yakka holda bayon qilishga qiynaladigan o'quvchilarga jamoadoshlari bilan, jamoa ishonchidan kuch olgan holda bayon qilish oson va qulay. Jamoa ishonchi orqali o'quvchilardagi yo'qolib ketayotgan qobiliyatlarni asrab qolish mumkin.

**Kommunikativlik:** o'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til va ichki olamini bog'liqlikda ko'rib chiqadi. Insonni o'z-o'zini anglay olishi vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi. Vaziyatning ijtimoiy va psixologik mohiyatini to'g'ri idrok etish va baholashdan iborat.

**Kreativ fikrlash:** o'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Aynan mana shu qismda yangi g'oyalar dunyoga keladi. O'quvchilardagi yangilikka bo'lgan xohishni o'stirish yangiliklarga sabab bo'ladi.

**Kritik (tanqidiy) fikrlash:** ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi. Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda 4Kni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishmoqdalar.

Yangi innovatsion yondashuv natijasini o'quvchining dunyoqarashi, fikrlashini o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchisi portretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

XXI asr yangi texnologiyalar va globalizatsiya davridir. Bu davrda, O'zbekiston yoshlarida zarur ko'nikmalarni shakllantirish va ularga to'g'ri tarbiyalash, ularning mustaqil va muvaffaqiyatli hayotini ta'minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

XXI asr globalizatsiya, texnologiya va innovatsiyalar asri deb nomlanadi. Bu asrda, dunyo o'zgarishlarga doir bo'lib, yangiliklarga tez va samarali moslashish talab qiladi. O'zbekiston yoshlariga esa, bu o'zgarishlarga mos kelish va yangi ko'nikmalar bilan ta'minlash yetarli muhimdir.

1. Texnologik bilimlar va mahoratlar: XXI asrda texnologiyalar hayotning har bir sohasiga kirib kelgan. O'zbekiston yoshlari uchun esa, texnologik bilimlarni egallashi va mahoratga ega bo'lishi muhimdir. Bu, ularga yangi imkoniyatlar ochadi va global bozorlarda rivojlanishlari uchun muhim asosdir. O'zbekistonning ta'lim tizimi bu yo'nalishga ko'proq e'tibor berish va texnologik bilimlarni o'rganishga imkoniyat yaratish lozim.

2. Innovatsion hamkorlik: XXI asrda innovatsiyalar va hamkorlik muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston yoshlari innovatsion yondashuvlar bilan tanishish va hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantirishlari kerak. Bu, ularga yangi ideyalar va yaratuvchilikni rag'batlantiradi, ularni muvaffaqiyatli Start-Uplar yaratishga imkon beradi va iqtisodiy rivojlanishga olib keladi.

3. Kreativlik va tizimlilik: XXI asrning talablari kreativlik va tizimlilik qobiliyatlarini rag'batlantiradi. O'zbekiston yoshlariga shunchaki ma'lumotlarni o'rganishdan ziyodroq, ularni ma'lumotlarni ishlab chiqish, tahlil qilish va muammolarni yechishga odatlantirish kerak. Kreativlik va tizimlilik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun san'at, dizayn, musiqa va boshqa sohalarda hamkorlik qilish muhimdir. Asosiy qism: Ko'nikmalar va O'zbekiston yoshlarini ularga tayyorlash usullari O'zbekiston yoshlarini XXI asr ko'nikmalariga tayyorlash uchun bir nechta usullar mavjud.

4. Texnologik ta'minlash: O'zbekistonning ta'lim tizimi yoshlarni texnologik bilimlarga kirishga tayyorlash uchun yo'l ochishi kerak. Bu texnologiyalar bilan ishlash, kompyuter dasturlash, robototexnika va boshqa sohalarda mahoratlarini rivojlantirishga imkoniyat beradi. Texnologik ta'minlash o'quv yurtlarida va akademik litseylarda mahalliy va xalqaro tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan olib borilishi kerak.

5. Innovatsion markazlar va Start-Uplar: O'zbekiston yoshlarini innovatsiya va startup sohasida rivojlantirish uchun innovatsion markazlar va startup inkubatorlarini o'rnatish muhimdir. Bu markazlar yoshlarga biznes ideyalari, innovatsion loyihalar va boshqa resurslarni taqdim qilish orqali ularga innovatsiyalar sohasida ishlash va muvaffaqiyatli startuplar yaratish imkoniyatlarini beradi.

6. Ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish dasturlari: O'zbekiston yoshlarini XXI asrning ko'nikmalariga tayyorlash uchun ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish dasturlarini o'rnatish muhimdir. Bu dasturlar yoshlarga liderlik qobiliyatlari, jamoada ishlash, ta'lim muassasalarida va tajribaviy o'quv yurtlarida xizmat ko'rsatish, tashabbuskorlik va biznes rivojlanishi bo'yicha

bilimlarni oshirish va shaxsiy rivojlanishni rag'batlantirishga yordam beradi.

7. Tarbiyaviy maslahatlar va mentorlik: Tarbiyaviy maslahatlar va mentorlik O'zbekiston yoshlarini to'g'ri yo'lga qo'yishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston yoshlari, o'zlariga ko'maklashuvchi tarbiyaviy maslahatchilar va mentorlar orqali o'z ko'nikmalari va maqsadlari haqida yaxshi tushuncha oladilar va ularga yordam berishadi. Bu maslahatlar va mentorlik O'zbekiston yoshlarining o'zlarini rivojlantirish va muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi. O'zbekiston yoshlarining muvaffaqiyati kelajakda O'zbekistonning rivojlanishini ta'minlayadi. Yoshlar innovatsiya, biznes va texnologik sohalarda yangi yondashuvlar va yaratuvchilik bilan ishlashga qodir bo'lgan, shuningdek, ijtimoiy muammo va muammosizliklarga yechim topishga yondashadigan yangi ideyalarga ega. O'zbekiston hokimiyati, ta'lim tizimi va ijtimoiy tashkilotlar O'zbekiston yoshlarini yangi ko'nikmalarni egallash va innovatsiya sohasida qo'llab-quvvatlash, ularga eng yaxshi sharoitlarni taqdim etish va ularga o'zlarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratishga intilishadi. Shu bilan birga, O'zbekiston yoshlari o'zlarini o'zgaruvchan dunyoga moslashish, yangiliklarga mos kelish va o'zlarining va mamlakatning rivojlanishiga hissa qo'shishlari mumkin bo'ladi.

Yakuniy qilib aytish mumkinki, O'zbekiston yoshlariga XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari juda katta. Ularning texnologik bilimlar, innovatsiya, kreativlik va tizimlilik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mos muhit va yordam beruvchilar tayyor tartibda taqdim etilishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/20/sifatli-talim/>
2. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>.
3. Eickelmann B., Vennemann M. Teachers'attitudes and beliefs regarding ICT in teaching and learning in European countries. *European Educational Research Journal* 16(6), 733-761 (2017)
4. Petko D., Prasse D., Cantieni A. The Interplay of School Readiness and Teacher Readiness for Educational Technology Integration: A Structural Equation Model. *Computers in the Schools* 35(1), 1-18 (2018).
5. Powers S., Mehlinger H. Guiding Principles for Technology and Teacher Education. In: Willis, D., Price, J., Davis, N. (eds.) *Proceedings of SITE 2002 - Society for Information Technology & Teacher Education International Conference*, pp. 1414-1417. Association for the Advancement of Computing in Education (AACE), Nashville, Tennessee, USA (2002);
6. Rosicka C. Translating STEM education research into practice. Australian Council for Educational Research, Camberwell, Victoria, Australia (2016).
7. Romeo G., Lloyd M., Downes T. Teaching Teachers for the Future (TTF): Building the ICT in education capacity of the next generation of teachers in Australia. *Australasian Journal of Educational Technology* 28, 949-964 (2012).
8. Po'latov Sh.N. Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma'rifatga qo'shgan xissasi // "Science and Education" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
9. Po'latov Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari // "Science and Education" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.

**Rajabov Sherzod**  
Umurzoqovich

*A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Pedagogik  
innovatsiyalar bo'yicha prorektor*

## ILMIY VA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHDA RAHBARNING ROLI

### Annotatsiya.

Maqolada ta'lim tashkiloti pedagogik innovatsiyalar bo'yicha rahbarining ilmiy va innovatsion faoliyatini rivojlantirish masalalari o'rganilgan bo'lib, unda rahbarning ilmiy va innovatsion faoliyatini rivojlantirishi ta'lim tizimining samarali faoliyatini ta'minlashdagi ahamiyati, rahbarning shu yo'nalishdagi ishlarni tashkil etish usullari taklif qilinadi.

### А н н о т а ц и я .

В статье рассматриваются вопросы развития научно-инновационной деятельности руководителя образовательной организации в сфере педагогических инноваций. Обосновывается важность развития научно-инновационной деятельности руководителя в обеспечении эффективного функционирования системы образования, организации работы руководителя в этом направлении.

### Annotation.

The article examines the development of scientific and innovative activities of the head of an educational organization in the field of pedagogical innovations. The importance of developing scientific and innovative activities of the head in ensuring the effective functioning of the education system, organizing the work of the head in this direction is substantiated.

### Kalits o'zlar:

ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, muassasaning ilmiy va innovatsion faoliyatini strategik rejalashtirish, jamoa a'zolarini motivatsiya qilish va rag'batlantirish, innovatsion muhit yaratish va boshqarish, ilmiy loyihalar, ilmiy konferensiyalar, tashkiliy boshqaruv, hamkorlik va aloqalarni rivojlantirish.

### Ключевые слова:

развитие научной и инновационной деятельности, стратегическое планирование научной и инновационной деятельности учреждения, мотивация и стимулирование членов коллектива, создание и управление инновационной средой, научные проекты, научные конференции, организационное управление, развитие сотрудничества и контактов.

### Key words:

development of scientific and innovative activities, strategic planning of scientific and innovative activities of the institution, motivation and stimulation of team members, creation and management of an innovative environment, scientific projects, scientific conferences, organizational management, development of cooperation and contacts.

## KIRISH

Globalashuv jarayonida respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish, ilm-fan va ilmiy faoliyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va natijadorligini oshirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunday bo'lsa-da, mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar ilm-fan va innovatsiya sohasida davlat boshqaruvi mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini shakllantirishda shaffoflikni oshirish hamda iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda ilm-fan yutuqlari, innovatsion texnologiyalarni joriy etish

ishlarini jadallashtirish lozimligini ko'rsatmoqda.

2018-yilda Prezidentimiz tomonidan davlat boshqaruv va ijrochi organlari hamda tashkilotlarning innovatsion rivojlanishdagi sa'y-harakatlarini birlashtirishga qaratilgan muhim hujjat – “2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon bilan O'zbekiston Respublikasini 2019-2021-yillarda innovatsion rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. Strategiyaning bosh maqsadi etib inson kapitalini rivojlantirish belgilandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son Farmoni hamda “Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2021-yil 1-aprel PQ-5047-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-avgustdagi 545-sonI “Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi” qarorining ijrosini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Bu esa, Respublikada so'nggi yillarda innovatsion faoliyat borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida O'zbekiston 2020-yilda Global innovatsion indeksi xalqaro reytingiga besh yillik tanaffusdan so'ng, 2015-yilga nisbatan 29-pog'onaga ko'tarilgan holda qayta kiritildi.

Bugungi kunda butun dunyoda ilmiy va innovatsion faoliyat iqtisodiyotni rivojlantirish katalizatori va jamiyatni harakatlantiruvchi kuchga aylanmoqda. Ilmiy va innovatsion faoliyat nima?

*Ilmiy va innovatsion faoliyat* – bu yangi bilimlarni yaratish, ularni amaliyotda qo'llash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shish jarayonidir. Bunday faoliyatning samaradorligi ko'p jihatdan rahbarning rolga bog'liq. Rahbarlar, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, innovatsion loyihalarni rivojlantirish va jamoa a'zolarini rag'batlantirish orqali ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda rahbar quyidagi jihatlarga diqqat qaratishi lozim:

**1. Muassasaning ilmiy va innovatsion faoliyatini strategik rejalashtirish.** Rahbar ilmiy innovatsion faoliyatni rivojlantirishda strategik rejalashtirishni amalga oshirish uchun mas'ul. U ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyihalar uchun aniq maqsadlar belgilab, ularni amalga oshirish uchun zarur resurslarni taqsimlashda muhim rol o'ynaydi. Strategik reja, jamoa a'zolarining faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning maqsadlarga erishishini ta'minlaydi.

**2. Jamoa a'zolarini motivatsiya qilish va rag'batlantirish.** Rahbarning vazifalaridan biri – jamoa a'zolarini ilmiy tadqiqotlarga va innovatsion loyihalarga jalb qilishdir. Motivatsiya va rag'batlantirish mexanizmlari, xodimlarning faolligini oshirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish

va ilmiy faoliyatga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Rahbar, muvaffaqiyatli natijalar uchun rag'batlantirish tizimini yaratish orqali jamoa a'zolarini o'z maqsadlariga erishishga ko'maklashishi kerak.

**3. Innovatsion muhit yaratish va boshqarish.** Ilmiy innovatsion faoliyatni rivojlantirishda rahbar innovatsion muhit yaratish uchun mas'uldir. U jamoa a'zolari o'rtasida ochiq muloqotni, ijodiy fikrlashni va yangi g'oyalarni qo'llab-quvvatlashni ta'minlashi kerak. Innovatsion muhit, jamoa a'zolarining yangi g'oyalar bilan chiqishini va ularni amalga oshirishini osonlashtiradi.

*Ilmiy faoliyatni boshqarish:*

**Ilmiy loyihalar:** Ilmiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash va ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish.

**Ilmiy konferensiyalar:** Ilmiy konferensiyalar tashkil etish va ularda mutaxassislar, pedagoglar, professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar, talabalar va o'qituvchilarning ishtirokini ta'minlash.

**Ilmiy nashrlar:** Ilmiy maqolalar va monografiyalar nashr etishni rag'batlantirish.

**Innovatsiyalar:** Innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash va ularni tijoratlashtirish.

**4. Tashkiliy boshqaruv.** Rahbar ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni tashkil etishda samarali boshqaruvni amalga oshirish uchun mas'ul. U jamoa a'zolarining vazifalarini aniq belgilab, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, resurslarni samarali taqsimlash va loyihalarning ijrosini nazorat qilish orqali faoliyatning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

**5. Hamkorlik va aloqalarni rivojlantirish.** Rahbar ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishda boshqa muassasalar, tadqiqot markazlari va sanoat bilan hamkorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. U hamkorlik aloqalarini rivojlantirish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishda faol ishtirok etishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy innovatsion faoliyatni rivojlantirishda rahbarning roli juda muhim va ahamiyatli. U strategik rejalashtirish, motivatsiya berish, innovatsion muhitni yaratish, tashkiliy boshqaruv va hamkorlikni ta'minlash orqali ilmiy faoliyatning samaradorligini oshirishda asosiy ta'sirga ega. Samarali rahbarlik, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyihalarning muvaffaqiyatini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21-sentabr 2018-yil PF-5544-son Farmoni.

2. "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-aprelda PF-6198-son Farmoni.

3. “Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-aprel PQ-5047-son Qarori.

4. “Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-avgustdagi 545-son qarori.

5. <https://nsp.gov.uz/news?watch=63>

6. <https://kun.uz/01490418>

---

## **TA'LIM MUASSASALARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI RIVOSHLANTIRISH**

---

### **Annotatsiya.**

Maqolada pedagog xodimlar malakasini oshirishdagi mavjud muammolar, muammoni bartaraf etish maqsadida pedagog xodimlar kasbiy kompetentligini oshirishga yangicha munosabat bildirish va malaka oshirish tizimida akademik faoliyat, sohada ijobiy o'zgarishlar uchun zaruriy asosni yaratish yuzasidan fikr-mulohazalar berilgan.

### **А н н о т а ц и я .**

В статье дается обратная связь по существующим проблемам в повышении квалификации педагогических кадров, предлагается новый подход к повышению профессиональной компетентности педагогических кадров с целью устранения проблемы и создания необходимой базы для позитивных изменений в сфере академической деятельности в системе повышения квалификации.

### **Annotation.**

The article provides feedback on existing problems in improving the qualifications of teaching staff, proposes a new approach to improving the professional competence of teaching staff in order to eliminate the problem and create the necessary basis for positive changes in the field of academic activity in the system of advanced training.

### **Kalits o'zlar:**

pedagog xodim, kasbiy kompetentlik, kasbiy ehtiyojlar, uzviylik, o'quv soatlari.

### **Ключевые слова:**

учитель, профессиональная компетентность, профессиональные потребности, преемственность, учебные часы.

### **Key words:**

teacher, professional competence, professional needs, continuity, teaching hours.

## **KIRISH**

Bugun zamonaviy hayotni ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etish qiyin. Hozir qay bir sohani olmang, uning rivoji uchun eng avvalo, ta'lim tizimi rivojlangan bo'lishi kerak. Zero, inson kapitaliga, uning iqtidoriga e'tibor qaratmay turib, natijaga erishib bo'lmaydi. Hayotga tatbiq etilayotgan islohotlar natijasida o'tgan qisqa davrda maktabgacha ta'lim, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi katta o'zgarishlarga yuz tutdi. Ayniqsa, "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi" degan shior asosida maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi sohada ta'lim sifatini oshirish yo'lida tub islohotlarni olib borishga imkon berdi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, umumta'lim fanlarni o'qitishning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-son qarorining qabul qilinishi

malaka oshirish tizimida faoliyat yuritayotgan fan o'qituvchilari oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bu vazifalarni to'la-to'kis amalga oshirishda Pedagogik mahorat milliy instituti va markazlari ko'makka keladi. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim muassasalarida akademik faoliyatni boshqarish juda muhim va ko'p qirrali jarayon bo'lib, ta'lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va muassasaning umumiy muvaffaqiyatini ta'minlashga qaratilgan.

Quyida bu jarayonning asosiy jihatlari va yo'nalishlari keltirilgan:

**1. O'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish.** O'quv jarayonining puxta rejalashtirilishi va uslubiy ta'minoti ta'lim sifati uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. O'quv dasturlari zamonaviy ehtiyojlarga javob berishi, bozor talabi asosida shakllanishi zarur. Shuningdek, o'qituvchilar yuklamasini teng taqsimlash va dars jadvalini optimal tuzish orqali samaradorlikni oshirish mumkin.

*O'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish:* Zamonaviy talablarga javob beradigan, mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga oladigan va fan o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishga qulay sharoit yaratadigan o'quv rejalari va dasturlarini yaratish nazarda tutiladi. Malaka oshirishning o'quv dasturini ishlab chiqish va muntazam yangilanishini ta'minlaydi.

*Kafedrada faoliyat olib boradigan professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasini taqsimlash:* professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasini adolatli taqsimlash, ularning ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun imkoniyat yaratish.

*Dars jadvalini tuzish:* tinglovchilar va professor-o'qituvchilar uchun qulay bo'lgan dars jadvalini tuzish, auditoriyalardan samarali foydalanish.

*O'quv materiallari bilan ta'minlash:* Tinglovchi va professor-o'qituvchilarni zarur o'quv materiallari (darsliklar, qo'llanmalar, elektron resurslar) bilan ta'minlash.

**2. O'qitish sifatini nazorat qilish va baholash.** Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoniga muvofiq amalga oshiriladi. Bu quyidagi jihatlarni qamrab oladi:

*Darslarga qatnashish:* darslarga muntazam ravishda qatnashish va ularning sifatini baholash, o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishga yordam berish.

*Tinglovchilar kasbiy kompetentligini baholash va nazorat qilish:* Tinglovchilar kasbiy kompetentligini xolisona baholash uchun turli usullardan (testlar, imtihonlar, loyihalar, taqdimotlar) foydalanish.

*Kafedra professor-o'qituvchilarining faoliyatini baholash:* professor-

o'qituvchilarning faoliyatini tinglovchilar so'rovnomalari, o'zaro baholash va boshqa usullar orqali baholash va nazorat qilish.

*Ta'lim-tarbiya sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar:* olingan natijalarga asoslanib, o'qitish sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish.

Ta'lim sifati ustidan nazorat tizimi o'qituvchi va tinglovchilarning faoliyatini baholash asosida amalga oshiriladi. Tahlil, so'rovnoma, test, prezentatsiya kabi vositalar bu borada foydalidir. O'rganish asosida olingan natijalar bo'yicha takomillashtirish ishlari olib boriladi.

### **3. Professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi.**

*Malaka oshirish kurslari:* professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun muntazam ravishda malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Malaka oshirish faoliyatiga o'quv-metodik rahbarlik qiladi va malaka oshirish mexanizmlari va usullarini takomillashtirish choralari ko'rishni ta'minlaydi.

*Ilmiy tadqiqotlar:* professor-o'qituvchilarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish, ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirishga yordam berish.

*Professor-o'qituvchilarning konferensiyalarda ishtirok etishi:* professor-o'qituvchilarning konferensiyalarda ishtirok etishini rag'batlantirish, ularning bilim va tajriba almashishiga imkoniyat yaratish.

*Xorijiy tajribalarni o'rganish:* professor-o'qituvchilarning chet el universitetlarida tajriba orttirishlari uchun sharoit yaratish.

**4. Tinglovchilar bilan ishlash.** Malaka oshirish uchun tashrif buyurgan tinglovchilar bilan ishlash faoliyatini tashkil qiladi.

*Maslahat berish:* tinglovchilarga o'quv jarayoni, ilmiy faoliyat va kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bog'liq masalalarda maslahat berish.

*To'garaklar va fan klublari:* tinglovchilarning qiziqishlari bo'yicha to'garaklar va fan klublari tashkil etish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berish.

*Ijtimoiy faoliyat:* tinglovchilarning ijtimoiy faoliyatda ishtirok etishini rag'batlantirish, ularning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish.

*Yordam ko'rsatish:* muhtoj tinglovchilarga moddiy va psixologik yordam ko'rsatish. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-oktabrdagi 582-sonli "Davlat organlari va tashkilotlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ish olib boruvchi xodimlari malakasini oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorining 32-bandida ta'kidlanganidek: ta'lim muassasasi tinglovchilarning malaka oshirish kurslariga o'z vaqtida kelmaganligi yoki qatnashmaganligi haqida davlat tashkilotlariga xabar beradi. Malaka oshirish kurslarida uzrli sabablarga ko'ra qatnashmagan tinglovchilarga navbatdagi malaka oshirish kurslarida o'qishga ruxsat beriladi.

**5. Axborot texnologiyalaridan foydalanish.** Bunda malaka oshirish

tizimiga ta'limning zamonaviy shakl va usullarini, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni joriy qiladi.

*Elektron o'quv resurslari:* elektron o'quv resurslarini yaratish va ulardan foydalanishni ommalashtirish.

*Masofaviy ta'lim:* masofaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish.

*O'quv jarayonini avtomatlashtirish:* o'quv jarayonini boshqarish uchun axborot tizimlarini joriy etish. Jumladan, bir oylik kurs tinglovchilarini elektron qabul qilish va nazorat qilish, kurs jurnallarini raqamlashtirish va boshqalar.

Bu yo'nalishlar ta'lim muassasasida akademik faoliyatni samarali boshqarishga yordam beradi va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Har bir muassasa o'zining xususiyatlaridan kelib chiqib, ushbu yo'nalishlarni moslashtirishi va rivojlantirishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-oktabrdagi 582-sonli "Davlat organlari va tashkilotlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ish olib boruvchi xodimlari malakasini oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori.
4. Abdullayeva S. Ta'lim menejmenti va rahbarlikning zamonaviy yondashuvlari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti. 2021-y.

## **UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI BOSHQARISHDA KASBIY RIVOJLANISH JARAYONLARI VA MAZMUNI SIFATIDA**

### **Annotatsiya.**

Maqolada ta'lim muassasasini zamonaviy boshqarishga qo'yilgan talablar, ta'lim muassasasi rahbarining vazifalari, boshqaruv yo'nalishidagi shakl va vositalar, boshqaruv jarayonida mavjud muammolar, ularning yechimlari ilmiy asoslab berilgan.

### **А н н о т а ц и я .**

В статье рассматривается мнение о требованиях к современному управлению учебным заведением, задачах руководителя образовательного учреждения, формах и инструментах в направлении управления, проблемах, существующих в процессе управления, в части их решений.

### **Annotation.**

The article expresses an opinion on the requirements for modern management of an educational institution, the tasks of the head of an educational institution, forms and tools in the direction of management, problems that exist in the management process, in terms of their solutions.

### **Kalits o'zlar:**

ta'lim muassasasi, tamoyillar, boshqarish usullari, pedagogik munosabatlar, rahbar kompetentligi, boshqaruv kompetentligi.

### **Ключевые слова:**

учебное заведение, принципы, методы управления, педагогические отношения, компетентность руководителя, управленческая компетентность.

### **Key words:**

educational institution, principles, management methods, pedagogical relations, managerial competence, managerial competence.

## **KIRISH**

Jamiyatimizda barcha sohada bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham ko'zga ko'rinarli innovatsiyalar amalga oshirilyabdi. Ta'limni boshqarish va undagi muammolar, ularning yechimini topish dorzab masalalardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy samaradorlikni oshirish ta'lim muassasasini zamonaviy boshqarishning innovasion tamoyillari bilan belgilanadi. Respublikamizda amal qilayotgan ta'limning yangi modeli-ta'lim-tarbiya jarayonini tubdan yangilash bilan bir qatorda, ta'lim muassasasi rahbarlarining o'zaro raqobatlashishini vujudga keltiradi. Bu esa o'quv muassasalarini rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir. Bugungi kunda ta'lim muassasalarining oldiga qo'yilayotgan dolzarb vazifalardan biri-o'quvchi yoshlarga sifatli, samarali va malakali ta'lim berishni tashkil etishdan iboratdir. Ta'lim sifatini yaxshilash, uni boshqarishning davr talablari asosida tashkil etish faoliyatini yaratish hamda ilmiy jihatdan asoslash ta'lim tizimining muhim masalalaridan biridir. Ushbu masalani o'rganish va ta'lim muassasasini ilmiy metodik boshqarish modelini tashkil etish hamda amaliyotga tatbiq etish nihoyatda zarur. Uning asosida ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uni innovasion boshqarish masalasiga mutlaqo yangicha yondash kerakligini taqozo etadi [1].

Maktabda ta'lim-tarbiya jarayonini namunali tashkil etish zamonaviy

tamoyillarga asoslangan boshqarishning yangi yondoshuvlari va usullarini qo'llash zarur. Zamonaviy talablarga javob beruvchi sifatli ta'lim xizmatlarini ta'minlash jarayonida barcha hodimlarning faol ishtirok etishi talab qilinadi. Jamoa azolari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarda ta'lim xizmatlarini faollashtirishning barcha jihatlari namoyon bo'lib borishi lozim. Shu ma'noda boshqaruvda asosiy kompetensiyani tushunish, uni qo'llash usullari, shakllari, vositalaridan maktab direktori to'liq habardor bo'lishi juda muhim. Hozirgi globallashtirish davrida fan-texnika rivojlanishi umumta'lim maktablarida olib boriladigan katta islohotlar ta'lim-tarbiyaning mazmunini o'zgartirishni, shuningdek, ta'lim tizimini bugungi zamon talablari asosida boshqarishni talab etmoqda. Bugungi ta'lim ishtirokchilari bundan 10 yil oldingi ta'limiy dunyoarashdan, o'zlarining o'quvchilariga, ta'limga bo'lgan munosabatlarini yangicha fikrlash va muloqot qilish orqali tashkil etmoqdalar. Demak, bugungi pedagog hodimlarni boshqarishda yangicha uslubga ega bo'lgan har tomonlama rahbarlik kompetentligini o'zida mujassamlashtirgan shaxs boshqarishini jamiyatning o'zi talab etmoqda. Rahbar kadrlarni, xususan, rahbarlik ishlariga endigina tayinlanayotgan, binobarin, hali bu sohada zarur tajriba, malakaga ega bo'lmagan yoshlarni rahbar va rahbarlik bobida ular qanday masalalarga e'tibor qilishi kerak bo'lgan vazifalari, shu maqsadni amalga oshirish uchun metodik yo'nalishlar, yosh rahbarlarga tavsiyanomalar ishlab chiqilgan chunki maktab direktorining eski avtoritar usulda maktabni boshqarishi ta'lim-tarbiya ishlari rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli boshqaruv islohotlarida davlat boshqaruvining turli sohalarida boshqaruv hodimlarini bilim va malakasini rivojlantirish, bu boradagi yondoshuvlarni qayta ko'rib chiqish, ularni tayorlashning mazmuni va texnologiyalari bilan bog'liq muammolar kundan-kunga dolzarblashib bormoqda. Bunday yondoshuvlardan biri sifatida dastlab korporativ boshqaruv va personalni boshqarishda o'z aksini topgan kadrlarni tanlash, baholash, o'qitish va rivojlantirishni jamlagan kompetentli yondoshuvdan foydalanish tavsiy etilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini har tomonlama boshqarishning asosiy yo'nalishlari, tamoyillari, talablarini hisobga olgan holda, o'qitish qonuniyatlari va prinsiplarini aniqlash, o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanishning metodik asoslari, rahbarlarning ilmiy-metodik tayyorgarligini ta'minlashning tarkibiy qismlari, darajalari, ko'rsatkichlari, unga ta'sir ko'rsatadigan pedagogik omillarni belgilash va mazkur tayyorgarlik darajasini rivojlantirish mazmuni, metodi, vosita va shakllarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash orqali xalqaro talablarga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh, ijodkor va ijtimoiy faol,

ma'naviy boy, g'oyaviy-siyosiy bilimdon rahbarlarni tayyorlashga erishish. Buning uchun esa rahbarlarning o'zni o'zi rivojlantirish tizimini takomillashtirish hamda metodik xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish texnologiyalarini yaratish zarur.

Umumta'lim muassasalari rahbarlarining vazifalari, huquq va burchlari, mas'uliyatlari ilmiy asosda belgilab berilishi hamda to'la bajarilishi natijasida umum ta'lim muassasalari ilmiy-metodik asosda boshqariladi. Bu borada rahbarlardan e'tiborini o'quv jarayonini innovasion boshqarishni rivojlantirish, takomillashtirish va ularni nazorat qilish bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni birinchi o'ringa qo'yish talab etiladi. Misol uchun:

- har bir o'quvchi shaxsining eng yaxshi sifatlarini aniqlash va uni rivojlantirish, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari, tanlagan yo'nalishlari, shaxsiy sifatleri, aqliy intellektual xususiyatlarini belgilash;

- har bir o'quvchining ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatiga yarasha o'quv topshiriqlarini berish;

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish lozim. Ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini ilmiy-metodik asosda tashkil etishning asosiy jihati sifatida fan o'qituvchilarining bilim, malaka, kasb mahoratini aks ettirish zamon talablariga xos faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlovchi uzluksiz metodik xizmatni tashkil qilish zarur. O'qitish metodlarining har biri o'zining umumdidaktik mohiyatiga ko'ra, ta'lim jarayonining sub'ektlari o'qituvchi va o'quvchining hamkorligidagi harakat modeli hisoblanadi [2].

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarishdagi innovatsiyalar pedagogik muammolarni hal qilishda muassasa rahbarining qobiliyati va layoqati muhim rol o'ynaydi. Salohiyatli rahbarda esa bugungi rahbarlarda mavjud kompetentliklar rivojlanishi lozimdir.

Rahbar kompetentligi:

- ta'lim tizimiga tegishli jamiki amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlarni amaliyotga tatbiq etishni ta'minlaydi;

- ta'lim muassasasini zamonaviy boshqaruv tamoyillaridan, usul va imkoniyatlaridan imkon qadar foydalangan holda kompetensiyasiga tegishli barcha vazifalarni belgilanga talab darajasida bajarilish imkoniyatini beradi;

- pedagogik jamoa a'zolari faoliyatini boshqaradi, qarorlar qabul qiladi, nazorat qiladi, , moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlaydi, faol ishlashni talab etadi;

- ta'lim jarayonidagi innovatsion yangiliklarni yo'lga qo'yish asosida ta'lim samaradorligiga erishishni ta'minlaydi;

- ota-onalar, kuzatuv kengashi, mahalla va keng jamoatchilik bilan hamkorlikni yo'lga qo'yadi;

- ta'lim-tarbiya sohasida zimmasiga yuklatilgan vazifalarni

«Kompetentli rahbar» darajasida bajaradi. Ta'lim muassasasi rahbarining boshqaruv kompetentligi:

- rahbarning faoliyat jarayonida vujudga keladigan kasbiy, pedagogik muammolarni hal etishi;

- kasbiy-boshqaruv faoliyatining ustunligi va ob'ektiv tarzda masalalarni o'rnida tezlik bilan hal etishi;

- yuksak salohiyati, rahbar sifatida namunaligi, shaxsiy faoliyati, tajribasi;

- yuqori darajadagi kasbiy intellekti bilan maqsadga erishish darajasidir.<sup>3</sup>

Muassasa rahbari o'z faoliyati davomida rahbarlik qilayotgan jamoaga qoyidagicha yondashuv muamolarini hal qilish va oldini olishda samarali yordam beradi. Pedagogik jarayonni boshqarishni demokratiyalash va insonparvarlashtirish, boshqarishning tizimliliigi va yagonaligi, boshqarishning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan holatlarining uyg'unligi, yakka hokimlik bilan jamoatchilik boshqaruvining birligi, ta'lim tizimini boshqarishda axborotlarning ishonchliligi, aniqligi va asoslanganligi, ishonchliligi va to'liqligini nazarda tutdik. Pedagogik kadrlarni suhbat, tanlov va shartnoma asosida, sinov muddatini ko'rsatgan holda ishga qabul qilish, qabul qilinayotgan qarorlarni real muhokama qilish, axborotlarning barcha uchun ochiq va tushunarligini joriy etish, ta'lim muassasasi jamoatchiligi oldida rahbaryatning xolisona ochiqdan ochiq hisobot berishi va o'quvchilarga ta'lim muassasasi hayotiga, faoliyatiga oid o'z fikrlarini bildirishga imkon berish, ta'lim muassasasida demokratik boshqaruvning ustuvor ekanligini anglatadi.

Ta'lim muassasasini boshqarishda tizimli yondashuv asosida rahbar ta'lim muassasasini bir butun yaxlit tizim sifatida va uning belgilari haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Tizimning ilk belgisi yagonaligi hamda uni tarkibiy qismlarga ajratish mumkinligidadir. Keyingi belgisi tizimning ichki tuzilishining mavjudligini ko'rsatadi. Navbatdagi belgisi tizimning integratsiyalana olishidir. Tizimning har bir tarkibiy qismi o'zigacha sifatga ega bo'lgani bilan, o'zaro harakat orqali tizimning yangi integratsiyalana olish xususiyati paydo bo'ladi. So'ngi to'rtinchi belgisi ta'lim muassasalarining tashqi muhit bilan chambarchas bog'liqligidir. Ta'lim muassasalari tashqi muhitga moslashib, shu ta'lim jarayonini qayta qurishi bilan birga o'zining maqsadlariga erishish yo'lida tashqi muhitni o'ziga bo'ysundiradi. Boshqaruvdagi tizimlilik va yagonalik rahbar bilan pedagogik jamoa o'rtasidagi o'zaro harakat va aloqani ta'minlaydi, bir tomonlama boshqaruvning oldini oladi.

Boshqaruv muassasada ma'lum bir qarorni qabul qilishda jamoadan bildirilgan fikrlardan qaysi biridir ma'qul bo'lsa, uni ham inobatga olgan holda qarorning ijrosini ta'minlashda yakkahokimlikni afzal bilish

yaxshiroqdir. Qarorning ijrosini nazorat qilish uchun bu muhim sanaladi. Ta'lim tizimini boshqarishning davlat-jamoatchilik xarakteri shu tamoyil asosida ish ko'rishga sharoit yaratadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirishi haqidagi ma'lumotlarni yig'iladi, shu bilan birga ularning qiziqishlari, xulq-atvori, shaxs sifatidagi rivojlanishiga e'tibor beriladi. Ta'lim muassasasining rahbari o'zining faoliyatida davomida menejer vazifasini bilan ham shug'ullanishi zarur. Shuning uchun u o'z faoliyatida kuzatish, anketa, test, instruktiv va metodik materiallardan keng foydalanish ko'nikmasiga ham ega bo'lishi kerak. Ta'lim muassasasi rahbaryati maktab ichidagi axborotli boshqaruv modeli va strategiyasini ishlab chiqish hamda ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etishi lozim. Boshqaruv jarayonida bu model va strategiyalardan samarali foydalanish ta'lim muassasasi faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim tizimini boshqarish rivojlanish, izlanish jarayonida boshqaruvning innovatsiyon jihatlarining mazmuni, shakllari va usullaridan samarali foydalanish kerak. Asosiy boshqaruv funktsiyalari quyidagilardir:

- boshqaruv mazmunini sifatli amalga oshirish;
- boshqaruv faoliyatni takomillashtirish yo'llarini izlab topish;
- boshqaruv faoliyatini rag'batlantirib turish;
- muvofiqlashtirishni tashkil etish;
- tartibga solish lozim(ya'ni faoliyat va jarayoni nazorat qilish)

Yuqorida zamonaviy boshqaruv, boshqaruvda vujudga keluvchi muammolar va ularni pedagogik jihatdan bartaraf etish masalalari, tashkilot faoliyatini samarali tashkil etishning ba'zi jihatlariga to'xtaldik. Ularni to'g'ri anglash, qabul qilish, menejmentga ularni tatbiq etish boshqaruvda ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritishga va ayrim muammolarning yechimini topishga asos bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

---

1. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2017. – 24 b.
2. Muxamedov G'I, Xo'jamqulov U.N., Toshtemirova S.A. Pedagogik ta'lim innovasion klasteri / monografiya -T.: Universitet, 2020. 280 b.;
3. Менеджмент корпорации и корпоративное управление / А.Н.Асаул, В.И.Павлов, Ф.И.Бескиеръ, О.А.Мышко. – СПб.: Гуманистика, 2006.
4. Adizova T.M. Boshqaruv muloqati. Toshkent: Nizomiy nomli TDPU, 2000.
5. Abulxanova Q.H., Raximova D.N., va boshqalar. Davlat xizmati personalni boshqarish. – Toshkent: Akademiya, 2002.
6. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Ta'lim menejmenti. – Toshkent, 2006.

## **TA'LIM MUASSASALARIGA BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARNI SHAKLLANTIRISH**

### **Annotatsiya.**

O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish jarayonida moliya byudjet tizimining takomillashtirilishi Byudjetdan tashqari jamg'armalar jamg'armasi tarkibini shakllantirdi. Bularga, misol tariqasida, davlat pensiya jamg'armasi, bandlikka yordam jamg'armasi, davlat sug'urta jamg'armasi va boshqa kiradi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida qo'shimcha ta'lim berishga qaratilgan pullik ta'lim xizmatlari maktablarning o'quv dasturlarida nazarda tutilmagan (davlat ta'lim standartlaridan tashqari) mashg'ulotlar bo'yicha maktab direktori va o'quvchining ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) o'rtasida tasdiqlangan shaklda tuziladigan shartnoma asosida ko'rsatiladi.

### **А н н о т а ц и я .**

Внебюджетные фонды – это средства, не включенные в государственный бюджет государства и предназначенные для конкретных целей. В процессе перехода Узбекистана к рыночным отношениям, совершенствования финансово-бюджетной системы сформировался состав фонда внебюджетных фондов. К ним относятся, например, государственный пенсионный фонд, фонд содействия занятости, фонд государственного страхования и другие. Платные образовательные услуги, направленные на предоставление дополнительного образования в школах общего среднего образования, предоставляются на основании договора, заключаемого по утвержденной форме между директором школы и родителями учащегося (лицами, их заменяющими) на осуществление деятельности, не предусмотренной школьной программой (за исключением государственных образовательных стандартов).

### **Annotation.**

Extra-budgetary funds are funds that are not included in the state budget and are intended for specific purposes. In the process of transition to market relations in Uzbekistan, the improvement of the financial budget system has formed the composition of the fund of extra-budgetary funds. These include, for example, the state pension fund, the employment assistance fund, the state insurance fund, etc. Paid educational services aimed at providing additional education in general secondary schools are provided on the basis of an agreement concluded in an approved form between the school principal and the student's parents (their substitutes) on classes not provided for in the school curriculum (except for state educational standards).

### **Kalits o'zlar:**

Byudjetdan tashqari jamg'armalar, jamg'armalar, qo'shimcha ta'lim xizmatlari, fuqarolik shartnomasi, startap loyihalar, mablag'larni taqsimlash.

### **Ключевые слова:**

Внебюджетные фонды, фонды, услуги дополнительного образования, гражданско-правовой подряд, стартап-проекты, распределение средств.

### **Key words:**

Extra-budgetary funds, foundations, additional educational services, civil contract, startup projects, distribution of funds.

## **KIRISH**

*Byudjetdan tashqari jamg'armalar* – davlatning davlat byudjetiga kiritmaydigan va aniq maqsadlarga mo'ljallangan pul mablag'lari. Har qanday sohaning asosida moliyaviy barqarorlik yotadi. Buning yechimi zamon rivojlanishi bilan turlicha ko'rinishda topilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida qo'shimcha ta'lim berishga qaratilgan pullik ta'lim xizmatlari maktablarning o'quv dasturlarida nazarda tutilmagan (davlat

ta'lim standartlaridan tashqari) mashg'ulotlar bo'yicha maktab direktori va o'quvchining ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) o'rtasida tasdiqlangan shaklda tuziladigan shartnoma asosida ko'rsatiladi. Direktor va pedagoglar o'quvchilarni pullik xizmatlarga majburiy tartibda jalb etishga haqli emas.

Har yili maktablarda pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatish yillik rejasi tasdiqlanadi. Unda:

- ta'lim xizmatlar turi (qo'shimcha ta'lim berish yo'nalishlari);
- mashg'ulotlarni o'tish vaqtlari;
- dars soatlari miqdori;
- har bir soat uchun to'lanadigan narx miqdori. Bunda kam ta'minlangan oilalarning farzandlariga to'lovlar umumiy narx miqdorining 50%i miqdorida belgilanadi;
- bitta guruhda mashg'ulotlarda qatnashuvchilarning soni - 35 nafar o'quvchidan ko'p bo'lmagan miqdorda (individual tarzda mashg'ulotlar o'tkazilishi mumkin);
- yo'nalishlar bo'yicha o'qituvchi yoki mutaxassis F.I.O.;
- mashg'ulot o'tish joyi (sinflar) ko'rsatiladi.

Yillik reja Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining rasmiy veb-sayti yoki maktablarning rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladi. Ta'lim xizmatlari narxlari Kuzatuv kengashi bilan kelishilgan holda maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi. To'lov har oyning 5-sanisigacha (100 foiz oldindan to'lov) amalga oshiriladi. To'lov bank bo'linmalari orqali maktabning tegishli G'aznachilik bo'limlarida ochilgan shaxsiy g'aznachilik hisobvaraqlariga naqd pul yoki pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Bevosita maktabda to'lovni amalga oshirish taqiqlanadi.

Kuzatuv kengashi bir yilda kamida 2 marta o'quvchilar va ularning ota-onalari o'rtasida ko'rsatilayotgan pullik xizmatlar sifatini aniqlash maqsadida so'rovnoma o'tkazib boradi.

Nizomga muvofiq, pullik ta'lim xizmatlari zarur moddiy-texnika bazasi va tegishli pedagog xodimlarga ega bo'lgan maktablarda tashkil etiladi.

- Pullik ta'lim xizmatlari shartnoma asosida ko'rsatiladi. Mazkur xizmatlarga o'quvchilarni majburiy jalb etish taqiqlanadi.
- Pullik xizmatlar uchun to'lov kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun umumiy narxning 50 foizi miqdorida belgilanadi.
- Bitta guruhda mashg'ulotlarda qatnashuvchilarning soni 35 nafardan oshishi mumkin emas.
- Pullik xizmatlardan tushadigan mablag'ning 50 foizidan kam bo'lmagan qismi pedagog o'qituvchilarga beriladi.
- Pullik xizmatlar uchun haq banklar orqali to'lanadi, to'lovni maktabda amalga oshirish taqiqlanadi.

Maktablarning budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'laridan

foydalanish tartibi tasdiqlandi.

*Byudjetdan tashqari jamg'armalar* – davlatning davlat byudjetiga kiritmaydigan va aniq maqsadlarga mo'ljallangan pul mablag'lari. O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish jarayonida moliya byudjet tizimining takomillashtirilishi Byudjetdan tashqari jamg'armalar jamg'armasi tarkibini shakllantirdi. Bularga, misol tariqasida, davlat pensiya jamg'armasi, bandlikka yordam jamg'armasi, davlat sug'urta jamg'armasi va boshqa kiradi.

Vazirlar Mahkamasi qarori bilan xalq ta'limi tizimidagi tashkilotlarning budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Nizomda quyidagilar aks ettirilgan:

jamg'arma mablag'larini shakllantirish manbalari va ulardan foydalanish yo'nalishlarini belgilash tartibi;

jamg'arma mablag'lari hisobi va hisobotini yuritish tartibi;

jamg'arma mablag'lari xarajatlari ijrosini nazorat qilish tartibi.

Hujjatda belgilanishicha, 2021-yildan boshlab maktablardagi kam ta'minlangan oilalarga mansub o'quvchilar (barcha 1-11-sinf o'quvchilarining 15 foizidan ko'p bo'lmagan qismi) zamonaviy yagona maktab formasi to'plamlari bilan bepul ta'minlanadi [1].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida" 2019-yil 22-apreldagi 343-son qarori asosida:

• umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish

• pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatishning afzalliklari

• ota-onalarning tanlovi asosida o'quvchilarga pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatish orqali qo'shimcha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish

• maktab rahbari, pedagog xodimlarni qo'shimcha rag'batlantirish

• ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazani mustahkamlash

• ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobatni yuzaga keltirish

• ta'lim muassasalarining talabgorligini oshirish

• ta'lim muassasalarida asossiz pul yig'implari, korrupsiya holatlarini oldini olish

• Davlat ta'lim standartlaridan tashqari pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish [2].

Jamg'arma mablag'larini tasarruf etish yoki boshqa maqsadlarga yo'naltirish (ishlatish) bilan bog'liq har qanday ko'rinishdagi aralashish taqiqlanadi.

Ta'lim muassasalarining rahbarlari va hisobchilari Jamg'arma mablag'lari to'g'ri shakllantirilganligi, ulardan samarali, oqilona va to'g'ri

foydalanish, mazkur mablag'larning hisob-kitobining to'g'ri yuritilishi bo'yicha shaxsan javob beradilar [3].

Shuningdek, tushgan mablag'larning bir qismi o'quvchilarning startap loyihalarini, jumladan eng yaxshi g'oyalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida yo'naltirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan, maktabda har chorakda "Eng bilimdon" o'quvchilarga "Direktor stipendiyasi"ni joriy etish orqali, o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan ishtiyoqni oshirishga erishiladi.

Budjetdan tashqari mablag' topish zamonaviy ta'lim va tashkilotlar uchun muhim moliyaviy barqarorlik vositasidir. Budjet mablag'laridan to'g'ri foydalanish. Mavjud imkoniyatlardan foydalanish orqali budjetdan tashqari mablag'larni topishda xodimlarning malaka va tajribasidan foydalanish yo'llari hamda jamoani rag'batlantirishga erishiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. «Byudjetdan tashqari jamg'armalar» O'zME. B-harfi Birinchi jild. – Toshkent, 2000-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.04.2019-yildagi 343-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.04.2019-yildagi 344-son.
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2019/04/24/pullik-talim/>
5. <https://kun.uz/88163022?q=%2Fuz%2F88163022>
6. [https://nrm.uz/contentf?doc=586970\\_o%E2%80%98zbekiston\\_respublikasi\\_vazirlar\\_mahkamasi\\_22\\_04\\_2019\\_y\\_343.son\\_o%E2%80%98](https://nrm.uz/contentf?doc=586970_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_vazirlar_mahkamasi_22_04_2019_y_343.son_o%E2%80%98)

## RAHBARLIK PSIXOLOGIYASIDA ODOB-AXLOQ

### Annotatsiya.

Axloq va odob normalarini bilish birinchi o'rinda rahbarning o'z shaxsiy yutuqlarini ta'minlash uchun o'ta zarur bilimdir. Bu o'rinda muomala madaniyati, vujudga kelgan ziddiyatlarni, nizolarni kamchiliksiz bartaraf qilish ushbu ziddiyat va nizo tarafdorlarining har biriga o'ta muhimligini unutmazlik kerak. Bu o'rinda Farobiy, Kaykovusdek mutafakkirlarning kitoblarini va ularda bitilgan fikrlarini misol qilib keltirsak bo'ladi. Boshqaruv tizimida ilm va san'atning maxsus turlari borasida fozil, aqilli va turli darajali mahoratga ega bo'lgan kishilarning o'rni alohida ifodalanaadi.

### А н н о т а ц и я .

Знание этики и этикета является необходимым знанием для лидера, обеспечивающим его личный успех. В этот момент важно помнить, что культура общения и гладкое разрешение возникающих конфликтов и споров чрезвычайно важны для каждой из сторон этого конфликта и спора. В этом отношении можно привести в качестве примеров книги таких мыслителей, как Фароби и Кайковус, и содержащиеся в них мысли. Подчеркивается роль в системе управления людей, обладающих добродетелью, интеллектом и различной степенью мастерства в конкретных видах науки и искусства.

### Annotation.

Knowledge of the norms of morality and etiquette is, first of all, an extremely necessary knowledge for a leader to ensure his personal achievements. In this case, it is important not to forget that the culture of communication, the smooth resolution of conflicts and disputes that have arisen are extremely important for each of the parties to these conflicts and disputes. In this case, we can cite the books of thinkers such as Farobi and Kaykovus and the ideas contained in them as examples. In the management system, the role of people with virtue, intelligence and various degrees of skill in special types of science and art is emphasized.

### Kalits o'zlar:

axloq, odob, boshqaruv, rahbar.

### Ключевые слова:

этика, этикет, менеджмент, лидер

### Key words:

morality, etiquette, management, leader.

## KIRISH

Rahbarlik psixologiyasida axloq, rahbarlarning o'z jamoasiga qanday ta'sir ko'rsatishi va ularning ish faoliyatiga qanday yo'l-yo'riq ko'rsatishini anglatadi. Bu, odatda, rahbarning professional munosabatlar va jamoa a'zolari bilan ishlashda to'g'ri qadriyatlar, prinsiplar va etik normalarga amal qilishini nazarda tutadi. Rahbarlik axloqi tashkilotda ishonch, motivatsiya va samaradorlikni oshirishi mumkin.

Rahbarlik psixologiyasida axloqning ba'zi asosiy jihatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

*Adolat va haqqoniylik:* rahbar o'z jamoasiga adolatli bo'lishi kerak. Boshqaruvda har kimga teng muomala qilish, barcha a'zolarni bir xil mezonlarga ko'ra baholash va qarorlar qabul qilishda haqqoniylik muhim.

*Mas'uliyat va javobgarlik:* rahbarlar faoliyati va o'z jamoasini

boshqarish uchun mas'ul bo'lishadi. O'z xatoliklarini tan olish va ulardan saboq olish, shuningdek, muvaffaqiyatni jamoa bilan bog'lash zarur.

**Ishonch va integritet:** Rahbarlar o'z jamoasiga ishonchli bo'lishi kerak. Bu, o'z so'zida turish, ularga sadoqatli bo'lish va ularni hech qachon aldamaslikni anglatadi.

**Empatiya va insonparvarlik:** Rahbarlar o'z jamoa a'zolarining his-tuyg'ularini tushunish va ularni qo'llab-quvvatlashda empatiyaga ega bo'lishlari kerak. Bu jamoada ijobiy muhit yaratishda muhim omil bo'ladi.

**Etik qarorlar qabul qilish:** Rahbarlar, qarorlar qabul qilishda axloqiy qoidalarni va prinsiplarni hisobga olishlari zarur. Qarorlar ijtimoiy adolat, yaxshilik va umumiy manfaatlarni ko'zda tutishi kerak.

Rahbarning axloqiy nuqtayi nazari, faqat o'z jamoasining ish faoliyatiga emas, balki butun tashkilotning maqsadlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Axloqiy rahbarlar, jamoani samarali ishlashini rag'batlantirgan holda, tashkilotning o'z missiyasiga erishishida muhim rol o'ynaydi.

Rahbar nafaqat o'zi boshqarayotgan sohaning sir-asrorlarini, qolaversa qo'l ostidagi odamlarni ular oldida sohaning ijobiy tomonlarini ochish bilan sohaga jonini fido qila olishni, yani soha odamlari bilan hamohang ishlashni o'ziga alohida vazifa qilib olmog'i kerak. Demak, rahbarlik eng avvalo o'z atrofidagi odamlar ijodiy, amaliy imkoniyatlarining yarqirab ochilishini ta'minlashdir. Rahbarlikda inson qobiliyati va boshqarish qobiliyatining tezroq va yorqinroq ochilishini ta'minlashda psixologiyaning roli katta. Ayni vaqtda, rahbarning umumiy dunyoqarashi, fikr doirasining kengligi, uning kasbiy bilimidan tashqari gumanitar fanlar, adabiyot va san'atdan naqadar xabardorligi yorqin va yengil sezilib turadi. Adabiyot va san'at durdonalari, ulardagi ezgu fikrlardan xabardor kishining qalbi muloyim, johillikdan ancha uzoq bo'ladi. Umar Xayyom ruboyilarini yod aytib o'z fikrini tasdiqlovchi, foni dunyoning o'tkinchiligini har kun, har doim eslab turuvchi kishining johillik qilishiga ishonish qiyin [4; 8b].

Shu jumladan olganda, rahbar ko'p hollarda o'z faoliyati bilan odamshunos, insonlarning qalbiga tez yo'l topa oladigan so'zamol, muloqot va muomala san'atining ustasi bo'lmog'i kerak.

Rahbarlik ko'pincha muomala va muloqot orqali olib borilib, insonning ruhiy tomoniga ta'sir qilish va uni ma'lum faoliyat bilan ma'lum yo'nalishda mashg'ul qilishga qaratilgan bo'lib, ko'pincha nafaqat psixologiya bilan bog'liq bo'lib qolmay, ayni holda qonun doirasida bo'lishini talab qiladi. Shunday ekan, rahbarning davlat qonunlarini, fuqarolik qonun-qoidalarini ma'lum darajada bilishi hozirgi zamon talablarining asosiy qismini tashkil qiladi. Rahbarlarning har tomonlama bilimdon bo'lishi va ayniqsa bosqichma-bosqich zamonaviy boshqarish yangiliklaridan xabardor bo'lib borishi, malaka oshirish o'quv jarayonlarida qatnashishi yaxshi natija beradi. Bunga butun dunyoda, shu jumladan, AQSH, Yaponiya, G'arb

davlatlarida alohida ahamiyat berishadi. O'z mutaxassisligidan tashqari gumanitar sohalarda ham yetarli ma'lumotga ega kishilargina yetuk rahbarlar bo'lib chiqishadi va ayni shu insonlarni ziyoli kishilar deyish mumkin. Boy qadimiy manaviy merosga ega xalqimizning zamonaviy rahbarlari yetuk ziyoli kishilar bo'lmasligi mumkin emas. Bu o'z o'rnida orzu qilingan buyuk kelajagimizning moddiy va ayniqsa ma'naviy bazasini, poydevorini yaratadi. Ayni paytda bugungi va ertangi kun kadrlariga qaratilgan siyosatimiz shuni taqozo qiladi. Bu boradagi moddiy sarfxarajatlar eng oliyjonob yo'nalishdagi mablag' joylashtirish bo'ladi. Albatta, bu degan so'z ularning kasbiy saviyalariga e'tibor pastligiga olib kelmasligi kerak.

Shuni nazarda tutgan Abu Nasr Forobiy rahbarlikning eng afzal tomonlaridan biri deb "Istedod va malakasiga qarab har bir kishiga munosib vazifa berish orqali ulardan (qo'l ostidagi odamalardan) samarali foydalana olish qudrati", deydi. Mutafakkir o'z o'rnida rahbarlikning doimiy izlanish va tarbiyaning davom etishini ko'zda tutib "Ruhni tarbiyalash va poklash muttasil davom etsagina, yaxshi amallarga erishish mumkin", deb takidlaydi[4; 12b].

Rahbarlikga erishish uchun ma'lum tug'ma qobiliyatlar xohish, yoshlikdan bunga intilish, yaxshigina kasbiy tayyorgarlik, odamlar, guruh, keyinchalik hamkasblar orasida o'z fikrini ilgari sura olishga o'rganish, turli xil g'oyalarga ijodkor bo'lish, o'z g'oyalarini hayotga joriy qilishda shaxsiy uslub, usullarini ma'lum miqdorda tezlik bilan o'zgartira olish, albatta yonatrofdagilarning (shu jumladan ota-onaning) yordami kerak. Olimlarning sinchikovlik bilan kuzatishlariga qaraganda, yuqori tabaqadagi rahbar besh-yetti yilda yetishib chiqar va asosan 35 yoshlarda shakllanib bo'lar ekan. Bu esa o'z o'rnida shaxsning qay darajada tajriba orttirish tezligiga bevosita bog'liqdir. Umuman olganda, rahbarlik psixologiyasida axloq, rahbarning o'z jamoasini qanday boshqarishining va qanday qadriyatlar asosida qarorlar qabul qilishining markazida turadi. Axloqiy rahbar o'zining jamoadoshlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va tashkilotning muvaffaqiyatiga katta hissa qo'shadi.

Rahbarlik psixologiyasi – bu rahbarlarning jamoalariga qanday ta'sir ko'rsatishini, ularning qarorlar qabul qilish usullarini va jamoadagi muammolarni qanday hal qilishlarini o'rganuvchi soha. Rahbarlik faqatgina tashkilotni boshqarish, maqsadlarga erishish va strategik rejalashtirishdan iborat emas. Bu, shuningdek, rahbarning axloqiy qadriyatlar, prinsiplar va munosabatlar asosida o'z jamoasiga qanday ta'sir qilishini ham o'z ichiga oladi. Rahbarlik psixologiyasidagi axloqiy tamoyillar, rahbarning qarorlar qabul qilish jarayonida etik masalalarga e'tibor berishini, adolat, haqqoniylik va integritetni saqlashini talab qiladi. Ushbu maqolada rahbarlik psixologiyasida axloqning o'рни va uning tashkilotdagi

muvaffaqiyatga ta'siri haqida so'z yuritamiz.

Rahbarlik psixologiyasida axloqning asosiy jihatlari:

**1. Adolat va haqqoniylik.** Rahbarlarning axloqiy boshqaruvi adolat va haqqoniylikka asoslanadi. Jamoa a'zolarining har biri teng muomalaga haqli va rahbar bu prinsipni amalga oshirishga mas'uldir. Adolatli rahbar, har bir xodimga bir xil imkoniyatlar yaratadi, natijada jamoa ichida ishonch va hurmat shakllanadi. Haqqoniylik esa rahbarning barcha qarorlarida to'g'ri va haqqoniy yo'l tutishini anglatadi. Jamoa a'zolari rahbarning haqqoniy va shaffofligini ko'rib, unga yanada ko'proq ishonch bildirishadi, bu esa jamoaning samaradorligini oshiradi.

**2. Masuliyat va javobgarlik.** Rahbarlikda mas'uliyat eng muhim tushunchalardan biridir. Rahbar o'zining qarorlari va harakatlari uchun javobgar bo'ladi. Jamoaning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi rahbarning boshqaruvi va yo'l-yo'riqlariga bog'liq. Shu bilan birga, rahbarlar o'z xatoliklarini tan olish va ularni tuzatishga harakat qilishlari kerak. Bu holat, rahbarning o'z jamoasiga nisbatan mas'uliyatini va etik yondashuvini aks ettiradi. Mas'uliyatni his qilish va o'z xatolaridan o'rganish rahbarlikda ishonchni mustahkamlaydi.

**3. Ishonch va integritet.** Rahbarning axloqiy pozitsiyasi ishonch va integritetga asoslanadi. Integritet – bu rahbarning ichki qadriyatlariga sodiq qolishi va o'z so'zida turishidir. Ishonch esa rahbarning jamoasiga nisbatan o'zining to'g'riligini va sadoqatini namoyon etishidir. Rahbar so'zlari va amallari o'rtasidagi uyg'unlikni saqlashi kerak. Jamoa rahbarga ishonishi, uning to'g'ri qarorlar qabul qilishiga va uning ko'rsatmalariga amal qilishga tayyor bo'ladi.

**4. Empatiya va insonparvarlik.** Rahbarning axloqiy yondashuvida empatiya va insonparvarlik muhim o'rin tutadi. Rahbarlar jamoa a'zolarining his-tuyg'ularini tushunishi va ularga yordam berish uchun empatiya ko'rsatishi kerak. Empatiya yordamida rahbarlar jamoasining ehtiyojlarini va muammolarini tushunadi, bu esa samarali muloqot va jamoa ichidagi ijobiy munosabatlarni rivojlantiradi. Insonparvarlik ham rahbarning o'z xodimlariga hurmat va g'amxo'rlik bilan yondashishini ta'minlaydi.

**5. Etik qarorlar qabul qilish.** Rahbarlar qarorlar qabul qilishda etik me'yorlarga amal qilishlari kerak. Etik qarorlar, nafaqat tashkilotning qisqa muddatli maqsadlarini, balki uning uzoq muddatli barqarorligini ham ko'zda tutadi. Bu qarorlar, jamoa a'zolarining manfaatlarini, ijtimoiy adolatni va umumiy yaxshilikni hisobga olishni talab qiladi. Etik qarorlar qabul qilish, rahbarning ijtimoiy mas'uliyatini va umumiy yaxshilikka bo'lgan sodiqligini aks ettiradi.

**6. Rahbarlik axloqining tashkilotdagi samaradorlikka ta'siri.** Rahbarlik psixologiyasida axloq, tashkilotning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Etik rahbar, jamoasining ish faoliyatiga ko'proq ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularning motivatsiyasini oshiradi. Adolatli, mas'uliyatli va ishonchli rahbarlar jamoada ijobiy ish muhitini yaratadilar, bu esa samaradorlikni oshiradi. Jamoa a'zolari rahbarga ishonib ishlashadi va bu, o'z navbatida, tashkilotning umumiy maqsadlariga erishish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, rahbarlikda axloqning yuqori darajada bo'lishi, tashkilotning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi. Etik rahbarlar, faqatgina biznes maqsadlariga erishish bilan cheklanmay, balki o'z jamiyatining rivojlanishiga ham hissa qo'shishadi. Bu nafaqat jamoa a'zolarining ruhiyatini yaxshilaydi, balki tashkilotning tashqi obro'sini ham mustahkamlaydi.

Rahbarlik psixologiyasida axloq, rahbarlarning o'z jamoasiga qanday ta'sir ko'rsatishini va ularning qarorlar qabul qilishda qanday etik prinsiplarni asos qilib olishlarini anglatadi. Adolat, haqqoniylik, mas'uliyat, ishonch, empatiya va etik qarorlar qabul qilish – bu barcha tamoyillar rahbarning muvaffaqiyatli faoliyati uchun zarurdir. Axloqiy prinsiplarga qat'iy rioya qiladigan rahbarlar jamoasining samaradorligini oshiradi, tashkilotda ijobiy ish muhitini yaratadi va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish uchun zarur sharoitlarni ta'minlaydi. Shuning uchun, rahbarlik psixologiyasida axloq har bir rahbarning asosiy prinsiplaridan biri bo'lishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Xafizov S., Shirinov M.K. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: "Fan va texnologiya", 2018.
2. Kurbanov Ш., Сейтхалилов Э. Таълим сифатини бошқариш. – Т.: «Турон-Иқбол», 2006.
3. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т. Таълим менежменти. – Т.: "Voris-nashriyot", 2006.
4. Йўлдошев М., Назарзода Н. Раҳбарлик психологиясида ахлоқ. – Т.: "Шарқ", 2010.
5. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A., Umaraliyeva M.A., Tojiboyeva H.M. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. – Т.: 2012.
6. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т., Ахмедова Н.К. Таълим бошқаруви. – Т.: 2013.

## BOSHQARUV TIZIMIDA PEDAGOGIK KOLLABORATIV YONDASHUVNING SHAKLLANISHI

### Annotatsiya.

Yangi pedagogik yondashuvlar, texnologiyalar va axborot resurslarining rivojlanishi ta'limning sifati va samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan yangicha boshqaruv mexanizmlarini talab qilmoqda. Xuddi shunday boshqaruv mexanizmlaridan biri kollaborativ yondashuv mazkur maqolada yoritilgan. Bunda ta'lim sifatini boshqarishda pedagogik kollaborativ yondashuvning shakllanishi va uning tizimga ta'siri, ta'limda samarali o'zgarishlarni keltirib chiqarish va hozirgi zamonning ehtiyojlariga moslashish uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi xususida fikr bildirilgan.

### А н н о т а ц и я .

Развитие новых педагогических подходов, технологий и информационных ресурсов требует новых механизмов управления для повышения качества и эффективности образования. В данной статье обсуждается один из таких механизмов управления – совместный подход. Считается, что формирование педагогического коллективного подхода к управлению качеством образования и его влияние на систему имеют важное значение для осуществления эффективных изменений в образовании и адаптации к потребностям сегодняшнего дня.

### Annotation.

The development of new pedagogical approaches, technologies and information resources requires new management mechanisms to improve the quality and efficiency of education. This article discusses one of such management mechanisms - a collaborative approach. It is believed that the formation of a pedagogical collective approach to the management of the quality of education and its influence on the system are important for the implementation of effective changes in education and adaptation to the needs of today.

### Kalits o'zlar:

yangi pedagogik yondashuvlar, texnologiyalar, axborot resurslari, sifati va samaradorlik, yangicha boshqaruv mexanizmlari, kollaborativ yondashuv, ta'limda samarali o'zgarishlar, ehtiyojlariga moslashish.

### Ключевые слова:

новые педагогические подходы, технологии, информационные ресурсы, качество и эффективность, новые механизмы управления, коллаборативный подход, эффективные изменения в образовании, адаптация к потребностям.

### Key words:

new pedagogical approaches, technologies, information resources, quality and efficiency, new management mechanisms, collaborative approach, effective changes in education, adaptation to needs.

## KIRISH

Ta'lim sohasida global miqyosda katta o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, ilg'or xorijiy tajribalar asosida ta'limga zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda. Yangi pedagogik yondashuvlar, texnologiyalar va axborot resurslarining rivojlanishi ta'limning sifati va samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan yangicha boshqaruv mexanizmlarini talab qilmoqda.

Ta'lim sifati – bu ta'limning (natija, jarayon, ijtimoiy tizim sifatida) turli ehtiyojlar, davlat, jamiyat, shaxs manfaatlariga muvofiqligi; ta'limning ierarxiya (yuqoridan quyiga) tamoyillari asosida tashkillashtirilgan, ijtimoiy ahamiyatga ega xususiyat (tavsif, parametr)larining tizimli majmuasi. Demak, ta'lim sifati – bu o'quvchi shaxsini har tomonlama

rivojlantirishga doir ehtiyojlarni qondirishni ta'minlovchi ta'lim xizmatlari iste'mollilik xususiyatlarining majmuasi. Ta'lim sifati muammolarini muhokama qilishda uning baholanishi, nazorati, monitoringi, sifatning ta'minlanishi va boshqalar haqida so'z yuritiladi. Binobarin, har bir mamlakatning ta'lim tizimi undagi ijtimoiy-madaniy muhit va ishlab chiqarish-texnologik bazasi bilan ko'plab murakkab funktsional munosabat va aloqalar bilan bog'langan. Shunday qilib, mamlakatimizda ta'lim sifati oshirish yuzasidan amalga oshirilayotgan izlanishlar ta'lim boshqaruvi natijaviyligi va samarasini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiyotning innovatsion yo'nalishda shakllantirilishi, jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi ta'lim tizimi oldiga dolzarb masalalaridan biri bo'lgan sifatli mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo'yadi. Sifatli mutaxassisni tayyorlash esa faqatgina sifatli ta'lim muhitida amalga oshirilishi mumkin.

Ta'lim sifati boshqarish (ta'lim sifati menejmenti) ta'limni boshqarishning umumiy tuzilmasi tarkibiga kiradi. Bunda ta'lim sifati menejmenti rahbarning yakkaboshchiligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan va amalda o'z samaradorligini ko'rsatgan boshqarishning chiziqli tuzilmasini inkor etmaydi. O'z o'rnida, sifat menejmentining joriy etilishi umumiy boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi – ta'lim muassasasi rahbari, xodimlari va manfaatdor jamoat tashkilotlari vakillari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Vazifalarning bajarilish ketma-ketligi, vazifalarning o'zi, bajarish yo'llari, alohida usul va xarakatlarning batafsil tartibi, ta'lim sifati ta'minlovchi asos sifatida, qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samarali ijrosini kafolatlaydi. Demak, ta'lim sifati boshqarish ta'lim tizimidagi boshqaruv faoliyatining mavjud nazariyasi va amaliyotini muhim elementlar bilan to'ldiradi, ya'ni u ta'limni boshqarish yaxlit tizimining tarkibiy qismi sifatida amalga oshiriladi.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida mahsulot, xizmat, ish va jarayonlarning yuqori sifati ta'minlashga yo'naltirilgan hukumat, firma va kompaniyalar rahbariyatining sa'y-harakatlari natijasida sifati oshirish milliy g'oyaga aylandi.

Bugungi kunga asosiy nazorat tushunchalar sifatida quyidagi sakkizta tamoyil tan olingan:

- ✓ tashkilotning iste'molchiga yuz tutganligi;
- ✓ rahbarlikning roli;
- ✓ xodimlarni jalb etish;
- ✓ jarayonli yondashuv;
- ✓ boshqarishga tizimli yondashuv;
- ✓ kollaborativ yondashuv;
- ✓ muntazam takomillashtirish;

- ✓ dalillarga asoslangan qarorlarni qabul qilish;
- ✓ ta'minlovchilar bilan o'zaro manfaatli munosabat.

Yangi O'zbekiston ta'lim-tarbiya jarayonidagi islohotlarga nazar tashlasak, 4K modeli, kollaboratsiya, kritika, kommunikatsiya, kreativlik kabi innovatsiyalar haqida fikr bildirilmoqda. Rus pedagogi A.P.Balishev maqolasida kollaboratsiya terminini tahlil qilib shunday fikrlarni keltiradi: Kollaborativ o'qitish termini axborot resurslari, shu jumladan xorijiy ilmiy ma'lumotlar bazalarida 2018-yil 378 marta, 2019-yil 424 marta, 2020-yil 551 marta qo'llanilgan. Ayniqsa, "Hamkorlikda o'rganish" so'rovi uchun Science Direct platformasi 2019-yil 11596 ta, 2022-yilda esa 19303 ta qidiruv natijalarini ko'rsatadi [1]. Demak, pedagogika sohasida aynan kollaboratsiya termini ostida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ammo, shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarni ko'rib chiqish ta'lim sohasidagi kollaboratsiya termini tadqiqotchilar o'rtasidagi fikrlarni turlicha ekanligini aniqlashga imkon berdi.

*Kollaboratsiya* (frans. collaboration - hamkorlik) – umumiy manfaatga birga erishish uchun ikki yoki undan ko'proq kishining sherikchiligi. Ba'zi manbalarda esa, *kollaboratsiya* - ikki yoki undan ortiq shaxs yoki guruhning har qanday sohadagi umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikdagi faoliyat jarayoni hisoblanib, unda bilim almashish, o'qitish va kelishuvga erishish (konsensus) mavjudligi. *Kollaboratsiya* - muammo ustida birgalikda faoliyat yuritadigan olimlar va tadqiqotchilar jamoasi bilan ta'riflandi. Bir qator tadqiqotchilar esa, "hamkorlikda o'qitish", "hamkorlikdagi faoliyat", "birgalikda bajariladigan faoliyat", guruhning tashkil etish shakli "o'zaro hamkorlik", "ta'lim sohasidagi hamkorlik" tushunchalarini birlashtirish uchun foydalanadilar [2].

G.P.Sinisinaning ta'kidlashicha, kollaboratsiya hamkorlikda o'rganish bo'yicha ta'lim strategiyasining tarkibiy qismlaridan biridir [3]. N.V.Paveleyeva kollaborativ ta'limni keng ma'noda tushunish zarur deb hisoblaydi va ta'lim jarayonida ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro yaqin munosabatlarga asoslangan pedagogik yondashuv sifatida e'tibor qaratadi [4]. A.V.Kulikov terminning qo'llanish diapozonini yanada kengaytiradi, kollaboratsiya ta'limning falsafiy konsepsiyasi bo'lib, ta'lim va kasbiy-akademik o'zaro munosabatlarning hamkorlikdagi faoliyati deb tushunadi [5].

Taqdim etilgan tadqiqotlarga fanlararo yondashuvga asoslangan "kollaboratsiya" pedagogik hodisasi sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuvning mohiyati turli sohalarda tadqiqot obyekti (yoki uning alohida tarkibiy qismlari) pedagogik voqelik hodisalarini batafsil tavsiflash maqsadida yetarli bo'lgan har tomonlama bilimlarni kompleks o'rganishdan iborat.

"Bugungi kunda kollaboratsiya - bu hamkorlikning bir turi bo'lib,

odamlar yoki tashkilotlar o'rtasidagi nisbatan qisqa muddatli o'zaro ta'sirni bildirib, tajriba, bilim va boshqalarni almashishni nazarda tutuvchi jarayon [6]". Yuqoridagi ta'rif va fikrlardan kelib chiqib, kollaboratsiya insonlar va tashkilotlar o'rtasida o'zaro faoliyat shakli sifatida talqin qilish mumkin. Mazkur tushunchani nafaqat, bir fan nuqtai nazardan, balki keng ma'noda bir necha fanlar doirasida ko'rish mumkin.

Mavzumiz ta'lim tizimlarining samaradorligini oshirishda kollaborativ boshqaruv mexanizmlarining rolini tahlil etishni va ularni takomillashtirishni o'rganishni taqozo etadi. Boshqaruvning bu turi ta'limda samarali o'zgarishlarni keltirib chiqarish va hozirgi zamonning ehtiyojlariga moslashish uchun muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ta'lim tizimlarining samarali boshqarilishi nafaqat o'qitish sifatiga, balki jamiyatning umumiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Yaxshi boshqarilgan ta'lim tizimi, malakali mutaxassislarni tayyorlash, mehnat bozori ehtiyojlariga javob berish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Ta'lim tizimining samaradorligini oshirish uchun boshqaruv metodlarini yangi, hamkorlikka asoslangan tarzda rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu mavzu, ta'lim sohasida boshqaruvni yanada samarali qilish, ishtirokchilar (o'qituvchilar, o'quvchilar, boshqaruvchilar) o'rtasida yaxshiroq o'zaro munosabatlarni o'rnatish hamda ta'limning sifatini oshirishga qaratilgan bir nechta yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, kollaborativ yondashuv, turli mutaxassislar va manfaatdor tomonlar o'rtasida hamkorlikni ta'minlashga imkon beradi va bu, o'z navbatida, ta'lim tizimini samarali boshqarishga yordam beradi.

Ta'lim tizimlarining samaradorligi hozirda bir necha omillarga bog'liq, jumladan: *ta'lim sifatini yaxshilash, o'quvchilarni o'qishga motivatsiya qilish, o'qituvchilarni malakasini oshirish, boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish va resurslarni samarali taqsimlash*. Bu masalalarni hal qilishda kollaborativ boshqaruv mexanizmlari ta'limning har bir bo'g'inida o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Demak, kollaborativ boshqaruv mexanizmi o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar, davlat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga asoslanadi. Boshqaruvning bu turi, ma'lumotlar almashinuvi va qarorlar qabul qilish jarayonlarida yanada ko'proq ishtirokni ta'minlaydi. Bu yondashuv nafaqat ta'lim jarayonini yaxshilash, balki ijtimoiy adolatni ham ta'minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бальшев А.П. Коллаборативное обучение: к сущности понятия // Мир науки. Педагогика и психология World of Science. Pedagogy and psychology. 2023, Том 11, № 1. ISSN 2658-6282.
2. Незнанов А.А. и др. Коллаборативные технологии в образовании: как выстроить

эффективную поддержку гибридного обучения? / А.А. Незнанов // Университетское управление: практика и анализ. — 2019. — Т. 23. — № 1-2. — С. 101-110.

3. Сеницына Г.П. Стратегия обучения в партнёрстве: коллаборативное обучение / Г.П. Сеницына // Наука о человеке: гуманитарные исследования. — 2019. — № 2(36). — С. 78-82.

4. Павельева Н.В. Коллаборативное обучение как модель эффективной реализации образовательного процесса / Н.В. Павельева // Образование. Карьера. Общество. — 2010. — № 3(29). — С. 30-37.

5. Куликов А.В. Системы дистанционного коллаборативного обучения и некоторые аспекты технологии их разработки / А.В. Куликов // Сборники конференций НИЦ Социосфера. — Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro, 2012. — № 8. — С. 105-107.

6. Василенко Н.В. Институциональные особенности коллаборации в организационных структурах инновационной экономики / Н.В. Василенко // π-Economy. — 2016. — № 4(246). — С. 23.

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

### Annotatsiya.

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

### А н н о т а ц и я .

В данной статье рассматриваются особенности управления общеобразовательными учреждениями на основе инновационного подхода.

### Annotation.

This article examines the features of managing general education institutions based on an innovative approach.

### Kalits o'zlar:

innovatsiya, texnologiya,  
boshqaruv, yondashuv, strategiya,  
raqamlashtirish.

### Ключевые слова:

инновации, технологии,  
менеджмент, подход, стратегия,  
цифровизация.

### Key words:

innovations, technologies,  
management, approach, strategy,  
digitalization.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi jadal ravishda o'zgarib borayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik sharoitlarga moslashish zaruratini tug'dirmoqda. Ta'lim muassasalari uchun yangi yondashuvlarni joriy etish, o'quvchilarni global miqyosda raqobatbardosh bilimlar bilan ta'minlash, pedagogik jarayonni sifatli boshqarish talab etiladi. Innovatsion boshqaruv – bu ta'lim tizimidagi an'anaviy usullarni yangilash va zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish orqali ta'lim muassasalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvdir. "Boshqaruv faoliyati asosan innovatsion jarayonlar asosida rivojlanadi" [1]. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarish, o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish, va ta'lim jarayonini raqamlashtirishni o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada innovatsion boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim tizimini yaxshilashdagi roli va uning ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi.

"Ta'lim muassasasini innovatsion boshqarish bu mahsulot ishlab chiqarish yoki maishiy hizmat ko'rsatishdan tubdan farq qiladigan ta'lim tizimi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lgan, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlar jarayonidir" [2].

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarish, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, zamon talablariga moslashish va o'quvchilarga yuqori sifatli ta'lim berish maqsadida yangi texnologiyalar va strategiyalarni joriy etishni talab qiladi. Innovatsion

boshqaruv o'zining bir qator imkoniyatlarni beradi va o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Innovatsion boshqaruv ta'lim tizimidagi yangiliklar va o'zgarishlarni to'liq tushunishga imkon beradi. "Innovatsion ta'lim strategiyasi ta'lim sifatini boshqarishda alohida boshqaruvchanlik yondashuvini talab etadi" [3]. Innovatsion yondashuvning bir nechta xususiyatlari mavjud. Ulardan biri ta'lim jarayonining raqamlashtirilishidir. Innovatsion yondashuvning asosiy xususiyatlaridan biri ta'lim jarayonini raqamlashtirishdir. Bugungi kunda elektron ta'lim tizimlari, onlayn platformalar, interaktiv ta'lim dasturlari va raqamli resurslar ta'limni yanada samarali va qulay qilish imkonini yaratmoqda. Boshqaruvning raqamli vositalardan foydalanishi orqali ta'lim jarayonini yanada shaffof va oson boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va kuzatish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini o'lchash va unga tegishli o'zgarishlarni kiritish mumkin.

1. *O'qituvchilarni malakasini oshirish va professional rivojlanish.* Innovatsion boshqaruvda o'qituvchilarning malakasini doimiy ravishda oshirish muhim o'rin tutadi. Yangi pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalarni o'rganish orqali o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatlarini samarali tashkil etishlari mumkin. O'qituvchilarga yangi metodlarni o'rgatish, ular uchun turli xil malaka oshirish kurslarini tashkil etish va ularning ijodiy yondashuvlarini rivojlantirish, ta'lim muassasasining sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

2. *Ta'lim dasturlarini yangilash.* Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimi doimo o'zgarishlarni talab qiladi. Innovatsion boshqaruv ta'lim dasturlarini yangilash va ularga zamonaviy yondashuvlarni kiritishni nazarda tutadi.

3. *Jamoaviy ish muhitining rivoji.* Innovatsion boshqaruvda jamoaviy ish muhitini yaratish ham muhim o'rin tutadi. O'qituvchilar, boshqaruvchilar, ota-onalar va ta'lim muassasasining barcha xodimlari birgalikda ishlashlari kerak. Hamkorlik asosida amalga oshirilgan ishlanmalar ta'lim tizimining yaxshilanishiga olib keladi. Innovatsion boshqaruvda jamoaviy fikr almashish, muammolarni birgalikda hal etish va yangi g'oyalarni ishlab chiqish ta'lim muassasalarining samaradorligini oshiradi.

4. *Innovatsion texnologiyalardan foydalanish.* Innovatsion boshqaruvda ta'lim texnologiyalarining integratsiyasi muhim o'rin tutadi. Elektron ta'lim, masofaviy boshqaruv, raqamli platformalar va boshqa zamonaviy texnologiyalar boshqaruv tizimini osonlashtiradi.

"Ta'lim tizimini boshqarish va unga rahbarlik qilish sohasida jahonning rivojlangan davlatlarida to'plangan tajribalarni o'rganish va ularni mamlakatimiz ta'lim tizimiga tadbiiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish" [4] hozirgi kunda dolzab hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni takidlash lozimki, umumiy o'rta ta'lim

muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarish va boshqaruv sifatini oshirish, ta'lim jarayonini raqamlashtirish va yangilash kabi yondashuvni taqdim etishda bir qator ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishga imkon beradi. Innovatsion boshqaruv ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga, ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini kuchaytirishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, ta'lim sohasidagi umumiy rivojlanishni ta'minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

---

1. Jo'rayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. Qo'llanma. – Toshkent: 2006. 112-bet
2. Po'latov Sh. Ta'limda menenjmenti yoxud ta'lim tashkilotini ilmiy-metodik boshqarishga innovatsion yondashuv. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2022. 14-bet.
3. Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. – T.: 2006. 129-bet.
4. Safarova R., Musayeva U., Musayev P., Yusupova F., Nurjanova R. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. – Toshkent: 2005. 9-bet.

## MUNDARIJA

### 1-SHO'BA. TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISH METODIKASINING DOLZARB MUAMMOLARI.

Федосенко Е.В. Трансверсальные компетенции преподавателя русского языка как иностранного: ключ к эффективности в XXI веке .....	6
Djumayev M. Milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etish – ta'limda sifat va samaradorlik garovi .....	12
Azizova Q.M. Pedagoglarning mahoratini shakllantirish jarayonida sun'iy intellektning ijobiy va salbiy jihatlarini .....	19
Ismatillayeva L.I. O'quvchilarni intellektual salohiyatini oshirishda darsliklarning ahamiyati va hayot bilan bog'liqligi .....	23
Khidirova M. Developing students' media literacy in the english classroom .....	28
Butayev A.R., Rasulova G.E. "Musiqqa" fanini o'qitishda STEM yondashuvi .....	32
Abdunazarova O.T. O'zga tilli o'quvchilarga o'zbek tilida nutqiy muloqot madaniyatini o'rgatishga doir asosiy yondashuv va tamoyillar .....	40
Islomov I.U. Inklyuziv sinflarda ko'zi ojiz o'quvchilarga geometriya fanini o'rgatish jarayonida origamidani foydalanish .....	46

Alkarov Sh.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy o'quv jarayonini tashkil etish yo'llari .....	50
G'aznayeveva D. Shoira Uvaysiy ijodini o'rganishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish .....	53
Yarqinboyeva M.F. Ta'lim sifatini oshirishda ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiya va kreativ yondashuv .....	57
Davletova H.X. Fizika fanini o'qitishda 3C+1E modelini tatbiq etish usullari (10-11-sinflar misolida) .....	61
Исламова У.У. Метод «Перевернутый класс» .....	64
Ильясова Ф.Ф. Современные методики в обучении футболистов .....	67
Akbarova S.R. Biologiya faniga oid loyihalarni tuzish va baholash .....	74
Baymuratova M.X. "Nima uchun?", "qanday?" Va "nima?" Savollariga asoslangan ta'limni tashkil etish .....	78

### 2-SHO'BA. FANLARNI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING O'QUV TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.

Urinbayeva D.B. Ona tili va adabiyot darslarida o'quv tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish usullari .....	82
Sodiqova B. Chet tili darslarini tashkil etishda o'quv tadqiqotlarining ahamiyati .....	87
Raximova G.T. Filologiya fanlarini o'qitishda o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish .....	91
Abduraimov F.Sh. Tarix va tarbiya fanlarini o'qitishda tadqiqotchilik va loyihaga asoslangan ta'limning samaradorligi .....	94

Bakirova I.Y., Abdimuratova S.B., Miryusupova X.D. 5-sinf o'zbek tili darsida "Kalligrafiya" mavzusini zamonaviy pedagogik texnologiyalarni asosida samarali tashkil etish .....	100
Razikova Z.A., Fozilova G.H., Jurayeva D.P. O'zbek tili darslarida loyiha ishlarini tashkil etish .....	112

### 3-SHO'BA. FANLARNI O'QITISH SAMARADORLIGINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PIRLS, TIMSS, PISA) ASOSIDA OSHIRISH.

Rabbonayeva D.T. O'quvchilarni PIRLS tadqiqotlariga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari .....	120
Murodova D.N. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda ona tili darsliklaridagi matnlarning o'rni .....	126
Urazova N.U. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish .....	129
Axunbabayeva Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish va yozishga o'rgatishda	

muhim vositalar .....	134
Ruziyeva K.Y. Xalqaro baholash natijalari asosida fan ta'limining sifatini oshirish strategiyalari .....	137
Toirova M.E. PIRLS tadqiqoti orqali boshlang'ich ta'limda o'qituvchining roli .....	143
Niyazova L.A. O'qish savodxonligi – o'quvchilardagi hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish vositasi .....	147
Dehqonboyev M.T. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini	

#### 4-SHO'BA. O'QUVCHILARDA FANGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH YO'LLARI.

Utemuratov B.K. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda o'yin metodlaridan foydalanish ..... 158

Якубжанова М.К. Особенности обучения учащихся с ограниченными возможностями здоровья на уроках русского языка ..... 165

Musurmonova Sh.R. Teaching writing problems: overcoming challenges and implementing effective solutions in the classroom ..... 169

Kabilov D.K., Sadikov X.M. Zamonaviy ta'lim paradigmasida o'qituvchi shaxsiyatini shakllantirishda mutaxassislik va liderlik orasida muvozanat ..... 174

Ortiqov A.X. Ijodkorlik sari yo'l: tasviriy san'at darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish..... 180

Kushakova R.R. Filologiya fanlarini o'qitishda 5E modeli ..... 187

Eraliyeva M.U. Ta'limni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishning ahamiyati..... 191

Баротова М.Ш. Суть информационной компетентности будущих учителей начальных классов ..... 198

Dushayeva N.Sh. Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida yoshlarni mehnatsevarlikka undovchi g'oyalar ..... 202

#### 5-SHO'BA. O'QUVCHILARDA XXI ASR KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAGA ASOSLANGAN TA'LIMNI TASHKIL ETISH.

Jumanazarov S.S. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarida "Tarbiya" fani o'qituvchilarini loyihalashga oid ijodiy qobiliyatlarini oshirish masalalari ..... 205

Mirxoliqova Ch.X. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektni shakllantirish ijtimoiy muvaffaqiyatlilikning omili sifatida..... 208

Mirzoxidova L.B. Turli qobiliyatli o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish ..... 213

Eshqobilov S.Q., Normatov S.A. O'quvchilarning raqamli savodxonlikka doir hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish usullari..... 219

Baynazarova D.D. Ilm-u fan yutuqlari – insonlar turmush tarzini yaxshilashning yagona yo'li ..... 225

Kistabayeva G.D. Maktab ta'limini hayotga moslashtirish mexanizmi ..... 229

Rashidova S.Z. STEAM yondashuvi asosida o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish ..... 235

Sodiqova U.B. Kimyo fanidan o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda loyihaga asoslangan ta'limning o'rni ..... 239

Ikromova Sh.Z. O'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishda 4Kni tatbiq qilish..... 244

#### 6-SHO'BA. TA'LIM MENEJMENTIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.

Rajabov Sh.U. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishda rahbarning roli .... 248

Raxmonov Z.Y. Ta'lim muassasalarida akademik faoliyatni rivoshlantirish ..... 252

Itolmazova G.Q. Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshqarishda kasbiy rivojlanish jarayonlari va mazmuni sifatida ..... 256

Bexudova M.O. Ta'lim muassasalariga budjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish..... 261

Uzakbayeva R.X. Rahbarlik psixologiyasida odob-axloq ..... 265

Ishanova B.B. Boshqaruv tizimida pedagogik kollaborativ yondashuvning shakllanishi ..... 270

Mannanova N.X. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari..... 275